



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

# PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

FANI BO`YICHA

## O`QUV USLUBIY MAJMUA

ANDIJON-2019

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Andijon davlat universitetining 2019 – yil “25”avgustdagи “\_\_” -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Psixologiya nazariyasi va tarixi” fani dasturi asosida tayorlangan.

Fan dasturi Andijon davlat universiteti Kengashining 2019 – yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: Yo.Yusupova – ADU.Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

N.Yuldasheva – ADU.Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar: M.Xalimova - ADU. Psixologiya kafedrasi mudiri, dotsent.

**ADU, Ijtimoiy-iqtisodiyot fakul'teti dekani: \_\_\_\_t.f.n.,dots.O'Ubaydullaev**

2019 yil “\_\_” \_\_\_\_\_

**Psixologiya Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_P.f.n dots. M.Xalimova.**

2019 yil “\_\_” \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

1	O'quv materiallari:	
	1.1. Ma'ruzalar matni.	
	1.2. Seminar mashg'ulotlar ishlanmasi	
2	Mustaqil Ta'lim materiallari	
3	Glossariy	
4	Ilovalar: - Fan dasturi - Ishchi o'quv dasturi. - Testlar. - Baxolash mezonlari - Qo'shimcha materiallar	
	UUMning electron varianti CD/DVD	

# O‘QUV MATERIALLARI

## 1-Mavzu: Psixologiya tarixi faniga kirish.

### REJA.

1. Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari.
2. Psixologiyani rivojlanish borsqichlari.
3. Psixologiyani rivojlanishining asosiy omillari va tamoyillari.

1. Inson mavjud ekan u o`zining hayotiy tajribasiga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o`ziga - o`zi hisob beradi. Inson olamni qabul qilibgina qolmay, unda harakat qiladi, o`z faolligini namoyon etadi, qaror qabul qiladi, maqsadga intiladi, qiyinchiliklarga duch kelganida qat’iyatlilik va irodaviy sifatlarni namoyon qiladi.

Inson biror bir jihatni bilan boshqalardan farq qiladi: kimdir texnikaga qiziqadi, boshqa birov musiqaga, yana kimdir sportga, kimdir qobiliyatlar, boshqada she’r yozish, uchinchisida texnik qobiliyatlar mavjud, kimdir harakatchan, boshqa birov bosiq, befarq, uchnchisi – dilkash, chaqqon, birov mehnatsevar va kansuqum va xokozo.

Bularning hammasi – sezgir, idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg`u, iroda, temperament va xarakterlar – inson psixikasining hodisalaridir.

Psixik hodisalarni o`rganuvchi fan – psixologiya deb ataladi. Psixologiya (yunoncha, psyche – ruh, logos – bilim, ilm, fan) insonning ob’ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, his-tuyg`u va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonlari va qonuniyatlarini o`rganadigan fandir. Psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarning o`ziga xos tomonlaridir. Psixologiya konkret fan sifatida asixik faoliyat qonuniyatlarini, uning ro`y berishi mexanizmlari va omillarini o`rganuvchi fandir.

*Psixologiya fanining asosiy vazifasi* - psixik hodisalarni o`rganish va ilmiy asoslashdir. Axir barcha narsalar kabi psixik hodisalar ham ma’lum qonuniyatlarga bo`ysunadi. Psixologiya shu qonuniyatlarni ochishga, ularning tarkib topishi va rivojlanishini ochishga qaratilgandir. Ushbu qonuniyatlarni bilish, ularni boshqarish, tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini to`g`ri olib borishga yordam beradi.

Ilmiy psixologiyaning predmeti deyilganda avvalo psixik hayotning konkret faktlari nazarda tutiladi. Psixik xarakterga doir har bir fakt esa ham miqdor ham sifat jihatidan xarakterli xususiyatga ega. Ilmiy jihatdan bilish hodisalarni tasvirlashdan ularni tushuntirib berishga o`tishni muqarrar talab qiladi. Bu esa o`z o`rnida qonunlar mohiyatini ochib berishni talab etadi. Demak, psixologik faktlar bilan birgalikda psixologik qonunlar psixologiya fanining o`rganiladigan predmeti bo`lib yo`zaga chiqadi, shuningdek psixik holatning mexanizmlarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu muammolar fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika bilan birga ochib beriladi.

Psixologiya juda qadimiy va shu bilan birga navqiron fandir. Psixik hodisalarning ilk talqini qadimi yunon olimi Aristotel’ning «Jon haqida» nomli asarida berilgan.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo`lib, ruh va jon tananing ajralmas bo`lagi ekanligini ilgari surdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlar tufayli va xususiy faolligi orqali ro`yobga chiqadigan xarakterning real faoliyatda shakllanishi haqidagi nazariyani yaratdi. Demak, kishiningadolatparvar va ko`ngilchan bo`lishi uningadolatli va me`yordagi harakatlarni tez-tez takrorlayverishi natijasida ro`y beradi.

Psixologiyani fan sifatida yo`zaga kelishi bosqichlarini quyidagi sxemada aks ettirish mumkin.

### SXEMA-1

IV bosqich	Psixologiya psixikaning mexanizmlari, faktlari va qonuniyatları haqidagi fan sifatida	Ilmiy psixologiyaning zamonaviy bosqichi
III Bosqich	Psixologiya- inson xulq atvorini o`rganuvchi fan sifatida	XX asrda paydo bo`lgan. Psixologiyaning maqsadi- insonning konkret xulq atvorini, inson munosabatlari va reaktsiyalarini ko`zatish olindi. Xulq atvorga sabab bo`luvchi motivlar hisobga olinmadi.
II- bosqich	Psixologiya - ong haqidagi fan sifatida.	XVII asrda tabiiy fanlar paydo bo`lishi bilan yo`zaga keldi. Fikrlash, istash- ong deb olindi. Asosiy metod sifatida insonni o`zini - o`zi ko`zatishi olindi.
I- bosqich	Psixologiya ruh haqidagi fan sifatida	Psixologiyaga bunday ta`rif 2300 yil ilgari berilgan ruh deb inson hayotidagi barcha tushunib bo`lmaydigan narsalar qabul qilingan.

2. Psixologiya haqidagi fikrlar bundan 2,5 ming yillar ilgari paydo bo`la boshladı, ya`ni eramizdan avvalgi U1 asrga to`g`ri keladi. Buyuk nemis psixoligi German Ebbingao`zaning ta`kidlashicha psixologiya o`zining o`zoq o`tmishiga lekin juda qisqa tarixiga ega. Eramizdan avvalgi V1 asrdan boshlab to XIX asrning II yarmigacha filosofiyaning bir bo`lagi hisoblanadi. Psixologiya fanining rivojlanishi asosan P davrga bo`linadi. 1 davrning o`zi 3 ta bosqichdan iborat.

1-bosqich eramizdan avvalgi V1 asrdan X asrgachayu Bu bosqichda psixologiya haqida dastlabki fikrlar paydo bo`la boshladı. Psixologiya ko`pgina qadimgi filosofik olimlarning fikrini o`ziga jalb qildi va falsafaning ajralmas bir qismiga aylanib bordi. Antik falsafada idealistik oqimning eng yirik namoyondachilari Sokrat va uning shogirdi Ploton hisoblanadi. Ularning asosiy fikrlari idealistik nuqtai nazardan shu bilan asoslanadiki «jon, ruh va tana alohida-alohida substantsiya hisoblanadi. Tana tirik yoki o`lik holatdan materiyadir. Agar tanaga jon yoki ruh qo`shiladigan bo`lsa u tirik materiyaga aylanadi va ruh paydo bo`ladi. Agar tanani jon yoki ruh tark etadigan bo`lsa tana substansiya sifatida mavjud bo`ladi va ruh yo`qoladi. Jon yoki ruh tanadan ikkinchi bir tanaga o`tishi mumkin. U ilohiy kuchga bo`ysungan bo`lib, u tanadan bu tanaga o`tishi faqat ollohgagina bog`liqdir deb hisoblaydi». Ularning bu g`oyalari Ploton tomonidan yozib qoldirilgan diologlarida o`z ifodasini topadi.

Birlamchi materializm oqimining asosiy vakili Demokrit hisoblanadi. Demokrit jon va ruh haqidagi fikrlarni quyidagicha ifodalaydi. Tana va ruh ma'lum jismlardan tashkil topgan bo`ladi. Ruhning asosini molekulalar tashkil qilib, bu molekulalar atomlaridan iborat bo`ladi. Agar atomlarning ajralib ketishi vujudga kelsa, tanani ruh tark etadi yoki ruhning asosini atomlar tashkil etadi, degan g`oyani ilgari suradi.

Antik falsafaning birlamchi materializm g`oyalarni targ`ib qilgan faylasuflardan biri Milet matabining vakillaridir. Uning asoschisi qadimgi grek faylasufi Fales hisoblanadi. Fales jon va ruh haqida va uning asoslari haqida quyidagi fikrlarni ilgari surdi. Uning fikricha «Jon ruhning asosini alohida hossaga ega bo`lgan materiya hosil qiladi, ya`ni jonning asosini suv tashkil qiladi» degan fikrni ilgari suradi.

Uning shogirdlari Anaksimen va Aniksagorlar ruhning ma'lum moddiy asosini materiyadan izlab, Anaksimen ruhning asosini (havo) tashkil qiladi desa, Aniksagor esa olov tashkil qiladi degan. Antik falsafaning eng yirik namoyondasi, psixologiya haqidagi ilmiy mulohazalarini keltirgan faylasuf Aristotel' hisoblanadi. Shuning uchun hamki, u «psixologiya fanining otasi» degan nomni oлган. U «Jon haqidagi ta`limoti» haqidagi asari bilan psixologiyaga asos soldi. Uning bu asari XUP – XUSh asrga qadar ko`pgina ilmiy dargohlarda psixologiya bo`yicha o`quv qo`llanmasi sifatida qo`llanib kelingan.

Materianing jonliligi haqidagi g`oyani rivojlantirgan atomizm (yunoncha – atomos – bo`linmas) namoyondalari Demokrit eramizdan avvalgi V– 1V asrlar, Epikur 1V-III asrlar, Lukretsiy 1 asr) bir qancha fikrlarni ilgari surdilar:

- A) ruh tanaga jon bag`ishlovchi moddiy jismlar;
- B) moddiy asos sifatidagi aql;
- V) hayotni boshqaruvchi idrok vazifasini bajaruvchi a`zo;
- G) ruh bilan aql tana a`zolari, ularning o`zi ham tanadir;
- D) ular sharsimon, kichik harakatchan atomlardan iboratdir;

Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arasto'larning ta'limotlari keyingi asrda psixologik g`oyalarning rivojlanishida tayanch nuqta, asos bo`lib xizmat qildi. Asta - sekin ruh haqida tushuncha hayotning barcha ko`rinishlariga nisbatan qo`llanilavermasdan faqat hozir psixika deb atayotgan darajaga nisbatan qo`llanila boshlandi. Psixika kategoriyasining zamirida ong haqidagi tushuncha maydonga keldi. Kishi faqat idrok va tafakkurga ega bo`lib qolmasdan balki ularning unga mansubligini e'tirof etishga ixtiyoriy harakatlar qilib qolmasdan balki bu harakatlarning uning o`zi qilayotganini bilishga ham qodirdir.

Eramizdan oldingi 2 - asrda rimlik vrach Galen fiziologiya va tibbiyotning yutuqlarini umumlashtirib psixikaning fiziologik negizi haqidagi tasavvurlarni boyitdi va ong tushunchasiga yaqinlashib keldi.

17-asr biologik va psixologik bilimlar tarqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Inson tanasi mashinaga o`xshatiladi, texnika qurulmalarining to`zilishi qanday printsiplarga asoslangan bo`lsa, tana to`zilishi qanday printsiplarga asoslangan deb tasavvur etiladi. Binobarin tana ham mashina singari ruhning boshqarishiga muhtoj emas deb qaraladi. Fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq atvorni reflektor tabiatga egaligini kashf etilishi ana shu g`oya bilan o`zviy bog`langandir. Buyuk fransuz mutafakkiri yurakdagagi mushaklarni ishlashi qon aylanishining ichki mexanikasi bilan boshqarib turilgani kabi xulq atvorning hamma darajalaridagi boshqa mushaklarning ishlashi ham xuddi soat mexanizmidagi millarning aylanishiga o`xshasa kerak deb taxmin qilingan.

Refleks (lotincha reflexus – aks ettirish) haqida tushuncha organizmnning tashqi ta'sirga qonuniy javob reaksiyasi sifatida paydo bo`ldi. Dekart mushaklarning tashqi turkilarga ruhning hech qanday aralashuviz nerv sistemasining to`zilishi e'tibori bilan ham javob qaytarishga qodir ekanligini isbotlab berdi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko`lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya`ni yaqqol narsa deb tushuntirdi. U determinizm (lotincha – determinata – belgilayman) printsipining ya`ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarining ob`ektiv sabablari bilan belgilanishi haqidagi ta'limot targ`ibotchisi edi.

Nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716), ingлиз faylasufi Jon Lokk (1632-1704), ingлиз tadqiqotchisi Gartli (1705-1757), fransuz Didro (1713-1784) kabilar g`oyalar assotsiatsiyasi (bog`lanish) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo`lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim ta'limotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo`shdilar.

XUSH asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi, buning natijasida psixika miyaning funktsiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingлиз tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Frantsua Majandi tomonidan yozuvchi va harakat nervlari o`rtasidagi farq ochib berildi, uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha psixologiya fanidan paydo bo`ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi. Yuqoridaqilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasini ro`yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o`ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo`ldi.

Psixologiya fanining eksperimental, psixoanalistik, bixe viroistrik, emperik, geshtal't, assotsiativ, psixogenetik, gumanistik, biogenetik, sotsiogenotik kabi yo`nalishlari tomonidan to`plangan ma'lumotlar hozirgi zamonda psixologiyasini vujudga keltirdi va uning predmetini, tadqiqot printsiplarini aniqlab berdi.

Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo`lishida buyuk sharq mutafakkirlarning roli juda katta bo`lgan. Ular orasida Al Xorazmiy, Al Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn

Sino, Mirzo Ulug`bek, Jaloliddin Davoniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabilar o`zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlari va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metofizika, tabiiy fanlar (ayniqsa tibbiyot) haqidagi fikrlari o`sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo`shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug`ullangan, birinchi bor psixologiya fanida tajriba amalga oshirgan alloma hisoblanadi. Uning ruh haqida, asab tizimi, miyaning funksional to`zilishi haqidagi fikrlariga asab tizimining zamonaviy qarashlariga o`xshashdir. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament haqidagi ta`limoti, har bir kishiga uning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi fikrlari ming yildan so`ng ham, zamonaviy psixologiyada o`z aksini topgan. Abu Ali ibn Sinodan so`ng Markaziy Osiyoda psixologik muammolar bilan shug`ullangan biror bir olim uchramagan bo`lsada xalq og`zaki ijodiyotida, shoirlar she`riyatida psixologik qarashlarini ko`rish mumkin. Abadiy qahramonlar orqali aytilgan fikrlar ma`lum tasavvurlarni tashkil etib, ular ilmiy qarashlarning paydo bo`lishi va rivojlanishiga asos bo`lib xizmat qildi va shu bilan birga psixologiyaning fan sifatida tarkib topishiga asos bo`ldi.

Rumiy birinchi bo`lib olamning zarradan koinot qadar o`zaro bavosaligini bir-biri bilan tortilib turishi dialektik taraqqiyoti (oddiydan murakkab sari rivojlanishi hamma erda zaruriyat va qarama qarshiliklar birligining mavjudligi) haqida fikrlar bayon etilgan. Ruhning ichki intizomi fikrdan paydo bo`lishi va yo`qolishi tasavvur va tafakkur xayol va borliqning ongga ongning borliqqa ta`siri inson mavjudligini aniqlaydigan belgilari insondan aldanishi yolg`on tasavvurlar va chin bilim tajriba tahlil aniqlik va mavhumlik xaq sifati va odam sifati kabi yo`zlab masalalar yo`zasida bahs yuritilgan.

Tasavvur ahli inson ruhiyati erki inson ichki olami hislari parvozini ifodalab ma`naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy tafakkurning roli haqida:

Har ishki qilmish odamzod,  
Tafakkur birla bilmish odamzod.

Uyg`onish davri mutafakkirlari fikrlash quvvati qobiliyatini til nutq qobiliyati bilan birga olib tekshirdilar.

Forobi bilish masalasiga odamning mohiyatini tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaraydi. Uning fikricha odam tabiat rivojinining yakuni bo`lib o`z ruhiy sifatlari bilan hayvonot olamidan farq qiladi. Odam tabiatdan ajralib chiqqan alohida mavjudot tabiatga ob`ektga nisbatan sub`ekt deb qarash bilan bog`lanadi. Odam biluvchi sub`ekt tabiat esa bilish ob`ekti sifatida olib qaraladi.

Ob`ekt sub`ektga qadar mavjud bo`ladi "seziluvchi narsa sezgilarga qadar mavjud bo`lgani kabi bilinuvchi narsa ham bilishga qadar mavjuddir" (Forobiy Aristotel kategoriyalari sharhlar) 2-11b.

"Odam aqlga ega. Ana shu aql bilan ruh odamning tabiiy ibtidosi hisoblanadi". Ammo bu ibtidolar odamning tabiiy ibtidosi ta`siri ostida kamol topib insonga aylanishga kifoya kilmaydi, chunki inson inson bo`lib kamolatga erishuvi uchun so`zlash va kasb hunarga muhtojdir." (M.Xayrullaev, Forobiy va uning falsafiy risolalari. T.1963)

Abu Nosir Farobiy Aristotel' va Platonning ishlarini O`rta Osiyoda keng ommolashtirgan. Shuning uchun Farbda ikkinchi muallim degan nomni olgan. Farobiyning fikricha muhit va tarbiyaning ta`sirida inson shaxsining ahloqiy sifatlari shakllanadi. Ahloq tushunchasi inson xarakteri bilan chambarchas deb hisoblaydi. Uning fikricha inson shaxsining barkamol shakllanishi uchun to`rtta to`sinq bor: 1. hurmatsizlik; 2. ahloqsizlik; 3. o`zgaruvchanlik; 4. ikkilanish;

3. Inson o`zining kimligini anglashga intilishdan, o`z ruhiy dunyosini va o`zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo`lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o`tmish, hozirgi zamон, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran psixologiya fan sifatida rivojlna boshladi. Ilk psixologik tadqiqotlar laboratoriysi nemis olimi V.Vundt tomonidan 1879 yilda Leyptsig universitetida tashkil etildi. Xuddi shu laboratoriya andozasi bo`yicha boshqa mamlakatlarda bir qancha mustaqil laboratoriylar ochildi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib psixologiya fani to`g`risidagi ilmiy tununchalarda keskin o`zgarishlar yo`zaga keldi va ularning ta`siri natijasida psixologiyaning tadqiqot ob`ekti sifatida insonga muhitning

ta'siri uning xulq atvorini o'rganish muammolari tanlab olindi. Shu davrda psixologiya fanining rivojlanishiga ijobjiy hissa qo'shgan psixologiya maktablari vujudga keldi, jumladan, AfSh psixologiyasining asosiy yo`nalishlaridan bo`lgan bixevarizm, Germaniya geshtalt psixologiya maktabi, Venada Z.Freydning psixoanaliza va boshqalar. Shu maktablarning hammasi o'zining nuqtai nazariga asoslanib psixologiya fanining tarkibiy qismlarini o'rganish harakat qildi. Psixologik kontseptsiyalarning rang-barangligi sababli va fan texnikanining rivojlanishi ta'siri bilan psixologiya o'zining tadqiqot ob'ektlariga ega bo`lgan ko`plab sohalarga ajrala boshladi. Hozirgi davrda psixologiyaning nazariy va amaliy yutuqlari atrof muhit hamda jamiyatning juda keng qirralariga tadbiq qilinmoqda. Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo`lishda aniq, yaqqol faoliyatining psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxs faoliyat ko`rsatar ekan har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq atvor normalarini bilish va shunga ko`ra ish olib borish muhimdir.

Psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Umumiyligi – psixik faoliyatning umumiyligi qonuniyatlarini va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi.


Pedagogik psixologiya – kishiga ta'lif va tarbiya berishning psixologiya qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi.

Yosh davr psixologiyasi – turli yoshdagagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini individning yoshiga xos tarzda o'zgarish tamoyillarini o'rganadi.

Ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlarini natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq atvorini o'rganadi.

Eksperimental psixologiya – eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarini tadqiq qilishning umumiyligi sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol' o'ynaydi.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo`nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqqaqa etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy gumanitar fan sohalari bo`lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va etakchidir.



Sxemadan ko`rinib turibdiki psixologiya fani fanlar tizimining oroliq markazida turibdi. Bu degani psixologiya ham falsafa, ham tarix, san'atshunoslik, ham fiziologiya fanlardan o'zviy bog`liqidir.

4. Psixika – bu yuksak darajada tashkil topgan materianing sistemali xususiyati, sub'ekt tomonidan ob'ektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini sub'ekt o'zidan o'zoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o'z xulqini va faoliyatini shaxsan boshqarishdir.

Evolyutsion taraqqiyot davomida psixikaning eng sodda ko`rinishidan inson ongigacha taraqqiyoti bir qancha bosqichlardan iborat bo`lgan. Tirik organizmlarda o'zluksiz o'zgarib turuvchi hayot sharoitlariga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakat fikrlari instinctiv, individual va harakatning intellektual shakli maydonga kela boshlagan. Tirik organizmni psixik rivojlanish jarayoni bir-biridan tamomila ajralib turuvchi 2 davrni o'z ichiga oladi: hayvonlar psixikasining

rivojlanishi biologik qonuniyatlarga: irsiyat, o`zgaruvchanlik, tabiat, saralanish qonunlariga bo`ysunadi va odam ongi rivojlanadi.

Psixikaning riojlanishini, umuman tirik organizmlar rivojlanishi kabi 2 reja asosida o`rganish mumkin: filogenez va ontogenet.

Filogenez - organizmning oddiy shakllaridan tortib hozirgi zamon kishisiga qadar butun bir biologik rivojlanish jarayonida yo`z bergen o`zgarishdir.

Ontogenet - har bir individning hayoti davomida tug`ilishidan tortib to hayotning oxiriga qadar sodir bo`lgan o`zgarish yig`indisidir. Erda hayotning paydo bo`lishi materiya taraqqiyotidagi yangi bosqich, materiya to`zilishiga ko`ra ancha murakkab alohida xossalarga ega bo`lgan. Seskanuvchanlik - psixikaning paydo bo`lishida zaruriy xususiyat, majburiy shart-sharoitdir. Hayvonlarga mansub shakllarda ta`sirlanuvchanlikning yangi turi - sezuvchanlik paydo bo`ladi. A.N. Leont`evning farazlariga ko`ra sezuvchanlik genetik jihatdan qaraganda muhitning organizmni boshqa taassurotlar bilan bog`lovchi, organizmni muhitda mo`ljal olishiga yordam beruvchi, signallik vazifasini o`tovchi ta`sirlariga javob ta`siridan bo`lak narsa emas. Ta`sirlanuvchanlikdan sezuvchanlikka o`tish hayot tarzining o`zgachaligi bilan bog`liqdir. Yuksak taraqqiyot etgan hayvonlarda sezuvchanlik oshib, sezgi organlari shakllanadi. Taraqqiyotning elementar sensor bosqichidan kompleks ko`zgatuvchilarning, predmetlarning butunligiga aks ettirish bilan ifodalanadigan qobiliyatiga, ya`ni pertseptiv aks ettirishga o`tish amalga oshiriladi. Yashash sharoitlarini murakkablashuvi tirik organizmlarini muhitga moslashuvi zaruriyatini, materiyani sifat jihatdan o`zgarishi aks ettirish usullarini takomillashtiruviga xatti-harakatlarini maqsadga muvofiq, epchil bo`lishiga olib keldi.

Inson psixikasi – psixika taraqqiyotning eng oliy bosqichidir.

Psixika (yunoncha psychiros-ruhiy) - yuksak darajada tashkil topgan materiya - miyaning funktsiyasi. Uning mohiyati tuyg`ular, idrok tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko`rinishida aks ettirishdan iboratdir. Inson ongi o`z mohiyatiga ko`ra hayvonlarning instinktiv, individual va intellektual harakat formalaridan batomom boshqacha, nihoyatda murakkab hodisadir. Inson ongi evolyutsion tarqqiyotning eng so`nggi bosqichi, ya`ni inson taraqqiyoti bosqichidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot tufayli tarkib topgan.

Inson ongi insonning o`zi bilan birga, deyarli bir vaqtida maydonga kelgan. Ong tarixiy taraqqiyotning ikkinchi yo`nalishi - odamlarning amaliy faoliyatlarini bilan amalga oshiriladigan va tekshirib ko`rildigan inson bilish faoliyatining doimo rivojlanish jarayonidir.

Ongning tabiat - ong odamning borliq haqiqatini aks ettirish formasi tariqasida keladi. Ongning asosiy belgilari, odam ongingin psixologik xarakteristikasi, so`z va ma`noning ongi tashkil qiluvchi tushunchalar sifatida kelishi, odam ongingin borliqdagi narsa va hodisalarini, ularning eng barqaror muhim belgilari va xususiyatlari ma'lum darajada so`z bilan umumlashtirib ifodalaydi, aks ettiradi. Psixika va ongning paydo bo`lishi taraqqiyoti inson ongingin paydo bo`lishining dastlabki shart-sharoitlari, kishilarning birgalikdagi mahsuli- faoliyati, mehnat taqsimoti kishilar o`rtasidagi muloqotning borgan sari faollashib borishi, til asosida turli so`z signallaridan, belgilar tizimidan foydalanish, insonning moddiy va ma`naviy madaniyatini, inson boyliklarini yaratilishi, ijtimoiy tajribani o`zlashtirish, avloddan - avlodga berish, saqlash bilan bog`liq.

Ongning paydo bo`lishi taraqqiyotida filogenetik - organizmning oddiy shaklidan tortib murakkab, to hozirgi zamon kishisiga qadar rivojlanish jarayoni juda o`zoq tarixiy ijtimoiy, biologik o`zgarishlar yo`z bergen davrlar bilan xarakterlanadi. Ontogenetik taraqqiyotda har bir individ hayoti davomida murakkab o`zgarishlar tizimini bosib o`tadi. Murakkab ko`rinishdagi shart-sharoitga moslashish refleks qobiliyatini paydo bo`lishi, taraqqiyotiga olib boradi. Ongning rivojlanishini ta`minlovchi omillar: hozirgi zamon sharoitida yoshlarni har tomonlama kamol topishi, mustaqil fikrlash, atrofidagi o`zgarishlarga ochiq ko`z bilan teran fikr bilan munosabatda bo`lishi mumkin ijtimoiy o`zgarishlarda faol ishtirok etishlari lozim. Buning uchun fon yutuqlarini, umumxalq madaniyatini o`zlashtirilishi, o`z-o`zini boshqarishni yangi vositalaridan foydalanish zarur. Ishlab chiqarish korxonalarini yangi texnologiyalar bilan boyitish, bilimga bo`lgan qiziqishni ortishi kelajakdagi ijtimoiy o`zgarishlar, istiqbollar nazarda tutiladi. Shuningdek odamdagagi barcha psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar faqat ong bilan emas balki ongsizlik ong osti holatlarida ham ro`y berishi mumkin.

Odam shaxsidagi ongsizlik holatlari kishining o`zi anglamagan holda qiziqishi va ehtiyojlarini bajarishga intilishdir. Bunday xatti-harakatlar turli ixtiyorsiz reaktsiyalarda, xulq atvorda, psixik hodisalarda namoyon bo`ladi. Ongsizlik holatlarini ikkinchi guruhi asosida ongsizlik holatlarining uchinchi guruhi kishining idroki, xotirasi va xayoli bilan bog`lanib ketadi. Tush ko`rish, shirin xayol, orzu. Ongsizlik xolatlari ba`zan kishining ongiga singib qolgan ahloq normalari orqali nazorat qilinishi ham mumkin. (Psichoanaliz nazariyasi)

Insonning - ijtimoiy munosabatlar mahsuli ekanligi, yuksak psixik funktsiyalarining tarkib topishning o`ziga xos qonuniyatlar mavjudligi L.S. Vigotskiyning nazariyasida aniq yoritib berilgan.

Psixikaning rivojlanishi-ijtimoiy muhitdan ajralgan holda vujudga kelgan jarayon deb hisoblab bo`lmaydi. Bolaning madaniy psixik rivojlanishdagi har qanday (yuksak funktsiya) 2 tomonlamalikka ega 1 - ijtimoiy, 2 - psixologik har qanday yuksak psixik funktsiyalar rivojlanishiga ko`ra dastavval ijtimoiyidir. Ular kishilarning o`zaro munosabati sifatida shakllanadi, shundan keyingina esa shaxsning psixik funktsiyalari sifatida namoyon bo`ladi. L.S. Vigotskiyning qonuniyati so`z va predmetlariga nisbatan munosabatni namoyon etadi. So`z va predmetlar o`rtasidagi ob`ektiv bog`liqlik kattalar va bolalar o`rtasidagi muloqotni rivojlantiradi. Shuningdek, ong psixikani rivojlanishining oliy formasidir. Uning paydo bo`lishi va rivojlanishida kishining mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabati va muloqot (til yordamida) qilish jarayoni ya`ni ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlar natijasidir.

Ong kishilarning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi mahsuli, faqat insonga xos bo`lgan ob`ektiv borliqni psixik aks ettirishning yuqori usulidir. Ongning paydo bo`lishida: a) ijtimoiy omillar; birgalikdagi mehnat, mehnat qurollarini ishlab chiqish, o`zlashtirish, avloddan-avlodga berish, o`zaro muloqot, ijtimoiy munosabatlar, asosiy hisoblanadi. Biologik omil-organizmning anotomik fiziologik jihatdan o`zgarishi, takomillashib borishi; faollik ko`rsatishi, tabiatga ta`sir o`tkazishi va uni o`zgartira olishi; o`z-o`zini anglab etishi.

5. Jahon psixologiyasi fanidan xulq atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta`minlovchi omillarning eng muhim tariqasida insonning emotsiyal hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta`kidlab o`tiladi. Aniq izlanish predmetiga ega bo`lgan har qanday fan o`sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to`plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi. Bu esa fanning metodlari deb yuritiladi. Metod – (yunoncha – metod – tadqiqot tekshirish) bilishning nazariy va amaliy o`zlashtirish usullari yig`indisi. Psixologiyaning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

Ko`zatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi ko`zatuv mohiyatan ko`zatiluvchi xulq atvorini bevosita tashqaridan turib, ko`zatish orqali ma`lumotlar to`plash usulidir.

Erkin ko`zatuv ko`pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o`rganish maqsad qilib qo`ylganda qo`llaniladi.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o`rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko`pchilikda qayta-qayta sinash va ma`lumotlarni analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo`ladi.

Test – so`rov oldindan qat’iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi.

Test – tushunchasini ilk bora Amerikalik psixolog D.Kettel 1890 yilda «Mind» maqolasida kiritgan.

Eksperiment – zamonaviy psixologiya metodlaridan biri bo`lib, u mustaqil bo`lgan o`zgaruvchilarni, mustaqil bo`lmagan o`zgaruvchilarga ta`siri aniq hisobga olishga asoslanadi. Ilk bora psixologik tajribalar XIX asrning P yarmida V.Vundt (Germaniya) laboratoriyasida o`tkazilgan.

Laboratoriya eksperimenti – psixologik metodi bo`lib, u sun’iy sharoitda unga ta`sir etuvchi barcha omillar nazoratida amalga oshiriladi.

Tabiiy tajriba ilk bor 1910 yilda rus psixologi L.F.Lazurskiy tomonidan qo`llanilgan. Tabiiy eksperiment shunday tajriba turiki, u o`z ichiga tajriba ishtirokchilariga bildirilmagan holda o`yin, mehnat, o`quv faoliyatini qamrab olishi mumkin.

Umumiy psixologiyaning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat.

1. Determinizm

2. Ong va faoliyat birligi
3. Psixikaning faoliyatda rivojlanish printsipi.

Determinizm (lotincha – determinata – belgilayman) printsipi tabiat va jamiyat hodisalari, shu jumladan psixik hodisalarining ob'ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir. Shu boisdan psixika, ongning ob'ektiv borliq va nerv sistemasi bilan belgilanishi ilmiy psixologiyaning buyuk yutug'i hisoblanadi. Shuning uchun determinizm psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o`zgarishiga mutanosib ravishda u o`zgarishini anglatadi.

Ong va faoliyat printsipini psixologiya fanida qabul qilinishi shunday ma'noni anglatadi: a) ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas; b) ong bilan faoliyat aynan bir-biriga o`xshash ham emas; v) ong bilan faoliyatning birligi ularning hukm surishi mexanizmidir. Faoliyat o`zining to`zilishi bo`yicha ichki va tashqi tarkiblariga bo`lsada, voqelik tashqi ifodasi bilan ajralib turadi. Ong bo`lsa faoliyatning ichki rejasini, uning dasturiy jabhasini aks ettiradi. Faoliyat ong yordamida amalga oshadi va o`z navbatida ong mazkur jarayonda takomillashadi (Muammo va echimi uning turki vazifasini o`ynaydi). Ushbu printsip rus psixologlari L.S.Vigotskiy, P.P.Blokskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, B.M.Teplov, B.G.Anan'ev va boshqalarning tadqiqotlarida o`z ifodasini topgan.

Psixikaning taraqqiyotini dialektika nuqtai nazaridan tushunish taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta'limiga, o`yin faoliyatiga bog`liq ekanligidan aniqlashdan dalolat beradi. Ijtimoiy tajribani o`zgartirish jarayonning yo`z berishi shaxs uchun psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qiladi va dasturiy bilimlarni egallashga mustahkam zamin hozirlaydi. Har qaysi faoliyat turi inson psixikani rivojlantirish manbai va mexanizm roli vazifasini bajaradi.

1. L.S.Vigotskiy ta'lim psixikaning rivojlanishini yo`naltiradi, shu bilan birga shu jarayonda ongli faoliyatning yangi mutlaqo boshqacha shakllari yaratildi.

2. P.P.Blokskiy tafakkur kichik mакtab yoshida o`yin bilan, o`sиринлик yoshida o`qish bilan bog`liq tarzda rivojlanadi.

3. S.L.Rubinshteyn ong faoliyatdan paydo bo`lib, ana shu faoliyatda shakllanadi.

4. B.M.Teplov qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud bo`ladi, lekin rivojlanish faoliyat boshqacha muhitda yo`z bermagandek, qobiliyat tegishli yaqqol faoliyatdan ajralmagan holda paydo bo`la olmaydi.

Insonning bilish faoliyati rivojlanishi unga o`zini qurshab turgan borliqni yanada chuqqurroq, to`laroq, aniqroq aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo`sindagi o`zaro bog`lanishlari, murakkab munosabatlari va aloqalarini tobaro aniqroq yaratadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o`ziga munosabati vujudga keladi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALARI.**

1. Metod – (yunoncha - metod - tadqiqot, tekshirish) bilishning nazariy va amaliy o`zlashtirish usullari yig`indisi.
2. Psixika – (yunoncha - psyche ruhiy) - yuksak darajada tashkil topgan materiya-miyaning funktsiyasi.
3. Test – (inglizcha - test tekshirmoq) - standartlashtirilgan psixologik sinov.
4. Printsip – (boshlanish, asos, biror bir narsaning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunekarashning kelib chikish asoslari.
5. Ong - insongagina xos bulgan ob'ektiv borlikni psixik aks ettirishning yukori usulidir.
6. Evolyutsion taraqqiyot - materiya taraqqiyoti.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Psixologiya predmetiga tushuncha bering.
2. Psixologiya fanini fanlar tizimida tutgan o`rnini aniqlang va tushuntiring.
3. Psixologiya nimani o`rganadi? Psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlariga tushunchalar bering.
4. Psixologiya fan sifatida rivojlanish bosqichlarini aytинг.
5. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini aytинг.

6. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari haqida tushuncha bering.
7. Yuksak psixik funktsiyalarning tarkib topishini ayting.
8. Psixologiya fanining metod va printsiplarini tushuntiring.

## **2-Mavzu: Psixologiyani dastlabki va o‘rta asrlarda rivojlanishi REJA.**

1. Antik davrning psixologik nazariyalarini.
2. O‘rta asrlarda psixologiyaning umumiyatini tavsifi.
3. V-XI asrlarda yevropa psixologiyasini rivojlanishi.
4. Yangi davrda psixologiyani rivojlanishi va uning birinchi nazariyasi.
5. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm.

Sharqda psihologik qarashlarning paydo bo‘lishida buyuk sharq mutafakkirlarining roli kattadir. Ular orasida Al- Xorazmiy (783-850), Al-Farobiy (873-950), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu-Ali Ibn Sino (980-1037), Mirzo Ulugbek (1324-1409) kabilalar o‘zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlari va qarashlarini me’ros sifatida qoldirganlar.

O‘rta asr psihologik qarashlarida O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning psihologiya sohasidagi fikrlari muhim ahamiyatga egadir. O‘rta Osiyo xalqlari boshqa dunyoviy fanlar qatori psihologiya fani sohasida ham boy merosga ega. Xalqimizning buyuk namoyandalari, butun dunyoda nomi tarqalgan mutafakkirlar, olimlar va shoirlar inson ruhiy jarayonlarini talqin etishda o‘z zamonasi uchun ilg‘or fikrlarni olg‘a surdilar. Bu mutafakkirlardan Forobiy, Ibn Sino va Beruniylarning psihologiya sohasidagi fikrlari, milliy psihologiya tarixi va hozirgi mustaqillik davri uchun g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

IX - XI asrlarda ijod etgan mutafakkirlarimiz hayoti O‘rta Osiyo, umuman yaqin va O‘rta Sharqda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan, har xil ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida kurashlar avjiga chiqqan, turli-tuman g‘oyaviy oqimlar orasida keskin kurashlar boshlangan bir davrga to‘g‘ri keldi. Shu davrda ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi kabi inson ruhini talqin qilish borasida ham turli yo‘nalishlar va oqimlar o‘rtasida keskin kurash ketar edi. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy ijodi materialistik yo‘nalishni yanada rivojlantirish, mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etdi.

Abu Nasr Forobiyning (874-950) psihologiya sohasidagi qarashlari uning falsafiy fikrlari bilan chambarchas bog‘langandir. Forobiy materiya haqida fikr yuritar ekan, uning real narsa va hodisalarning asosini tashkil etishini va keyinchalik mustaqil rivojlanganligini isbot qilishga harakat qiladi. Uning fikricha, materiya - real narsalarning moddiy boshlang‘ichidir, bu boshlang‘ich, asosan to‘rt elementdan - tuproq, suv, havo va olovdan iboratdir. Bular sodda substansiyalar bo‘lib, ularning xususiyatlarni ko‘rsatib, olov issiqlik, havo juda tez bir joydan ikkinchi joyga uchib yurishlik, suv sovuqlik, tuproq qattiqlikdan iboratdir. Forobiy mana shu sodda substansiyalar vujudga keladi degan xulosani chiqaradi va murakkab substansiyalarning o‘z-o‘zicha vujudga kelmasligi, balki uning rivojlanishida o‘ziga yarasha qonuniyat mavjud ekanligi to‘g‘risida fikr yuritadi. Forobiyning fikricha, sodda substansiyaning birlashuvidan avvalo minerallar - neorganik jismlar vujudga keladi, undan keyin hayvonot va, nihoyat, olam jismlari rivojlanishining oliy bosqichi - inson vujudga keladi.Olim mana shu o‘simlik, hayvon va insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni quvvat deb ataydi va uni uchga ajaratadi - o‘sish quvvati, hayvoniy quvvat, insoniy quvvat.

Forobiyning quvvatlar to‘g‘risidagi fikrini hozirgi zamon terminalogiyasi bilan aytganda -

1. O‘sish quvvati - bu biologik jarayon bo‘lib, barcha tirik organizmlarga taalluqlidir.
2. Hayvoniy quvvat - bu fiziologik psixik jarayon bo‘lib, hayvonlarga va insonlarga xosdir.
3. Insoniy quvvat - bu aqliy, intellektual jarayonlar bo‘lib, faqat insonlarga xos deb tushunmoq kerak.

Forobiy materiyani forma - shaklga nisbatan birlamchi deb biladi, chunki materiya narsaning moddiy assosi - mazmunidir, forma-shakl esa uning (moddaning) to‘zilishidir Mana shu umumfalsafiy fikrlardan kelib chiqib, olam inson organizmi bilan ruhiy quvvatlar o‘rtasidagi munosabatlar masalasini ham yoritishga harakat qiladi. Inson organizmi va ruhiy quvvatlarning o‘zaro munosabatlarni xuddi materiya va shakl alohida-alohida yashay olmagani kabi inson

organizmi va ruhiy jarayonlar ham alohida yashay olmaydi, ular organizmga bog'liqdir. "Ideal shahar aholisining fikrlari" asarida ruhiy jarayonlar to'g'risidagi ta'limotni asoslab - insonda tug'ilganidan oziqlantiruvchi birinchi quvvat paydo bo'lib, uning yordamida inson ovqatlanadi, ikkinchidan, sezish quvvati paydo bo'lib, bu quvvat yordamida inson issiq, sovuq kabilarni sezadi, uchinchi xayol quvvati bo'lib, hissiy qabul etilgan timsollarning tartibda kombinatsiya qilish funksiyasini bajaradi, to'rtinchi - aqliy quvvat vujudga kelib, uning yordamida inson ongli va abstrakt fikr yuritadi, san'at va fan haqida bilimga ega bo'ladi, aqli yetadigan narsalar bilan shug'ullanadi, go'zallikni xunuklikdan ajratish qobiliyatiga ega bo'ladi, deydi.

Forobiy inson ruhiy quvvatlarini ikkiga ajratadi; tashqi va ichki quvvatlar. Bularning turlarini ko'rsatadi va ularga tavsif beradi.

Tashqi quvvatni; 1. Teri sezgisi. 2. Ta'm bilish sezgisi. 3. Hid bilish sezgisi. 4. Eshitish sezgisi. 5. Ko'rish sezgisi kabi besh turga bo'lib, ularning bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga kelishini ta'kidlaydi. Bularning insonga ham, yuqori tashkil topgan hayvonlarga ham xos ekanligini ko'rsatib o'tadi. Ichki quvvatlar quyidagilardan iboratdir; 1. Xotira - tasavvur quvvati. 2. Xayol quvvati. 3. Tuyg'u – emotsiyaquvvati. 4. Nutq quvvati. 5. Mantiqiy fikrlash quvvati. "Xayol qilish va so'zlash, fikr yurtish, aql quvvatini Forobiy faqat insongagina xos deb to'g'ri tushunadi. Inson o'zinang shu quvvatlara, qobiliyatları bilan hayvonot olamidan tubdan farq qiladi.

Demak, olim hayvon psixikasi bilan inson psixikasining bir tomondan umumiyligini va ikkinchi tomondan ular o'rtasadagi farqni to'g'ri tushuna oladi. Psixikaning vujudga kegishi tashqi dunyoga bog'liqligini, inson organizmining dunyodagi barcha narsa va hodisalar ta'siriga javob qaytarishini tushunib yetdi va har bir psixik jarayonning moddiy asosi borligini ta'kidladi. Bu masalada u ilmiy pozitsiyada turadi. Xususan, insondagi boshqa sezgi organlari va ularning har qaysisi alohida vazifani bajarishi to'g'risida va tashqi muhitdan olingen taassurotlarini markazga eltilib, markaz ularni umumlashtirish haqida mukammal fikr yuritadi. Lekin u sezgining anatomik-fiziologik mexanizmini tushunib yeta olmagan edi. Forobiy fikricha, odam organizmining markazi yurakdir. Chunki yurak butun tana va uning a'zolarini qon bilan ta'minlaydi, qon yurak orqali butun organizmga tarqaladi. Ikkinci markaz miyadir. Miya ham qon bilan tirik bo'lganligi sababli yurakka bo'ysunadi, ya'ni yurakdan qon oladi, lekin shu bilan birga, u butun organizm va uning a'zolariga rahbarlik qiladi, o'z buyrug'iga bo'ysundiradi, ularni ma'lum mo'tadillikda ushlab turadi. Bu ta'limot Aristotelning inson organizmi a'zolarini boshqarib boruvchi yagona markaz yurakdir, degan fikrga qarshi, masalaga ilmiy nuqtai nazardan yondashishdir.

O'z davrining zabardast olimi Ibn Sino (980-1057) ilmiy merosida psihologiya masalalariga ham katta e'tibor bergenligini ko'ramiz. Mutafakkirlar orasida ayniqsa Ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiy fanlar haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta xissa qo'shdi. U maxsus psihologik muammolar bilan shigullangan olimlardan biridir. Uning rux haqida, asab tizimi, miyaning funksional to'zilishi haqidagi fiklari xozirgi zamon psihologiyasini, psixikaning mexanizmlarini o'rghanishda ahamiyatlidir. Uning temperament tiplari to'g'risidagi ta'limoti psihologiyaga qoshgan eng katta xissasidir. Ibn Sino birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llagan olimdir. U o'zidan ilgari o'tgan olimlar - Forobiy, al-Qonun, ar-Roziy va boshqalarning psihologiya sohasidagi ta'limotlarini mukammal o'rgandi va hattoki, maxsus asarlar ham yozib qoldirdi. Jumladan, "Jon to'g'risida", "Tushni yo'yish kitobi", bulardan tashqari, "Tib qonunlari", "Shafo beruvchi kitob", "Donishnoma" va boshqa asarlarida psihologiyaga doir ko'pgina muammolarni hal qilishga harakat etgan. Ibn Sinoning psihologiya masalalari bilan shug'ullanishiga birinchidan, o'zidan ilgari o'tgan Sharq mamlakatlari olimlari tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni o'rganib, fanning bu sohasi bo'yicha ham o'zining original fikrlarini bildirish; ikkinchidan antik dunyo olim, faylasuflarining ta'siri ham katta rol o'ynadi. Xususan Aristotel Ibn Sinoning falsafada "birinchi o'qituvchisi" edi. U Aristotelning "Jon haqida"gi asari bilan yaxshi tanish edi; uchinchidan, olimning meditsina sohasidagi olib borgan ishlarida odam anatomiyasi, fiziologiyasi va nerv sistemasini yaxshi o'rghanish va shu asosda har xil kasalliklarni davolash jarayonida kishilarining psixik xususiyatlarini bilish zarur edi; to'rtinchedan, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash masalalarini to'g'ri hal qilishda psihologiyaga murojaat qilish va undan foydalanish zarurligini anglab yetgan edi.

Ibn Sinoning psihologiya sohasidagi ta'limoti asosan ilmiy xarakterga egadir, bu uning tirik organizmdagi hayotiy biologik protsesslarni tushuntirishida yaqqol ko'rindi. Buyuk olim

psihologiya sohasidagi risolalarida qanday masala yo'zasidan ilmiy-tekshirish ishi olib bormasin, avvalo, tekshirilayotgan ob'ekt mavjudmi yoki yo'qmi ekanligini aniqlash kerakligini uqtiradi. Agar har qanday narsa va hodisa ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo'lsa, demak insonning yashashi va harakatida ham birorta sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri "Ruhiy quvvatlar" deb ko'rsatadi olim. Aristotel va Forobiy kabi Ibn Sino ham odam tanasi va "Ruhiy quvvatlar" materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino psixika hayvonlar bilan insonlarga xos narsa deb ta'kidlar ekan, hayvonlar psixikasining instinktiv xarakterga ega ekanligini, inson esa ongli fikrlovchi zot ekanligini uqtiradi. "Instinkt", - deydi olim,- shunday quvvatdirki, bu hayvon ongida mantiqsiz vujudga keladi ". Kishining ongli va mantiqiy fikrlashida asosiy markaz miya ekanligini tushunib yetdi va miya... seziluvchi suratlarni idrok qiladi yoki saqlaydi. Xayolda saqlangan suratlarni birlashtirib yoki bo'lib ish yuritadi va shu bilan sezgi orqali kelgan suratlarga o'xshagan turli suratlarni vujudga keltiradi, - deydi<sup>1</sup> u.

Bu jarayonlar Ibn Sino fikricha, nervlar vositasi bilan sodir bo'ladi, kishidagi nerv sistemasining to'zilishini ko'rsatishga harakat qiladi. Olimning fikricha, nervlarning boshlanish joyi bosh miya bo'lib, organizmning barcha tomonlariga tarqaladi va shu tufayli odam tashqi olamdan bo'ladigan ta'sirotgajavob qaytarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ibn Sino Forobiyning sezgilar to'g'risidagi ta'llimotini rivojlantirib, insonda beshta sezgi mavjud ekanligini, o'sha sezgilar orqali, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning ta'siriga javob qaytarilishi, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to'xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib boradigan markazi bor ekanligini ishonch bilan bayon etadi. Hislarning boshlanish o'rni miya bo'lib, har qaysi bosh his uchun ta'siri paydo bo'ladigan ayrim organ bo'ladi. Masalan, ko'rvu markazi miyaning ensi qismida joylashgan bo'lib, bosh miyaning o'ng tomonidan keladigan nervlar ko'z qorachig'ining chap tomoniga, chap tomonidan keladigan nervlar o'ng tomoniga taralgandir. Bunday nervlarning ... bir-birini kesib o'tishi har ikkala ko'zning barobar teng ko'ra olish uchun zarurdir, deb ta'kidlaydi.

Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol xotirasi va iroda sifatlariga yuksak baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-birlari bilan mustahkam bog'liq ekanligini anglaydi. Ayniqsa, Ibn Sinoning mijozlar (temperament) to'g'risidagi fikrlari tabiiy-ilmiy jihatdan diqqatga sazovordir. Bu sohadagi ta'llimot qadimgi Gretsiya olimi Gippokratning (miloddan avvalgi U asr) gumaral nazariyasiga asoslanadi. Ibn Sino ham Gippokrat kabi odam tanasida to'rt xil modda bor(safro, qon, qora o't, balg'am), shu moddalardan birortasi organizmda ko'proq bo'lsa, bu odam mijozining (temperamenti) tipini belgilaydi. Olimning ta'rificha, elementlarning (moddalar) nihoyat darajada mayda bo'laklardagi qarama-qarshi kayfiyatlarining bir-biriga ta'siridan paydo bo'lgan kayfiyat mijoz deb ataladi. Ibn Sino kishi psixikasining individual xususiyatlari masalasi bilan ham qiziqadi. Uning fikricha, kishilarning individual farqi ular mijozining mo'tadil yoki nomo'tadil bo'lishiga bog'liqdir. Masalan, mo'tadil mijozli odamlarning barcha harakatlari bir-biriga monand, tugallangan va yetuk bo'ladi. Bunday tipdag'i odamlarning tafakkuri, xayoli va xotirasi kuchli taraqqiy etgan, ahloqli bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Umuman, Ibn Sino psihologiyaning ko'pgina masalalari yo'zasidan original, progressiv fikrlar qoldirdiki, bu bilan psihologiya fanining keyingi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Beruniy psihologiya sohasida o'zidan ilgari o'tgan olimlar - Forobiy, Xorazmiy zamondoshi bo'lgan Ibn Sino asarlarini va Hindistondagi psihologik fikrlarni yaxshi o'rganib, hayotiy tajribalar asosida psihologiya sohasida original fikrlar qoldirgan. Beruniy insonning barcha mavjudotlardan ustunligini uning tafakkurga ega ekanligi bilan izohlaydi. Insonda idrok, tasavvur, xayol, xotira kabi psixik protsesslarning mavjudligi va ularni ishga solishni isbotlab beradi. Olim o'qigan, eshitgan, ko'zatishdan olgan bilimlarning kishi xotirasida mustahkam saqlanib qolishi masalasiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun ham u kishi faoliyatida xotiraning roli katta ekanligini va uning ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi. Beruniyning asoslab beradigan barcha narsa xotirada yaxshi saqlanib qolinadi, uni tez va oson esga tushiriladi, degan fikri diqqatga sazovordir. Olim kishi xotirasi to'g'risidagi fikrida ilmiy va diniy nuqtai nazarni bayon etadi. U bir joyda xotira kishiga "Olloh taoloning bergen in'omidir" va u hosil qilinmaydi, degan bo'lsa, ikkinchi bir joyda bu fikrni

<sup>1</sup>(E.G'oziev. «Umumiy psixologiya»T.- 2010 y.)

rad etib, u xotiraning yuksak darajaga ko‘tarilishi zo‘r berib va qunt bilan ishlash natijasi ekanligini isbotlashga xarakat qiladi.

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo‘lish problemasiga oid bir qancha fikrlar mavjuddir. Bulardan biri filosofiya tarixida Dekart nomi bilan bog‘lik bo‘lgan “antropopsixizm” nazariyasidir. Bu nazariyaning mohiyati shundaki, u psixikaning paydo bo‘lishini odamning paydo bo‘lishi bilan bog‘laydi va psixika faqat odamlarda mavjuddir degan g‘oyani olg‘a suradi. Bu psixikaning paydo bo‘lishi problemasiga bir tomonlama yondashishdir.

Psixologiya tarixida psixikaning paydo bo‘lishi haqida yana bir qancha turli-tuman fikrlar bor. O’zoq asrlar davomida psixika (ruhiy hayot) va uning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti masalalariga har xil nuqtai nazardan yondashib kelindi. Bundan milliard yillar burun neorganik (jonsiz) materiya negizida organik (jonli) materiya vujudga keldi. Ruhiy hayotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ana shu davrdan boshlandi. O’zoq tarixiy davr jarayonida rivojlangan jonli organizm oddiy hujayradan oliv bosqichgacha - insongacha bo‘lgan taraqqiyot davrini bosib o‘tdi.

Psixikaning taraqqiyoti uning harakati, o‘zgarishidir. Qadimgi filosoflar ruhiy hodisalarining rivojlanishini turlicha talqin etib keldilar, uni ilohiy kuchga bog‘lab tushuntirishga harakat qiladilar. Masalan, grek filosofi Fales (eradan avvalgi 624-547 yillar) odamning ruhiy hayotini bug‘ shaklida tasavvur qilgan va uning asosida suv yotadi degan. Anaksimen esa (eradan avvalgi 588-525 yillar) ruhiy hayotning manbai havodir deb ta’lim bergen. Geraklit (eradan avvalgi 544-488 yillar) ruhiy hayotning manbaini olov deb targ‘ib qilgan.

Qadimgi filosofiyaning mashhur namoyandalari Sokrat (eradan avvalgi 469-399) va Platon (eradan avvalgi 427-347 yillar) ham inson psixikasi, ruhiy hayoti haqida butunlay boshqacha nazariyani olg‘a surganlar. Ularning fikricha, tana va jon boshqa-boshqa qismlardir. Guyoki jon inson tanasiga “ideal” dunyodan kiradi-yu, ma’lum vaqtidan so‘ng yana o‘sha dunyoga qaytib ketadi.

Mashhur filosof Demokrit esa (eradan avvalgi 460-370 yillar) inson organizmi atomlardan tashkil topgan, uning ruhi mayda atomlardan iborat degan fikrni olga suradi.

Psixologiya tarixida psixika va uning taraqqiyoti haqida turli-tuman fikrlar yuqoridaqilardan tashqari ham juda ko‘p.

Psixik hodisalarni materialistik nuqtai nazardan talqin etishda mashhur grek filosofi Aristotelning(eradan avvalgi 384-322 yillar) xizmati kattadir.

Aristotel qadimgi filosoflardan birinchi bo‘lib psixologiyani alohida fan sifatida qaradi, psixik hodisalarga materialistik nuqtai nazardan yondashdi. Mashhur filosofning “Etika”, “Ritorika”, “Metafizika”, “Hayvonlar tarixi” kabi asarlarida turli psixik hodisalarga oid fikrlar juda ko‘p. Buyuk olimning “Jon haqida” nomli asari psixologiya tarixida birinchi sof psixologik asardir.

Aristotel o‘zigacha bo‘lgan filosoflarning, jumladan, o‘z ustozni Platonning psixologik qarashlarini tahlil qildi.

Aristotelning psixologik ta’limotida ruh va tananing o‘zaro munosabati problemasi muhim o‘rin tutadi. “Ruh, - deydi Aristotel, o‘z tabiatiga ko‘ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir. Forma materiyaga nisbatan qanday bo‘lsa, ruh ham tanaga nisbatan xuddi shunday. U (ruh) hayotga ma’no va yo‘nalish beradi, ruh ta’sir qiladi va harakatlantiradi, tana esa ta’sirlanadi va harakatga keladi. Ruh tirik tananing sababi va manbaidir”.

Aristotelning ruh va tana munosabatiga oid ta’limotiga xos g‘oya shundan iboratki, ruh va tanani alohida-alohida qarash ilmiy nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘lmaganidek, ruhni birlamchi, tananing manbai deyish ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Bu kabi jo‘z’iy yetishmovchiliklarning manbai Aristotel yashagan davr, muhit va sharoitning ta’siri natijasidir.

Aristotelning turli psixik hodisalar haqidagi fikrlari hozirgi psixologiya fani uchun ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Uning sezgilar, hissiyot, irodaviy harakatlar, tafakkur, tasavvur haqidagi va boshqa psixik hodisalarga oid fikrlari buning dalili hisoblanadi.

Aristoteldan keyin ham filosoflarning psixologiyaga oid fikrlari turlicha formada bayon qilinib kelindi.

Epikurning (eradan avvalgi 342-271 yillar) fikricha ruh butun organizmga tarqalgan juda nozik jismidir, uni g‘ayrijismiy deyish alahsirashdan boshqa narsa emas.

O‘rtalasrlarga kelib Sharqda ham , G‘arbda ham Aristotelning psixologik ta’limoti hukmron bo‘lib qoldi. Bu ta’limot keyinchalik metafik yoki ratsionalistik psixologiya ismi bilan yuritildi.

Metafizik deb atalishining sababi shundaki, bu ta'limotga asosan ruh g'ayrijismiy bir narsa deb tushuntiriladi. Uning tekshirish metodi quruq mulohazadan iborat bo'lib, tajribadan ajralgan holda bo'lganligi uchun ratsionalistik nomi bilan ham yuritiladi.

Ruhning mohiyati, kuchi, tanaga bo'lgan munosabati, tana o'lgandan keyingi taqdiri masalalarida o'rta asr mutafakkirlari turli-tuman mulohazalar bayon qildilar. Ammo, ular bu sohada Platon va Aristotelning fikrlariga hech qanday yangilik kirta olmadilar.

O'rta asr psixologik qarashlarida O'rta Osiyolik mashhur mutafakkirlar Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning psixologiya sohasidagi fikrlari muhim ahamiyatga egadir.

O'rta Osiyo xalqlari boshqa dunyoviy fanlar qatori psixologiya fani sohasida ham boy merosga ega. Xalqimizning buyuk namoyandalari, butun dunyoda nomi tarqalgan mutafakkirlar, olimlar va shoirlar inson ruhiy jarayonlarini talqin etishda o'z zamonasi uchun ilg'or fikrlarni olg'a surdilar. Bu mutafakkirlardan Forobiy, Ibn Sino va Beruniylarning psixologiya sohasidagi fikrlari, milliy psixologiya tarixi va hozirgi mustaqillik davri uchun g'oyat katta ahamiyatga egadir.

1X - X1 asrlarda ijod etgan mutafakkirlarimiz hayoti O'rta Osiyo, umuman yaqin va O'rta Sharqda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan, har xil ijtimoiy tabaqalar o'rtasida kurashlar avjiga chiqqan, turli-tuman g'oyaviy oqimlar orasida keskin kurashlar boshlangan bir davrga to'g'ri keldi.

Shu davrda ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi kabi inson ruhi (psixikasi) ni talqin qilish borasida ham turli yo'nalishlar va oqimlar o'rtasida keskin kurash ketar edi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy ijodi materialistik yo'nalishni yanada rivojlantirish, mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etdi.

Abu Nasr Forobiyning (874-950) psixologiya sohasidagi qarashlari uning falsafiy fikrlari bilan chambarchas bog'langandir.

Forobiy materiya haqida fikr yuritar ekan, uning real narsa va hodisalarining asosini tashkil etishini va keyinchalik mustaqil rivojlanganligini isbot qilishga harakat qiladi. Uning fikricha, materiya - real narsalarining moddiy boshlang'ichidir, bu boshlang'ich, asosan to'rt elementdan - tuproq, suv, havo va olovdan iboratdir. Bular sodda substansiyaning bo'lib, ularning xususiyatlarini ko'rsatib, olov issiqlik, havo juda tez bir joydan ikkinchi joyga uchib yurishlik, suv sovuqlik, tuproq qattiqlikdan iboratdir. Forobiy mana shu sodda substansiyaning o'z-o'zicha vujudga keladi degan xulosani chiqaradi va murakkab substansiyalarning o'z-o'zicha vujudga kelmasligi, balki uning rivojlanishida o'ziga yarasha qonuniyat mavjud ekanligi to'g'risida fikr yuritadi.

Forobiyning fikricha, sodda substansiyaning birlashuvidan avvalo minerallar - neorganik jismlar vujudga keladi, undan keyin hayvonot va, nihoyat, olam jismlari rivojlanishining oliy bosqichi - inson vujudga keladi.

Olim mana shu o'simlik, hayvon va insonga xos bo'lgan xususiyatlarni quvvat deb ataydi va uni uchga ajaratadi - o'sish quvvati, hayvoniy quvvat, insoniy quvvat.

Forobiyning quvvatlar to'g'risidagi fikrini hozirgi zamon terminalogiyasi bilan aytganda -

4. O'sish quvvati - bu biologik jarayon bo'lib, barcha tirik organizmlarga taalluqlidir.

5. Hayvoniy quvvat - bu fiziologik psixik jarayon bo'lib, hayvonlarga va insonlarga xosdir.

6. Insoniy quvvat - bu aqliy, intellektual jarayonlar bo'lib, faqat insonlarga xos deb tushunmoq kerak.

Forobiy materiyani forma - shaklga nisbatan birlamchi deb biladi, chunki materiya narsaning moddiy asosi - mazmunidir, forma-shakl esa uning (moddaning) to'zilishidir. Mana shu umumfalsafiy fikrlardan kelib chiqib, olam inson organizmi bilan ruhiy quvvatlar o'rtasidagi munosabatlar masalasini ham yoritishga harakat qiladi. Inson organizmi va ruhiy quvvatlarning o'zaro munosabatlarni xuddi materiya va shakl alohida-alohida yashay olmagani kabi inson organizmi va ruhiy jarayonlar ham alohida yashay olmaydi, ular organizmga bog'liqidir.

"Ideal shahar aholisining fikrlari" asarida ruhiy jarayonlar to'g'risidagi ta'limotni asoslab - insonda tug'ilganidan oziqlantiruvchi birinchi quvvat paydo bo'lib, uning yordamida inson ovqatlanadi, ikkinchidan, sezish quvvati paydo bo'lib, bu quvvat yordamida inson issiq, sovuq kabilarni sezadi, uchinchi xayol quvvati bo'lib, hissiy qabul etilgan timsollarning tartibda kombinatsiya qilish funksiyasini bajaradi, to'rtinchi - aqliy quvvat vujudga kelib, uning yordamida

inson ongli va abstrakt fikr yuritadi, san'at va fan haqida bilimga ega bo'ladi, aqli yetadigan narsalar bilan shug'ullanadi, go'zallikni xunuklikdan ajratish qobiliyatiga ega bo'ladi, deydi.

Forobiy inson ruhiy quvvatlarini ikkiga ajratadi; tashqi va ichki quvvatlar. Bularning turlarini ko'rsatadi va ularga tavsif beradi.

Tashqi quvvatni; 1. Teri sezgisi. 2. Ta'm bilish sezgisi. 3. Hid bilish sezgisi. 4. Eshitish sezgisi. 5. Ko'rish sezgisi kabi besh turga bo'lib, ularning bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga kelishini ta'kidlaydi. Bularning insonga ham, yuqori tashkil topgan hayvonlarga ham xos ekanligini ko'rsatib o'tadi. Ichki quvvatlar quyidagilardan iboratdir; 1. Xotira - tasavvur quvvati. 2. Xayol quvvati. 3. Tuyg'u – emotsiyaquvvati. 4. Nutq quvvati. 5. Mantiqiy fikrlash quvvati.

"Xayol qilish va so'zlash, fikr yurtish, aql quvvatini Forobiy faqat insongagina xos deb to'g'ri tushunadi. Inson o'zinang shu quvvatlara, qibiliyatlar bilan hayvonot olamidan tubdan farq qiladi.

Demak, olim hayvon psixikasi bilan inson psixikasining bir tomonidan umumiyligini va ikkinchi tomonidan ular o'rtasadagi farqni to'g'ri tushuna oladi. Psixikaning vujudga kegishi tashqi dunyoga bog'liqligini, inson organizmining dunyodagi barcha narsa va hodisalar ta'siriga javob qaytarishini tushunib yetdi va har bir psixik jarayonning moddiy assosi borligini ta'kidladi. Bu masalada u ilmiy pozitsiyada turadi. Xususan, insondagi boshqa sezgi organlari va ularning har qaysisi alohida vazifani bajarishi to'g'risida va tashqi muhitdan olingen taassurotlarini markazga eltib, markaz ularni umumlashtirish haqida mukammal fikr yuritadi. Lekin u sezgining anatomik-fiziologik mexanizmini tushunib yeta olmagan edi.

Forobiy fikricha, odam organizmining markazi yurakdir. Chunki yurak butun tana va uning a'zolarini qon bilan ta'minlaydi, qon yurak orqali butun organizmga tarqaladi. Ikkinchi markaz miyadir. Miya ham qon bilan tirik bo'lganligi sababli yurakka bo'ysunadi, ya'ni yurakdan qon oladi, lekin shu bilan birga, u butun organizm va uning a'zolariga rahbarlik qiladi, o'z buyrug'iga bo'ysundiradi, ularni ma'lum mo'tadillikda ushlab turadi.

Bu ta'limot Aristotelning inson organizmi a'zolarini boshqarib boruvchi yagona markaz yurakdir, degan fikrga qarshi, masalaga ilmiy nuqtai nazardan yondashishdir.

O'z davrining zabardast olimi Ibn Sino (980-1057) ilmiy merosida psixologiya masalalariga ham katta e'tibor bergenligini ko'ramiz. U o'zidan ilgari o'tgan olimlar - Forobiy, al-Qonun, ar-Roziy va boshqalarning psixologiya sohasidagi ta'limotlarini mukammal o'rgandi va hattoki, maxsus asarlar ham yozib qoldirdi. Jumladan, "Jon to'g'risida", "Tushni yo'yish kitobi", bulardan tashqari, "Tib qonunlari", "Shafo beruvchi kitob", "Donishnoma" va boshqa asarlarida psixologiyaga doir ko'pgina muammolarni hal qilishga harakat etgan.

Ibn Sinoning psixologiya masalalari bilan shug'ullanishiga birinchidan, o'zidan ilgari o'tgan Sharq mamlakatlari olimlari tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni o'rganib, fanning bu sohasi bo'yicha ham o'zining original fikrlarini bildirish; ikkinchidan antik dunyo olim, faylasuflarining ta'siri ham katta rol o'ynadi. Xususan Aristotel Ibn Sinoning falsafada "birinchi o'qituvchisi" edi. U Aristotelning "Jon haqida"gi asari bilan yaxshi tanish edi; uchinchidan, olimning meditsina sohasidagi olib borgan ishlarida odam anatomiysi, fiziologiyasi va nerv sistemasini yaxshi o'rganish va shu asosda har xil kasalliklarni davolash jarayonida kishilarning psixik xususiyatlarini bilish zarur edi; to'rtinchidan, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash masalalarini to'g'ri hal qilishda psixologiyaga murojaat qilish va undan foydalanish zarurligini anglab yetgan edi.

Ibn Sinoning psixologiya sohasidagi ta'limoti asosan ilmiy xarakterga egadir, bu uning tirik organizmdagi hayotiy biologik protsesslarni tushuntirishida yaqqol ko'rinadi.

Buyuk olim psixologiya sohasidagi risolalarida qanday masala yo'zasidan ilmiy-tekshirish ishi olib bormasin, avvalo, tekshirilayotgan ob'ekt mavjudmi yoki yo'qmi ekanligini aniqlash kerakligini uqtiradi.

Agar har qanday narsa va hodisa ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo'lsa, demak insonning yashashi va harakatida ham birorta sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri "Ruhiy quvvatlar" deb ko'rsatadi olim.

Aristotel va Forobiy kabi Ibn Sino ham odam tanasi va "Ruhiy quvvatlar" materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjud ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino psixika hayvonlar bilan insonlarga xos narsa deb ta'kidlar ekan, hayvonlar psixikasining instinctiv xarakterga ega ekanligini, inson esa ongli fikrlovchi zot ekanligini uqtiradi.

"Instinkt", - deydi olim, - shunday quvvatdirki, bu hayvon ongida mantiqsiz vujudga keladi...".

Kishining ongli va mantiqiy fikrlashida asosiy markaz miya ekanligini tushunib yetdi va miya... seziluvchi suratlarni idrok qiladi yoki saqlaydi. Xayolda saqlangan suratlarni birlashtirib yoki bo'lib ish yuritadi va shu bilan sezgi orqali kelgan suratlarga o'xshagan turli suratlarni vujudga keltiradi, - deydi u.

Bu jarayonlar Ibn Sino fikricha, nervlar vositasi bilan sodir bo'ladi, kishidagi nerv sistemasining to'zilishini ko'rsatishga harakat qiladi. Olimning fikricha, nervlarning boshlanish joyi bosh miya bo'lib, organizmning barcha tomonlariga tarqaladi va shu tufayli odam tashqi olamdan bo'ladigan ta'sirotga javob qaytarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ibn Sino Forobiyning sezgilar to'g'risidagi ta'limotini rivojlantirib, insonda beshta sezgi (ko'rish, eshitish, hid bilish, maza va teri-tuyg'u) mavjud ekanligini, o'sha sezgilar orqali, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning ta'siriga javob qaytarilishi, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to'xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib boradigan markazi bor ekanligini ishonch bilan bayon etadi. Hislarning boshlanish o'rni miya bo'lib, har qaysi (bosh) his uchun ta'siri paydo bo'ladigan ayrim organ bo'ladi. Masalan, ko'rvu markazi miyaning ensi qismida joylashgan bo'lib, bosh miyaning o'ng tomonidan keladigan nervlar ko'z qorachig'inining chap tomoniga, chap tomonidan keladigan nervlar o'ng tomonga taralgandir. Bunday nervlarning ... bir-birini kesib o'tishi har ikkala ko'zning barobar teng ko'ra olish uchun zarurdir, deb ta'kidlaydi.

Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol xotirasi va iroda sifatlariga yuksak baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-birlari bilan mustahkam bog'liq ekanligini anglaydi.

Ayniqsa, Ibn Sinoning mijozlar (temperament) to'g'risidagi fikrlari tabiiy-ilmiy jihatdan diqqatga sazovordir. Bu sohadagi ta'limot qadimgi Gretsiya olimi Gippokratning (miloddan avvalgi U asr) gumaral nazariyasiga asoslanadi.

Ibn Sino ham Gippokrat kabi odam tanasida to'rt xil modda bor(safro, qon, qora o't, balg'am), shu moddalardan birortasi organizmda ko'proq bo'lsa, bu odam mijozining (temperamenti) tipini belgilaydi. Olimning ta'rificha, elementlarning (moddalar) nihoyat darajada mayda bo'laklardagi qarama-qarshi kayfiyatlarining bir-biriga ta'siridan paydo bo'lgan kayfiyat mijoz deb ataladi.

Ibn Sino kishi psixikasining individual xususiyatlari masalasi bilan ham qiziqadi. Uning fikricha, kishilarning individual farqi ular mijozining mo'tadil yoki nomo'tadil bo'lishiga bog'liqdir. Masalan, mo'tadil mijozli odamlarning barcha harakatlari bir-biriga monand, tugallangan va yetuk bo'ladi. Bunday tipdagи odamlarning tafakkuri, xayoli va xotirasi kuchli taraqqiy etgan, axloqli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Umuman, Ibn Sino psixologiyaning ko'pgina masalalari yo'zasidan original, progressiv fikrlar qoldirdiki, bu bilan psixologiya fanining keyingi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Beruniy psixologiya sohasida o'zidan ilgari o'tgan olimlar - Forobiy, Xorazmiy zamondoshi bo'lgan Ibn Sino asarlarini va Hindistondagi psixologik fikrlarni yaxshi o'rganib, hayotiy tajribalar asosida psixologiya sohasida original fikrlar qoldirgan.

Beruniy insonning barcha mavjudotlardan ustunligini uning tafakkurga ega ekanligi bilan izohlaydi. Insonda idrok, tasavvur, xayol, xotira kabi psixik protsesslarning mavjudligi va ularni ishga solishni isbotlab beradi.

Olim o'qigan, eshitgan, ko'zatishdan olgan bilimlarning kishi xotirasida mustahkam saqlanib qolishi masalasiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun ham u kishi faoliyatida xotiraning roli katta ekanligini va uning ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi. Beruniyning asoslab beradigan barcha narsa xotirada yaxshi saqlanib qolinadi, uni tez va oson esga tushiriladi, degan fikri diqqatga sazovordir.

Olim kishi xotirasi to'g'risidagi fikrida ilmiy va diniy nuqtai nazarni bayon etadi. U bir joyda xotira kishiga "Olloh taoloning bergan in'omidir" va u hosil qilinmaydi, degan bo'lsa, ikkinchi bir joyda bu fikrni rad etib, "Xotiraning yuksak darajaga ko'tarilishi zo'r berib va qunt bilan ishlash natijasidir", deydi.

### Takrorlash uchun savollar:

1. Psixologiya fanining mavzusi baxsini aytинг.
2. Psixikaga ta'rif bering, uning moxiyatini izoxlang.
3. Psixika va ong terminlarining tafovutini aytинг, misollar keltiring.
4. Psixologiyaning shaxsni urganish usullarini izoxlang.

## 5. Psixologiyaning nazariy va amaliy axamiyatini aytib bering.

### **3-Mavzu:XVIII-XIX asrlarda psixologiyani rivojlanishi.**

#### **REJA.**

1. XVIII asr psixologiyasiga umumiyl tavsif.
2. Fransuz va nemis psixologiyasini rivojlanishi.
3. Assotsiativ psixologiyani yo'zaga kelishi va rivojlanishi.
4. Assotsiativ psixologiyaning klassik nazariyasi.
5. XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyani rivojlanishi
6. Eksperimental psixologiyani shakllanishi.

XIX asrning oxirlariga kelib psixologiyada tarixiy psixologiya, yosh psixologiyasi va zoopsixologiya kabi tarmoqlar paydo bo'ldi.

Tarixiy psixologiya odam psixikasi va ongining paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari masalalarini o'rganadi.

XX asr boshlariga kelib barcha fanlar uchun bo'lganidek, psixologiya fanining taraqqiyoti uchun ham keng yo'l ochib berildi. Biz XX asr psixologiyasini taraqqiyot nuqtai nazaridan quyidagicha davrlashtirishni maqsadga muvofiq deb topdik.

**1. 20-yillar psixologiyasi** - bu davr psixologiyasining tarixida turli oqimlar o'rtaсидаги kurash, kuchli munozara yillari hisoblanadi.

20-yillar psixologlari oldida bixevoirizm va refleksologiyaga qarshi kurash vazifasi turar edi. Chunki bu davrda bu oqimlar keng tarqalgan bo'lib, refleksologiya hatto oliv o'quv yurtlariga fan sifatida kiritilgan edi.

20-yillar psixologiyasida har xil fikrlarga qarshi kurashda psixonevrologiya fanlari bo'yicha birinchi (1923 yil) va ikkinchi (1924 yil) Butunrossiya s'ezdlarining ahamiyati katta bo'ldi. Bu s'ezdlarda empirik psixologiya va refleksologiya vakillari qattiq tanqidga uchradir va 1930 yilga kelib bu oqimlar tugatildi.

**2. 30-yillar psixologiyasi** - bu yillar psixologiyasi mashhur rus psixologlari L.S.Vo'gotskiy, P.P.Blokskiy va I.P.Pavlovlar nomi bilan bog'liqdir. Bu davrda umumiy psixologiya, bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiya sohasida bir qancha muhim tadqiqotlar vujudga keldi.

L.S.Vo'gotskiy (1896-1934) umumiy, bolalar va pedagogik psixologiya bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib bordi. 1917 yilda Moskva universitetining tarix-filosofiya fakultetini tamomlagach, Gomelda ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlaydi. A.S.Vo'gotskiy 1924 yilda MGUga ishga chaqiriladi, shunday so'ng psixologiya institutida, N.K.Krupskaya nomidagi tarbiya Akademiyasida ishlaydi. Ana shu davrda uning psixologik tadqiqotlar olib borish sohasidagi faoliyati boshlanadi.

Odamda oliv nerv psixik funksiyalarining paydo bo'lishi, psixik protsesslarni o'rganish usullari, odam ongining ijtimoiy-tarixiy mohiyati, logik xotira, ixtiyoriy diqqat, tushuncha va tafakkurga oid fikrlari 30-yillar psixologiyasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

L.S.Vo'gotskiyning "Tanlangan psixologik tadqiqotlar" (Moskva, 1966), "Yuqori psixik funksiyalar taraqqiyoti" (Moskva, 1960) kabi asarlari 30-yillar psixologiyasiga qo'shilgan munosib hissadir.

Ivan Petrovich Pavlov (1849-1936) mashhur rus fiziolog-psixolog olimidir. I.P.Pavlov birinchi bo'lib oliv nerv faoliyatining qonuniyatlarini haqidagi ta'limotni yaratdi.

Ryazandagi diniy bilim yurtini 1864 yilda tamomlab, seminariyada o'qishni davom ettirishga kirishgan I.P.Pavlovni seminariya ta'limi qiziqtirmaydi. Shundan so'ng I.P.Pavlov Peterburg universitetiga o'qishga kiradi. U universitetda a'lo baholarga o'qish bilan birga ilmiy ish ham olib boradi. I.P.Pavlov 1874 yilda universitetni oltin medal bilan tugatgach, meditsina-xirurgiya akademiyasining uchinchi kursidan o'qishni davom ettiradi. Akademiyada o'qish davomida 10 dan ortiq ilmiy asar yaratadi. Bu asarlari uchun ham u oltin medal bilan mukofotlanadi.

I.P.Pavlov 1879 yilda o'qishni a'lo baholar bilan tugatib, professor S.P.Botkin laboratoriyasida ishlaydi va 1883 yilda meditsina fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlaydi. 1890 yilda akademianing professor lavozimiga ko'tariladi va 1891 yildan boshlab eksperimental meditsina institutining fiziologiya bo'limini boshqaradi.

I.P.Pavlovnning 1904 yilda ovqat hazm qilish organlari sohasidagi tadqiqotlari Nobel mukofotini oladi. Shundan so'ng I.P.Pavlov keng shuhrat qozona boshlaydi. 1913 yilda uning tashabbusi bilan oliy nerv faoliyatini o'rganish uchun eksperimetal meditsina instituti qoshida maxsus bino quriladi va bu yerda maxsus kameralarda shartli reflekslar o'rganila boshlaydi.

I.P.Pavlov rahbarligida 1921 yilda Leningrad yaqinidagi Koltushi (hozirgi Pavlovo) qishlog'ida biologik stansiya qurildi. Keyinchalik bu stansiya psixologik tadqiqotlarning ilmiy markaziga aylantirildi.

Akademik I.P.Pavlov umrining oxirigacha eksperimental meditsina laboratoriysi va Koltushi qishlog'idiagi biologik stansiyaga rahbarlik qildi.

Shunday qilib, akademik I.P.Pavlov va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan psixologik tadqiqotlar 30-yillar psixologiyasi taraqqiyotida muhim o'rinni egalladi va bu davrga kelib psixologiya fani o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi.

**3.** Vatan urushi yillari psixologiyasi. Vatan urushi davri barcha fanlarga bo'lganidek, psixologiya fani oldiga ham nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Bu yillar psixologiyasining asosiy masalalari jangchilarda va front orqasi mehnatkashlarida yuqori harbiy - irodaviy sifatlarning tarkib topishiga ( chidam, toqat, qat'iyat, jasorat, mardlik, qahramonlik, hujumkorlik, saqlanish, harbiy qurollardan mohirona foydalanish, uchuvchilik mahorati, ko'rish, eshitish sezgirligi, samimiy o'zaro hurmat, do'stlik, birodarlik, mehribonlik va h.k.) munosib hissa qo'shishdan iborat edi. Psixologiya fani bu kabi vazifalarni muvaffaqiyat bilan uddaladi.

**4.** Vatan urushidan keyingi davr psixologiyasi. Bu davrda barcha fanlar qatori psixologiya fani ham o'z taraqqiyoti sari dadil odimladi. Psixologik bilim turmushning barcha sohalariga kirib bordi. Buning natijasida psixologiya fanlari tizimida bir qancha yangi tarmoqlar vujudga keldi. Lekin sovet ijtimoiy to'zumi hukmron bo'lgan bu sharoitda milliy psixologik xususiyatlarni o'rganish yo'lga qo'yilmadi. Psixologiya sohasida yirik mutaxassislar tayyorlash uchun respublikamizda shart-sharoit yaratilmadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda psixologiya fanini oliy o'quv yurtlarida o'qitish yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham, bu fanni o'qitishda asosan Rossiya psixologlari tomonidan yozilgan darslik va qo'llanmalardan foydalanib kelindi. Bu manbalarda o'zbek xalqining va umuman Respublikamiz xalqlarining psixologik o'ziga mosligi aks etmay keldi.

XIX va ayniqa XX asrlarda psixologiya faqat empirik (tajribaga asoslangan) fan sifatida taraqqiy etadi. Bu davrda uning predmeti, ya'ni o'rganadigan voqelik sohasi kuchli ravishda kengaydi, bu fanning alohida yangi sohalari paydo bo'ladi va shakllanadi, yangi, yanada samaraliroq tekshirish metodlari kashf qilinadi. Psixologiyaning borgan ma'lumotlaridan amaliy faoliyatning turli sohalarida foydalanila boshlandi. Ayni vaqtida, XIX va XX asrlarda idealizm bilan materializm o'rtasidagi kurash yanada chuqurlashadi, bu kurashning yutuqlari esa filosofiyaning tantanasi va mustahkamlanishi uchun idealizmga qarshi umumiy kurashning vositasini bo'lib qoladi.

### **Assotsiativ psixologiya**

Bekon va Gobbsdan boshlab empirik psixologiyaning vazifalaridan biri psixik hodisalar tarkib topgan elementlarni aniqlashdan iborat edi. Yuqorida aytilganday, Bekon bilan Gobbs tasavvur hamda sezgini shunday elementlardir deb hisobladilar. Psixologlar psixik elementlar murakkab struktura (tarkib) va jarayonlarga birikishida bo'ysunadigan qonunlarni topishga intildilar. Masalan, Gobbs psixik hodisalar intilish va kochish qonuniga bo'ysunadi deb hisoblagan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ingliz psixologlari Yum va Gartli har xil psixik hodisalar va elementlar ideya tasavvurlarning yaxlit bo'lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta'limotni ilgari surdilar. Assotsiatsiyalar haqidagi bunday ta'limot bir vaqtida idealistik, ham materialistik yo'nalishda paydo bo'ldi. Idealistik yo'nalishning vakili (va umuman assotsiativ oqimning asoschisi) David Yum (1711 – 1776 y.) edi. Uning ta'limotiga ko'ra, ongning barcha murakkab hodisa va mahsullari va o'zining «men» ekanligini (o'z-o'zini) anglash, o'zaro tashqi bog'lanishlar – assotsiatsiyalar bilan bog'langan «tasavvur birikmalari» dir, xolos.

Materialistik oqimning vakillari David Gartli (1705– 1757 y.) va uning shogirdi Djozef Pristli (1733– 1804 y) edilar. Ular assotsiativ tasavvurlarni miyadagi fiziologik bog'lanishlarga tenglashtirib qo'ydilar. Gartli psixologiyaga ruhning fizikasi deb qaradi.

Pristli barcha psixik jarayonlar miyaning tebranishlaridir, deb jar soldi. U psixik va fizik hodisalar o'rtasidagi principial farqni inkor qildi va psixologiyaga fiziologiyaning bir qismi deb qaradi.

Assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyati tarkibidagi muhim roli haqida ta’limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiyaning ichida «assotsiativ psixologiya» deb atalgan alohida oqim paydo bo‘ldi, Bu oqim XIX asrning uch choragi mobaynida hukmron mavqeini egallab qoldi. XIX asrda assotsiativ psixologiyaning tarafдорлари Angliyada Djems Mil (1773–1836 y.), Djon Styuart Mil (1806–1873 y.), Aleksandr Ben (1818–1903 y.), Gerbert Spenser (1820–1903 y.) edilar. Bularga Fransiyada T. Ribo (1829–1916 y.), Germaniyada Teodor Sigen (1862–1950 y.) larni va qisman Julius Ebbingao’zni (1850–1909 y.) ham kiritish mumkin.

Assotsiativ psixologiyaning vakillari barcha murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur va nutq, xayol va iroda) bir xil birlamchi psixik elementlar bo‘lgan sezgilardan va ularning nusxasi bo‘lgan tasavvurlardan hosil bo‘ladilar deb da’vo qildilar. Ayrim sezgi va tasavvurlar assotsiatsiyalarning qonunlariga binoan, o‘zaro mexanik bog‘lanishlar bilan birlashadilar. Masalan, xotira jarayonlari assotsiatsiyalarga tenglashtirib qo‘yiladi, ya’ni esda qoldirish yangi assotsiatsiyalar hosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustahkamlangan assotsiatsiyalarning jonlanishidir. Assotsianistlarning fikricha, tafakkur ruhning alohida bir qobiliyati yoki mahsus psixik qobiliyati emas, tafakkur ham faqat tasavvurlarning assotsiatsiyalar qonuniga binoan harakatlanishidir. Masalan, muhokama faqat ikkiti tasavvurning assotsiatsiyaga binoan bog‘lanishidir. Bunda ongning boshqa momentlari yo‘q. Xulosa chiqarish ikki yoki bir qancha xukmlarning assotsiatsiyasidir, bulardan ham assotsiatsiya bo‘yicha yangi hukm hosil qilinadi, ya’ni xulosa chiqarildi. Tushunchalar ham so‘zlarning bir qancha o‘zaro o‘xshash tasavvurlar bilan bo‘lgan assotsiatsiyasi (bog‘lanishi)dir deb ta’riflanadi.

Assotsiativ psixologiya vakillarining fikricha, nutq ham tasavvurdir. Masalan, Ebbingao’zning aytishicha, nutq bu «ikki elementning» mustahkam assotsiatsiyalari bo‘lib *qo’shilishidir*; bir tomondan, so‘z va gaplarning ularning ma’nolari bilan, ikkinchi tomondan, esa so‘z va gaplarning narsalar bilan birikishidir. Gap va so‘zlarning haqiqiy mohiyati nutq organlari faoliyati tufayli hosil bo‘ladigan, «ohang va shovqinlar»dan va bu faoliyat natijasida harakat va holatni sezishdan, ya’ni eshituv va kinestetik yoki nutq, ta’sirotlaridan iboratdir.

Qayd qilingan har ikkala so‘z elementlari ham o‘zaro mustahkam assotsiatsiyalar bilan bog‘langan, deb ta’kidlaydi Ebbingao’z. Nutq jarayonlarida, ya’ni fikrning shakllanishida, fikrni o‘zgalarga bayon qilishda va o‘zgalarning fikrini o‘zlashtirishda assotsiativ jarayonlar, alohida tasavvurlar, xususan so‘zlarning asosiy elementlari bo‘lgan harakat (kine tetik) tasavvurlar bilan tovush tasavvurlari o‘rtasida bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Nutq mahsus funksiya sifatida tafakkur bilan tashqi-assotsiativ bog‘lanishlardan tashqari hech qanday munosabatda bo‘lmaydi.

Bu psixologlarning ta’limotiga ko‘ra, diqqat ongimizda qolgan barcha tasavvurlarni siqib chiqargan, qandaydir bitta tasavvurlar gruppasining hukmron bo‘lishi bilan izohlanadi, emotsiyalar hush va nohush hislarni anglash bilan birlashgan sezgi hamda tasavvurlarning yig‘indisidir va hokazo. Assotsionistlar inson shaxsining o‘zini ham o‘z tanasini sezishga va shunga mos keladigan tasavvurlarga («tasavvurlar birikmasi»ga) asoslangan ancha barqaror va doimiy psixik hodisalar komplekslari deb tushundilar. Assotsiativ psixologiya vakillarining xizmati shundan iboratki, ular ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya’ni tafakkur, nutq, va irodalarni tajriba asosida (asosan o‘z-o‘zini ko‘zatish yo‘li bilan) o‘rganishni diqqat markazida tutdilar.

Biroq keyinchalik assotsiativ psixologiya vakillari va boshqa psixologlarning bu ta’limoti amalda o‘zining yaroqsizligini ko‘rsatdi. Psixik hayotning murakkab hodisalarini faqat assotsiativ jarayonlarga tenglashtirib qo‘yish mumkin emasligi ma’lum bo‘ldi.

Tafakkur jarayonini har tomonlama analiz qilish shuni ko‘rsatdiki, tafakkurda mavjud bo‘lgan ba’zi momentlarni tasavvurlarning oddiy assotsiatsiya yo‘li bilan oddiy bog‘lanaverishlariga tenglashtirish mumkin emas va shu momentlar bilan tafakkur oddiy assotsiativ jarayonlardan tubdan farq qiladi.

Biz assotsiativ protsessda, avvalo, tasavvurlar harakatini ko‘ramiz, bunda ongimizda yangidan hosil bo‘lgan har qanday tasavvur avvalgi tasavvurlar yoki idrok tufayli hosil bo‘ladi. Lekin, bir xil turki (idrok yoki tasavvur;) orqali birin ketin paydo bo‘lgan tasavvurlar o‘z yo‘lida har xil yo‘nalishga ega bo‘lishlari mumkin.

Birinchidan, tafakkurda ham albatta, tasavvurlar yoki boshqa psixik mahsullarning harakati sodir bo‘ladi. Lekin bu yerda bu harakat avvalgi idrok va tasavvurlar turkisi sodir bo‘lmasdan, balki dastavval qo‘yilgan maqsad va vazifa bilan belgilanadi va boshqariladi. Tafakkur maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan protsessdir. Tafakkur jarayoni hamma vaqt birorta masalani hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ikkinchidan, assotsiativ jarayonlar esa passiv jarayonlardir. Assotsiativ qonunga binoan tasavvurlar harakati go'yo o'z-o'zicha ro'y beradi, bu harakat oldindan belgilanmasdan, ongli kuch sarflamagan holda boraveradi. Agar tasavvurlarning assotsiativ oqimida faollik bo'lsa ham, u beixtiyor faollikdir.

Bu o'rindagi beixtiyor faollik shaxsning emotsiyal holati bilan yoki mavjud tasavvurlar tufayli ro'y beradigan emotsiyal momentlar bilan belgilanadi.

Tafakkur esa, aksincha, oldindan ongli kuch (diqqat) sarflash yo'li bilan sodir bo'ladigan aktiv jarayondir. To'g'ri, tafakkur jarayonlaridan ham passiv momentlar bo'ladi, lekin ular bu o'rinda faqat qo'shimcha va yordamchi ahamiyatga ega bo'ladilar. Passiv momentlar tafakkur mohiyatini belgilab bermaydilar, ular birlamchi emas, balki ikkilamchidir, ko'pincha aqliy taraqqiyotning yuksak bosqichlarida paydo bo'ladilar.

Uchinchidan, assotsiativ jarayonlarda faqat esga tushirish tajribadan hosil bo'lgan, sezilgan va idrok qilingan narsalardan nusxa ko'chirishgina bordir. Tasavvurlar assotsiatsiyasi faqat reproduktiv (takrorlovchi) jarayondir. Bu jarayonlar ongimizda yangi mazmun hosil qilinmaydi.

Tafakkur mahsuldor (produktiv) jarayondir.

Bunda ongimiz yangi mazmunga, yangi mahsulotga ega bo'ladi. Bu yangi mahsulot ob'ektiv bog'liqning shunday momentlarini aks ettiradiki, bu momentlarni bevosita sezgi organlari orqali bilish mumkin emas, binobarin, tasavvurlarda ham takrorlash mumkin emas.

## Eksperimental psixologiya

Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa tabiat fanlarining gurillab o'sishi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bo'lgan eksperimental metodning keng qo'llanishiga fanning bunday o'sishiga yordam berdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq, psixologlar o'rtasida psixik hodisalarini o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmikan degan masala maydonga chiqdi.

Bu masala bo'yicha filosof Kant o'z fikrini aytdi. Uni fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarini o'lhash mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish mumkin emas.

Psixik hodisalarini o'lhashning mumkinligi, binobarin, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I. Gerbart (1776–1841 y.) ijobjiy fikr aytgan. U «psixologiyada matematikani tatbiq qilish mumkin va zarurligi haqida» shunday degan: «Mening tekshirishlarim amalda faqat, psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir».

Gerbartning fikricha, asosiy psixik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlardan iboratdir. Ruhiy holatlar doimo o'zgarish jarayonida bo'ladilar. Tasavvurlarning bu doimiy o'zgarish va almashish jarayonida ma'lum darajada doimiylik qonuniyati bor. Bu doimiylik miqdori tomonini o'lhash mumkin. Shuning uchun ham, Gerbartning fikricha psixologiyaga matematikani tadbiq qilish mumkin.

Gerbart, garchan psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydalilagini isbotlagan bo'lsa ham, lekin uning o'zi bu metoddan foydalananmadи.

## Veber va Fexner

Psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish bo'yicha dastlabki ishlarni fiziolog Veber (1796–1878 y.) va fizik Fexner (1803 – 1887 y.)lar amalga oshirdilar. Veber va Fexnerning maqsadi tashqi ta'sirotlar (fizik omillar) va ularning muvofiqi – sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarini topishdan iborat edi. Fexner eksperimental metodlar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni ko'zg'atuvchi ta'ssurotlar ta'siridagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi ko'zg'atgich logarifmasiga proporsionaldir degan psixofizik qonunni kashf etadi. Veber va Fexnerlar o'tkazgan tajribalar «Psixofizika» degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi.

Veber va Fexner ishlarning ahamiyati, asosan, shundan iboratki, ular birinchi bo'lib psixologiyani, tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotladilar. Shu vaqtgacha faqat ko'zatish, asosan, o'z-o'zini ko'zatishdan foydalanim kelayotgan psixologiya endi aniq, fanlardagi ob'ektiv metoddan foydalana boshlaydi.

## V. Vundt

Eksperimental psixologiya taraqqiyotida ayniqsa nemis fiziologi va psixologi Vilhelm Vundt (1832–1920y.)ning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini

ko'zatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriylari fan edi. Vundt eksperiment va o'lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo'lib qolgan bir qancha metodlarni, ya'ni qo'zg'atish metodi, ifodalash metodi va reaksiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi.

Vundt 1879 yili birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini kashf qildi.

Oradan ko'p vaqt o'tmasdan (1881 y.) u Berlin universiteti ho'zurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi. Vundt shug'ullangan masalalardan biri o'sha vaqtida astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtida ikkita har xil o'tkazgichga to'plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun Vundt (laboratoriya tashkil qilinganga qadar) 1861 yilda alohida mayatnik ish o'ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlanadi va har bir ma'lum vaqtdan keyin shing'irlaydi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Ilmiy (izohli) psixologiyani oyoqqa turg'izish uchun Vundt qo'shimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mifologiya va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatni ilgari surdi.

Leypsig laboratoriyasi va institutidan namuna olib, Germaniyaning boshqa universitetli shaharlarida ham, shuningdek boshqa mamlakatlarda ham, jumladan Fransiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil kilindi. XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil kilindi: Moskvada Tokarskiy, Qozonda – Bexterev, Odessada, N.N.Langerlar tomonidan shunday laboratoriya ochildi. 1911 yil Moskva universiteti ho'zurida, mahsus ko'rilgan binoda professor Chelpanov rahbarligida eksperimentnal psixologiya instituti tashkil qilinadi. Hozirgi vaqtida bu institut RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi.

Professor A.F.Lazurskiy (1874–1917 y.) tomonidan eksperimental metodning alohida turi – tabiiy eksperimental metodning alohida turli tabiiy eksperiment metodi ishlab chiqilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o'rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta'lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va unumli foydalanilmoqda.

Eksperimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta'sir ko'rsatdi.

Bu metodning yordamida oddiy ko'zatish yoki o'z-o'zini ko'zatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lmagan ko'p ma'lumotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlangan, psixik jarayonlardagi, ayniqsa, sezgilar, idrok, diqqat, xotira sohasidagi ba'zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Eksperimental analiz yo'li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlari ochilgan.

Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental metodning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohalarida – o'quv tarbiya ishlarida, meditsinada, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashda, sud ishlarida, san'atda juda ko'p foyda keltirdi.

#### **4-Mavzu:XIX –XX asrlarda xorijda psixologiyani rivojlanishi.**

##### **REJA.**

- 1.Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi.
- 2.Strukturalizm.
- 3.Vyusburg maktabi.
- 4.Fransuz psixologiya maktabi.

XVIII asr fransuz materialistlari Kondilyak (1715– 1780 y.), Kabanis (1757–1808 y.), Lametri (1709–1751 y.), Gelvetsii (1715–1771 y.), Golbax (1723–1789 y.) psixika haqida izchil materialistik ta'limot yaratdilar.

XVIII asr fransuz materialistlari birdan-bir asos – materiya deb ta'lim berdilar. Ular materiya tushunchasini qadimgi grek materialistlaridan olgan edilar, ya'ni materiya atomlardan tashkil topgan bosh negizdir deb fikrladilar, Tabiatdagilari har xil narsalar faqat bitta materiyaning ko'rinishidir deb qaradilar. Inson, tabiatning bir qismi sifatida, o'zining ham jismoniy, ham psixik mohiyatiga ko'ra moddiyidir deb tushunildi. Bu materialistlar ruhning mustaqil holda mavjud

bo‘lishini inkor qildilar va psixik jarayonlarning mohiyatini fiziologik jarayonlarga tenglashtirib qo‘ydilar. Fransuz materialistlarining qoidasi psixika miyaning fiziologik jarayoni, u moddiy protsessdir degan fikrdan iborat. Bu qoida spiritualizm va umuman idealizmga, uning moddiy bo‘lman psixika va ichki tajriba haqidagi ta’limotiga qarama-qarshi qo‘yilgan edi. Lametri (vrach) aniq materiallarga, ayniqsa patologiya sohasidan olingan ma’lumotlarga asoslanib o‘zining «Inson – mashina» degan mashhur kitobini yozdi. Asarda u shunday deb yozadi: «Ruhning barcha qobiliyatları miyaning va butun gavdaning to’zilishiga bog‘liq bo‘lganligi uchun ravshanki, ular shu to’zilishning o‘zidan iboratdir».

Psixikani fiziologik jarayonlar bilan bunday tenglashtirish Kabanis tomonidan uning «Insonning jismoniy va ahloqiy tabiatini o‘rtasida munosabat» nomli asosiy asarida keskin qo‘yiladi. Buni Kabanis quyidagicha ifodalaydi: «Fikrni keltirib chiqaradigan jarayonlar haqida aniq, tushuncha hosil qilish uchun oshqozon va ichaklar ovqat hazm qilganday, jigar o‘t ajratib chiqarganday, qulq oldi, jag osti va til osti bezlari so‘lak ajratganday bosh miyani ham faqat fikr ishlab chiqarishga tayinlangan alohida organ deb qaramoq kerak». Biz, bosh miya ma’lum ma’noda ta’sirotlarni qaytadan ishlaydi, u organik holda fikr ajratib chiqaradi, deb hisoblaymiz».

Biz bunday fikrlarni XVIII asrning boshqa materialistlarida ham uchratamiz. Bunda, XVIII asr materialistlari psixik hayotning barcha hodisa va jarayonlari, barcha tabiat jarayonlari va hodisalari singari, mexanika qonunlari bilan tushuntiriladi. Engels XVIII asr fransuzlarining kamchiliklari haqidagi mulohazalarida shunday deydi: «O‘simlik va hayvon organizmi juda kam tekshirilgan edi, uning ishlari sof mexanistik sabablar bilan tushuntirilar edi. Dekartning nazarida odam hayvon bo‘lgani singari, XVIII asr materialistlarining nazarida odam mashina bo‘lgan. Psixik hayotni mexanistik tushunishning sababi shundaki, XVIII asrda boshqa fanlar orasida eng taraqqiy qilgani mexanika edi. Fransuz materialistlari odamda ro‘y bergen hamma hodisalarni shu mexanika qonunlari asosida tushuntirishga urindilar. Fizika, ximiya, biologiya fanlari o‘sha vaqtarda endigina bosh ko‘tara boshladi. F.Engels fransuz materialistlarining mexanistik qarashlari asossiz deb ko‘rsatadi.

XVII va XVIII asrlarda psixologiya (falsafaning qismi sifatida) Kiev-Mogilyan akademiyasida (1632–1815 y.) va Moskvadagi Slavyan-Grek-Latin akademiyasida (1687–1814 y.), o‘qitish predmetiga aylandi.

yBu akademiyalariing professorlari psixologiyaga oid (asosan studentlar uchun qo‘llanma tariqasida ko‘pgina asar yozganlar), ularda ruh haqidagi metafizik mulohazalar emas, balki tajriba qilib ko‘rish mumkin bo‘lgan ba’zi psixik hodisalar haqidagi ko‘zatishlardan olingan ma’lumotlar asosiy o‘rinni egallagan edi. Masalan, Kievlik olimlar inson aqliy faoliyatida tashqi tajribaga alohida z’tibor berdilar. Ular tafakkur faoliyati faqat sezgilar asosidagina ro‘y berishi mumkin, deb hisobladilar. Lokkdan 45 yil oldin (1690 i.) Innekentiy Gizel asarida quyidagicha qoida yozilgan ekan: «Agar sezgilardagi narsalar bo‘lmasganda edi, intellektda (inson aqlida) hech narsa bo‘lmas edi».

Endi shu narsa ma’lumki, Kiev olimlari I. Myuller dan 200 yil ilgari sezgi organlarining mahsusligi haqidagi masalani qo‘ydilar va uni hal qilishga intildilar, Innekentiy Gizelning talqin qilishicha, sezgi organlarining mahsusligi bu organlarga tashqi olamdag (ob’ekt) predmet va hodisalarining ta’sir etishi tufayli paydo bo‘lgan, Kiev filosoflarining asarlarida monokulyar va binokulyar ko‘rish haqidagi, xotira tasavvurlari va xayol tasavvurlarining farqlari haqidagi, emotsiyalarning fiziologik asoslari haqidagi, iroda va uning emotsiya hamda tafakkurning birlashishidan rivojlanishi haqidagi masalalar ham talqin qilingan.

Kiev akademiyasining olimlari Dekart ta’siriga berilmadilar, hayvonlarda ham ruhiy hayotning borligini ta’kidladilar. Ular inson psixikasining hayvon psixikasidan muhim farqiga to’xtalib, insonga nutq va aqlii iroda xosdir, deb ta’kidladilar.

Moskva – Slavyan – Grek – Latin akademiyasida o‘quv ishlari (xususan psixologiya bo‘yicha ham) Kiev – Mogilyan akademiyasi namunasida o‘tkazildi.

Psixologiyaning dastlabki kurslari Ioannikiy Lixud tomonidan asosan Aristotel, Ioan Damaskin va Foma Akvinat ruhida yozilgan edi. Keyinchalik (tahminan 1700 yillarda) Feofilakt Lopatinskiy va boshqalarning asarlarida Dekart, Volf, Leybnits va dastlabki empirik oqim psixologlarining ta’siri ko‘zga tashlanadi, F. Lopatinskiy o‘zining ruh haqidagi mulohazalarida ovqatlanish haqida, qon aylanish haqida, temperament haqida va turli yoshdagilarning xususiyatlari haqidagi ta’limotni bayon qiladi. Tashqi va ichki hislarni tekshirishga alohida e’tibor

beriladi.

Psixologiya kurslarida asosiy o'rinni ruh, aql va iroda haqidagi boblar ishg'ol qilgan edi.

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlariga kelib, Moskva hamda Kiev akademiyasining olimlarida o'rta asr ratsionalistik psixologiyasidan faqat inson psixik hayotiga oid barcha hodisalarning g'ayri jismiy substansiyasi hisoblangan ruh haqidagi ta'limot qoldi, xolos. Bu idealistik psixologiya edi. Biroq, XVIII asr rus psixologiyasida materialistik qarashlar tashkil topa boshlaydi. O'sha zamon materialistik psixologiyasining eng ko'zga ko'ringan vakillari M. V. Lomonosov hamda A. P. Radishchevlardir.

M. V. Lomonosov (1711 –1765 i.) o'zining asarlarida psixologiya masalalariga, xususan, sezgilar sohasiga katta e'tibor berdi va bir qancha hodisalarni materialistik jihatdan tushuntirdi. Masalan, sezgilarning manbai sezgi organlarimizga tashqi predmetlarning fizik ta'sirotidir, deb ko'rsatdi. U sezgilar inson tomonidan atrofdagi olamni bilishning shartidir, chunki ular inson ongiga bog'liq bo'limgan holda mayjud bo'lgan moddiy predmetlarning miyaga bevosita ta'sir qilishining natijasidir, deb hisobladi.

Lomonosov o'z zamonasida keng tarqalgan sezgilar sohasidagi, «birlamchi va ikkilamchi sifatlar» haqidagi ta'limotga qarshi chiqdi.

Uning ta'limotiga ko'ra, ikkilamchi sub'ektiv sifatlar yo'q. Bizning barcha sezgilarimiz ob'ektivdir.

A.P.Radishchev (1749–1802 y.) asosan inson tabiatini tushunishdagi dualizmga, ruhiy hayotni moddiy hayotdan ham miyadan ajratib qo'yishga, nutqni tafakkur dan ajratib qo'yishga qarshi chikdi.

U psixikani miyadan ajratish mumkin emas va uning manbai hissiy idrok qilinadigan olamdir, deb ta'kidladn. «Ruh tan bilan birgalikda o'smaydimi, uning bilan birga ulg'ayib mustahkamlanmaydimi, uning bilan birga so'lib o'tmaslashmaydimi? Sen barcha o'z tushunchalaringni hisdan olmaysanmi?» – deb yozgan edi u. Miya – psixikaning moddiy asosi, busiz inson aqlii mavjudot bo'la olmaydi.

Radishchev inson ongingin taraqqiyotida nutqning katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan, nutq «fikrlarni bir joyga to'plash vositasidir; modomiki narsaga nom berilmas ekan, narsa haqidagi fikr so'zlar bilan ifodalanmas ekan, u bizning aqlimizga yotdir va busiz bizning aqlimiz ishga solinmaydi».

XIX asrning boshidan boshlab maorifning o'sish bilan psixologiya bilimlari sistemasida empirik psixologiya hukmron mavqeini egallay boshladi, buning ichida esa materialistik olimlar tez o'sa boshladi.

## 5-Mavzu:XX asrda psixologiyani rivojlanishi.

### REJA.

- 1.Psixologiyada metodologik inqiroz.
- 2.Bixevoirizmga umumiyo tavsiynomasi.
- 3.Neobixevoirizmni yo'zaga kelishi va rivojlanishi.
- 4.Geshtaltpsixologiyaga umumiyo tavsiif.
- 5.Psichoanaliz va uning rivojlanishi.
- 6.K.Yungning analitik psixologiyasi.
- 7.Adlerning individual psixologiyasi.

### BIXEVIORIZM (HULK PSIXOLOGIYaSI)

XIX asrning oxirida bir qancha amerika psixolog va fiziologlari, jumladan, E. Torndayk (1874–1949 y.) Dj Uotson (1878–1958 y.), K. Leshli (1890–1958 y.), A. Veys (1879– 1931 y.) va boshqalar empirik psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Ular, avvalo, bu psixologiya foydalanib kelayotgan o'z-o'zini ko'zatish metodi (sub'ektiv metod) haqiqiy ilmiy bilimlar bera olmaydi, chunki uning xulosalari sub'ektiv xarakterga egadir. Haqiqiy ilmiy bilimlar ob'ektiv va aniq bo'lmos'i kerak. Psixologiya filosofiyaga emas, balki hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanmog'i va boshqa tabiat fanlari, masalan, fizika, ximiya, biologiya singari, tashqi tajriba dalillari asosida ko'rilmog'i kerak. Shuning uchun ham psixologiya o'z-o'zini ko'zatish metodini uloqtirib tashlashi va faqat ob'ektiv (tashqi) metoddan foydalanishi kerak, ya'ni psixik hayotni har kim o'z-o'zida emas, balki boshqa kishilarda hayvonlarda tashqi ko'zatish va eksperiment yo'li bilan o'rganmog'i kerak. Psixologiya faqat ob'ektiv metod qamrab oladigan narsalarnigina, ya'ni tashqi sezgi organlari

yordamida idrok qilinadigan narsalarnigina o‘rganmog‘i kerak.

Psixik hayotni ob’ektiv metod bilan o‘rganishda, aftidan, ongning sub’ektiv hodisalari, inson shaxsining ichki psixik kechirmalari (ya’ni empirik psixologiya o‘rganishi lozim deb hisoblagan hodisalar) qamrab olinmay qolsa kerak. Ob’ektiv metod bilan faqat organizmning harakatlarini, ya’ni mimika, imo-ishoralar, nutq va boshqalarnigina o‘rganish mumkin. Amerika psixologiyasidagi bu oqimning vakillari ham psixolog organizmning faqat tashqi ifodali harakatlarini, inson va hayvon hulkinigina o‘rganmog‘i kerak deb da’vo qildilar.

Uotson shuning uchun ham o‘zining psixologiya sohasidagi asosiy asarini «Psixologiya hulq haqidagi fan» deb nomladi. «Bixevoir» degan so‘z inglizcha hulq, demakdir. Amerika psixologiyasidagi bu yo‘nalish shuning uchun ham «bixevoirizm» («Hulq psixologiyasi») deb ataladi.

Organizmning turli-tuman harakatlarini va umuman hayvonlar hamda inson hulqini keltirib chiqaradigan sabablar nimadan iborat degan savolning tug‘ilishi tabiiydir.

Biz odatda, organizmning harakatlari – mimika, imo-ishoralar, nutq ichki ruhiy kechirishlarning faqatgina tashqi zohiri deb bilamiz. An’anaviy – ratsionalistik va empirik – psixologiya ham bizning harakatlarimizning ko‘pchiligi ichki psixik kechiriklarning faqat tashqi ifodasidir deb ta’kidlagan.

Lekin bixevoiristlar inson xulkining bunday tushuntirishini ilmiy emas deb rad qildilar. Ularnnng da’vosiga ko‘ra, fizik va qonuniyatlariga bo‘ysunmaydigan fiziologik jarayonlar inson hulqiga ta’sir qiladigan va uni boshqaradigan hech qanday alohida psixik faoliyat yoki ong faoliyatining bo‘lishi mumkin emas.

Psixika va ong haqida Uotson: «Agar bixevoirizm fanda qandaydir ko‘zga ko‘rinarli o‘rin olinishini hohlasa (loaqal aniq, ob’ektiv metod sifatida bo‘lsa ham), u «ong» tushunchasini mutlaqo rad qilmog‘i kerak. Ong va uning tarkibiy elementlari – bularning barisi quruq gapdan iborat» deb aytgan.

Shuning bilan birga bixevoiristlar psixologiyaning oddiy terminologiyasini ham uloqtirib tashlaydilar. O‘sha Uotsonning o‘zi yana shunday deydi: «sezgi, idrok, diqqat, iroda, xayol kabi tushunchalardan, biror kimsa to‘liq tushungan holda foydalana olishini men mutlaqo bilmayman va unga ishonmayman ham».

Hayvon va insonning har bir harakati tashqi qo‘zg‘ovchilarning ta’siri tufayli ro‘y beradi. Inson va hayvonning hatti-harakatlari tashqi ta’sirotlarga berilgan *reaksiyalardir*, xolos. Bu reaksiyalar tug‘ma va turmush jarayonida hosil qilingan bo‘lishi mumkin. Tug‘ma reaksiyalarga reflektor harakatlar (instinktlar) kiradi. Hosil qilingan reaksiyalarga esa har xil malakalar kiradi. Masalan, barcha irodaviy harakatlar nutq va boshqa murakkab hulq formalari shunday harakatlardir.

Bixevoirizmning asoschisi Torndayk ko‘zatish metodi va mahsus eksperimentlar o‘tkazish bilan hayvonlarda (asosan, kalamushlarda) malaka hosil qilish jarayonini o‘rgangan. Torndayk hayvonlar psixikasini o‘rganishdagi xuddi shu ob’ektiv metodlarni inson psixik hayotini o‘rganishga ham ko‘chirish (tatbiq qilish) mumkin deb hisobladi. Inson hulqi reaksiyalar yig‘indisi sifatida bitta emas, balki butun bir qo‘zg‘ovchilar sistemasi bilan vujudga keltiriladi. Organizmning javob harakatlari yig‘indisini (hulqini) ro‘yobga chiqaruvchi barcha qo‘zg‘ovchilarning murakkab yig‘indisi bixevoiristlar situatsiya (tashqi sharoit) deb ataydilar.

Bixevoirizm nuqtai-nazaridan, inson xulki ong faoliyati bilan emas, balki tashqi qo‘zg‘ovchilarning yig‘indisini bo‘lgan situatsiya bilan belgilanadi. Iisonning psixik hayoti butunlay organizm reaksiyalarining yig‘indisiga tenglashtirib qo‘yiladi. Psixik hodisalar, psixik jarayonlar tushunchalari o‘rniga ham an’anaviy psixologik tushunchalar hisoblangan sezgi, idrok, iroda, xayol, tafakkur kabi tushunchalar o‘rniga ham har xil nom olgan reaksiyalar ishlatiladi.

Bixevoirizmning nuqtai-nazaricha, psixologiyaning vazifasi avvalo organizm har xil qo‘zg‘ovchilarni qabul qilib olishga xizmat qiluvchi va shu qo‘zg‘ovchiga javob beruvchi apparat va mexanizmlarni o‘rganishdan iboratdir. Shuning bilan birga psixologiya muayyan reaksiya tashqi muhitning inson organizmiga ta’sir qilib turgan qanday predmet va hodisalari bilan ro‘yobga chiqarilishini ham o‘rganmog‘i kerak. Binobarin, psixologiya inson reaksiyalarini faqat tasvirlabgina qolmasdan, balki qo‘zg‘ovchi bilan organizmning javob harakati o‘rtasidagi qonuniy bog‘lanish va munosabatlarni ham qidirib topishi va aniqlashi, hulqning situatsiyaga bog‘liqligini belgilab berishi lozim. Bixevoiristlarning fikricha, tashqi qo‘zg‘ovchi bilan inson hulqi o‘rtasida qonuniy, faqat mexanik bog‘lanish bor: qo‘zg‘ovchi (situatsiya) qanchalik kuchli va murakkab

bo'lsa, reaksiya (hulq) shunchalik kuchli va murakkab bo'ladi va aksincha, qo'zg'ovchi (situatsiya) qanchalik kuchsiz va oddiy bo'lsa, reaksiya (hulq) shunchalik kuchsiz va oddiy bo'ladi. Demak, bixeviorizmnng asosiy qoidalaridan biri shuki, inson hulqi hamma vaqt muhit bilan qat'iy mu vozanatda bo'ladi.

Bixevioristlarning ta'limotiga ko'ra, inson shaxsi faqat organizm yoki aniqroq qilib aytganda, eng murakkab mashina bo'lib, u o'zining barcha (elementar yoki murakkab) harakatlari bilan muhitning shart-sharoitlari va o'z organizmining strukturasi bilan qonuniy ravishda belgilangan (determinlangan)dir.

Insonning butun faoliyati, uning butun hulqi harakatlardan iborat bo'lgan fizik, mexanik protsess deb qaraladi: insonniig psixik hayoti nerv sistemasida, mushak va ichki sekretsiya bezlarida ro'y beradigan harakat va o'zgarishlarga tenglashtirib qo'yiladi.

Shuning uchun ham, agar empirik (sub'ektiv) psixologiya ruhning o'zini o'ranishdan voz kechganligi sababli uni ba'zan «ruhsiz psixologiya» deb atagan bo'lsalar, ob'ektiv psixologiyani esa «Psixikasiz psixologiya» deb atadilar.

Bixevioristlarning fikricha, psixologiya ham nazariy fan sifatida fizika singari, aniq fan bo'lmog'i kerak. Texnika sohasida fizika qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, ijtimoiy to'zum sohasida psixologiya ham shunchalik ahamiyatga ega bo'lmog'i kerak. Uotsonning fikricha, psixologiyaning oldiga shaxs va muhitni shunday tashkil qilish vazifasi qo'yilmog'i kerakki, bu bilan jamiyatda oqilona va baxtli hayot kechirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsin».

Bixeviorizm nuqtai-nazaricha, xususan psixologiyaning oxirgi vazifalari insonning yoki butun bir jamiyat (sinf) ning zaruriy hulqini tashkil qilishdan iboratdir. Psixologiya u yoki bu odam, butun bir jamiyat har qanday sharoitlarda ham qanday hatti-harakat qilishini oldindan mumkin qadar aniq va ilmiy jihatdan asoslab aytib bermog'i kerak.

Bixeviorizm nuqtai nazaricha, ta'lim va tarbiya tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar ongiga tarbiyachi yoki o'qituvchi tomonidan ta'sir qilishdan emas, balki tegishli situatsiya (sharoit) tashkil qilishdan iboratdir.

Bu situatsiya (qo'zg'ovchilar va stimullar YIG'INDISI) organizmga bevosita ta'sir qilib, inson hulqini kerakli yo'nalishda shakllantirmog'i kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonining o'zi esa, kerakli malakalar (ichki va tashqi harakatlar) hosil qilishga tenglashtirib qo'yiladi, boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya protsesssi pressirovkadan iborat qilib qo'yiladi.

## REFLEKSOLOGIYa

Amerika bixeviorizmi bilan deyarli bir vaqtida Rossiyada ham psixologiyada alohida ob'ektiv yo'nalish paydo bo'lib, uning tashkilotchisi professor V.M.Bexterev(1857–1927 y.) edi.

Bexterov ham, bixevioristlar singari, o'z-o'zini ko'zatish metodini va empirik psixologiyani sub'ektiv hamda ilmiy emas deb qattiq tanqid qildi. U ilmiy psixologiya tashqi ko'zatish va eksperimentga asoslanmog'i kerak, deb hisobladi. Sirdan turib psixika – ongi ko'zatish mumkin bo'lmaganligi uchun, psixologiya oddiy (tug'ma) va murakkab (xosil qilingan) reflekslarga asoslangan tashqi reaksiyalarni o'rganmog'i kerak. Bu nomlar Pavlovcha shartsiz va shartli reflekslarga to'g'ri keladi.

V. M. Bexterov o'z ta'limotini ob'ektiv psixologiya deb, keyinchalik esa refleksologiya deb atadi. Bexterov inson shaxsining barcha murakkab harakatlarini mashinaga o'xshagan mexanik faoliyat, reflekslar zanjiri va qo'shilishi deb hisoblaydi. Masalan, Bexterovning fikricha, inson ongingin ijod singari murakkab harakatlari ham ma'lum bir maqsadni ko'zlagan, bir-birlari bilan ulangan reflekslar yig'indisidir, maqsad esa o'zining o'tmishdagi tajribasidan yoki boshqalarning tajribasidan olinadi. Bixeviorizmdagi singari, refleksologiyada ham, hissiyot, diqqat, xotira, tafakkur, iroda kabi barcha an'anaviy psixologik tushunchalar shartsiz (sodda) reflekslar va shartli (murakkab) reflekslar haqidagi, markazlashish, reproduktiv, orientirovka reflekslar haqidagi, nutq reflekslari haqidagi ta'limotlar bilan almashtiriladi. Psixologik terminlar biologiya, fizika va mexanika sohasidagi terminlar bilan almashtirilgan edi, masalan, irradiatsiya, konsentratsiya, differensiatsiya, tormozlanish, tormozlanishning yozilishi va boshqalar.

Bexterovning psixik faoliyati haqidagi ta'limoti, aslida, amerika bixevioristlarining ta'limotini takrorlagan edi.

## VYURSBURG MAKTABI PSIXOLOGIYaSI

XX asrning boshlarida Germaniyada Vyursburg maktab psixologiyasi deb atalgan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning vakillari O. Kyulpe (1862–1915 y.), K. Byuller (1879–

1922 y.), A. Messer (1837–1937 y.), Ax Narsis (1871-1946 y.) va boshqalardir.

Ular assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar va tekshiriluvchilarini o‘z-o‘zini ko‘zatishlariga asoslangan mahsus eksperimentlar o‘tkazish yo‘li bilan, yuksak psixik jarayonlarni, asosan, tafakkurni sodda psixik elementlarga sezgilar va tasavvurlarga bo‘lib qo‘yish bu murakkab psixik jarayonlarni shu elementlardan tarkib topadilar deb ta’lim berish mumkin emasligini isbotlashga intildilar. Bu eksperimentlarning tashabbuskorlari va uyushtiruvchilari bo‘lgan Kyulpe, Messer, Byuller va boshqalar psixologik eksperimentlarini o‘zlar ustida sinab ko‘rganlar.

Ular o‘z eksperimentlarining yakunlarini analiz qilib, tafakkur yuritish aniq o‘lhash mumkin bo‘lgan vaqtini talab qiladi, deb ta’kidlashga intildilar. Biroq, tafakkur jarayonining mazmunini esa «ilintirib olish» ham mumkin emas ekan, bu protsessning tarkibidagi sezgilarni, tasavvurlarni, so‘zlarni va boshqa yaqqol elementlarni «ilintirib olish» mumkin emas ekan. Tafakkur ham, sezgi singari, birlamchi hodisa ekan: u o‘z tabiatiga ega bo‘lib, tajribaga bog‘liq emas degan xulosaga keldilar.

Vyursburg maktabining vakillari tafakkur funksiyasining birlamchiligi va o‘ziga xosligi haqidagi ta’limoti bilan, tafakkur ruhning alohida qobiliyatidir degan tafakkur hukmidagi sxolastik ta’limotni, ruhni alohida moddiy bo‘lmagan mohiyatdir deb ta’riflovchi metafizik ta’limotni faqat boshqa iboralar bilan ifodalagan holda qaytadan takrorladilar, xolos.

Vyursburg maktabining xulosalari psixologiyadagi o‘ta ketgan idealizmning vakillari, xususan, professor Chelpanov tomonidan yuqori baholandi. Chelpanov bu xulosalardan insonda moddiy bo‘lmagan alohida substansiya sifatidagn ruhning borligini isbotlovchi eng kuchli dalillardan biri sifatida foydalandi.

Vyursburg maktabi psixologlarining asarlari va ularning tafakkurning mohiyati haqidagi xulosalari chet el psixologiyasida, ayniqsa sovet psixologiyasida qattiq. tanqid qilindi. Vyursburg maktabi psixologlarining asarlari psixologiyada idealizmni mustahkamlashga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishlardan biridir.

Vyursburg maktabi psixologlari qarashlarining ilmiy jihatdan asossizligi, bixevoiristlar va refleksologlarning qarashlari singari, sovet psixologlarining tanqidiy asarlarida to‘la-to‘kis isbotlangan.

Nazariyotchilar hayvon psixikasi va inson ongingen genetik birligi hamda sifat jihatidan farqi haqidagi, inson ongingen mehnatda paydo bo‘lganligi va tarixiy taraqqiyoti haqidagi ta’limotni asoslab berib, psixika va ongni tushunishdagide idealistik va mexanistik qarashlarni mukammal tanqid qilindi. Dialektik materializm namoyondalari inson ongingen taraqqiyotida ijtimoiy-tarixiy hayot formalarining ahamiyatini ko‘rsatdilar va tarixda inson ongingen faolligini isbotlab berdilar. Metafizik – psixolog ruh nima degan narsa haqida mulohaza yuritgan. Bunda usulning o‘ziyoq behuda edi. Xususan, psixik jarayonlarni tushuntirmasdan turib, ruh haqida mulohaza yuritish mumkin emas: bu yerda progress xuddi shundan iborat bo‘lmog‘i kerakki, ruh nima, degan masalalar haqidagi umumiy nazariya va falsafiy uydirmalarni uloqtirib tashlash va ma’lum psixik jarayonlarni xarakterlaydigan faktlarni o‘rganishni ilmiy zamirida ko‘ra bilishga erishishdir.

XIX va XX asrdagi psixologiya – bu asosan empirik psixologiyadir. Psixologiyada XVII asrda paydo bo‘lgan bu yo‘nalish XIX asrda va XX asrning boshlarida o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga erishdi. Uning yutuqlariga erishuviga sabab eksperiment metodining tadbiq qilinishi edi. Uning predmet doirasi juda kengaydi. Yuqorida aytilganday, psixologiya fanining mahsus o‘z vazifalari va metodlariga ega bo‘lgan bir qancha shahobchalari maydonga keldi.

Empirik psixologiya bir butun narsa emas edi. Bu psixologiyaning ichida bir qancha yo‘nalish va oqimlar mavjud edi. Psixologiya tarixida bularidan ancha mashhur va muhimlari assotsianizm, intellektualizm, volyuntarizm, geshtal psixologiya va freydizmlar edi. Assotsiativ psixologiya haqida yuqorida gapirildi.

Intellektual psixologiya – bu psixikaning asosiy elementi va psixologik faoliyatning asosiy funksiyasi aqli intellektdir deb hisoblaydigan yo‘nalish. Intellektualistlarnnng fikricha, turlituman psixik jarayonlar. shu jumladan emotsiyal va iroda jarayonlari ham sezgi, tasavvur va tushunchalarining qo‘shilishidir deb tushuntiriladi. Assotsiativ psixologiyaning vakillari intellektualistlarga kiradi, chunki ular ham birlamchi va asosiy element tasavvurlardir deb hisoblaganlar. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmniig eng ko‘zga ko‘ringan vakili

Gerbart hisoblanadi.

Volyuntaristik psixologiya, intellektualizmdan farq qilib, psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, aktivlanishini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik jarayonlar, xususan, tafakkur ham insomning irodaviy faolligi deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologiyaning vakillari G.Lipps (1889–1941y.) G. Myunsterberg (1863–1916 y.) edilar Vilgelm Vundt ham, garchand irodaning asosi hislardir deb hisoblagan bo‘lsa ham, volyuntarist edi.

Freydizm – bu o‘z nomini avstriya nevropatologi va psixologi Zigmund Freyd (1856–1939 i.) nomidan olgan bo‘lib, psixologiya va nevropatologiyadagi alohida yo‘nalishdir.

Freyd ta’limotiga ko‘ra, shaxs psixologik hayotiniig asosi jinsiy lazzat olishga qaratilgan tug‘ma, ongsiz mayl (instinkt)dir. Lekin tarixan tarkib topgan odat, ahloqiy tamoyillar tufayli, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli bu mayl to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘siladi. Shuning uchun ham ba’zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab tug‘ilgan vaziyat o‘rtasida ichki ruhiy konflikt (to‘qnashuv) paydo bo‘ladi. Bu to‘qnashuvlar ba’zan barqaror asab kasalligiga (nevrozga) olib keladi.

Kishilik jamiyatida ko‘pchilik kishilarning hayoti va taraqqiyoti jarayonida bu tabiiy ongsiz mayl energiyasi mehnat faoliyatiga aqliy va ijodiy faoliyatga qaratiladi va sarf etiladi. Hayotning yuksak sohasiga energiyaning shu tariqa ko‘tarilishini sublimatsiya deb ataladi. Freydning ayrim shogirdlari uning ta’limotiga ba’zi bir o‘zgarishlar kiritganlar. Masalan, Adolf Adler (1870–1937 y.) fikricha, seksual (jinsiy) mayl emas, psixik hayotning asosini, balki ustunlikka, hokimiyatga, boshqa kishilar ustidan hukmronlik qilishga bo‘lgan tabiiy mayl tashkil qiladi.

Geshtalt– psixologiya, yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yo‘nalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859–1932 y.), V.Keller (1887 y.), K. Kofka (1886–1941 y.) lardir. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementar hodisalardan – sezgilardan tarkib topadi deb hisoblagan assotsiativ psixologiyani tangid qilib chiqdilar. Geshtalt psixologiyaning vakillari bu ta’limotga qarama-qarshi o‘laroq, har bir psixik hodisa yaxlit obrazdir, yaxlit struktura – Geshtaltdir degan nazariyani ilgari surdilar. Har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig‘indisiga nisabatan mazmundorroq hamda boyroqdir. Ayrim element va qismlarning yig‘indisi butunning mazmunini belgilamaydi, balki, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism va elementlarning xususiyatlarini» belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo, idrok faktlari asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok – bu sezgilarniig yig‘indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta’kidlanadi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta’limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Bu alohida-alohida yo‘nalish va oqimlar, bir qancha umumiy xususiyatga ega bo‘lgan holda (ayniqsa eng muhim momentlarda) «Empirik psixologiya» degan umumiy nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlariing birlashuviga sababchi bo‘ldi.

«Empiriklar» psixologiyani ruh haqidagi fan deb emas, «ruhiy hodisalar», yoki «ong hodisalari», yoki bo‘lmasa faqatgina ong haqidagi fandir, deb ta’rifladilar. Bu «ruhsiz» psixologiyadir (N.N.Lange). «Hech qanday metafizikasiz psixologiyadir» (A.I.Vvedenskiy).

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o‘rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan holi bo‘lish yo‘lidagn katta qadam deb hisoblash mumkin.

Yuqorida aytiganday, empirik psixologiyaning asosiy metodi ko‘zatish, tajribadir. Lekin tabiat fanlaridan psixologiya sohasiga ko‘chirilgai bu metod ichki tajriba sifatida, o‘z-o‘zini ko‘zatish (introspeksiya) sifatida boshqacha tus oladi.

Empirik psixologiya ob’ektiv ko‘zatish metodidan ham, eksperiment metodidan ham foydalangan: psixik hodisalar har xil mahsus asboblar yordami bilan mahsus laboratoriyalarda o‘rganildi; materiallarni tekshirish va yakunlashda matematik statistika (korrelyatsiya) metodlaridan foydalanildi.

Empirik psixologiyaning psixologiya fani tarixidagi ikkinchi katta xizmati tajribadan foydalanishdan, psixologik eksperimentlar o‘tkazishning metod va texnikasini ishlab chiqishdan iborat.

Psixologlar tomonidan eksperimentning tatbiq qilinishi tufayli inson psixologiyasi sohasida boy

materiallar to‘plagangan. Bu materiallarning ko‘pchilik qismi hozirgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan (masalan, Vundt va Ebbingao‘zning eksperimental ishlari). Empirik psixologiya aniqlagan ma’lumotlar va ishlab chiqqan eksperimental metod va usullar amaliyotda ham, masalan, meditsina va pedagogika sohalarida foydali bo‘lib chikdi.

### **Empirik psixologiyadagi idealizm**

O‘z-o‘zini ko‘zatish metodi empirik psixologiyaning asosiy metodi edi. Ob’ektiv ko‘zatish va eksperiment metodlari esa ikkinchi darajali o‘rin egallardi: ular faqat psixologiyadagi asosiy metod – o‘z-o‘zini ko‘zatish natijalarini aniqlashga yordam beruvchi metodlar deb hisoblanardi. Shuning uchun ham «ong hodisasi», «ichki tajriba» (nanssonning sub’ektiv kechirik)larini o‘z ob’ekta deb bilgan empirik psixologiya ko‘pincha o‘z-o‘zini ko‘zatish metodidan foydalangan, shu sababli yana «sub’ektiv psixologiya» deb nom olgan. Shu jihatdan empirik psixologiyaning uning sub’ektivizmi bilan bog‘langan eng muhim kamchiliklaridan biri idealizm va dualizm edi.

Empirik psixologiyaning vakillari bu oqim paydo bo‘lgandan boshlaboq, ruhning o‘zini ilmiy o‘rganish predmeti sifatida olishni rad qildilar va ruhning asli mohiyati haqida fikr yuritishdan, bu masalani hal qilishdan bosh tortdilar. Lekin, «ruhiy hodisalarini», «ong hodisalarini» o‘rganishni asosiy vazifa qilib olgan psixologlar o‘z ishlari jarayonida taqozo qilingan: bu ruhiy hodisalarining o‘zi nima, ularning fizik hodisalardan farqi nimada va ular inson organzmidagi fiziologik jarayonlar bilan qanday munosabatda bo‘ladilar, degan savollar bilan to‘qnash keldilar va bu savollarga javob berishga majbur bo‘lib qoldilar.

Empiriklar sub’ektiv metod (o‘z-o‘zini ko‘zatish)dan olingan natijalarga asoslanib, psixik hodisalarini tasvirlab va analiz qilib, bu hodisalarini fizik hamda fiziologik hodisalar bilan taqqoslaydilar. Bu taqqoslashlar natijasida ular odatda, tahminan quyidagicha xulosalar chiqaradilar.

Psixik hodisalar o‘z xususiyatlari ko‘ra fizik hamda fiziologik hodisalardan farq qiladi, masalan, psixik hodisalar fazoviy jismlar emas (ya’ni ularning uchburchak, kvadrat kabi geometrik shakllari bo‘lmaydi); ular og‘irlik, rang singari boshqa fizik xususiyatlarga ham ega emas, shunga asoslanib, empirik psixologiyaning vakillari psixik hodisalar fizik va fiziologik jarayonlardan tubdan farq qiladi, deb hisobladilar. Psixik hodisalar moddiy emas, balki ruhiydirlar. Modomiki, psixik hodisalar o‘z tabiatiga ko‘ra moddiy emas ekan, u holda ularning negizida qandaydir moddiy bo‘lмаган alohida substansiya bo‘lsa kerak, dedilar, ya’ni alohida moddiy bo‘lмаган substansiyadan iborat bo‘lgan ruhning mavjudligiga ishonadilar. Masalan, Djems empirik psixologiya vakillari haqida gapirar ekan (uning o‘zi ham shularga mansub edi), ular ongni o‘rgatayotganlarida, ruhning o‘zini emas, balki sochilgan substansiya ruhdan tarqalgan aks-sadoni go‘yo uning zohirini o‘zoqdan ovlayaptilar deb e’tirof etadi. Vundt materiya tabiatshunoslikning yordamchi tushunchasi bo‘lgan materiya singari, ruh ham psixologiyaning yordamchn tushunchasidir, deb hisobladi, Vundt faqat ruhning substansionalligini dolzarblik bilan almashtiradi, xolos.

Shunday qilib, empirik psixologiya dastlab ruhni o‘rganish ob’ekti sifatida olishni rad qilgan bo‘lsa ham, lekin keyinchalik uning eng yirik vakillari oqibat-natijada o‘z nazariy mulohazalariga asosan ruhni tan olishgacha bordilar. Empirik psixologiyaning vakillari ongni uning moddiy asosidan, inson faoliyatidan ajratib qo‘ydilar.

Bu psixologiya vakillarining psixik hodisalarini qanday bo‘lmasin materialistik talqin qilishdan chetlashishga intilganliklari, materializmga har qanday yaqinlik shubhasidan tashqarida bo‘lishga intilganliklari (masalan, Djems) empirik psixologiyaning tamomila idealistik maqsadlarni ko‘zlaganidan dalolat beradi. Ularning har biri hattoki psixologiyaning vazifasi materializm bilan kurashdan iborat deb bilganlar.

Rossiyada ham empirik psixologiya idealizm bilan sug‘orilgan edi. Rus psixologiyasidagi bu yo‘nalishning vakillari N. Ya.Grot, A.N.Vvedenskiy, Lopatin, Losskiy, Frank va boshqalar edilar.

Ayniqsa o‘sha vaqtida katta eksperimental ishlarni amalga oshirgan eng yirik psixologiya institutining tashkilotchisi prof. G.I.Chepanov nomi shuhrat qozongan edi.

Empirik psixologiyadan asosan idealistik filosofiyani asoslash va materializm bilan kurash uchun foydalanilardi. Oliy, o‘ta va pedagogik o‘quv yurtlarida psixologiya o‘qitish ishlari ham idealistik ruhda olib borilardi.

To‘g‘ri, empirik va eksperimental psixologiyaning bir qancha namoyandalari (masalan, N.N.Lange,

A.F.Lazurskiy) psixologiyani hech qanday falsafiy nazariyalar bilan bog'lamasdan, psixologik tajriba dalillaridan hech qanday falsafiy xulosalar chiqarmasdan oyoqqa turg'izishga urindilar; boshqalari esa (masalan, A.P.Nechaev) empirik psixologiya dalillarini bevosita pedagogik amaliyat bilan bog'lashga intildilar. Aslida esa ularning hammasi idealizmni targ'ib qildilar.

Empirik psixologiya psixik hodisalarini tasvirlash va analiz qilish asosida materializmning yaroqsizligini isbotlashga, shunday qilib idealistik filosofiyani fanga o'xshatib asoslashga urindilar.

## **6-Mavzu: XX asrning ikkinchi yarmida yangi yo'nalishlarni yo'zaga kelishi.**

### **REJA.**

Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif.

Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi.

Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasi.

Genetik psixologiya.

Rossiyada psixologiyani rivojlanishi.

### **Genetik psixologiya**

XIX va XX asrlar psixologiya fanining yutuqlari uchun eksperimental metod bilan bиргаликда unga taraqqiyot tamoyilining kiritilishi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Taraqqiyot ideyasi, xususan ruh haqidagi ta'limotdagi taraqqiyot ideyasi qadimgi zamon mutafakkirlarining ko'pchiligi (Geraklit, Efnssk va boshqalar), tomonidan aytilgan ideyadir.

Yangi zamonda esa (XVIII–XIX asrlarda) bu ideya nazariy jihatdan Fridrix Shelling (1775–1854 y.) va ayniqla Gegel filosofiyasida ishlab chiqilgan edi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab Ch.V.Darvin (1809–882 y) va Gekkel (1834–1918 y.) larning asarlari tufayli taraqqiyot ideyasi biologiyaning tamoyili bo'lib qoldi. Filosofiya va tabiatshunoslikdagi umumiy yo'nalish ta'sirida psixologiyada ham psixik hayot hodisalarini o'rganishda genetik tamoyil qaror topadi. Bu tamoyil inson hamda hayvon, katta yoshdagi kishilar hamda har xil yoshdagi bolalar psixik hayotining xususiyatlarini yaxshi tushunish zaruriyati bilan taqozo qilindi. Jamiyatniig tarixiy taraqqiyotida inson ongi qanday paydo bo'ldi va qanday o'zgarib keldi degan masala ham o'zining hal qilinishini talab qilib turardi. XIX asrning oxirlaridan boshlab, psixologiyaning sohalari – hayvonlar psixologiyasi (zoopsixologiya), tarixiy psixologiya va turli yoshdagilar psixologiyasi maydonga keldi.

### **Zoopsixologiya (hayvonlar psixologiyasi)**

Zoopsixologiya – bu hayvonlarning nerv sistemasi taraqqiyotiga, biologik sistematikasiga (hayvonlarning har xil turiga), shuningdek yashash tartibi xususiyatlariga binoan ularning psixik hayot formalarini o'rganadigan fandir.

Bu psixologiya har xil hayvonlar psixikasini bir-biriga taqqoslab, qiyosiy qilib o'rgangani uchun, **qiyosiy psixologiya** deb ataladi. Bu psixologiya psixika taraqqiyotni hayvon organizmlarining biologik to'zilishiga bog'lab o'rganganligi uchun u **biologik psixologiya** deb ham yuritiladi.

Hayvonlar hulqini o'rganishga bo'lган qiziqish juda qadim zamonlardayoq paydo bo'lган. Olimlar tomonidan boy ma'lumotlar to'plangan.

Yangi zamonda tabiatshunoslardan J. Lamark (1744 – 1802 i.) va Ch. Darvin hamda ular evolyutsion ta'limoti izdoshlarining asarlari ayniqla katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Zoopsixologiyaning taraqqiyotiga bu fanning Rossiyadagi asoschisi biolog – darvinist V.A.Vagner (1849–1934 y.) katta hissa kushdi. U bir qancha chuqr ilmiy asarlar yozgan, shulardan eng muhimlari: «Qiyosiy psixologiyaning biologik asoslari» ikki tomlik, «Biopsixologiya va yondosh fanlar», «Psixik qobiliyatlarning paydo bo'lishi va taraqqiysi» 1–9 nashri, «Qiyosiy psixologiyadan etyudlar»dir.

Yuqori taraqqiy qilgan hayvonlar psixologiyasini o'rganishda sobiq sovet tadqiqotchilari ham juda ko'p qimmatli hissa qo'shdilar. Masalan, N. Yu. Voytonis (1887–1946 y.) maymunlar aqlini, ularning orientirovka qilish qobiliyatini va qidirish faoliyatini, «qurollar»dan foydalanishni, to'dalanish munosabatlarini o'rgandi. Voytonisning eng muhim asari «Aql taraqqiyotining ilk tarixi» (1949 y.) edi.

Ayniqla N.N.Ladigina-Kotsning yuqori taraqqiy qilgan hayvonlar psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlari shuhrat qozondi. U maymunlar faoliyatining turli xil formalarini batafsil tasvirlab

berdi: hayvon va inson tafakkurining sifat jihatidan farqini o'rgandi, maymun (shimpanze) va inson bolasi psixikasini taqqoslab tekshirdi, hayvonlar hulqini o'rganishning yangi metodikasini ishlab chiqди. Ladigina-Kots tadqiqotlarining natijalari uning quyidagi asarlarida bosib chiqarilgan: «Shimpanzening bilish qobiliyatlarini tekshirish (1923 y); «Eksperiment sharoitlarida moslashish-harakat malakaları» (1928 y.); «Inson bolasi va shimpanze bolasi» (1935 y.).

Hayvon psixikasi haqidagi ta'limotda ikki oqim – antropomorfik (idealistik) hamda mexanistik (materialistik) oqimlar kurash olib bordilar. Birinchi oqim vakillari hayvonlar hulqida ularning insonlarnikiga o'xshagan sub'ektiv psixik hayoti namoyon bo'ladi, deb hisobladilar. Bu ilmga asoslanmagan oddiy qarash edi. Darwin va uning bir qancha izdoshlari (Romene va boshqalar) hayvon hulqining ba'zi murakkab formalarini «aqlli» harakatlar deb talqin qildilar.

Dekart o'z zamonasida, hayvonlar – bu faqat mashina ularda ruh yo'q ularning butun hulqi faqat mexanik mushak harakatlardangina iboratdir deb jar soldi.

V.A.Vagner o'z tekshirishlarida hayvonlar hulqini tushuntirishda antropomorfizmni ham, soddalashtirilgan mexanik ta'limotini ham tanqid qildi.

Hayvon psixikasini o'rganish sohasida nemis olimi Wolfgang Keller ham muhim ishlar qildi. Biroq, u o'zining «Odamsimon maymunlarning aqlini tekshirish» (1917 i.) degan va boshqa psixologik asarlarida maymun psixikasi bilan odam psixikasining farqlarini *aniq ko'rsatib* bermaydi. Bu antropomorfik qarashlar I.P.Pavlov tomonidan qattiq tanqid kilindi. I. P. Pavlov maymun va boshqa hayvonlar psixik faoliyatining moddiy shartli-reflektor asosini isbotlab berdi.

### Tarixiy psixologiya

Bu fan ongning hamda inson shaxsining paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlariga oid masalalarni o'rganadi.

Bu masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish, asosan, ijtimoiy tarixiy fanlarning taraqqiyoti munosabati bilan paydo bo'ldi. Inson ongi taraqqiyoti tarixida, albatta, eng qiziqarlisи ibtidoiy ong xususiyatlari haqidagi masaladir, ong funksiyalaridan esa eng qiziqarlisи inson tafakkuridir.

XIX asr oxiri va XX asr bosqlaridagi burjua fanida Teyloring «Ibtidoiy madaniyati», Frayzerning «Oltin shoh» asarlari va, ayniqsa, Levi-Bryulning «Madaniyatning bosqichlaridagi jamiyatlarda tafakkur funksiyalari», «Ibtidoiy tafakkur» nomli kitoblari mashhur edilar.

Levi-Bryul ibtidoiy odamning tafakkuri hozirgi zamon odamining mantiqiy tafakkuridan tubdan farq qiladi: u mantiqan oldin (unda ziddiyat qonuni inkor qiladi) paydo bo'lib, tabiiy va g'ayri tabiiy narsalarning farqiga bormaydi, deb da'vo qildi.

Levi-Bryulning aytishicha, ibtidoiy odamning tasavvurida dastlabki sabab bilan oxirgi oqibat bevosita bog'langandir; bu o'rinda oraliq bog'lanishlar inkor qilinadi. Levi-Bryulning fikricha, bunda dahldorlik qonunini (parpitsipsiya)ga amal qilinadi Uning boy etnografik materiallari va ba'zi xulosalari ancha ahamiyatga ega, lekin uning ibtidoiy tafakkurning madaniy odam tafakkuridan sifat jihatidan farq qilishi haqidagi qoidasi ilmiy jihatdan tanqid qilishga arzimaydi.

Inson ongi paydo bo'lishi va uning tarixiy taraqqiyoti haqidagi masalani ilmiy jihatdan hal kilindi. Inson ongi mehnatda paydo bo'lgan, «insonni mehnat yaratgan, uni ijtimoiy, ongi mavjudotga aylantirgan. Ong va uning barcha formalari ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish usullariga bog'liq holda mehnatida rivojlangan. Tarixiy psixologiyaning asosiy muammosi inson ongi taraqqiyotining mehnat formalining tarixiy taraqqiyotiga, sinfiy kurashga, ijtimoiy iqtisodiy informatsiyalarga bog'liq ekanligini isbotlashdan iboratdir.

Inson hulqini o'rganish bo'yicha chaqirilgan s'ezdi sovet psixologiyasi taraqqiyoti birinchi bosqichining yakuni bo'ldi. Biroq, s'ezdning yakunlari sovet psixologiyasini ko'rish sohasida hamma narsa o'z o'mnda emasligini ko'rsatdi. Xususan, insonning butun psixik faoliyatini reaksiyalarga tenglashtirib qo'yishga bo'lgan urinishlar ochiqdan-ochiq ko'rinish turardi, bu esa psixologiyani amalda reaktologiyaga aylantirib qo'yardi, bu reaktologiyani marksistik psixologiyaning konkret gavdalaniishi deb aytishga, demak, marksistik psixologiyani empirik (sub'ektiv) va ob'ektiv psixologiyani, ya'ni bixevoirizm bilan refleksologiyaning «sintezi» deb tushuntirishga urinishlaridan oydin dalolat berar edi.

S'ezddan keyin, ko'p o'tmasdan, (1929 – 1931 yilgacha) bularning hammasi psixologiya fani sohasidagi metodologiya munozararining kuchayishiga olib keldi.

Psixologiya sohasidagi munozaralar filosofik (umumetodologik) frontdagi kurashning konkret ifodasi bo‘ldi, Filosofiyadagi munozara mexanizmni antimarksistik oqim deb qoraladi. Bu metodologik munozara fanning boshqa sohalariga, ya’ni siyosiy iqtisod, adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik kabilarga ham tarqaldi.

Diskussiya, bizning psixologiyamizda bir qancha juda qo‘pol metodologik og‘machilik va bo‘zg‘unchiliklarning mavjudligini ochib berdi, Masalan, psixologiya sohasida mexanistik qarashlar yo‘li bilan sinfiy – dushman bo‘lgan ta’sirni kuchaytirishga urinish borligi aniqlandi. Idealistik nazariyalar bilan chirmashib ketgan bu og‘machilik va mexanistik qarashlar o‘sha vaqtida chinakam dialektik-marksistik qarashlar deb targ‘ib qilinardi.

Shuningdek, munozara, refleksologiya va reaktologik psixologiya asosida sovet pedagogika sistemasini ko‘rish mumkin emasligini, sotsialistik jamiyat ko‘rayotgan kishilarni qaysi usullar bilan, qanday yo‘nalishda tarbiyalash va qayta tarbiyalash mumkin degan masalani hal qilish mumkin emasligini ko‘rsatdi.

Refleksologiya va reaktologiya asosida faqat hayvonlarni dressirovka qilish (o‘rgatish) usullari haqidagina gapirish mumkin.

Munozara jarayonida bizda burjua idealistik psixologiyasining turli oqimlari, chunonchi: V.Shtern personalizmi, struktura psixologiya, freydizm boshqa-boshqa oqim tarqalganligi aniqlandi.

Bu oqimlarning hammasi bizda tanqidiy asosda ko‘rib chiqilmasdan qabul qilinib, sotsialistik qurilish vazifalariga to‘liq javob beradigan ilmiy nazariyalar deb taqdim qilinardi. Masalan, struktura,- Geshtalt – psixologiya asosida ta’limning «kompleks sistemasi», savod o‘rgatishda butun so‘zlar metodi kabi mutlaqo yaroqsiz va zararli metodlar ishlab chiqildi. Psixotexnikani, ya’ni mehnatni sotsialistik asosda uyushtirish amaliyotini Shtern psixologiyasiga binoan rivojlantirmoqchi bo‘ldilar. Sovet pedagogikasi va psixiotriyasini freydizm psixologiyasiga tayangan holda asoslashga intildilar.

30-yil ideologik frontda yanada avjiga chiqqan sinfiy kurashning kuchaygan davri edi, o‘sha vaqtida bu sohada yangidan-yangi yo‘llar qidirila boshladi.

O‘sha vaqtida yangi psixologiya uchun kurashga boshchilik qilgan professor Kornilov, garchand xatolarga yo‘l qo‘yan bo‘lsa ham, uning tarixiy xizmatlari shundan iborat ediki, bixevoiristlar va refleksoglarning avjiga chiqqan siqig‘i ostida kurash olib bordi va psixologiya fanining mustaqilligini himoya qilib qola oldi.

Munozaralarning eng muhim yakuni haqiqatan ham ilmiy psixologiyani yaratish vazifasi edi. Munozaralar shu narsani ko‘rsatdiki, buning uchun sovet metodologik merosini, psixologiya sohasiga bevosita dahldor bo‘lgan ta’limotini puxta o‘rganish va egallab olmoqlari kerak edi, ikkinchidan, psixologlar psixologiya sohasidagi barcha tarixiy meros va yutuqlarni o‘rganish bilan shug‘ullanishlari va bu yutuqlarni tanqidiy o‘zlashtirib olishlari kerak edi va uchinchidan, o‘tmishda erishilgan yutuqlarga asoslanib turib, ilmiy psixologiya muammolarini ishlab chiqishni ilgari surmoqlari kerak edi.

Munozara natijasida sovet psixologiyasida haqiqatan ham qayta kurash ishlari boshlandi. Psixologiyaning metodologik va asosiy muammolari bo‘yicha asarlar yozildi, bir qancha burjua psixologiyasi nazariyalarini tanqidiy ravishda yoritildi. Bir qancha eksperimental ishlar qilinib, ularda psixik jarayonlar sifat jihatidan o‘ziga xos hodisalar deb tushunildi, ular organizmning reflekslari va reaksiyalariga tenglashtirib qo‘yildi.

Ikkita o‘quv qo‘llanmasi munozaralardan keyin psixologiyaning qayta ko‘rilganligini ko‘rsatuvchi yaqqol dalil edi. Bularidan birini professor Kornilov («Psixologiya» 1-nashri 1934 va 2-nashri 1935 yillarda) ikkinchisini esa professor S. L. Rubinshteyn («Osnovo‘ obshey psixologii» 1935 yil) to‘zgan edi.

Bu asarlarda psixologiya masalalari munozaralargacha bo‘lgandan boshqacharoq talqin qilindi. Xususan, professor Kornilov, bu kitobida psixologiya predmetini tushunishni keskin o‘zgartirdi, ayrim psixik jarayonlar esa endi organizm reaksiyalarining kombinatsiyasi deb talqin qilinmaydi. Bu psixologiyada emotsiyalar, iroda va xarakter psixologiyasiga ham o‘rin beriladi.

Psixologiya sohasidagi qayta ko‘rilib hali unchalik to‘liq emas edi. Psixologlarning asarlarida hali mexanistik, biologizatorlik hamda idealistik xatolar ham uchrab turardi. Bu xatolar VKP(b) Markaziy Komitetining 1936 yil 4 iyuldagagi «Xalq maorifi Komissarliklari sistemasidagi pedologik bo‘zg‘unchiliklar haqida» degan tarixiy qarorini keltirib chiqardi.

VKP(b) Markaziy Komitetining tarixiy qarori barcha psixologlarga birday tegishli edi. U

sovet psixologiyasining ahvolini yana bir marta tanqidiy ravishda qarab chiqishga majbur qildi, ayni vaqtida psixologiya sohasidagi ishlarni yanada kengaytirish uchun harakat omili bo'ldi.

Shu qarordan keyin ko'pchilik pedaloglar o'z kasblarini o'zgartirib psixolog bo'lib oldilar. 30- yillarda psixologlar psixikani eksperimental o'rganish yo'zasidan ko'p mahsus laboratoriya va kabinetlar tashkil qildilar.

Bunday laboratoriylar faqat markaziy shaharlar (Moskva, Leningrad)dagina emas, balki olis viloyatlar hamda milliy respublikalar, shaharlarda ham tashkil qilindi.

Shu davrda O'zbekistonda ham eksperimental laboratoriya va kabinetlar tashkil qilina boshladi. Toshkentda O'rta Osiyo Davlat universiteti ho'zurida, O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, temir yo'l transporti boshqarmasida va Magnat instituti ho'zurida laboratoriylar tashkil qilingan. Samarqand shahridagi o'zbek pedinstitutida ham boy jihozlangan laboratoriya tashkil qilingan edi.

Bu davrda sovet psixologlari professor Lazurskiy kashf etgan juda foydali tabiiy eksperimentni qo'llab, bolalar psixologiyasi va eksperimental psixologiya sohasida ko'plab eksperimental tadqiqotlar o'tkazdilar.

Ayrim psixik jarayonlar va ularning funksiyalarini o'rganish sohasida ham bir qancha ishlar qilindi. Masalan, V.A.Artemovning idrok sohasidagi, Ye. A.Ribnikov va A.N.Leonthevlariing xotira sohasidagi, L.S.Vigotskiyning tafakkur sohasidagi tadqiqotlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Mehnat psixologiyasi sohasida ham juda ko'p ishlar qilindi. Ular faqat kabinet va laboratoriyalardangina emas, balki bevosita ishlab chiqarishning o'zida, zavod, fabrika va kolxozlarda, shu jumladan, O'zbekiston paxta dalalarida ham o'tkazildi.

Bu davrda hayvonlar psixikasini o'rganish sohasidagi ishlar ham kuchli sur'atda avj oldirildi. Bu jihatdan Ladngina Kot Voytonis va boshqalarning ishlari, ayniqsa, qimmatlidir.

Sovet psixologiyasi taraqqiyotidagi birinchi davrning manzarasi mana shunday edi.

Shu yillari psixologiyaning deyarli hamma sohalarini: psixika, psixika va ong taraqqiyoti haqidagi, sezgi, idrok, xotira kabilalar haqidagi ta'limotlarni qamrab oluvchi bir qancha katta asarlar nashr qilindi. Bulardan eng muhimlari quyidagilardir; «Psixologiya», prof. K.N.Kornilov, B.M.Teplov va L.M.Shvarsler taxriridagi jamoa asar; prof. S.L.Rubinshteyn «Osновы психологии»; «Psixologiya», Kostyuk tahririda (ukrain tilida), «Общая психология» D. N. O'znadze (gruzin tilida).

Shu narsani ta'kidlamoq kerakki, bu asarlarning ko'pchilik qismi sovet psixologlarining tadqiqotlari materiallari asosida yozilgan. Urushgacha davrda sovet psixologiyasi manzarasi mana shundan iborat edi.

## 1940–1965 YILLARDA PSIXOLOGIYa MASALALARI

Kengaygan ikkinchi jahon urushi, nemis bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashi psixologiyaning bir qancha yangi muammolarini ilgari surdi, harbiy psixologiyaning mahsus muammolarini ishlab chiqarishni kun tartibiga qo'ydi. Bizning askarlarimizning, komandirlarimizning qahramonliklari inson psixikasint namoyon bo'lishi, ayniqsa iroda va emotsiyalar sohasidagi shunday dalillarni ko'rsatdiki, bular psixologiyada qaror topgan qoidalarni, xususan, iroda haqidagi, shaxsning psixik tabiat haqidagi, uning faolligi, kuchi va imkoniyatlari haqidagi masalalarni yangichasiga qaytadan ko'rib chiqishga majbur qildi. Urush tamom bo'lishi bilanoq, bu asosiy masalalarni har tomonlama va chuqr ishlab chiqish ishlari amalga oshirildi.

### Psixik jarayonlarning fiziologiya asoslari haqidagi masala.

1950 yil 28 iyundan 4 iyulgacha SSSR Fanlar Akademiyasi va SSSR Meditsina Fanlari akademiyasining Pavlov fiziologiyasi bo'yicha o'tkazilgan sessiyasi sovet psixologiyasi tarixida katta voqeа bo'ldi.

Sessiya materialistik psixologiyani barpo qilish uchun I. P. Pavlov asarlari qanday katta ahamiyatga ega ekanligini va bu asarlarga keyingi yillarda sovet psixologlari tomonidan yetarli baholanmayotganligini ko'rsatdi.

Buning sababi shundan iboratki, Pavlov ta'limotini ba'zi psixolog va fiziologlar mexanistik ta'limot deb hisoblardilar. Haqiqatan ham Pavlov shogirdlari va izdoshlarining ba'zilari mexanistik, biologizatorlik qarashlarga berilib: psixik hodisalarni fiziologik hodisalardan iborat qilib, psixologiyani esa oliv nerv faoliyatini fiziologiyasiga tenglashtirib qo'ydilar. Lekin, yuqorida aytilday, bu qarashlar filosofik va psixologik frontdagi munozaralar davridayoq,

tanqid qilingan va qoralangan edi.

Bu sessiyaning ishi shuni ko'rsatdiki, I.P.Pavlov o'z tekshirishlari bilan psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini, psixik hodisalarning yuksak nerv-fiziologik jarayonlar bilan bo'lgan birligini ochgan.

Ikki Akademiya birlashgan sessiyaning yakunladi, psixologiyaning Pavlov ta'limoti asosida yanada taraqqiy ettirish uchun turki bo'ldi. Sessiyadan keyin, ko'p o'tmay psixik jarayonlar – sezgi, idrok, hissiyot kabilarning nerv-fiziologik mexanizmlari haqidagi masalaga bag'ishlangan ko'plab asarlari maydonga kela boshladi.

Ayniqsa Pavlovning bosh miya po'stida yangi muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi haqidagi ta'limoti, qo'zg'alish va tormozlanish qonuniyatlari haqidagi ta'limoti psixologiya uchun juda samarali bo'ldi. Pavlovning inson bosh miyasi po'sti faoliyatidagi ikki signal sistemasi haqidagi ta'limoti ham qimmatlidir. Bu ta'limot inson ongingin tafakkur va nutq singari yuksak formalarining nerv fiziologik mexanizmlarini aniqlash imkoniyatini beradi. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyatining tiplari haqidagi ta'limoti temperamentning nerv-fiziologik asoslarini, uning muhit va tarbiya ta'siri tufayli o'zgaruvchanligini aniqlash imkoniyatini berdi.

Psixologiyaning metodlari haqidagi masala, xususan o'z-o'zini ko'zatish metodi haqidagi masala, psixologiyada metodning ob'ektivligini qanday tushunmoq kerakligi haqidagi masala juda ham keskin qo'yildi. Metodning ob'ektivligini faqat tashqi ko'zatish, tashqi eksperiment debgina tushunmaslik kerak, aksincha bu yana bixevoirizm va refleksologiyaga olib keladi.

Ikki Akademianing Pavlov fizologiyasiga bag'ishlangan sessiyasidan keyin har xil psixik hodisalarning nerv-fiziologik mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ko'plab mahsus tadqiqotlar o'tkazildi. Bu ishlar Moskva va Leningrad akademiyasining psixologiya institutida, Pedagogika Fanlari akademiyasining psixologiya institutida, shuningdek SSSR ning boshqa shaharlaridagi oliy o'quv yurtlarining ba'zi bir kafedralarida va laboratoriyalarida o'tkazildi. Psixologiyani Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida qayta tashkil qilish V.A.Artemov, T.P.Yegorov, A.V.Zaporojets, P.I.Ivanovlarning psixologiyadan o'quv qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan. Mana shularga binoan o'rta va oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish ishlari ham qayta tashkil qilina boshladi.

1962 yili may oyida SSSR Fanlar Akademiyasiniig ho'zurida oliy nerv faoliyati va psixologiyaning filosofik masalalari bo'yicha Butun Ittifoq kengashi o'tkazildi. Bu kengashda. I.P.Pavlov ta'limoti psixik jarayonlarning nerv-fiziologik asosi ekanligi yana bir marta asosli ravishda tasdiqlandi va uning tadqiqotlari yuksak darajada tashkil topgan materianing – miyaning mahsuli bo'lган psixika haqidagi ta'limotni tasdiqladi.

Keyingi yillarda fiziologlar tomonidan inson psixikasidagi ayrim hodisalarni tushuntirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ishlar qilindi. Masalan, akad. P. K. Anoxin 1932 yildayoq boshlagan teskari afferentatsiya (teskari bog'lanish) ning ahamiyatini aniqladi.

Reflektor jarayonlar organizmning faqat javob harakati bilangina tugallanib qolmas ekan. Organizmning har bir javob harakati miya po'stiga markazga intiluvchi teskari (afferent) impuls yuborib turadi, bu impuls javob harakatning natijasidan miya po'stiga signal berib turar ekan. Shu refleksning strukturasi yoy shaklida emas, balki halqa shaklida ekan deb hisoblashga asos beradi. Demak, refleksning teskari bog'lanishni amalga oshiradigan yana 4-qismi (orqaga qaytaruvchi krani) ham bor ekan. Teskari afferentatsiya haqidagi bu ta'limot «oldindan aks ettirish» (javob harakatni maqsadga muvofiq qilishni bilish) deb atalgan hodisaga bog'langan tekshirishlar o'tkazishga imkoniyat berdi. Anoxinning shu tadqiqoti maqsadga muvofiq yo'naltirilgan hattiharakatlarning fiziologik asosini ochib beradi.

Bir qancha psixik hodisalarni tushuntirish uchun Bernshteynning organizmning biologik faolligi masalasi sohasidagi tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Bu tekshirishlarning ma'lumotlariga qaraganda organizm muhitga moslashmaydi, balki shu muhitda paydo bo'lgan to'siqlarni bartaraf qilishga «tirishadi» maqsadga erishmoq uchun kura shadi.

A.R.Nuriyaning bosh miya po'stida psixik funksiyalarning lokalizatsiyalashuvi haqidagi ishlari psixik faoliyatning fiziologik asoslarini tekshirishga qo'shilgan qimmatli hissadir.

**Shaxs va ongning ba'zi funksiyalari masalalari.** Psixologlarining tekshirishlarida shaxs va shaxsning yoshga qarab rivojlanishi masalalari katta o'rinn egallaydi. 1956 yili (may-iyun) Leningradda shaxs psixologiyasi bo'yicha Butun Ittifoq kengashi o'tkazildi. Dokladlarda kishi shaxsini tarbiyalash va shakllantirish masalalariga muhim e'tibor berildi.

Hozirgi vaqtida shaxs tushunchasini aniqlashga, uning eng muhim belgilarini: ijtimoiyligi, ongliligi, o‘z-o‘zini anglashni tahlil qilishga bag‘ishlangan qimmatbaho asarlar oz emas. Shaxsning ehtiyojlariga xos xususiyatlari, uning ongli va ijodiy faolligiga, yangi jamiyat qurish davrida uning maslak, ideallari, dunyoqarashi va e‘tiqodlarining yo‘nalishiga katta e‘tibor berilmoqda.

Shaxsning turli yoshda qanday rivojlanishi, uning individual xususiyatlari, xarakteri, qobiliyatları hamda qiziqishlari masalasi inson psixikasi va ongi taraqqiyotiga oid umumiy muammoning muhim tarkibiy qismidir.

Psixologlar ongning individual taraqqiyotini shaxs sifatida o‘sayotgan odamning barcha tomonlaridagi, barcha psixik jarayonlaridagi sifat jihatdan o‘zgarishdir, deb qaraydi. Bu o‘zgarish – o‘sish organizmning rivojlanishn qonuniyatları va kishilarning turmush sharoitlari tufayli, ijtimoiy muhit hamda ta’lim-tarbiya ta’sirida ro‘y beradi. Ijtimoiy muhit, ta’lim va tarbiyaning ta’siri har bir insonning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq shu narsani ta’kidlamoq kerakki, bu rivojlanish rivojlanayotgan sub’ekt o‘zi hayot jarayonida aktiv ishtirok etgan taqdirdagina ahamiyatga ega bo‘ladi.

Keyingi yillar mobaynida psixologiya va pedagogikada «Ta’lim va aqliy rivojlanish» muammosi ayniqsa faollahdi. Bu masalaning hal etilishi maktablardagi ta’lim jarayonida o‘tkazilayottan eksperimentlarga asoslanmoqda.

Rivojlanishning o‘zini qanday tushunishdan qat’iy nazar, tadqiqotchilarining hammasi ta’limning hal qiluvchi roli sharoitida ta’lim va tarbiyaning bir-biri bilan bog‘lanligini e‘tirof etadilar.

Psixologlar alohida pisixik funksiyalar va protsesslarni o‘rganish sohasida, xususan, sezgi, idrok, xotira, tafakkur sohasida ko‘p ishlar qildilar. B.G.Ananev, A. V. Zaporojets, N. A. Leontev va boshqalar olib boradigan sezgi va idrok sohasidagi tekshirishlar asosan bu jarayonlarning retseptiv tomonlariga qaratilgan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘rvu, eshituv, teri sezgilari, shuningdek, sezgi va idrokning boshqa turlari faqat markazga intiluvchi protsessning, faqat refleks boshlang‘ich zvenosiningina mahsuli emas. Ular markazdan qochuvchi jarayonlarni ham, sub’ektning faolligini aks ettiradigan qidiruv, sinov reaksiyalarini ham qamrab oladi. Bularning barchasi alohida, perseptiv harakatlar bo‘lib, ular ichki psixik jarayonlar bilan birga, tashqi, birinchi navbatda, ozmi-ko‘pmi yorqin ifodalangan harakat komponentlarini ham o‘ziga qamrab oladi.

Xotira sohasida xotiraning mahsulorligi esda olib qolish faoliyatining nimaga qaratilganiga bog‘liq ekanligi masalasi keng o‘rganilgan. Yaxshi esda qoldirishda qaytadan tiklash (esga tushirish) va boshqa psixik jarayonlarning roli aniqlangan. A. A. Smirnov va P. I. Zinchenkoning asarlarida esda qoldirish mahsus xildagi ichki psixik faoliyat sifatida aniqlangan. Bu faoliyatning strukturasi ochilgan, turli esda olib qolish usullarining xarakteristika, uning tarkibiga kiruvchi har xil mnemonik harakatlarning alohida zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Esda qoldirish jarayonida ishtirok etadigan tafakkur jarayonlariga alohida e‘tibor berilgan.

Keyinchalik psixologiya sohasidagi ilmiy ishlar faollashtirildi. 1956 yildan boshlab bizda «Voproso‘ psixologii» jurnalining chiqa boshlashi buning guvohidir. Psixologiya masalalari sohasidagi ko‘p materiallar, shuningdek «Sovetskaya pedagogika», «Semya i shkola», «Doshkolnoe vospitanie», «Nachalnaya shkola», «Psixologicheskie jurnal», «Voproso‘ filosofii» jurnallarida va boshqa davriy matbuotda bosilib chiqib turdi. Ilmiy ishlarning aktivlashtirilganligi, shubhaisiz, 1957 yil Psixologlar Jamiyatini to‘zishga yordam berdi. Shu yillar mobaynida bizning oliy o‘quv yurtlarimiz psixologiyadan zaruriy o‘quv qo‘llanmalarini bilan ta’mindandi.

Bu qobiliyatlarga kiruvchi esda olib qolish qobiliyatlarida ayrim zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Esda olib qolishda qatnashuvchi fikrlash jarayonlariga alohida e‘tibor berilgan.

Tafakkur to‘g‘risida S. L. Rubinshteyn va uning xodimlari, F. I. Shemyaqin, shuningdek, S. K. Shoroxova va K.K.Platonovlar rahbarligida SSSR Fanlar Akademiyasi qoshidagi falsafa institutining xodimlari jiddiy tadqiqot ishlari olib bordilar.

Texnika taraqqiyoti va mehnat politexnika hamda ishlab chiqarish –professional ta’limning yuksalishi tufayli ko‘pgina psixologlar (S. N. Arxangelskiy, V. V. Chebisheva, K. K. Platonov, G. V. Kiriya, B. P. Nikitin, G. F. Lomov, V. N. Pushkin, S. G. Gellershteyn, T. V. Kudryavsev, I. S. Yakimanskaya, P.I.Ivanov va boshqalar) konstruktiv texnika va operativ tafakkur masalalariga, shuningdek bu tafakkurning o‘quvchilarda taraqqiy etishi masalalariga juda qiziqdilar.

Keyingi yilda psixologiya va pedagogikada «Ta’lim va aqliy jihatdan o’sish» masalasi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu masalaga oid ishlar maktablardagi ta’lim jarayonidagi tajribalari asosida olib borilmoqda. Barcha tadqiqotchilarning aqliy o’sish to‘g’risida turlicha fikrlarda bo‘lishlariga qaramay (L. V. Zankov, K. I. Menchinskaya, D. K. Bogolyavlenkiy, P. Ya. Galperin va boshqalar) ta’lim va aqliy o’sishning, ta’limning yetakchi rol o‘ynashi bilan birligi tan olinadi. Shuni aytish kerakki, psixologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy ishlar juda ham jonlanib ketdi. Bu jonlanishga 1956 yildan chiqa boshlagan «Voproso‘ psixologii» nomli mahsus jurnal dalil bo‘la oladi. Bundan tashqari psixologiya masalalariga oid maqolalar «Sovetskaya pedagogika», «Semya i shkola», «Doshkolnoe vospitanie», «Nachalnaya shkola», «Voproso‘ filosofii» va boshqa davriy nashrlarda bosilib chiqdi. Psixologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy ishlarning jonlanib ketishiga 1957 yilda tashkil qilingan Psixologlar Jamiyatি yordam berdi.

Bu yillarda Oliy o‘quv yurtlari psixologiyaga oid zarur qo‘llanmalar bilan ta’minlandi.

Psixologlarining faolligi va ular olib borayotgan ishlarning sermazmunligi Moskvada 1966 yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan psixologlarining xalqaro XVIII Kongressida yorqin namoyon bo‘ldi.

Psixologiya fanining ko‘p sohalarda rivojlanganligi, bu fanining barcha muhim yo‘nalishlari bo‘yicha taraqqiy ettirish vazifasini qo‘ydi. Olimlar oldiga fanni xo‘jaligimiz va sanoat qurilishning barcha sohalariga joriy qilish vazifasi qo‘yildi.

Bu vazifalar o‘zining nazariy va amaliy ahamiyati jihatidan keng hamda xilma-xildir.

Hozirgi vaqtida psixologiya ko‘p tarmoqlarga bo‘linib butun bir psixologik fanlar sistemasini tashkil qiladi. Bu psixologik fanlarning har biri o‘z ob’ekti, o‘zining tekshirish metodlari va vazifalariga egadir. Har bir psixologiya sohasining o‘zida hal qilishni talab qilib turgan jarayonlar oz emas. Psixologiyasida eng dolzarb deb hisoblash mumkin bo‘lgan ba’zi bir masalalarga to‘xtalib o‘tamiz.

## METODOLOGIYA MASALALARI

Har bir fanning asosiy vazifasi uning metodologiyasini aniqlab olishdir.

Shuningdek, nazariy muammolarni ishlab chiqish amaliyot bilan bog‘liq holda o‘tkazilgan taqdirdagina yanada mahsuldor bo‘ladi. Haqiqiy dalillarga asoslangan, amaliyotda sinalgan nazariyagina haqiqiy ilmiy nazariyadir. Kishilarning amaliy faoliyatida ko‘pincha yangi faktlar, voqelik hodisalari o‘rtasidagi yangi bog‘lanishlar ochilib qoladi, shular tufayli nazariya yanada boyiydi, aniqlanadi va mukammallahadi.

Ayni vaqtida, psixologiyadagi amaliy vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi nazariy muammolarning qay darajada hal qilinishiga qattiq bog‘liq bo‘ladi.

Bundan buyon ham psixologiya masalalari Pavlovning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi haqidagi ta’limoti asosidagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin.

Inson miyasining to‘zilishi va faoliyati sohalarini yanada o‘rganishda Pavlovning shogirdlari va izdoshlari ancha yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Bu yutuqlar ko‘pchilik psixik hodisalarni tushuntirishda katta ahamiyatga egadir.

Tajriba ko‘rsatishicha, oliy nerv sistemasiga taalluqli ko‘pchilik masalalar ko‘p hollarda psixologiya muammolarning qo‘yilishi va hal qilinishi munosabati bilan paydo bo‘ladi. 1962 yili SSSR Fanlar Akademiyasi ho‘zuridagi oliy nerv faoliyati fiziologiyasi va psixologiyaning filosofik masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan Butunittifoq kengashining hamda 1966 yili iyunda SSSR Fanlar Akademiyasi Filosofiya institutida ong muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan Butunittifoq simpoziumining qarorlarida psixologlar bilan fiziologlarning birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarurligi haqida kelishib olingan.

Ayni vaqtida shuni ham e’tiborga olmoq kerakki, kapitalistik mamlakatlar olimlarining orasida progressiv yo‘nalishdagi psixologlar ham ishlar oqmoqdalar. Shu psixologlarning ilmiy tekshirishlaridagi ijobjiy yutuqlarni hisobga olishi va ularidan foydalanishlari lozim. Turli mamlakatlar psixologlari o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarining mustahkamlanishi, tajriba almashtirish psixologiya fanining yanada samarali taraqqiy etishiga yordam beradi.

## 7-Mavzu:Umumiy psixologiya fanining predmeti, vazifalari, metodlari.

### REJA.

- 1.Shaxsni o‘rganishning metodologik asoslari.

- 2.Inson va insoniyat haqidagi fan.
- 3.Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 4.Psixologiya fanining tamoyillari.
- 5.Psixologiyaning asosiy metodlari.

Inson o‘zining kimligini anglashga intilishdan, o‘z ruhiy dunyosini va o‘zgalar ruhiyatini bilish istagi paydo bo‘lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e’tiboran psixologiya fan sifatida rivojlna boshladi. Psixologik bilimlar juda o’zoq o‘tmish tarixga ega bo‘lsa-da, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishga o‘sha davrda kishilik jamiyatida yo‘z berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar sabab bo‘ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosini edi. Psixologik holatlarni tadqiq qilish, ya’ni psixika mohiyatini tushunish maqsadida o‘sha davrda eksperimental ilmiy-psixologik laboratoriylar vujudga kela boshladi. Ilk psixologik tadqiqotlar laboratoriysi nemis olimi V. Vundt tomonidan 1879 yilda Leypsig universitetida tashkil qilindi. Xuddi shu laboratoriya andozasi bo‘yicha boshqa mamlakatlarda bir qancha mustaqil laboratoriylar ochildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib psixologiya fani to‘g‘risidagi ilmiy tushunchalarda keskin o‘zgarishlar yo‘zaga keldi va ularning ta’siri natijasida psixologiyaning tadqiqot ob’ekti sifatida insonga muhitning ta’siri, uning xulq-atvorini o‘rganish muammolari tanlab olindi. Shu davrda psixologiya fanining rivojlanishiga ijobjiy hissa qo‘sghan psixologiya maktablari vujudga keldi, jumladan, Amerika (AQSh) psixologiyasining asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lgan bixevoirizm, Germaniya geshtaltpsixologiya maktabi, Venada Z.Freydning psixoanalizi va boshqalar. Shu maktablarning hammasi o‘zining nuqtai nazariga asoslanib, psixologiya fanining tarkibiy qismlarini o‘rganishga harakat qildi. Psixologik konsepsiyalarning rang-barangligi sababli va fan-texnikanинг rivojlanishi ta’siri bilan psixologiya o‘zining tadqiqot ob’ektlariga ega bo‘lgan ko‘plab sohalarga ajrala boshlandi. Hozirgi davrda psixologiyaning nazariy va amaliy yutuqlari atrof-muhit hamda jamiyatning juda keng qirralariga tatbiq qilinmoqda.

Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo‘lishda aniq, yaqqol faoliyatning psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Quyida psixologiya sohalarining tavsifiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Umumiyligi psixologiya - umumiyligi psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog‘lanishlar, nazariy va metodologik prinsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filo va ontogenetik o‘zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiyligi psixologiya boshqa sohalar kabi shartli ravishda qabul qilingan nomdan iboratdir. Psixologiya fanining ilmiy tushunchalarini, kategoriyalari(shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ong)ni, tadqiqot metodlarini umumiyligi psixologiyada umumlashtirish uchun uning boshqa sohalaridagi tekshirish natijalarini mavhumlashtirish maqsadga muvofiq. Shuning bilan bирgalikda umumiyligi psixologiyaning tadqiqot natijalari psixologiyaning boshqa sohalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumiyligi psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. 1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar. 2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilalar. 3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg‘ular, emotsiya, kayfiyat, emotsiyonal ton, stress, affekt singarilar. Psixik holatlarga psixik jarayonlarning ma’lum bir sifatlarining ko‘rinishlari kiradi. Masalan, hissiy jarayonlardan psixik holat sifatida kayfiyat, psixik xususiyatlarga qobiliyatlar va boshqalar kiradi. Umumiyligi psixologiyadagi bu bo‘linish shartli ravishda amalga oshirilgan bo‘lib, unda jarayon tushunchasi umumiyligi tadqiq qilinayotgan hodisaning jarayoni xususiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, xolos. Psixik holat tushunchasi psixik holatlarga nisbatan nisbiy statikligini anglatadi. Psixik xususiyat tushunchasi esa tadqiq qilinayotgan hodisaning mustahkamligini, qaytaruvchanligini aks ettiradi va bu narsa shaxs to‘zilishida o‘z ifodasini topadi. Umumiyligi psixologiyadan boshqa sohalar, bilimlar asos sifatida foydalilaniladi, xuddi shu boisdan u universal xususiyat kasb etadi.

Eksperimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarini tadqiq qilishning umumiyligi sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental

tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funksiyalarni o'rganish orqali, ya'ni ilk bor sezgi va idrokni o'rganish bilan boshlangan. Bu tadqiqotlar eksperimental psixologiyaning falsafa va fiziologiyadan mustaqil, alohida fan sifatida vujudga kelishiga muhim asos va ob'ektiv shart-sharoit yaratib bergan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan. Ilk eksperimental tadqiqotlar o'zini o'zi ko'zatish metodi yordami bilan insonning ichki funksiyalarini o'rganishga qaratilgan edi. Keyinchalik eksperimental ishlar turlicha hayvonlarda o'tkazila boshlangan. Tadqiqotlarning ko'pchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar tomonidan olib borilgan. Eksperimental tadqiqotlar orqali faqat psixik funksiyalargina emas, balki hissiyotlarning individual variantlari ham tekshirilgan. Eksperimental psixologiyaning tadqiqotlari psixologiya sohalarining nazariyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat psixologiyasi - insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatları va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Mehnat psixologiyasining ob'ekti ishlab chiqarishda va mehnatda shaxsning faoliyati, uni ishdan bo'sh vaqtining, dam olishining ishlab chiqarishga ta'sirini ham tekshirgan. Mehnat unumdoorligiga ishchini boqish uchun ketgan sarflar miqdori ko'p bo'lsa, unga qancha qulay shart-sharoit yaratilsa, shunchalik ijobjiy ta'sir yo'zaga keladi. Shu asosda yuqoridaagi fanlar mehnatkashga psixologik iliq muhit yaratish uchun mehnat psixologiyasiga yordam beradi. Mehnat psixologiyasini G.Myunsterbergning «Psixologiya va ishlab chiqarish unumdoorligi» (1913) va «Psixotexnika asoslari» (1914) kitoblari chiqqan davrdan boshlab alohida soha sifatida vujudga kelganligi e'tirof etilgan. Mehnat psixologiyasining asosiy vazifasi ishlab chiqarish munosabatlarini ijobjiylashtirish, mehnatkashlarga zarur shart-sharoit yaratib berish, kasbiy kasalliklarning, ishlab chiqarishda jismoniy falokatlarning, psixologik zo'riqishlarning oldini olishdir.

Aviatsiya psixologiyasi - aviasanoat va aviaxizmatchilarning mehnat faoliyatida kechuvchi psixologik qonuniyatlarini o'rganadi. Aviatsiya psixologiyasining predmeti murakkab aviatsiya tizimini boshqarishdagi inson psixikasining rolini tekshirishdan iborat. Aviatsiya psixologiyasi ob'ekti shaxs faoliyati, jamoa to'zilishini tashkil qilishning shart-sharoitlari hisoblanadi. Aviatsiya psixologiyasi sub'ekti uchuvchilar, muhandis, texnik xizmat ko'rsatish tarkibini tashkil etuvchi styuardessalar va boshqalar. Aviatsiya psixologiyasi soha sifatida uchuvchi qurilmalar yaratilishi vaqtidan, ya'ni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan vujudga kelgan. Aviatsiya psixologiyasi tug'ilishining asosiy sababi uchuvchi apparatlar ishlatishda va boshqarishda inson omili xavfsizligiga shart-sharoit yaratish ehtiyojidir. Aviatsiya psixologiyasi psixologiyaning boshqa sohalari bilan o'zviy bog'liqdir.

Muhandislik psixologiyasi - inson va mashina o'rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta'sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarini tadqiqot metodlari yordami bilan o'rganuvchi psixologiya sohasi. Muhandislik psixologiyasi fan-texnika revolyutsiyasi ta'sirida vujudga kelgan bo'lib, quyidagi muammolarini tekshiradi: 1) inson va EHM kabi avtomatika tizimi yuklamasida inson vazifasini tahlil qilish; 2) EHM operatorlarining hamkorlik faoliyatida muloqot jarayoni va ularning o'zaro ta'sirini tadqiq qilish; 3) operator faoliyatining psixologik to'zilishini tahlil etish; 4) operator ishining sifatiga, tezligiga, samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tekshirish; 5) inson tomonidan axborot qabul qilishni tadqiq etish; 6) operator faoliyatini boshqarish mexanizmini o'rganish; 7) EHMni boshqarishdagi buyruqlarni inson tomonidan qabul qilish xususiyatini aniqlash; 8) operatorlar uchun psixodiagnostika va proforientatsiya metodlarini ishlab chiqish; 9) operatorlarni o'rganishni optimallashtirish.

Muhandislik psixologiyasining yuqoridaagi muammolarini tekshirish natijasida yolg'iz operator faoliyatidan umumiy mehnat faoliyatini o'rganishga o'sib o'tiladi.

Kosmik psixologiya - vaznsizlik va bo'shliqda aniq mo'ljal ola bilmaslik sharoitida, organizmda juda ko'p ortiqcha taassurotlar yuklangan paytda ro'y beradigan nerv-psixologik zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi.

Ekstremal psixologiya - insonning o‘zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini o‘rganadigan psixologiya sohasi. Ekstremal sharoitda insonga bir qancha faktorlar ta’sir qiladi: monotoniya, makon o‘zgarishi, xavf omili, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o‘zgarishi, yolg‘izlik, guruhiy izolyatsiya va hayotiy xavf. Ekstremal sharoitga inson moslashishining biologik vazifasi ekstremal sharoitda ishlovchilarni tanlab olish (kosmos, arktika, yong‘in va hokazo), mashqlantirish, trening o‘tkazishdan iborat. Pedagogik psixologiya - tarbiya va ta’lim muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi - o‘qitishning oqilonqa rivojlanuvchi ta’sirini, shart-sharoit va boshqa psixologik faktorlardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir. Pedagogik psixologiya XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy taraqqiyotning ta’siri natijasida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilar pedagogik psixologiya rivojlanishiga katta hissa qo‘sghanlar. Bundan tashqari, pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishda o‘sha davrda yo‘zaga kelgan psixologik yo‘nalishlar ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tqazgan. Bixevoiristik psixologiya yo‘nalishi pedagogik psixologiya uchun asos qilib tarbiyachi va o‘qituvchiga vosita qilib tashqi muhit ta’sirini oladi. Tashqi muhit qanchalik ijobiy ta’sir qiluvchi omil bo‘lsa, ya’ni qulay shart-sharoit vujudga kelsa, demak, shaxsning tarbiyalanishi shunchalik ijobiy kechadi. Hozirgi zamonda pedagogik psixologiya rivojlanishi natijasida insonning individual-psixologik farqlari, ijtimoiy-tarixiy tajribalar ta’siri hamda boshqa odamlar o‘rtasidagi muloqot, muomala ta’siri borligini, shuningdek, yana bir qancha faktorlarni hisobga olgan holda shaxsni rivojlanuvchi ta’lim orqali o‘qitish va tarbiyalash yotadi. Pedagogik psixologiyani shartli ravishda bir necha turga ajratish mumkin: a) ta’lim psixologiyasi; b) tarbiya psixologiyasi; v) o‘qituvchi psixologiyasi; g) oliy maktab psixologiyasi kabilalar. Tibbiyot psixologiyasi - kasallarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jahbalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri qonuniyatlarini, insonning kasallikdan sog‘ayishiga mikrosotsial guruh ta’siri o‘rganiladi. Tibbiyot psixologiyasi o‘z ichiga klinik psixologiya, patopsixologiya, neyropsixologiya, somatopsixologiya kabi bo‘limlarni qamrab oladi. Tibbiyot psixologiyasi tarkibiga psixoterapiya sohasini ham kiritadilar. Tibbiyot psixologiyasining asosiy muammoi kasallikni davolashning inson psixologiyasiga ta’sirini tadqiq qilishdir. Uning asosiy muammoi insonning psixologiyasiga ijobiy ta’sir qiluvchi va shu bilan davolanishni tezlashtiruvchi, ijobiy davolash muhitini tashkil qilishdir. Psixik hodisalar bilan miyaga fiziologik to‘zilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadigan soha - neyropsixologiya. Dorivor moddalarning kishi psixik faoliyatiga ta’sirini tekshiradigan soha - psixofarmokologiya. Bemorlarni davolash uchun psixik jihatdan salomatligini ta’minlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi soha - psixoprofilaktika. Yuridik psixologiya - huquq doirasidagi munosabatlar odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Eksperimental psixologiya ta’siri ostida XX asrning boshlarida yuridik psixologiya sohasida ilk laboratoriya tadqiqotlari o‘tkazilgan. Bu tadqiqotchilar guvohlarning ko‘rsatmalarini va so‘roq olib borish asoslarini o‘rganishni maqsad qilib qo‘yan edilar. Yuridik psixolog sifatida yozuvchi A.K.Doylning qahramoni Sherlok Xolmsni atash mumkin. Yuridik psixologiya bo‘yicha tadqiqot ishlari o‘sha vaqtarda G.Gross, K.Marbe, V.Shtern, K.Yung va boshqa psixologlar tomonidan olib borilgan. Keyinchalik yuridik psixologiyaning o‘ziga xos tadqiqot yo‘nalishlari vujudga keldi: jinoyatchilar shaxsini tadqiq qilish, guvohlik ko‘rsatuvchilar ko‘rsatmalarini tekshirish, sud psixologiyasi ekspertizasining nazariy va amaliy tomonlari ishlab chiqilgan. Yuridik psixologiya umumiy psixologiyaning metodlari va o‘ziga xos ularning shakllarini qo‘llaydi. Hozirgi zamonda uning bir qancha bilimlari mavjuddir: kriminal psixologiya, sud psixologiyasi, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash psixologiyasi, ya’ni penitensiylar psixologiyasi yoki axloq to‘zatish mehnat psixologiyasi kabilalar. Harbiy psixologiya - harbiy faoliyatining inson psixikasiga ta’siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish - harbiy psixologiyasining asosiy muammolaridan biridir. Harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlar, komandirlar bilan jangchilar muloqotining psixologik xususiyatlari, favquloddagi holatlarda harbiy xizmatdagi

kishilar psixikasining o‘zgarish, bo‘linmalarda psixologik muhit masalasi, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish birlamchi muammo ekanligi va hokazo. Harbiy psixologiya negizida sotsial psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, pedagogik psixologiya sohalarining nazariy-amaliy materiallari, umumbashariy qonuniyatları yotadi.Sport psixologiyasi - sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha XX asrning 60-70 yillarida jadal sur’atlar bilan rivojiana boshladi va uning ilk tadqiqotlari sportchilarning individual-psixologik farqlarini o‘rganishga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib esa sport psixologiyasi o‘rganayotgan muammolar ko‘lami kengaydi, shu boisdan uning asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotga ta’sir o‘tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari, sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, erishgan yutuqlariga psixologik yordam ko‘rsatish jabhalari bilan ham shug‘ullanadi.Savdo psixologiyasi - jahon mamlakatlarida keng rivojlangan bo‘lib, tijorat ta’sirining psixologik negizlari, ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlarini, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid va boshqa xususiyatlarini, xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydigan soha. Savdo psixologiyasi savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi va shu kabi masalalarni tadqiq qiladi. Ayniqsa, sotuvchi-xaridor munosabati, kishilarga ta’sir o‘tkazish, ularda iliq his-tuyg‘u, ishonch uyg‘otish mexanizmlari, mantiqan ularni muomala jarayonida ishontirish, qiziqtirish, ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilih, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqot madaniyati va uning treninglaridan unumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini angagan holda munosabatda bo‘lish qonuniyatlarini tadqiq etish ham mazkur sohaning tekshiruv predmetiga kiradi.Ijodiyot psixologiyasi - badiiy qadriyatlarni o‘zlashtirishda, ularning yangi ko‘rinishlarini ijod qilishda va shu qadriyatlar inson tomonidan idrok qilishda kechadigan psixologik holatlarni hamda bu holatlarning shaxs hayoti, faoliyatiga ta’sirini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Ijod psixologiyasi bir tomonidan psixologizm ta’siri ostida, ikkinchi tomonidan esa aksilpsixologizm iskanjasida rivojlanadi. Psixologizm tarafdorlari badiiy asarlar yaratilishi individual ong ta’sirida vujudga keladi, deb talqin qilishadi. Aksilpsixologizm bu asarlarga sub’ektning psixik faolligining ta’sirini inkor qildi.Hozirgi zamonda san’at asarlarining tarixiy jihatdan ularni ijodkorlarining shaxsiy xususiyatlari birlamchi ekanligidan kelib chiqiladi. Zamonaviy san’at psixologiyasi san’atkorlarning qobiliyatlarini asar yaratishda hissiy ko‘rinishlarni, shaxslararo munosabatlarni psixologik nuqtai nazaridan o‘rganadi. San’atda inson ruhiy olamini amaliy jihatdan tekshirish, baholash, o‘ziga xos jihatlarini guruhlash, individual, guruhiy, jamoaviy ta’sir xususiyatlarini sharhlash imkoniyati mavjud. San’at psixologiyasi ijtimoiy tarbiya berishning psixologik mexanizmlari, yo’llari, qonuniyatlar, metodlari kabilarni tadqiq etuvchi muhim sohalardan biridir. Bugungi kunda uning quyidagi sohalari o‘z tadqiqot predmeti va ob’ektiga egadir: ijod psixologiyasi, san’at psixologiyasi, badiiy tarjima psixologiyasi, badiiy ijodiyot psixologiyasi, xalq amaliy san’ati psixologiyasi, badiiy me’morlik psixologiyasi kabilalar.Yosh psixologiyasi - shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug‘ilishidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrni, ya’ni ontogenezni o‘rganadigan psixologiya sohasi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo‘lib, u fan va texnika taraqqiyoti, jamiyat talabiga binoan bolalar psixologiyasi taraqqiyotida qo‘llanilgan. Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o‘smirlilik va o‘spirinlik psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. U insonning ontogenezda rivojlanish jarayonida psixik holatlarning kechishi, psixik funksiyalarning roli, ularning o‘zgarishi, harakatlantiruvchi kuchlar, mexanizmlar, ta’sir o‘tkazuvchi ob’ektiv va sub’ektiv faktorlar, taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Yosh psixologiyasi umr o‘tishi bilan psixologik farqlar, individual-psixologik xususiyatlar o‘rganishini o‘rganadi, tadqiqotlarda madaniy, ijtimoiy-tarixiy, milliy ta’sirni hisobga oladi. Shuning uchun yosh psixologiyasining ob’ektlari o‘ta murakkab bo‘lib, taraqqiyotlar taraqqiyotini tekshirishni taqozo qiladi. Jahon psixologiyasida to‘plangan barcha nazariy materiallarga, shu jumladan genetik modellashtirish (L.S.Vigotskiy) metodlariga, egizaklar metodiga va shunga o‘xshash o‘ta murakkab jarayonlarning longevityud (o‘zluksiz) uslubi yordamida tekshirishga asoslanadi. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri - bolani psixik rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan

iboratdir. Yosh psixologiyasi pedagogik psixologiyaning ilmiy, amaliy, tajribaviy asosi bo‘lib hisoblanadi, lekin boshqa sohalari bilan ham o‘zviy alohida faoliyat ko‘rsatadi, inson kamolotining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ijtimoiy ahamiyatga molik materiallar to‘playdi.

Maxsus psixologiya - normal psixik rivojlanmagan tug‘ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta’siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiqot qilish sohasi. Uning bir necha bo‘limlari hukm suradi: patopsixologiya - rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o‘rganuvchi soha; oligofrenopsixologiya - psixik rivojlanishning miyadagi tug‘ma asoratlar bilan bog‘liq patologiyasi to‘g‘risida tadqiqot ishlarini olib boruvchi soha; surdopsixologiya - quloq eshitishning butunlay kar bo‘lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug‘ullanuvchi, bolani voyaga yetkazishning omilkor yo‘l-yo‘riqlarini topuvchi, korreksion-to‘zatish ishlarini olib boruvchi soha; tiflopsixologiya - chala ko‘rvuch va mutlaqo ko‘zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi soha. Maxsus psixologiyaning yana o‘ziga xos tor bo‘limlari ham mayjud bo‘lib, insonlarning kasalligi, nuqsoni, aql-idrok darajasi, nutq faoliyati patologiyasiga binoan tadqiqot ishlari olib boriladi. Qiyosiy psixologiya - psixologiyaning murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, psixikaning filogenetik holatlari va ularning shakllarini tadqiq qiladigan sohasi. Qiyosiy psixologiyada hayvonlar psixologiyasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ularning xulq-atvoridagi o‘xshashliklar va tafovutlar sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta’sir o‘tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi. Zoopsixologiya qiyosiy psixologiyaning bo‘limidan iborat bo‘lib, u turli guruhlarga, turlarga mansub hayvonlar, jonivorlar psixikasini, ularning xatti-harakatlarini o‘rganadi. Etiologiya - biologik va psixologik jabhalar qorishmasidan iborat bo‘lib, hayvonlarning xatti-harakatidagi tug‘ma alomatlar, mexanizmlar insonni bilan umumiy negizga ega ekanligini o‘rganuvchi soha. Differensial psixologiya - shaxslar o‘rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a’zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya’ni psixologik farqlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Differensial psixologiyaga F.Galton asos solgan bo‘lib, u individual farqlarni statistik analiz qilish uchun bir qancha usullar va asboblar yaratgan. Differensial psixologiya terminini nemis psixologi V. Shtern o‘zining «Individual farqlar psixologiyasi» (1900 yil) asarida ishlatgan. Differensial psixologiyaning asosiy metodlaridan biri - testdir. Avval individual testlar, keyinchalik esa guruhiy testlar qo‘llanila boshlangan, ular asosan aqliy rivojlanishdagi farqlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, muayyan vaqt o‘tgandan so‘ng proaktiv testlar ishlab chiqilgan. Mazkur testlar qiziqishdagi, intilishdagi, hissiyotdagi tafovutlarni tekshirishga qaratilgandir. Testlarning faktor analizi yoki intellektga oid ma’lumot beruvchi omillari o‘rganilgan. Jahon psixologiyasida eng keng yoyilgan nazariyadan biri - bu N.Spiromenning ikki faktorli konsepsiyasidir. Bu nazariyaga binoan, har bir faoliyat uchun umumiy bitta faktor mavjuddir, bundan tashqari, o‘sha faoliyatga qaratilgan xususiy faktor ham mayjud. Shu sohaga oid yana bir nazariya L.Tyorston, Dj.Gilford va boshqalarning multifaktorlik yondashuvidir. Mazkur nazariya umumiy faktor borligini inkor qiladi, unda boshlang‘ich aqliy qobiliyatlar asosiy o‘ringa qo‘yiladi. Psixologiya inson qobiliyatlarini genetik, biologik omillarga asoslangan, degan g‘oya mavjud bo‘lib, ta’kidlanishicha, ular go‘yoki nasldan nasnga o‘tadi. Hozirgi zamon differensial psixologiya diagnostika, prognostika metodlari yordami bilan shaxslarni qobiliyati bo‘yicha tanlashda ilmiy prinsip va qonuniyatlarga asoslanadi. Psixofiziologiya - odamlarning individualpsixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Hatto differensial psixofiziologiya termini mayjud bo‘lib, uni 1963 yilda V.D.Nebilitsin tomonidan fanga kiritilgan. Psixofiziologiyaning ikkita asosiy tadqiqot yondashuvi mavjud: a) mustaqil amaliy tadqiqotlarda olingan fiziologik va psixologik natijalarni o‘zaro solishtirish, qiyoslash; b) biron bir faoliyatda fiziologik funksiyalar o‘zgarishini o‘rganish. Ijtimoiy (sotsial) psixologiya - odamlarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini, bu guruhiy tavsifni, shaxsning guruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiypsixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustamovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi. Qadimgi zamondan ijtimoiypsixologik vogelik falsafiy nuqtai nazardan o‘rganilib kelingan, lekin shaxs, guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Ijtimoiy psixologiya faniga asos bo‘lib psixologiya, sotsiologiya, antropologiya,

etnografiya, kriminologiya, falsafa kabi fanlar xizmat qilib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida sotsial psixologiyani fan sifatida rivojlantirishga ilk urinishlar boshlangan. Jahon jamoatchiligi tomonidan sotsial psixologiya 1908 yildan e'tiboran alohida fan sifatida tan olingan. Bunga asos bo'lib bir vaqtning o'zida angliyalik psixolog U.(V) Makdugall va amerikalik sotsiolog E.Rossarning tadqiqot natijalari xizmat qildi. Chunki bu ishlarda «sotsial psixologiya» termini qo'llanilgan edi. Urushdan keyingi yillarda AQShda va boshqa mamlakatlarda sotsial psixologiya muammolari yo'zasidan tadqiqotlar o'tkazish jarayoni keng yoyildi. Ayniqsa, AQShda o'tkazilgan Kotornning tajribasi, E.Meyoning izlanishlari sotsial psixologiya tarixida asosiy rol o'ynaydi. Bu tadqiqotchilarining asosiy ob'ekti bo'lib kichik guruuhlar xizmat qilgan, tajribalar laboratoriya sharoitida o'tkazilgan. Sotsial psixologiya fan sifatida muloqot, muomala qonuniyatlar, shaxslararo munosabat, individual va guruhiy o'zaro ta'sir, guruhlarning ichki va tashqi to'zilishi, ularning turlari, tasnifi, ommaviy holatlar va boshqalarni tekshiradi.

Sotsial psixologiya bir necha sohalarni o'z ichiga qamrab oladi: din psixologiyasi, oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.

Din psixologiyasi - psixologik va ijtimoiy psixologik omillarning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Din psixologiyasi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lib, insonni ibodat qilishdag'i, diniy an'analarni, rasm-rusumlarni bajarishdag'i hissiyot holatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Diniy psixologiyani o'rganish quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirilmoqda: a) umumiy nazariya: diniy ong, uning to'zilishi, diniy hissiyot, dinning shaxs shakllanishidagi ahamiyati; b) din psixologiyasi differensiatsiyasi: ijtimoiy muhit va tarixiy davrdan shakllangan ong va hissiyot tadqiqoti; v) diniy guruh psixologiyasi; g)diniy rasm-rusumlar psixologiyasi; d) surifikrlilik ta'limi psixologiyasi kabitidir.

Siyosiy psixologiya - jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir o'tkazish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.

Oila psixologiyasi - oilaning psixologiyasini o'rganuvchi fanlararo tadqiqot qilishga yo'nalgan psixologiya sohasi sanaladi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlari, jinsiy tafovutlarga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi. Oila psixologiyasi tomonidan to'plangan materiallar oila mustahkamligini saqlash uchun maslahatlar berishda, har bir sotsiologik va psixologik dasturlar to'zishda qo'llaniladi. Shuningdek, oila tiplari, to'zilishi, ierarxiyasi, ularga ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ham mazkur sohaning tadqiqot predmetiga kiradi.

Boshqaruvin psixologiyasi - jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruuhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologyaning sohasi.

Fan psixologiyasi - ilmiy tadqiqot o'tkazishning samaradorligini oshirish uchun psixologik ta'sir omillarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Fan psixologiyasi fanga oid boshqa sohalar bilan o'zviy bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishda, ilmiy markazlarda ijtimoiy va individual xususiyatlarga ega bo'lган psixologik qonuniyatlarni tadqiq qiladi, insonning ijtimoiy qobiliyatlari, aqliy imkoniyatlari hamda ulardan unumli foydalanish omillarini tekshiradi. Kashfiyotlar amalga oshirilishi negizlari, mexanizmlari, shart-sharoitlari va unda inson omilining roli kabi holatlarni o'rganadi.

Kompyuterlashtirish psixologiyasi - kompyutering ishlab chiqarishdagi roli, psixik aks ettirishga ta'siri, shaxs to'zilishining o'zgarishini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha kompyuter va inson o'rtasidagi dialogik munosabatni ham tadqiqot qiladi, natijada «texnika-inson-texnika» o'zaro ta'siri mexanizmini tekshiradi va zarur jabhalar o'zaro ta'sirini aniqlaydi. Kompyuterlashtirish inson psixologiyasida muayyan o'zgarishlarni yo'zaga keltiradi, sermahsul texnika yaratish tizimini tezlashtirishga muhim psixologik asos yaratadi. Kompyuterlashtirishning bosh muammosi - uning insonga ta'sir o'tkazish mexanizmlarini tadqiqot qilishdir.

Parapsixologiya - hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo‘lgan psixik hodisalarini o‘rganadi. Ekstrasensorika - o‘ta sezuvchanlik, telepatiya - fikri masofaga o‘zatish, kelajakni bashorat qilish va hokazo. Parapsixologiyaga nisbatan qiziqish qadimdan mavjud bo‘lib, unga nisbatan ixlos to hozirgi kungacha kamaygani yo‘q, goho uni psixotronika deb ham atashadi. Xiromantiya-qo‘l kaftiga qarab fol ochish, inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy soha. Spiritizm-o‘lgan odamlar arvochlari, ruhlari bilan aloqa o‘rnatish mumkin, ular hamisha barhayot va biz bilan muloqotga muhtoj g‘oyani ilgari suruvchi parapsixologiya sohasi.

## 2.Psixologiyaning metodologiyasi va prinsiplari

Jahon psixologiyasi fanida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillarning eng muhim tariqasida insonning emotsiyal hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta’kidlab o‘tiladi. Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e’tirozlar bo‘lishi mumkin emas. Chunki mazkur omil eksperimental psixologiyaning mustaqil soha sifatida vujudga kelishidan e’tiboran ustuvor dalil taqozo qilmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, inson muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi ko‘p jihatdan shaxsning emotsiyal holatlariga «emotsional ton, kayfiyat, stress, effekt va hokazo», izohlanishi murakkab bo‘lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg‘ularga bog‘liq.

O‘yin, mehnat, o‘qish, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bo‘lishi ijobjiy psixologik holat sifatida baholansa, emotsiya va hissiyotning barqaror, maqsadga yo‘nalgan tarzda hukm surishi ehtimoli e’tirof etiladi. His-tuyg‘ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarning mavjudligi ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanganligidan dalolat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari va jamiyatning a’zolari bilan turli shakldagi, har xil xususiyatli munosabatga kirishishi, ular bilan muomala qilish maromlarini davriy «muvaqqat tarzda» o‘zgarishni vujudga keltiradi. Ana shu o‘zgarish tufayli muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, omad va omadsizlik, optimizm va pessimizm, romantika va realiya, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo‘sinqinlik va tushkinlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobjiy (pozitiv), ikkinchisi esa salbiy (negativ) ruhiy hodisa kelib chiqadi. Faoliyat va xulqning amaliyotida bir tekis kechishini ta’minlovchi emotsiyal holat barqarorligining bo‘zilishi unga qiyos qilingan muvaffaqiyatning birlamchi omili to‘g‘risidagi ilmiy ma’lumotlarning shubha ostida qoldiradi. Binobarin, jamiki narsaning boshlang‘ich asosi, manbai emotsiya degan g‘oyani, uning qiymatini umumiy fonda birmuncha qadrsizlantiradi, lekin ikkinchi, ustuvor va yetakchi, umumiy va xususiy ob’ektiv va sub’ektiv, muhim va nomuhim mezonlar, alomatlar, o‘lchamlar yordami bilan baholanishi ushbu psixologik masala mohiyatini oqilona talqin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, ularning mohiyatini, keltirib chiqaruvchi sabablarni, harakatatlantiruvchi kuchlarini muayyan dalillarga asoslanib tahlil qilish muammosi maydonga keladi.

Inson faoliyati va xulqining muayyan qonuniyatlargalasoslangan holda amalgaloshishi ham ob’ektiv, ham sub’ektiv shart-sharoitlarga bog‘liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi ob’ektiv (tashqi) shart-sharoitlarga bog‘liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi ob’ektiv (tashqi) shart-sharoitlar, ya’ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob bera olish imkoniyati, tashqi qo‘zg‘atuvchilarining bezararligi, vaqt va fazoviy o‘lchovlarning muvofiqligi, mutanosibligi kabilardan tarkib topadi. Xulq va faoliyatning namoyon bo‘lishi uchun tabiiy shart-sharoitlar tizimi yaxlit holda ishtiroyetishi, ularning muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillar majmuasi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy shart-sharoitlardagi to‘kislikdan tashqari ayrim yetishmovchiliklar va o‘zilishlarning sodir bo‘lishi nuqsonlarni keltirib chiqaradi, buning oqibatida ruhiy kechinmalar faolligi, ildamligi, maqsadga yo‘nalganligi bo‘ziladi. Tabiiy shart-sharoitlar muhit ta’sirida inson ruhiy olamida bir qator keskin ham sifat, ham miqdor o‘zgarishlari vujudga keladi, ular yangilanishlar, yangi fazilatlar, xislatlar tug‘ilishida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lmish geografik muhit bu borada muhim rol o‘ynaydi, ko‘pincha u, birinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlariga ta’sir etib, fenotiplarni genotiplarga aylantiradi (xududiy muhit, relef, stixiya kutilishi: zilzila, qor ko‘chkisi, dovul, suv toshqini, oyoq yetmas

qirli tog‘lar va hokazo). Ikkinchidan, ontogenetika shaxs xarakterologik xususiyatlarini tabiiy ravishda shakllanishiga ta’sir o’tkazadi, shuning bilan birga mikro muhit bilan genlar, irlar belgilar, alomatlar o’rtasida uyg‘unlikni ta’minlab turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Ob’ektiv (tabiiy) shart-sharoitlardan tashqari, inson omili bilan o’zviy bog‘liqligi sub’ektiv (shaxsga oid, uning qiyofasiga bog‘liq) shart-sharoitlar muomalaning, faoliyatning, xulqning ijtimoiy turmushda samarali amalga oshishini o’zluksiz ravishda ta’minlab turadi. Sub’ektiv shart-sharoitlarning qatoriga shaxsning barqarorligi, xarakterining mustahkamligi, ehtiyoj, motiv, maslak, salohiyatining puxtaligi, o‘zini o‘zi boshqarish uslubining qat’iy ravishda shakllanganligi, biologik shartlangan xislatlar esa o‘zaro uyg‘unlashganligi kabilalar kiradi. Odatta ob’ektiv (tabiiy) va sub’ektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlardagi o‘zgarishlar tufayli ijobiy (pozitiv) yoki salbiy (negativ) xususiyatlari psixologik holatlar, hodisalar, xislatlar, kechinmalar ustuvorligi yo’zaga kelib, moddiy asos funksiyasini bajaruvchi oliv nerv faoliyatini, markaziy nerv sistemasining ritmikasini, ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Buning oqibatida faoliyat, xulq va muomala amalga oshirishda odatiy sa’i-harakatlar, operatsiyalar, maromlar bo’zila boshlaydi, favqulodda asabiylik, ruhiy nuqsoniylik, qonuniyatdan chetga og‘ishlik, noxush kechinmalar hokimligi yetakchilik qiladi. Xuddi shu sababdan, faoliyat, xulq va muomalaning muvaffaqiyati shubha ostida qolishi mumkin, chunki mahsuldarlik, sobitqadamlilik, maqsadga yo‘nalganlik sifatlarining dominantligi yo‘qoladi, natijada ushalmagan ezgu niyatlar armon tariqasida yuksak his-tuyg‘ular sifatida davriy hukm surishda davom etaveradi.

Insonning tabiatga va jamiyatga nisbatan munosabati tasodiflarsiz, favquloddagi vaziyatlarsiz amalga oshishi mumkin emas, chunki ehtimollar darajasidagi kutilmaning yo‘qligi rejasiz vaziyatlarni shaxsning idrok maydonida keltirib chiqaradi. Hayot va faoliyat strategiyasi va taktikasining ekstremal tarzda o‘zgarishi individual va ijtimoiy xususiyatlari vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Vaziyatlar stixiyali, xaotik (betartib, tasodif) xatti-harakatlarni vujudga keltirib, tekis, odatiy, davriy, barqaror xususiyatlar ritmikasini izdan chiqaradi, natijada insonning motivatsion, emotsiyonal, kognitiv, reguliyativ, xulqiy, irodaviy to‘zilish tarkiblarining funksiyasi bo’ziladi. Shaxs to‘zilishiga favquloddagi vaziyatlarning ichki larzasi faoliyat, xulq va muomalaning onglilik holatidan ongsizlikka o‘tishini taqozo etadi, binobarin, muvaffaqiyatsizlik realiyaga aylanadi. Xo‘s, nima uchun shaxs tasodiflarning oldini olishga tayyor emas yoki ko‘pincha u bu borada kuchsizlik, ojizlik qiladi? Ushbu muammo yechimini juda sodda tarzda hal qilish ham mumkin:

1. shaxs ongli zot, yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lishidan qat’i nazar, u tabiatning tarkibiy qismi, instinktlar, shartsiz reflekslar ta’siriga beriluvchandir; 2) shaxsning tana a’zolari (organizmi) favquloddagi hodisalar va vaziyatlarga moslashgan emas (stixiya, halokat, tasodif, stress, affekt, xavf-xatar, risk); 3) shaxs komillik darajasiga erishmaganligi tufayli sababiy bog‘lanish oqibatlarini, fobiya (qo‘rqish) bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni oldindan sezish, payqash, ularga nisbatan aks ta’sir berish imkonini yo‘q; 4) shaxsda ikkinchi qiyofaning shakllanmaganligi (test, trening, trenirovka bilan qurollanmaganligi) uning xavf-xatar qurbaniga aylantirishi shubhasiz.

Jahon psixologiyasi fanining ma’lumotlariga qaraganda, muvaffaqiyatsizlikdan hech kim himoyalangan emas, chunki ijtimoiy immunitet juda kuchsiz aksil ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Ma’lumki, jismoniy, axloqiy va aqliy barkamollik tub ma’nodagi komil inson to‘g‘risida mulohaza yuritishga imkon beradi va tarkiblarning to‘la munosibligi, uyg‘unlashganligi, o‘zaro taqozo etuvchanligi asosiy mezon vazifasini bajaradi, komillik darajasi sub’ektning ma’naviy dunyosiga aylanmas ekan, u taqdirda hech kim tasodiflar, favquloddagi vaziyatlar shaxs tomonidan odatiy hodisa sifatida osoyishta qabul qilinmaydi. Muvaffaqiyat garovi (kafolati) funksiyasini bajaruvchi omillarning genezisi to‘g‘risida fikr yuritilganida, eng avvalo, ularning birlamchiligi, asosiy manba ekanligini nazarda tutish nazariy hamda metodologik muammolar yechimini oqilonqa topishga puxta negiz hozirlaydi, boshlang‘ich harakat nuqtasini belgilab berishga xizmat qiladi. Nazariy mulohazalarga binoan, faoliyat, xulq va muomalaning bir tekis, samarali kechishi genetik nuqtai nazardan quyidagilarga bog‘liq:

- Ob’ektiv (tabiiy) va sub’ektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlar mavjudligiga.
- Ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlar hukm surishini o‘zgartiruvchi tasodifiy va favquloddagi vaziyatlar ta’sirchanligiga, ustuvorligiga.
- Emotsiya va hissiyotning ijobiy (pozitiv), salbiy (negativ) xususiyat kasb etishiga.
- Insonning shaxslilik va xarakterologik xususiyatlarining barqarorligiga.

- Shaxsning komillik darajasiga erishganligiga va hokazo.

Shaxsning hayot va faoliyatida muvaffaqiyatga erishish, maqsadiga muvofiq sa'i-harakatlarni unga yo'naltirish uchun quyidagilarga e'tibor qilish zaruratning zaruratidir: ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar o'zgarsa, ularga to'zatishlar (korreksiya) kiritishga tayyorgarlikka;

- favquloddagi vaziyatlarga ko'nikish uchun shaxsga trening yordami bilan ta'sir o'tkazishga, unda ikkinchi qiyofani shakllantirishga;
- organizmning har qanday stixiyalarga chidamligini orttirishga;
- komillikka intilish his-tuyg'ularini takomillashtirishga;

shaxs imkoniyatlarni ro'yobga chiqishga ko'maklashishga o'zini o'zi kashf qilish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'ziga o'zi taskin berish, o'zini o'zi qo'lga olish va hokazo. Inson hayoti va faoliyatini o'zgartiruvchi asosiy omillar mavjud bo'lib, ular muayyan darajada shaxsning ta'siriga beriluvchandirlar.

Umumiy psixologiyaning asosiy prinsiplari determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatida rivojlanishi bo'lib hisoblanadi.

1. Determinizm (lotincha determinata) belgilayman ma'nosini bildiradi) prinsipi tabiat va jamiyat hodisalari, shu jumladan, psixik hodisalarning ob'ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir. Shu boisdan psixika, ongning ob'ektiv borliq va nerv sistemasi bilan belgilanishi ilmiy psixologiyaning buyuk yutug'i hisoblanadi. Shuning uchun determinizm psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga mutanosib ravishda u ham o'zgarishini anglatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hayvonlar psixikasining rivojlanishini biologik qonun tarzidagi tabiiy tanlash mezoni bilan o'lchanadi. Hayvonlardan farqli o'laroq insonda ong shakllanishining paydo bo'lishi muayyan bosqichlar orqali rivojlanishi moddiy ishlab chiqarilish vositalarini yaratish hamda takomillashtirish, mahsulotlarni qayta ishslash qonunlari bilan belgilanadi. Inson ongingin ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xususiyatiga ega ekanligini anglashi (tushunish) shaxs ongingin ijtimoiy borliqqa (makro, mikro, mize muhitiga) bog'liqligi xaqidagi ham tabiatshunoslik, ham insonshunoslik umumiyligi prinsipga asoslangan buyuk xulosa kishilik jamiyatining olamshumul tantanasidir. Hozirgi davrda determinizmning teskari aloqa, sistemalilik, statiklik ko'rinishlari mavjud.

2. Ong bilan faoliyat birligi prinsipini psixologiya fanida qabul qilinishi shunday ma'noni anglatadi: a)ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas; b) ong bilan faoliyat aynan biror-biriga o'xshashi ham emas; v) ong bilan faoliyatning birligi ularning hukm surishi mexanizmidir (kursiv E.g.). Faoliyat o'zining to'zilishi bo'yicha ichki va tashqi tarkiblariga ega bo'lsa-da, voqelik tashqi ifodasi bilan ajralib turadi. Ong bo'lsa faoliyatning ichki rejasini, uning dasturiy jabhasini aks ettiradi. Real vaqtarning o'zgaruvchan (rivojlanishini anglatuvchi) modeli ongda yo'zaga keladi, odam atrofmuhit bilan munosabatga kirishganda undan mo'ljal oladi, natijada nuqsonlarga yo'l qo'yaydi. Faoliyat ong yordamida amalga oshadi va o'z navbatida ong mazkur jarayonda takomillashadi (muammo va uning yechimi variatsiyalar, invariantlar turtki vazifasini o'ynaydi). Ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan ong bilan faoliyat birligi prinsipi, birinchidan, xulq-atvor, faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishga kafolat beradi; ikkinchidan, harakat, sa'i-harakatlarni muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizmni aniqlashga imkon beradi; ularning birligi psixikaning ob'ektiv qonuniyatlarini ochishga muhim imkoniyati, puxta shart-sharoit yaratadi. Agarda psixika faoliyat samarasi va mahsuli sifatida talqin qilinsa, u taqdirda psixika va ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi to'g'ri tushunilgan bo'ladi. Mazkur prinsip rus psixologlari L.S.Vigotskiy, P.P.Blokskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.M.Teplov, B.G.Ananev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.3. Psixikaning taraqqiyotini dialektika nuqtai nazaridan tushunish psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta'limga, o'yin faoliyatiga bog'liq ekanligini aniqlashdan dalolat beradi. Ijtimoiy tajribani o'zgartirish jarayonining yo'z berishi shaxs uchun psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qiladi va dasturiy bilimlarni egallashga mustahkam zamin hozirlaydi. Har qaysi faoliyat turi inson psixikasini rivojlantirish manbai va mexanizmi rolini bajaradi. Psixoglarning ushbu prinsipga taalluqli fikrlaridan namunalar keltiramiz: 1) L.S.Vigotskiy: ta'lim psixikaning rivojlanishini yo'naltiradi, shu bilan birga bu jarayonda ongli faoliyatning yangi, mutlaqo boshqacha shakllari yaratiladi; 2) P.P.Blokskiy: tafakkur kichik

maktab yoshida o‘yinlar bilan, o‘spirinlik yoshida o‘qish bilan bog‘liq tarzda rivojlanadi; 3) S.L.Rubinshteyn: ong faoliyatda paydo bo‘lib, ana shu faoliyatda shakllanadi; 4) B.M.Teplov: qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud bo‘ladi, lekin rivojlanish faoliyat jarayonidan boshqacha muhitda yo‘z bermagandek, qobiliyat tegishli yaqqol faoliyatdan ajralmagan holda paydo bo‘la olmaydi.Ma’lumki, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsulidir. Psixika borliqning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg‘ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi, tashqi dunyodan kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta’sirning natijasida hosil bo‘ladi. Psixofiziologik qonuniyatatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog‘lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta’sirida hosil bo‘ladi.Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini - uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o‘rganishdir. Odamning ongliligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Inson shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo‘lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topadi. Bunda muhit, irsiy belgilar, ijtimoiy ta’sir asosiy omillar hisoblanadi.Inson o‘zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta’siri ostida bilimlarni o‘zlashtira boradi, ijtimoiylashadi. Ijtimoiy muhitda uning his-tuyg‘ulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, ehtiyojlar, e’tiqodi, uni faollikka da’vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilaklari, xohishlari asta-sekin o‘zgarib boradi.Insonning bilish faoliyati rivojlanishi unga o‘zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to‘laroq, aniqroq aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo‘sindagi o‘zaro bog‘lanishlari, murakkab munosabatlari va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o‘ziga munosabati vujudga keladi.Inson ongingin rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Insonning moddiy turmushi, u hayot kechirayotgan to’zumning moddiy asosiga emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, dunyoqarashi, maslagi, ijtimoiy voqelikka munosabatlari, intilishlari, ijod mahsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir.Insonning borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Insonning rivojlanishi ob’ektiv borliqqa va o‘ziga faol ta’sir ko‘rsatishida sodir bo‘ladi. O‘yinni ko‘zatishi, mehnati, o‘qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi, qiziqishining barqarorlashuvi va boshqalar shaxsning psixik rivojlanishini ifodalaydi. Rivojlanish inson shaxsining tarkib topishi jarayonidir. Rivojlanish o‘zaro bog‘liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Shaxs aql-zakovatining ko‘rsatkichi, sifati, xususiyati uning atrofdagi odamlar bilan kundalik munosabatlari va amaliy faoliyatida vujudga keladi, o‘zaro ta’sir natijasida unda aqlning ijodiy mahsulorligi, teranligi, tezligi, mustaqilligi, tanqidiyligi, chuqurligi orta boradi. Psixologiya fanining filogenetik, tarixiy, ontogenetik rivojlanishiga yangicha yondashish prinsiplarni determinizm;

ong va faoliyat birligi;

taraqqiyot;

tarixiylik;

predmetlilik;

monizm;

nutq va tafakkur birligi;

faollik;

interiorizatsiya va eksteriorizatsiya;

faoliyat ichki va tashqi to’zilishi birligi;

psixikani sistemali analiz;

aks ettirishni faoliyat to’zilmasidagi in’ikos qilinuvchi ob’ektga bog‘liqligi va hokazo.

quyidagicha turlarga ajratishga imkon beradi:

### **3.Inson psixikasining ilmiy-tadqiqot metodlari**

1. Psixologianing an’anaviy, empirik metodlari to hozirgi kungacha muvaffaqiyatli qo’llanilmoqda.

**Ko’zatish metodi.** Psixologiya fanida bu metodning ob’ektiv (tashqi) va sub’ektiv

(o‘zini o‘zi) ko‘zatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni ko‘zatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

ko‘zatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;

ko‘zatiladigan ob‘ekt tanlanadi;

sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi;

tadqiqot o‘tkazish vaqtি rejalashtiriladi;

ko‘zatish qancha davom etishi qat’iylashtiriladi;

ko‘zatish insonning qaysi faoliyatida (o‘yin, o‘qish, mehnat va sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;

ko‘zatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o‘tkazilishi) tayinlanadi;

ko‘zatilganlarni qayd qilib berish vositalari (kundalik, suhbat daftari, ko‘zatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon, videoapparat, fotoapparat va boshqalar) taxt qilinadi.

Ko‘zatish orqali odamlarning diqqati, his-tuyg‘ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, harakatchanligi, ishchanligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o‘rganiladi. Ammo o‘ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkonini yetishmaydi. Masalan, go‘dak bolani ko‘zatishda uning harakatlari, o‘yinchoqlarga munosabati, his-tuyg‘usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O‘quvchining darsdagi holatini ko‘zatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo‘zg‘atuvchi bilan ta’sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur’ati, emotsional kechinmasining o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plashga imkoniyat tug‘iladi. O‘siprin yoshlarning sport faoliyatini ko‘zatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg‘usining o‘zgarish xususiyatlari, g‘alabaga intilishi, o‘zining harakatini idora qila olishi yo‘zasidan materialllar yig‘ish mumkin. Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini ko‘zatish natijasida uning o‘z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o‘zini tutishi, imo-ishoralari, tashqi qo‘zg‘atuvchidan ta’sirlanish darajasi haqida keng ma’lumotlar yig‘iladi. Keksalarning muloqot jarayonini ko‘zatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his-tuyg‘usi, ekstravertivligi yoki introvertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyatlarini aniqlash demakdir.

Tashqi ko‘zatishda ba‘zan tafakkur bo‘yicha ham ma’lumotlar olish: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan ob‘ektga yo‘naltirilganini, tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va istirobni, ko‘zdagi g‘ayri tabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni ko‘zatib tafakkurning kechishidagi o‘zgarishlarni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo‘lning titrashi, asabiyashish, nutqning bo‘zilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar bo‘yicha ma’lumot beradi. Psixologiya fanida o‘zini o‘zi ko‘zatishdan (introspeksiyanadan) ham foydalilanadi. Ko‘pincha tajribali psixolog yoki malakali mohir o‘qituvchi, salohiyatlari rahbar o‘zini o‘zi ko‘zatish orqali ilmiy xulosa chiqara biladi. Masalan, o‘z tafakkurini ko‘zatib o‘zidagi emotsional o‘zgarish haqida, shuningdek, tafakkurning ichki mexanizmlari vujudga kelishi va kechishi to‘g‘risida ma’lumot oladi. Natijada tafakkurning sifati, mazmuni, mohiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda ro‘y berishini ko‘zatadi. Chet el psixologiyasida o‘zini o‘zi ko‘zatishning inson ruhiyatini o‘rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy-amaliy materialllar to‘plangan. Introspeksiya yo‘nalishining yirik namoyandalari o‘zlarini o‘zlar ko‘zatganlar va to‘plagan materialllarini tahlil qilib umumiyl psixologik qonuniyatlarni yaratishga harakat qilganlar. Lekin inson turli vaziyatlarda o‘zini bir xil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati unchalik katta emas. Shunday qilib, ko‘zatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Shu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanim tadqiq qilinadi.

**Suhbat metodi.** Bu metod bilan inson psixikasini o‘rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob‘ekti va sub‘ekti tanlanadi, mavzusi, o‘tkaziladigan vaqtি aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o‘tkazish rejalashtiriladi, o‘rganilayotgan narsa bilan o‘zvy bog‘liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir. Suhbat orqali odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, tiyrakligi, bilim saviyasi, e’tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to‘g‘risida ma’lumotlar olinadi. Suhbat metodining ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytariq so‘zlar, «g‘aliz» iboralar, nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘ladi. Shuningdek, savol-javobning bir shaklda emasligi sinaluvchida o‘ziga xos ishslash uslubi, oshkorlikning yetishmasligi, iymanish,

uyalish atroficha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

**Faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodi.** Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod umumiyligi psixologiyada keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yo'zasidan materiallar to'plash mumkin. Ob'ekt bilan sub'ekt o'rtaida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy kashtachilik, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy ma'ro'za, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar, loyiha, konsepsiya, san'atkori, artist va baxshi ijodiyoti kabilalar kiradi. Bular turli yoshdagi, jinsdagi va kasbdagi odamlar tomonidan yaratilgan bo'lishi va shunga ko'ra shakli, mazmuni, sifati, originalligi, hajmi, ko'rinishi, xususiyati bilan bir-biridan keskin tafovut qilishi mumkin. Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstrukturlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar, dehqonlar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar, kamol topish va bularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

**Test metodi.** Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm yoki shakl test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilashga bog'liqidir. 1905 yildan, ya'ni fransuz psixolog A. Bine va uning shogirdi A. Simon insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'chash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi. Chet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb bildilar. Biroq test tekshirilayotgan hodisalarning psixologik mezoni hisoblanmaydi. Ma'lumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilan amalga oshiriladi. Jahon (AQSh, Yevropa va hokazo) testologlari tadqiqot ob'ektlarini o'zlashtirib turadigan va qobiliyat, tafakkur, bilim ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsiyonal holati va salomatligiga bog'liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar. Sobiq ittifoq psixologlari K.M. Gurevich, V.A. Krutetskiy va boshqalar qo'llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsip asosida to'zilgan. Ular testlarning tafakkur ko'rsatkichi (indikatori) bo'lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga erishdilar. Shuningdek, tafakkur jarayonining sifat xususiyatlarini bilmay turib, qobiliyatning mohiyatini yoritib bo'lmaydi, degan qoidaga amal qilgan holda testlardan foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettell, Vartegg, Veksler, Meyli, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Psixologiyada testlar quyidagi turkumlarga, turlarga ajratilgan holda qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga: Bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik metodlardan biri maqsadga (yutuqqa) erishuv testlari yoki pedagogik testlar deb nomlanadi; bu tur harakat testlari (mexanizmlar, materiallar, instrument kabilardan foydalanishga mo'ljallangan), yozma testlar (maxsus blankalardagi savollardan bitta to'g'risini topishga yoki rasmdan muhim tomonini ajratishga yo'naltirilgan), og'zaki testlar (savollar tizimi umumiyligi ta'lim va kasb ta'limida tayyorgarlik darajasini aniqlaydi). Insonning aql-idroki, aql-zakovati, aqliy qobiliyati va fikrash darajasini o'chashga mo'ljallangan testlar intellekt testlari deyiladi; ular verbal va noverbal shakllarda to'zilgan bo'lib, aqliy imkoniyat, uquvchanlik, topqirlik, zehn, farosatililik, aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi; test topshiriqlari yo'riqnomasida analogiyaga, umumlashtirishga, tushunchalarga, tavsiflashga mantiqiy munosabatni aniqlash talab etiladi. Ijodiyot (kreativlik) testlari shaxsning ijodiy qobiliyatlarini o'rganish va baholashga mo'ljallangan bo'ladi; ular ijodkor shaxsning hayotiy tajribasini tahlil qilishga va ijodkor shaxsning individual xususiyatlarini (ijodiy tafakkur va uning mahsuldarligi: egiluvchanligi, tezkorligi topqirligi,

originalligi, tanlovchanligi, konstruktivligi va hokazo) o‘rganishga yo‘naltiriladi.

Mezonga mo‘ljallangan (kriterial orientirlangan) testlar tekshiriluvchidan egallagan va kasbiy topshiriqlarni bajarish uchun yetarli yoki yetarli emasligini aniqlashga mo‘ljallangandir. Mezon (kriteriya) sifatida muayyan bilimlar tizimi mavjud yoki mavjud emasligi xizmat qiladi. U (mezon o‘quv jarayonni tashkil etishda teskari aloqaning instrumenti tariqasida gavdalanadi. Mezonning yaratilishi uning mantiqiy-psixologik to‘zilishini tahlil qilish asosida quriladi. Bunda metodika bilan mezonning psixologik mutanosibligi, relevantligi oldindan hisobga olinishi lozim.

Shaxsga oid yoki shaxslilik testlari: shaxsning ustanovkasi, qadriyatlarga munosabati, emotsiyal holatlari, motivatsiyasi, shaxslararo munosabatdagi sifatlari, xulq-atvorining tipik shakllari va hokazolarni o‘rganishga, o‘lchashga, aniqlashga yordam beradi. Ular shaxsni o‘rganish shkalalari, so‘rovnomalari va bilim jarayonlarini o‘lchash, baholash, o‘zini-o‘zi baholashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shuningdek, sub‘ektivlikni aks ettiruvchi tekstlar tizimini ham qamrab oladi.

Proaktiv testlar (lotincha Prochestio-oldinlab, ilgarilab namoyon etish ma’nosini bildiradi): proeksiya natijalarini psixologik talqin qilishga asoslangan shaxsni yaxlit o‘rganishga qaratilgan metodlar majmuasi proaktiv testlar deyiladi. Psixologik himoyalanishdan tashqari, favquloddagi vaziyatda individuallagini o‘ziga xos namoyish etish kabilarda mujassamlashadi. Bunday testlar turkumi assotsiativ (tugallanmagan gaplar yoki hikoya), ekspressiv (psixodrama, o‘yinlar, ishbilarmonlik o‘yinlari, sotstrening, erkin mavzuda rasm chizish) turlariga ajratiladi. Shaxsning ichki dunyosi mohiyatini sub‘ektning shaxsan o‘zi to‘laroq namoyish etishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, testlar qatoriga yutuqqa (maqsadga) erishish testlari (ular darsliklarda berilgan bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy taraqqiyot darajasini o‘lchashga mo‘ljallangan), shaxslilik testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo‘naltirilgan diagnostik metodlardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proaktiv) testlari(savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs xususiyatlarining «loyixasi» ishlab chiqiladi), qobiliyat testlari, xotira testlari kiradi.

Endi testga ayrim misollar keltiramiz.

Ortiqcha so‘zni chiqarib tashlang:

- A) Yenisey, Dnepr, Sirdaryo, Amur (javob: Dnepr - u Yevropada joylashgan);
- B) Petrozavodsk, Ijevsk, Siktivkar, Abakan (javob: Abakan - u Osiyoda joylashgan).

**Tajriba (eksperiment) metodi.** Bu metod turli yoshdagi va kasbdagi odamlar (chaqaloq, bola, o‘siprin, balog‘atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun‘iy tushunchalarning shakllanishi nutqning o‘sishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg‘ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o‘rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog‘lanishlari, munosabatlari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, ob’ekt tarzida har xil holat va vaziyatlarni yaratishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, xarakter xususiyati, his-tuyg‘usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko‘nikma va malakalariga e’tibor berishi lozim.

**Eksperiment metodi** o‘z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo‘llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda rus psixologi A.F. Lazurskiy ta’riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a’zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o‘qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o‘zgarishlari, o‘zaro munosabatlari, ishchanlik qobiliyatları, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitlarda inson psixikasini o‘rganishda sinaluvchilar (bog‘cha bolalari, maktab o‘quvchilar, ishchilar, dehqonlar, ziyorolar, biznesmenlar, fermerlar, ilmiy xodimlar va hokazolar)ning o‘zlari bexabar bo‘lishi, ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadi muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish (interaksiya) kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

**Laboratoriya (klinika) metodi** ko‘pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo‘l-yo‘riqlar, tavsiyalar, ko‘rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o‘zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama va jihozlar mavjud. Ular odamdagи psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd

qilish va o‘lhashda qo‘llanadi. Ko‘pincha detektorlar, elektron va radio o‘lchagichlar, sekundomer, refleksometr, xronorefleksometr, lyuksmetr, anomatoskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromnogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniadi.

**Laboratoriya metodi** yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emotsiyonal hamda irodaviy va aqliy zo‘riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko‘pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko‘tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko‘rsatilishi bo‘yicha o‘zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsiyonal-irodaviy, asabiy zo‘riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo‘layotganini ifodalovchi ma’lumotlar olinadi.

**Tajriba (eksperiment)** aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi) va tekshirish (nazorat) qismlariga bo‘linadi. Eksperimentning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat, o‘yin, mehnat, o‘qish kabi faoliyatlarda tadqiq qilinadi. Tadqiqot ob‘ektining aynan shu paytdagi holati, imkoniyati aniqlanadi, lekin tekshiruvchi sinaluvchiga sub’ektiv ta’sir o‘tkazmaydi. Shu pallada sinaluvchiga hatto, yo‘llovchi savollar ham bermaslik eksperimentning prinsipi hisoblanadi.

**Tarkib toptiruvchi (shakllantiruvchi) eksperimentda** (tajribada) sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish, shuningdek, ularga maqsadga muvofiq muayyan malaka, yo‘l-yo‘riq va usulni o‘rgatish rejalashtiriladi. Eksperiment yakka, guruh va jamoa tarzida o‘tkazilishi mumkin. Buning uchun tajriba materialining hajmi, ko‘lami, qancha vaqtga mo‘ljallanganligi, nimalar o‘rgatilishi, sinaluvchilarni psixologik jihatdan tayyorlash oldindan belgilab qo‘yilishi shart.

**Tekshirish yoki nazorat eksperimentida** (tajribasida) tarkib toptiruvchi (shakllantiruvchi) bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo‘l-yo‘riq, ko‘nikma, malaka va shaxs fazilatlarining darajasini, barqarorligini aniqlash, ta’sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish (nazorat) tajribasi orqali tarkib toptiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berish mumkin emas, aks holda tadqiqot o‘tkazish prinsipi bo‘ziladi.

**Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi (nazorat) tajribalarda** yig‘ilgan ma’lumotlar, miqdorlar matematik-statistik metodlardan foydalangan holda ishlab (hisoblab) chiqiladi, shuningdek, miqdoriy tahlil o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘riladi. Statistik metodlar yordamida insonning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol) bilan uning individual-tipologik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi va ta’siri (korrelyatsiyasi) bilish jarayonlarining his-tuyg‘u bilan boshqarilishi, aql-zakovat omillarini tahlil qilish amalga oshiriladi. So‘ngra miqdorning hamda qo‘llanilgan metodikasining ishonchliligi, aniqlilik darajasi aniqlanadi. Ungacha ham matematik statistikaning sodda metodlaridan foydalanib ayrim hisoblashlar, masalan, o‘rtacha arifmetik qiymat, miqdorlarni tartibga solish, medianani hisoblash, kvadrat og‘ishni topish va boshqalar amalga oshiriladi.

Hozir injener psixologlar matematiklar bilan hamkorlikda inson psixikasining modelini yaratish ustida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar, shuningdek, mediklar, fiziologlar, kibernetiklar psixikani programmalashtirishni nihoyasiga yetkazmoqdalar. Ishlab chiqarishdagi «sun’iy intellektlar», robotlar, EHMLar ana shu izlanishlarning dastlabki samarasи hisoblanadi.

**Biografiya (tarjimai hol)** metodi. Inson psixikasini tadqiq etish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o‘zgalar ijodiga bergen baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o‘rin egallaydi. Shu bilan birga o‘zgalar tomonidan to‘plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o‘rganilayotgan shaxsni to‘laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

**Tarjimai hol** ma’lumotlari inson psixikasidagi o‘zgarishlarni ko‘zatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o‘rganib bo‘lmaydigan jihatlarini ochishga yordam beradi. Masalan, mazkur ma’lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog‘liq jarayonlar: she’riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san’at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o‘ziga xosligini, shaxsning ma’naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste’dod singari fazilatlarini o‘rganish mumkin. Inson ongingin hissasi, namoyon bo‘lishi, rivojlanishi, o‘ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atoqli odamlar bildirgan mulohazalarda o‘z ifodasini topadi. Allomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta’rifu-tavsiflari orqali avloddan avlodga o‘tadi.

**Biografik** ma’lumotlar odamlarning o‘zini o‘zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o‘zining uslubini yaratishi, kamolot cho‘qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o‘taydi.

**Yosh psixologiyasida** bolalarning tarjimai holi asosidagi ilmiy tadqiqotlar, masalan, N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina kabi sobiq ittifoq psixologlarining ko'zatishlari «Ona kundaligi» nomi bilan mashhurdir. Shunday tadqiqotlar o'zoq chet el psixologiyasida ham keng tarqalgan.

Badiiy adabiyotda yaratilgan talay asarlar, masalan, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, S.Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa qator adiblarning esdaliklari tarjimai hol shaklida bo'lib, ular bilan tanishish natijasida mualliflarning his-tuyg'usi, temperamenti, xarakteri, qobiliyati, iste'dodi, qiziqishi, intilishi, dunyoqarashi, e'tiqodi, nafosati, axloq va odobi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

**Anketa metodi.** Umumiyl psixologiya fanida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi.

Anketa odatda uch xil to'ziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan to'ziladi. Ikkinci xilda har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi va shkalali anketa deb ataladi. Anketadan turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qibiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, hamkasblariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida keng ko'lamda foydalaniladi. Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblab chiqiladi, atroficha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o'rganish uchun boy material to'plash imkonini beradi. Lekin unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bu kamchilikka yo'1 qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni (kontr savollarni) ishlab chiqish maqsadga muvofikdir. O'zini o'zi baholash shkalasini kasb tanlashga yo'naltirishni kasbiy layoqatni aniqlashni, qiziqish va motivatsiyani o'rganishda anketa metodi qo'llaniladi.

**Sotsiometriya metodi.** Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsiyal munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoring o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun undan qaysi faoliyatda, kim bilan qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi, xolos. Shuning uchun XX asrning oxirlarida sobiq ittifoq psixologlari Ya.L.Kolominskiy (Minsk) va I.P.Volkov (Sankt-Peterburg) tomonidan sotsiometriyaning yosh psixologiyasiga (ijtimoiy-pedagogik psixologiya sohasiga) moslab o'zgartirilgan turlari, modifikatsiyalari ishlab chiqilgan. Bular shaxslarning bir-birini tanlashi motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, sotsiometriyaning Ya.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar, o'quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.

Odatda o'quvchilardan quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi: «Sen sayohatga kim bilan borishni xohlaysan?», «Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?». Har bir savol sotsiometrik mezon (o'lchov) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olingan. Sinaluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini «eng ma'qul» deb tanlashi lozim. Unga, «avval, hammadan ko'ra ko'proq kim bilan birga bo'lishni xohlasang, o'shaning familiyasini yoz», «agar sen istagan shaxs to'g'ri kelmasa, yana kim bilan birga bo'lishni istasang, shuning familiyasini yoz», «aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz» deb uqtirish joiz.

Guruh tabaqalanishni ko'rsatish uchun sotsiogramma to'rtta «maydon»ga ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o'g'il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to'g'ri, mos keladi. Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog'langanida o'z ifodasini topadi. Eng ko'p munosabatga ega bo'lgan sinaluvchi doiraning markazidan o'rin oladi. U guruh a'zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi, shaxslar bilan aloqa o'rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi «maydon»larga o'rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. Tekshirishda, birinchidan, shaxslararo munosabatning darjasini va ko'lami aniqlanadi, ikkinchidan, qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi ko'rsatkichlar taqqoslanadi. Ko'rsatkichlarga qarab guruhdagi munosabatlar yoki qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar va ularning o'ziga xosligi,

psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi. Shu bilan birga nazariy ahamiyatga molik g'oyalar olg'a suriladi, amaliy ko'rsatmalar beriladi, tavsiyalar bildiriladi.

Bu metodda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha muassasalar, maktab sinflari, mehnat va dam olish lagerlari, oliv maktablar, mehnat jamoalari va turli tashkilotlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyat (nizo)larning sababi shu metod yordamida o'rganiladi. Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib va qoidaga binoan sistemalashtiriladi, ularning ijtimoiy-psixologik hamda sof psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Shu bilan birga guruhdagi shaxslarning yaqqol, aniq nuqtai nazari, guruhbozlik, og'machilik, qarama-qarshilik, his-tuyg'uning zo'riqishi, guruhiy jipslik, moslik, munosabatning motivlari va uning qurilishi, jinslar o'rtasidagi muloqotlarning zamini, muomalaning maromi hamda sehri mana shu kalit bilan ochiladi va barqarorlik xususiyatini kasb etadi.

Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, kasbdagi, jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar va yondashuvlarni tadqiq etishda unumli foydalansa bo'ladi

2. Yaqin va o'zoq chet el psixologiyasi fanida inson psixikasini tadqiqot qilish metodlarining turlicha klassifikatsiyasi (tasnifi) berilgan. Umumi psixologiya sohasi bo'yicha xilma-xil ilmiy asosga qurilgan nazariyalar mavjud bo'lib, ularning har qaysisi to'kislik va nuqsonli tomonlariga ega. Quyida biz rus psixologi B.G.Ananev tavsiya qilgan klassifikatsiyaga asoslangan holda metodlar xususiyatini yoritib beramiz.B.G. Ananev psixikani o'rganish metodlarining tashkiliy, empirik (amaliy), olingen natijalarni qayta ishslash yoki statistik hamda natijalarni sharhslash deb nomlab, ularni to'rtta katta turkumga, guruhga ajratgan. Mazkur metodlar guruhi o'z navbatida uning maqsadi va vazifasiga binoan yana bir nechta toifa hamda turlarga bo'linadi. Navbatdagi fikrda ana shu metodlarning umumiy, xususiy va o'ziga xos xususiyatlariga hamda qiyosiy tafsifiga to'xtalamiz. Tadqiqot metodlarining birinchi guruhi tashkiliy deb nomlanib, u o'z ichiga qiyoslash, longityud (o'zluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi. Qiyoslash metodi umumiy psixologiya (turli guruhlarni o'zaro solishtirish), sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlar hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash), meditsina psixologiyasi (sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash), sport psixologiyasi (sportsmenlar holati, ularning uquvchanligi va ishchanligini o'zaro chog'ishtirish) kabi fanlarda unumli foydalaniladi. Umumi psixologiya fanida qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarini o'zlashtirish xossalari, aqliy qobiliyati, salohiyati, taraqqiyot dinamikasi, shaxs jinsiy tafovutlari va o'ziga xosligi, individual-tipologik holatlarini o'rganishda tatbiq etiladi. Rus psixologlari L.S.Vigotskiy, P.P.Blokskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin singari olimlar va ularning shogirdlari tadqiqotlarida qiyoslash metodidan foydalanilgan. Keyingi yillarda xalq ta'limi va oliv ta'lim tizimida hamda ishlab chiqarishda XX asrning 70- yillaridan e'tiboran to hozirgi davrgacha «inson omili» muammosining muhokamaga qo'yilishi, vaqt taqchilligi, ishchanlik imkoniyati, qobiliyati, psixologik moslik masalalarining alohida ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng qo'llamda qo'llashni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, tajribada olingen miqdoriy ma'lumotlar ishonchlik darajasini oshirish uchun ham qiyoslash metodi ishlatiladi. Ayniqsa, sinaluvchilardagi o'zgarishlarni ko'ndalang kesim holatda olib qarash, tadqiqot bosqichini kesib, ya'ni vaqtincha to'xtatib, alohida tahlil qilish ushbu metodga borgan sari diqqat-e'tibor tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi. Masalan, tajribaning birinchi bosqichining turli yoshdagi va jinsdagi odamlarga ta'sirini aniqlash va hokazolar shular jumlasidandir.Umumi psixologiyada qiyoslash metodi bilan bir qatorda longityud (o'zluksiz) metodi ham keng ko'llamda qo'llaniladi. Ushbu metodning boshqa metodlardan farqli tomoni shundan iboratki, uning yordamida bir yoki bir necha sinaluvchilar o'zoq muddat, hatto o'n yillar davomida (A.Termenning 50 yillik o'zluksiz tajribasi hozircha rekord hisoblanadi) tekshiriladi. Longityud metodidan AQShlik A.Termen, nemis psixologi V.Shtern, fransuz R.Zazzo va Sh.Byuler, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar ko'p davrlardan beri unumli foydalanib keladilar.Mazkur metod orqali har xil jinsli egizaklar (Hasan-Husan, Fotima-Zuhra) yoki aralash jinsli (Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) qo'shaloqlar ko'zatilgan. Shuning uchun bir talay tadqiqotlarning «ona kundaligi» (N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina) deb nomlanishi bejiz emas.

O'zoq muddat davomida muayyan bir shaxsni (kichik guruhni) ko'zatish sinaluvchida yangitdan paydo bo'layotgan fazilatlarining taraqqiyot dinamikasi, uning xulq-atvordanagi illatlar (me'yordagi xatti-harakatdan chetga og'ish) va ularning oldini olish muammolari yo'zasidan material yig'ish, shuningdek, murakkab psixologik munosabatlар, ichki bog'lanishlar, qonuniyatlar, mexanizmlar to'g'risida mukammal, ishonchli, barqaror ma'lumotlar to'plash imkonini yaratadi.

Longityud metodi yordamida sub'ektiv omillarning o'ziga xosligidan tashqari, sinaluvchiga ob'ektiv (tabiiy) shart-sharoitlarning, ijtimoiypsixologik muhitning ta'siri ham o'rganiladi. Chunonchi, egizaklarning o'zaro o'xshashligi va ularning tafovutlanishi, ta'sirlanishi, hiss tuyg'ularining o'zgarishi, shaxslar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliv nerv faoliyati sistemasi va hokazolar) yo'zasidan olingan ma'lumotlar longityud metodining sharofati bilan ro'yobga chiqadi. XX asrning ikkinchi yarmida XXI asrning boshlarida fan va texnikaning taraqqiyoti psixologik tekshirishlarning ilmiylik darajasini yanada oshirish uchun (sub'ektiv omillar ta'sirini kamaytirish maqsadida) kompleks programma asosida boshqa fanlar (meditsina, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, filosofiya, logika) bilan birgalikda tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qilmoqda. Bu voqelik fan olamida integratsiya (qo'shilish, uyushish) jarayoni yo'z berayotganligi ko'rsatkichi ifodasidir. Amaliy xususiyatga molik ilmiy-tekshirish ana shu ko'pqirrali (kompleks) yondashishni talab etmoqda. Psixologiya sohalari (psixofiziologiya, kosmos, tibbiyot psixologiyasi, muhandislik yoki aviatsion psixologiya) o'rtasida esa tadqiqot ob'ektiga tizimli yondashish prinsipi amalga oshirilmoqda. Ushbu ijtimoiypsixologik voqelik sohalar differensiatsiyasidan (ajralishidan) dalolat bermoqda. Kompleks metod yordamida o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar turli sohaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, shaxsning muayyan bilimlarni egallash xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'linsa, kompleks (ko'pyoqlama) yondashish ta'sirida ana shu o'zgartirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari ochib beriladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish qari kishidagi psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarining ochilishiga xizmat qiladi. Kompleks (ko'pqirrali) programma (dastur) yordamida amalga oshirilgan tadqiqotning natijasi ilmshunoslik uchun muhim ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda ham alohida ijobjiy rol o'ynashiga shak-shubha yo'q. Ilmiy-tadqiqot metodlarining ikkinchi guruhi amaliy (empirik) metodlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tarkibiga ko'zatish (o'zini o'zi ko'zatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test (sinash), anketa (varaqa), so'rov, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va mahsulini tahlil qilish, tarjimai hol (biografiya), shaxsiy guvohnoma, hujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlillash kabilalar kiradi. Amaliy metodlar sinash, tekshirish, diagoz (tashxis) va proqnoz (bashorat) qilish vazifalarini bajaradi. Insonning tug'ilishidan tortib to umrining oxirigacha davr oralig'ida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlarni chuqurroq, ob'ektiv ravishda tadqiq etish uchun navbati bilan amaliy (empirik) metodlar guruhidan foydalanish samarali natija beradi. Chunki bir metod ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi. Ilmiy-tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi olingan natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, statistik (miqdor) va psixologik sifat tahlili turlarga ajratiladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ko'pincha quyidagi statistik metodlardan foydalaniladi. To'plangan miqdorlarning statistik metodlar yordamida ishlab chiqishda quyidagi formulalarni qo'llash mumkin.

$$1). Mq \frac{x}{n}$$

o'rtacha arifmetik qiymatni topish uchun ishlatiladi.

M-yig'indi, V- variatsion miqdor, n- sinaluvchilar miqdori yoki ob'ektlarning sanog'ini bildiradi.

2) Gq C g'n-1 formularni son qatoridagi o'rtalik kvadrat og'ishni hisoblashda yoki standart og'ishni aniqlashda ishlatiladi. G-“sigma” kvadrat og'ish, S-dispersiya, “n”-miqdor.

3) Sq (n-M)- miqdorlar tarqoqligini aniqlash uchun qo'llaniladi, ba'zan u «S» -dispersiya deb ataladi.

Psixologik tajribalarda olingan miqdorning, qo'llanilgan metodikaning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Styudent mezonidan foydalanish mumkin: tqX-X. Bunda t- ishonchlilik belgisi, X-son qatoridagi yuqori ball, X-o'rtacha arifmetik miqdor, R-kvadrati og'ish alomati. Psixologik tajribalarda Myordokning ko'chish foizlarini aniqlovchi formulari:  $\xi-S/\xi-S \cdot 100$  qo'llaniladi va u sinaluvchilarning to'g'ri javoblari bilan noto'g'ri javoblari hisoblash uchun

xizmat qiladi. Ikkala miqdorning nisbati birining ikkinchisidan qanchalik darajada yuksaklikka ega ekanligini ko'rsatadi. Bunda «S»-nazorat, «E»-eksperimental guruhni anglatadi/ Tafakkurning so'zmantiq tejamkorligi xususiyatini aniqlashda quyidagi formula qo'llaniladi (Z.I.Kalmikova tadqiqotlarida).  $TST = RN/R2$ ;  $\Sigma R1$ -sinaluvchilar topshiriqni bajargani uchun olgan ballar yig'indisi,  $\Sigma R2$ -sinaluvchilar maksimal darajada ballar to'plashi mumkin bo'lgan imkoniyatlar. Topshiriq yechimi uch balli shkala bilan o'lchanadi. To'g'ri yechgani uchun «3» ball, yechishga intilgani uchun "1" ball, noto'g'ri yechgani uchun «0» ball qo'yiladi.

Yuqoridagi statistik metodlar tajribalardan olingan qiymatlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Lekin bunga o'xshash metodlarning miqdori haddan tashqari ko'pdir. Biz ularning eng soddalarigagina to'xtaldik, xolos. To'plangan materiallarning psixologik jihatdan sifat tahlili metodi umumiyligi psixologiya uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi), tekshiruvchi tajribalarda olingan har xil shakldagi, ko'lamdagagi, mazmundagi ma'lumotlar turli prinsip, pozitsiya, ko'pqirrali (kompleks) va yaxlit (sistemali) yondashishga asoslangan holda so'z-mantiq yordami bilan sifat tahlili o'tkaziladi. Barcha fikr va mulohazalar ishonchli omillar orqali dalillab beriladi, psixologik qonuniyat, qonun, xususiyat, xossa, holat, taraqqiyot, kamolot qanday o'ziga xoslikka ega ekanligi isbotlanadi. Material alohida guruhlarga va turkumlarga ajratiladi, shuningdek, psixologik voqelikning boshqa jihatlari bilan o'zviy sababiy bog'liqligi, ichki murakkab munosabati bayon qilinadi, sinaluvchilar esa muayyan toifalarga berkitiladi hamda tadqiqot yo'zasidan yakuniy xulosa chiqariladi. Ilmiy-tadqiqot metodlarining to'rtinchi guruhi sharhlash deb atalib, genetik va donalash metodlaridan iboratdir. Genetik metodi yordami bilan tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar yaxlit holda maqsadga muvofiq yo'nalishda sharhlanadi. Mazkur metoddan foydalanishdan asosiy maqsad - avvalo sinaluvchida yangitdan vujudga kelgan shaxsga oid fazilatlarning shakllanishi va bilish jarayonlari o'zgarishiga tajriba natijalariga asoslangan holda ta'rif hamda tasnif berishdir. Shuning bilan birga inson ruhiyatida yangitdan vujudga kelayotgan shaxs fazilati va xususiyatining namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi bir mashaqqatli daqiqaga, lahzaga, sanaga qo'shimcha sharh berish imkoniyati tug'iladi. Genetik metodga asoslanganda shaxs ruhiyatiga o'zgarishlar bilan taraqqiyot bosqichi o'rtasida "vertikal" yo'nalishdagi aloqa manbai aniqlanadi. Donalash metodi yordami bilan tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasiga aloqador barcha o'zgarishlar, o'ziga xoslik, o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir, izchillik, uyg'unlik o'rtasida «gorizontal» yo'nalishdagi munosabat o'rganiladi. Jumladan, boshqa odamlar nutqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir davrda birga qatnashishi bunga yorqin misoldir. Mazkur jarayonda har qaysi bilish jarayonining ulushi donalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi. Lekin tajribada to'plangan ma'lumotlarni sharhlash uchun yuqoridagi metodlarning o'zi yetarli emas. Shuning uchun ushbu o'zilishga chek qo'yish maqsadida yig'ilgan material maxsus bosqichlarga ajratib sharhlanadi. Tadqiqotning birinchi tayyorlov bosqichida kashf qilinishi lozim bo'lgan psixologik qonun to'g'risidagi taxmin, gipoteza, faraz tahlil qilinadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida-tajriba o'tkazish prinsipi, sharoiti, ob'ektiv va sub'ektiv omillar yo'zasidan mulohaza yuritiladi. Uchinchi bosqichda esa, olingan natijalarni qayta ishlash nazarda tutiladi va u o'z navbatida to'rtta darajadan tashkil topadi: a) materialni birlamchi tahlil qilish: alohida olingan yoki topilgan omil, alomat, ko'rsatgich, xususiyat sharhlanadi; b) tahlil qilingan material bilan tadqiqot gipotezasiga alohida sharh beriladi; v) ikkilamchi tahlil qilishda barqaror, hukmron dalillar ajratiladi; g) ikkilamchi sintezda esa psixologik qonuniyat, topilgan dalil, omil, tadqiqot gipotezasi o'zaro birlashtirilib maxsus xulosa chiqariladi. To'rtinchi bosqich sharhlash deb atalib, har bir fakt, alomat, ko'rsatgich, xossa psixologik jihatdan so'z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Barcha ilmiy-amaliy mulohazalar dalillanadi, hech bir shubhali o'rnirlarga, e'tirozlarga o'rin qoldirilmaydi. Oxirgi (to'rtinchi) bosqichda tadqiqotga yakun yasaladi, zaruriy xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi, o'rganilishi lozim bo'lgan muammo ahamiyati, uning istiqboli to'g'risida maslahatlar, tavsiyalar beriladi.

## **8-Mavzu: Psixologiya zamonaviy fanlar tizimida.**

### **REJA.**

4. Psixikaning rivojlanish tarixi.
5. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. Psixologiyaning sohalari.

## **9-Mavzu: Psixika va uning evolyutsiyasi. REJA.**

- 1.Psixika haqida tushuncha.
- 2.Hayvon psixikasining rivojlanishi.
- 3.Ong va uning taraqqiyoti.
- 4.Ong haqida tushuncha, inson psixikasini rivojlanishining tarixiy-madaniy kontseptsiyasi.
- 5.Inson psixikasining rivojlanishi.
- 6.Inson psixikasining fiziologik asosi.
- 7.Ongsizlik muammosi.

Psixika vokelikning kishi miyasida aksi sifatida xar xil darajalar bilan farqlanadi.

Psixikaning odamga xos bulgan oliv darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir xolga keltiruvchi shakli bulib kishining mexnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida mulokot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi xisoblanadi. Shu ma'noda ong marksizm klassiklarining ta'kidlashicha ijtimoiy maxsul bulib anglagan borlikdan buyuk boshqa narsa emasdir.

Ongning strukturasi to'zilishi, uning muxim psixologik ta'rifi qanday.

Uning birinchi ta'rifi-nomining o'zidayok berilgan bulib, ong deganidir. Kishining ongi bizning tevarak atrofimizni kurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. K.Marks. «Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir». deb yozgan edi. Ongning strukturasiga muxim bilish jarayonlari kiradi. Ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar katoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni kushish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta'sir etuvchi ko'zatuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borlikning usha momentda kishi tasavvurida xosil bulgan xissiy manzarasi gavdalanadi. Xotira ongda utmish obrazlarini kaytadan gavdalantiradi. Xayol extiyoj ob'ekti bulgan ammo xozirgi paytda yuk narsning obrazli modelini xosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan fodalangan yuli bilan masalaning xal etilishini ta'minlaydi. Aytib utilgan psixik bilish jarayonidan istalgan birining batamom barbob bulishiga olib keladi.

Ongning ikkinchi ta'rifi unda sub'ekt bilan ob'ekt urtasida anik farqlanishni o'ziga ifodasini topishi, ya'ni odam «men» degan tushunchaga nima tegishli ekanini anikbiladi. Tirik organizmlar duyosi tarixida birinchi bulib unda ajralib chikkan va o'zini atrof-muxitiga karama-karshi kuygan inson o'z ongida ushbu arama-karshilik va tafovutni saklab kelmokda.

Jonli mavjudotlar ichida uning o'zingga o'zini bilishga ya'ni psixik faoliyatini o'zini tadkik etishga yo'naltirishga kodirdir. Odam o'z xatti-xarakatlarni va umuman o'zini-o'zi ongli ravishda baxolaydi. «Men»ning «men emas» degan ajratish xar bir kishi kishi bolaligida boshdan kechiradigan yul bulib, uni o'zidan o'zi anglashi jarayonida yo'z beradi.

Ongning uchinchi ta'rifi-odamning maksadini ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir. Faoliyatning maksadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yo'zaga keladi va chamalab chiqiladi. Irodaviy karorlar kabul kilinadi. Xarakatlarni bajarishning qanday borishi xisobga olinadi. Unga tegishli to'zatishlar kiritiladi va xakazo.

K.Marks «kishi tomonidan berilgan narsaning formasini o'zgartirish bilangina cheklanmaydi, tabiat tomonidan berilgan narsalar bilan birga o'zining ongli maksadini xam amalga oshiradi. Bu maksad konun sifatida kishining ish usulini va bu ishning xarakterini belgilab beradi va kishi o'z irodasini ana xu maksadga buysundirish lozim» deb ta'kidlagan edi.

Maksadni ko'zlovchi faoliyatni amalgalashda va yo'nalishida kasallik okibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga kura xar qanday bo'zilishning yo'z berishini ongning bo'zilgani deb karamok kerak.

Ongning turtinchi ta'rifi-ning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. «Mening o'z muxitimga bulgan munosabatim meninng ongimdir» deb yozgan K.Marks.

Kishi ongiga mukarrar ravishda xis-tuyg'ular olami kirit keladi, unda murakkab ob'ektiv eng avvalo o'zi xam jalg etilgan ijtimoiy munosabatlar o'z aksini topadi. Bu urinda esa (jalg etilgan) ijtimoiy boshqa kungina xollarda bulgani kabi potoliyiya normal ongni moxiyatini anglab olishga yordam beradi. Ayrim ruxiy kasallikkarga chalinganda ongning bo'zilganligi aynan xis-tuyg'ular va munosabatlar soxasidagi bo'zilish bilan belgilanadi:

Bemor bunga kadar bexad yaxshi kurgan onasini suymaydigan bulib qoladi. Ya'ni kishilar tug'risida zarda bilan gapiradi va xakazo.

Ongning yukorida kursatib utilgan barcha o'ziga xos xususiyatlari va shaklanishi namoyon bulishining mukarrar sh arti til xisoblanadi. Nutk jarayoni faoliyatida odam bilimlar xosil qiladi. Kishi dunyoga kelgunga kadar uning uchun insoniyat yaratib bergen tilda mustaxkamlab unga yetkazgan inson tafakkuri, boyliklari bilan o'z xayotini boyitadi. A.I.Gersen shunday deb yozgan edi: «Xar bir kishi ildizlari sal bulsa xam odam ato zamonlariga borib yetadigan daxshatli shajaragatayanadi: soxil buyidagi tulkin kabi orkamizda butun boshli okean-butun bir dunyo tarixining shiddati xis etiladi: shu dakikada bizning miyamizda barcha asrlarning g'oyalari...til, aloxida ob'ektiv, sistematik unda ijtimoiy tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Kokret odam tomonidan o'zlashtirilar ekan, til ma'lum bir ma'noda uning real ongi bulib qoladi.»

Ulug' mutafakkirlar – «Til amaliy, xakikiy ongdir, boshqalar uchun xam mavjud bulgan xuddi shu tufayli men uchun xam mavjud bulganongdir...» deb kayd etgan edi. Ong tushunchasi psixologiyada. Psixotriada va boshqa fanlarda uning yukorida keltirilgan asosiy ta'riflarga mos keladigan ma'noda ishlatalidi.

Psixiatorlarning bemorda ong bor youkligi, yo bulmasa bo'zilganligi masalalari doim kiziktiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o'z-o'ziga kaerdaligi, vakt kachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi tug'risida o'z shaxsiy xolati xam xarakatlari haqida xisob berish imkoniyatlarini tushunadilar. Ong yaxshi saklanib kolgan odam miyaga kelayotgan yangi axborotga o'zidagi mavjud bilimlarni xisobga olgan xolda baxo beradi va o'zini tevarak-atrofdagi muxitdan aloxida ajratib, boshqa odamlarga faoliyat va vaziyatga nisbatan tarkib topgan munosabatlar sistemasini saklab qoladi xamda ana shu barcha ma'lumotlar asosida o'z xatti-xarakatini idora qiladi. Ong ijtimoiy maxsul bulib, faqat odamlarga xosdir. Xayvonlara esa ong bulmaydi. Psixikaning kuyi darajasi ongsizlikdan iboratdir.

Ongsizlik-kishini o'zini tuta olmaydigan kilib kuyadigan taaassurotlar bilan bog'lik psixik jarayonlar xarakatlar va xolatlar yig'indisidir. Psixik xolat sifatida ongsizlik vokelikni aks ettirishning shunday bir shakli xisoblanadiki ,bunda xarakat urni va vaktini muljal qilish, yaxlitligi yuqoladi, xatti-xarakatining nutk yordamida boshqarilshi bo'ziladi. Ongsizlikka kuyidagi psixik xolatlarni kiritish mumkin: Uyku paytida yo'z beradigan psixik xodisalar (tush kurish) sezilmaydigan lekin xakikatda xam ta'sir kursatadigan ko'zatuvchilarga javob reaksiyalari: oldinlari ong xarakat bulib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga kura endilikda anglanmaydigan bulib kolgan xarakatlar faoliyatiga undovchi ammo maksad xissidan anglanmaydigan ayrim moyillar, ongsizlik xodisalariga bemor kishining psixikasida ruy beradigan ba'zi bir protologik xodisalarni-alaxlash, ko'ziga yuk narsalarning kurinishi kabilarni xam kurish mumkin. shularga, asoslanib ongsizlikning ongga karama-karshi deb xisoblash, uni xayvonlar psixikasiga tenglashtirish notug'ri bular edi.

Ongsizlik-bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik kiyofasidirki, u kishi miyasida borlikning yetarli darajada bir xil bulmagan kismiga aksi tarzida inson xayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'lik xolda bulgandir.Psixologiya fanining asosiy kategoriyalari ichida (shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala va hokazo) ong alohida o'ren egallaydi va u borliqda insonning yuksaklik darajasini egallashga muhim zamin, kafolat negizini yaratadi. Insonni hayvonot olamidan ajralib chiqishining bosh omili ham ong hisoblanadi, xuddi shu boisdan u taraqqiyot va kamolotning eng zarur mezoni, o'chami sifatida muhim rol o'ynaydi. Psixologik nuqtai nazardan ong olib qaralganda, u ijtimoiy-tarixiy (filogenetik) va individual (ontogenetik) taraqqiyotning mahsuli hisoblanmish insongagina xos bo'lib, psixik aks ettirishning va o'zini o'zi boshqarishning yuksak darajasi sanaladi. Ong kategoriysi amaliy jihatdan tavsif qilinganda: a) u ham hissiy, ham aqliy obrazlarning o'zlusiz ravishda o'zgarib turuvchi majmuasi sifatida, b) bevosita sub'ektning oldida uning «ichki tajribasi» tariqasida, v) amaliy faoliyatdan kutiluvchi mahsulni oldindan sezuvchi (payqovchi) psixologik hodisa tarzida hukm suradi. Ong muammosi bir qancha fanlarning, jumladan, falsafa (uning asosiy masalasi — bu ongning turmushga nisbatan munosabatidan iboratdir), mantiq, lingvistika, etnografiya, antropologiya, sotsiologiya, neyrofiziologiya, pedagogika kabilarning tadqiqot predmetiga aylangandir.

Psixologiya fani individda ongning vujudga kelishi, uning to'zilishi, rivojlanishi va hukm surishini tadqiq qiladi. Ong predmetga faollik, yo'nalanlik, intensiallik xususiyatlariga ega:a) ong doimo nimanidir tushunish sifatida; b) refleksiyaga, nisbatan

qobiliyatilik; v) o'zini o'zi ko'zatish, ya'ni o'zligini anglash; g) motivatsion — qadriy xususiyat yaqqollikning yoki ravshanlikning turlicha darajasi yoki bosqichi ekanligi.

Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, har qaysi individning ongi noyob, betakror, ammo u ixtiyoriy emas, chunki birinchi navbatda maxsus tizimda hukm suruvchi to'zilish bilan unga bog'liq bo'lgan tashqi omillar hamda hech qanday aloqasi bo'lman omillar shartlangandir. Xuddi shu tufayli ongi tadqiq qilishning ikkita muhim qiyinchiligi mavjud: a) barcha psixologik holatlar individning ko'z o'ngida shunday namoyon bo'ladikim, bunda birinchidan, ular qay tariqa anglashilmoqda (ongsizlikning roli qanchalik), ikkinchidan, anglash darajasiga yetkazishning maxsus tashqi va ichki mashqi natijasida inson tomonidan anglashiniladi, uchinchidan, bevositalikda ong funksiyasida yanglishlik vujudga keladi.

O'zini ko'zatish natijalariga ko'ra, ong o'zining yaqqol psixologik o'ziga xosligidan mahrumdir, chunki uning yagona alomati shundan iboratki, bunda uning sharofati bilan individ oldida (u yoki bu anqlik, ravshanlik darajasida) yaqqol psixologik funksiyalar mohiyatini yo'zaga keltiruvchi turli holatlar, hodisalar namoyon bo'ladi. Xuddi shu boisdan ong psixika hukm surishining sifatga ega bo'lman umumiy sharti (sharoiti) tariqasida talqin qilingan, buning natijasida u majoziy belgilangan.

Jahon psixologiyasi fani konsepsiyalarda bu hodisa aksariyat hollarda «ongning nuri», «ongning maydoni», hatto «psixik funksiyalarning umumiy hokimi» kabi tahlil etilgan, goho u qaysidir psixik funksiyalar bilan g'ayritabiiy ravishda (qo'shimcha diqqat, tafakkur bilan) ayniylashtirilgan. Shu munosabati bilan birinchi galda ongi yaqqol o'rganish, tekshirish to'g'risida umuman gap bo'lishi mumkin emas. Ikkinci holda esa ushbu masala unga mutanosib funksiya bilan almashtiriladi. Bunday talqinlarning barchasi shunday fikrni tug'diradiki, go'yoki ong ilmiy psixologiya fani uchun shunchaki qayd qilinish, ya'ni fiksiya, xolos (U.Jeyms). Ongni tadqiq qilishdagi ikkinchi qiyinchilik ham bevosita birinchisidan kelib chiqadi: a) ong bir qator psixik funksiyalar kabi tashqi fazoda lokalizatsiyalashmaydi; b) ong psixik funksiyalardan farqli o'laroq vaqtini (zamonni, davrni) muayyan qismlarga ajrata olmaydi.

Tadqiqotchilar ongi o'rganish uchun ommabop, sodda psixologik metodlarning qo'llaganliklari tufayli uning ma'lum tavsifini topa olmadilar, jumladan, vaqtning aniq birliklari yordamida uni o'lhash, muayyan vaqt oralig'ida ongi solishtirish. Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, ongi konstruktiv tarzda talqin qilishning muhim jabhasi K.I.Kant tomonidan ko'tarilgan ongning barqaror, invariant to'zilishi va sxemasi mavjudligi, o'zluksiz ravishda o'rinn almashtirib turuvchi sensor oqim, axborotlar va uning muayyan darajada tashkil qiluvchanligi to'g'risidagi yuksak G'OYASI Hisoblanadi. Bir necha asrlar davomida aylanib kelgan va bunda tabiiy-ilmiy materialistik yondashuv diniy nazariyalarga qarshi kurash olib borgan. Ong muammosining yechimida ilmiy dialektik-materialistik ta'limot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi, bu borada Gegel g'oyasiga e'tiroz muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ta'limotga binoan, ongning to'zilishi ijtimoiy-madaniy xususiyat kasb etib, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida filogenetik tarzda, ustuvor individualistik hamkorlik jarayonida ijtimoiy ustuvor individualistik to'zilishning ta'sirida, eng avvalo ishlab chiqarish amaliyoti negizida u shakllangandir. Ilmiy dialektik ta'limotdan kelib chiqqan holda sobiq sovet psixologiyasida ongning ontogenezda shakllanishi to'g'risida umumlashgan ilmiy nazariya ishlab chiqilgan. Umumlashgan nazariyaga binoan, individ onging to'zilishi ontogenezning ilk davrida bolaning kattalar bilan muomala(muloqot) qilish faoliyatida o'zlashtirish (egallash, o'ziniki qilib olish, o'z ma'naviy dunyosiga aylantirish jarayoni) ning sharofati bilan shakllanadi. Bunday tarzdagi o'zlashtirishning kat'iyatlik imkoniyati filogenetik, tarixiy taraqqiyotning negizida ham mavjuddir. Predmetli faoliyatning atributi bo'lmish muomala, uning to'zilishi tarkibida aks etuvchi quyidagi asosiy xususiyatlarga, xossalarga egadir: 1)ijtimoiy kelib chiqishi va to'zilishi; 2) uning ijtimoiy reglamentatsiyasi; 3) ruhiy qurollar va

alomatlar bilvositaligida ifodalanishi; 4) ikki sub'ektning o'zaro alohidaligi va betakrorligi; 5) ob'ektga yo'nalganligi kabilar.

Shaxslararo munosabatda hamkorlik faoliyatining to'zilishi ong strukturasini vujudga keltirib, uning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi: a) ijtimoiy xususiyati, hatto simvolik va verbal to'zilishga ega bo'lgan belgilar bilvositalanganligini qamrab olinganligi; b) refleksiyaga, ya'ni o'zini o'zi tushunishga nisbatan qobiliyatlilik; v) ichki dialogizm, ya'ni ichki nutqqa, fikrlash mexanizmi negiziga qurilishi; g)predmetlilik, ya'ni har qanday psixologik holat muayyan yaqqol tasvirlarga va alomatlarga ega bo'lishligi va hokazo. Endi ongning psixologik tavsifidan kelib chiqqan holda uning shakllari yo'zasidan qisqacha mulohaza yuritamiz. Ongning genetik jihatdan talqini ongsizlik birlamchilagini bildirib, u o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va xatti — harakatida muayyan darajada rol o'ynashini tan olishni taqozo etadi. Chunki inson ongning yuksakroq shakllari o'zoq ijtimoiy — tarixiy taraqqiyotning keyingi davrida vujudga kelgandir. Xuddi shu boisdan ongning paydo bo'lishi to'g'risida mulohaza yuritilganda ijtimoiy borliq, ijtimoiy taraqqiyot, ularga nisbatan munosabat uslubi asosiy mezonlar vazifasini bajarib kelgan va hozir ham xuddi shunday bo'lib qolaveradi.

Psixologik talqinga ko'ra, ongsizlik, birinchidan, voqelikning hodisalari bilan shartlangan ruhiy jarayonlar, aktlar va holatlarning majmuasi; ikkinchidan, tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan sub'ektning o'ziga hech qanday hisobot bermasligi; uchinchidan, psixik aks ettirishning shakli, ya'ni voqelikning obrazi: tasviri, timsoli va unga nisbatan sub'ektning munosabati refleksianing maxsus predmeti sifatida **vujudga kelmaganligi; to'rtinchidan, qismlarga ajralmovchi yaxlitlik tarkibiga ega ekanligi va hokazo.**

Ongsizlikning onglilikdan farqi shuki, uning tomonidan aks ettiriluvchi voqelik sub'ektning kechinmalari bilan, uning borliqqa munosabati bilan qo'shilib, aralashib ketadi. Shuning uchun ongsizlikda sub'ekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti — harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imkoniyati mayjud emas. Ongsizlikda voqelik sub'ektning o'xshashlik, ayniyat singari mantiqiy shakllariga asoslanib aks ettiriladi.

Bu holat bevosa emotsional his qilish, emotsional yuqish va identifikatsiyalashga daxldorlik tuyg'usi orqali turlicha hodisalar o'zining to'zilishi, mohiyati jihatidan o'ziga xoslikdan qat'i nazar bir tizimga birlashtiriladi, psixologik ob'ektlar o'rtasidagi u yoki bu xususiyatli alomatlar o'rtasidagi tafovutlar, mantiqiy qarama — qarshiliklar ochilmasdan namoyon bo'ladi, in'ikos etiladi.

Ongsizlikda o'tmish bilan keljak ko'pincha bir davrda hukm surayotganday, go'yoki ular biron —bir psixik aktga bevosa birlashgan tarzda aks ettiriladi, bunga tush ko'rish jarayoni yorqin misoldir. Ongsizlik borliqni bola tomonidan bilishning ilk shakllarida, ibtidoiy tafakkurda, intuitsiyada, affektiv holatlarda, sarosimaga (panikaga) tushishda, gipnoz holatida, tush ko'rishda, odatiy harakatlarda, subsensor idrokda, ixtiyorsiz esda olib qolishda, shuningdek, intilishlarda, hissiyotda, xulq —atvorda ifodasini topib, ularning sabablari va oqibatlari shaxs tomonidan tubdan anglashilmaydi. Odatda ongsizlikning namoyon bo'lishining to'rt turkumi psixologlar tomonidan tan olinib kelinmokda.

### I. Ustonglilik holatlari.

II. Faoliyatning anglashilmagan qo'zg'atuvchilari. Anglashilmagan motivlar va ma'no anglatuvchi ustanovkalar, odatda ular shaxsga oid ma'no kasb etib, keljakka xohish, istak orqali shartlangandirlar. Bunday holatlarning turkumi gipnoz holatidan chiqqan sub'ektning xatti — harakatini o'rganishda qo'lga kiritilgan, ushuu jarayonda unga aniq harakat dasturi orqali kuchli ta'sir o'tkazilgan (masalan, bozorga borish va aytilgan narsalarni harid qilish kabilar). Qo'yilgan dasturiy topshiriqlarni bajarish jarayonida inson o'z xulq —atvori sabablarini izohlay va tushuntira olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Mazkur hodisalarning psixologik tabiatini psixoanalitik pozitsiyasidan turib tushuntirishga harakat qilgan Zigmund Freyd «ongsizlikning dinamik qisilishi» terminini fanga olib kiradi. Z.Freyd, ongsizlik deb, ijtimoiy normalar talabi bilan nizoli holat, qarama — qarshilik tufayli ongga kira olmagan,

amalga oshmay qolgan mayllar qisilish mexanizmi yordami bilan begonalashib individ yanglish aytgan so‘zida, gapda yanglishib ketishida, tush ko‘rishida va hokazolarda aks etishini tushunadi.

Ongsizlikning shunga o‘xhash tarzda namoyon bo‘lish xususiyati shundan iboratki, sub’ektning amalga oshmay qolgan mayllari psixoterapevtik holatlar bilan sababiy bog‘liqligini anglashi mazkur mayllar bilan shartlangan kechinmalarning yo‘qolishiga olib kelmaydi (masalan, qo‘rquvning yo‘qolishiga), chunki, anglanish sub’ekt tomonidan qandaydir u bilan yo‘z bermayotgan, guyo shaxsga aloqasiz, begona hodisa sifatida idrok qilinadi. Xulq—atvordagi ongsizlik samaradorligi ularni keltirib chiqaruvchi hodisalar shaxsning boshqa odamlar bilan hamkorlikda boshidan kechirishida (masalan, psixologik seans chog‘ida) yoki guruhiy psixoterapiya davrida o‘zgalarda kechishida sodir bo‘lsa individni qoniqtiradi. Chet el psixologiyasida, eng avvalo Z.Freydning psixoanalizida va uning izdoshlari qarashlarida ongsizlikning yo‘zaga kelishini tor ma’noda, chekhanib tushunish uning dinamik jabhalarini shakllanishining bir tomonlama tahlil qilish bilan shartlanganligidir. Chunki, ongsizlikning ijtimoiy — tarixiy shartlanganligi tan olmaslik, ongsizlikning inson bilan borliqning o‘zaro ta’siridan bevosita ajratib olmaslik bir qator anglashilmovchiliklarga olib keladi, ularni differensiyalash orqali shu kontekstdagina uning asl mohiyati, funksiyalari shaxs xulq — atvorida ochilishi mumkin, xolos. Bunday chekhanishlar sobiq sovet psixologiyasida ustanovka nazariyasida, psixologik hodisalar o‘rganishda faoliyatli yondashuvda psixikani dialektik materialistik tushunishdan kelib chiqqan holda anglashilmagan motivlarning funksiyalari, tabiat, ma’no anglatuvchi ustanovkalar inson hayotida shaxsiy ma’no kasb etuvchi g‘oyalarda bartaraf qilib borildi.

III. Faoliyatni bajarish usullarining anglashilmovchiregulyatorlar (avtomatlashgan xulq— atvor stereotiplari va operatsion ustanovkalar) uni kechishining barqaror va yo‘nalgan xususiyatini ta’minlaydi. Ular avtomatlashgan va ixtiyorsizharakatlar regulyatsiyasi negizida yotadi (masalan, topshiriqni yechish jarayoni) va anglashilmagan hodisalarni oldindan sezish, payqash) obrazlari harakat usullari bilan shartlangan bo‘lib, turli vaziyatlardagi o‘tmish tajribalariga bevosita tayanadi. Avtomatlashgan odatiy xulq—atvor yo‘lida kutilmagan to‘siqlar paydo bo‘lganda ular sub’ekt tomonidan anglashinishi mumkin.

Anglashilmagan avtomatlashgan xulqning psixofiziologik mexanizmlari to‘g‘risidagi ilmiy tasavvur, nazariya N.A.Bernshteynning «Xatti — harakat to‘zilish darajalari» konsepsiyasida ishlab chiqilgan.

#### IV. Subsensor idrok qilishning vujudga kelishi.

Ongsizlikning tabiati to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlarning tobora o‘sishi, uni paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari, keltirib chiqaruvchi mexanizmlari va funksiyalari inson xulq — atvoring regulyatsiyasi, shaxs hayotining yaxlit ob’ektiv manzarasini yaratishning zarur shart —sharoiti hisoblandi. Lekin bu muammo hali to‘laqonli ilmiy ma’lumotlarga ega emas, xuddi shu sababdan uning psixofiziologik asoslari, mexanizmlari, harakatga keltiruvchi kuchlar to‘g‘risida atroficha mulohaza yuritish imkoniyatini bermaydi.

### 4.Ongning to‘zilishi

#### 1. Ongning tarkibi:

- a) obrazni his qilish imkoniyati;
- b) borliqdagi narsalarning qadr —qiymati
- v) atrof —muhit ob’ektlarining ma’no kasb etishi.

#### 2. Ongning funksiyalari:

- a) aks ettiruvchanligi;
- b) ijodiylikning vujudga keltiruvchanligi;
- v)baholovchanligi;
- g) boshqaruvchanligi;
- d) refleksivligi;
- ye) ma’naviyligi.

#### 3. O‘zini o‘zi anglashning omillari:

- a)oilaviy muhit ta’siri;
- b)milliy muhit va milliy til vositalari;
- v)ma’rifiy, ma’naviy, madaniy qurshov;

g) maxsus hayotiy vaziyatlar va favqulodda hodisalar.

#### **4. Ongning xislatlari:**

- a) borliq ob'ektlari va jamiyat sub'ektlari bilan munosabat o'rnatish;
- b) biosfera va noosfera hodisalarini anglash (tushunish, bilish);
  - v) tabiiy va ijtimoiy holatlar hamda hodisalarga hamdardlik (empatiyaning namoyon bo'lishi).

#### **5. Ongning xususiyatlari:**

- a) reaktivligi;
- b) sezgirligi;
- v) refleksivligi;
- g) taraqqiyotning ixtiyorsizligi (spontanligi);
- d) polifonikligi
- ye) dialogizmga moyilligi

#### **6. Ongninig turlari**

- a) individual
- b) guruhiy
- v) jamoaviy
- g) etnik
- d) milliy
- ye) ijtimoiy

#### **10-Mavzu:Faoliyat.**

##### **REJA.**

- 1.Faoliyatning psixologik tavsifi.
- 2.Faoliyatning psixologik nazariyalarini.
- 3.Faoliyatning operatsional-texnik jihatlari.
- 4.Harakatlar fiziologiyasi va faollik fiziologiyasi.

Psiyologiya fanida hayvonlarning xatti-harakati (ularning qaysi taraqqiyot bosqichidan qat'i nazar), xulq-atvorining yo'zaga kelishi ko'p jihatdan ularni qurshab turgan makro, mikro va mize muhitga bog'liq. Ularning namoyon bo'lishi biologik (tabiiy) shartlangan omillar, vositalar tomonidan belgilanadi va boshqarilib turiladi. Insonni hayvonot olamining xususiyatlari bilan qiyoslashga harakat qilsak, u holda mutlaqo boshqacha voqelikning shohidi bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, shaxs o'zining faolligi bilan hayvonot olamidan farqli o'laroq ajralib turadi, mazkur harakatlantiruvchi kuch (faollik) ilk bolalik yoshidan e'tiboran ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan insoniyatning tajribasiga va jamiyatning qonun-qoidalarini egallashga yo'naltirilgan bo'ladi. O'zoq davrlar davom etgan maxsus jarayonning ta'sirida sodda tarzdagi xatti-harakatda faollik ustuvorlik qilganligi tufayli o'zining yuqori bosqichiga o'sib o'tib, yangicha mazmun, mohiyat, shakl va sifat kashf etgan. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, faqat insongagina taalluqliligi orqali u psixologiya fanida faoliyat deb nomlana boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlari bilan xatti- harakatdan tafovutlanadi. Uning farqli alomatlari tavsifi yo'zasidan maqsadga muvofiq mulohazalar yuritish ayni muddaodir. Birinchidan, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yo'zaga keltirgan tabiiy, biologik va ma'naviy ehtiyoj bilan shartlanmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizga qurilishi mumkin. Mabodo ehtiyoj motiv (lotincha motiv turtki, harakatga keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) sifatida faoliyatga ichki turtki berib, uni jadallashtirishga, faollashtirishga erishsa, u vaziyatda faoliyatning mazmuni, shakllari ijtimoiy: shart-sharoit, talablar, zaruriyat, tajriba kabilar bilan belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, insonni mehnat qilishga undagan motiv moddiy ovqatga nisbatan ehtiyoj vujudga kelishi tufayli tug'ilish hodisasi muayyan darajada uchrab turadi. Aksariyat hollarda ishchi dastgohni ochlikning oldini olish uchun emas, balki jamiyat tomonidan mas'ul ijtimoiy vazifa sifatida belgilanganligi sababli boshqarishga qaror qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ishchining mehnat faoliyati mazmuni moddiy ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan belgilanadi, bu o'z navbatida maqsadning ijtimoiy negizida yotuvchi tayyorlash mas'ulligi bilan uyg'unlashib ketadi. Modomiki shunday ekan, odam nima uchun bunday yo'sinda xatti-harakat amalga oshirgani, uning nimani ko'zlab ish qilayotgani mos kelmaydi, chunki uni faollikka undovchi turtki, xohish-istak bilan faoliyatni yo'naltiruvchi aniq maqsad o'zaro mutanosib emas.

Binobarin, faoliyat faollik manbai hisoblanmish ehtiyoj sifatida yo'zaga kelgan tarzda faollikning yo'naltiruvchisi tariqasidagi anglanilgan maqsad bilan idora qilinadi. Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixika narsa va hodisalarining xususiy ob'ektiv xossalari aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berishi joiz. Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq- atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, yo'zaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi yo'q faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalashi lozim. Shuning uchun faoliyat bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan o'zviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos.

Odatda faoliyatga ta'rif berilganda, birinchi galda anglashilgan maqsad bilan boshqarilishi, so'ngra psixik (ichki) va jismoniy (tashqi) faollikdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Lekin ushbu belgilar faoliyat ta'rifini mukammal tarzda ohib berishga qurbi yetadi, degan gap emas, albatta.

Inson faolligida anglanilgan maqsad mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish uchun har xil xususiyatli bir qancha omillarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Faoliyatning motivlari, ro'yobga chiqarish vositalari, axborot tanlash va uni qayta ishslash anglanilgan yoki anglanilmagan, ba'zan anglanilganlik noto'kis, hatto u noto'g'ri bo'lishi mumkin. Jumladan: a) maktabgacha yoshdag'i bola o'zin faoliyatiga nisbatan ehtiyojini goho anglaydi, xolos; b) boshlang'ich sinf o'quvchisi o'quv motivlarini hamisha ham anglash qurbiga ega bo'lmaydi; v) o'smir ham xulq motivlarini noto'kis va noto'g'ri anglashi mumkin; g) hatto voyaga yetgan odam ba'zan xulq motivini noo'rin xaspo'shslashga intiladi. Bundan tashqari, hatto faoliyatni amalga oshirishni rejalashtirish, uni ro'yobga chiqarish uchun qaror qabul qilish, mahsulani taxminlash, xulosa chiqarish ham anglanilganlik kafolatiga ega emasdир. Chunki faoliyatni ro'yobga chiqaruvchi harakatning aksariyati ong tomonidan boshqarilmaydi, jumladan, velosiped uchish, kuy chalish, kitob o'qish, telefon qilish odatiy hodisadir.

Shuni uqtirib o'tish lozimki, faoliyatning jabhalarini ongda aks etish darajasi va mukammalligi uning anglanilganligi ko'rsatkichi, mezoni hisoblanadi. Lekin faoliyatning anglanganligi darajasi keng ko'lamli bo'lishiga qaramasdan, maqsadni ko'zlash (anglash) uning ustuvor belgisi vazifasini o'ynayveradi. Faoliyatda maqsadni anglash ishtirok etmasa, unda u ixtiyorsiz(impulsiv) xatti-harakatga aylanib qoladi va bunday holat ko'pincha hissiyot bilan boshqariladi. Jahl, g'azab (affekt), kuchli ehtiros holatlari yo'z bergen odam ixtiyorsiz harakat qildi. Biroq xatti-harakat ixtiyorsizligi uning anglanilmaganligini bildirmaydi, aksincha bunda inson motivining shaxsiy jabhasi anglanilgan bo'ladi, uning ijtimoiy mazmuni esa qamrab olinmaydi.

## 2. Faoliyatning to'zilishi

Voqelikka nisbatan munosabatning muhim shakli sifatidagi faoliyat inson bilan uni qurshab turgan olam (borliq) orasida bevosita aloqa o'rnatadi. Tabiatga, narsalarga o'zga odamlarga ta'sir ko'rsatish ham faoliyatning qudrati bilan ro'yobga chiqadi. Inson faoliyatda narsalarga nisbatan sub'ekt sifatida, shaxslararo munosabatda esa shaxs tariqasida gavdalanadi hamda imkoniyatlarini yo'zaga chiqarishga musharraf bo'ladi. Buning natijasida ikkiyoqlama bog'lanish o'zlucksiz harakatga kirishishi, to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishi tufayli inson narsalarning, odamlarning, tabiat va jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'playdi. Har xil xususiyatli o'zaro munosabatlar negizida faoliyat sub'ekti uchun narsalar sub'ektlar sifatida, odamlar esa shaxs timsolda aks eta boshlaydi. Inson faoliyatga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilishi tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglatuvchi matn paydo bo'ladi. Psixologiyada faoliyatning alohida bir xususiy vazifasini bajarishga mo'ljallangan, nisbatan tugallangan qismi (unsuri), tarkibi harakat deb nomlanadi. Masalan, kompyuter texnikasidan foydalanish harakatlari amalga oshiriladigan ishlardan tarkib topadi. Harakatlar natijasida odam borliqdagi narsalar xususiyati, holati, fazoviy joylashuvini o'zgartiradi. Mazkur jarayon nafaqat harakat yordami bilan, balki muayyan sa'i-harakatlar tufayli yo'zaga keladi. Duradgor eshik yasamoqchi bo'lsa, avval munosib material tanlaydi, ularni o'lchaydi, unsurlarini sanaydi, randalaydi, qismlarni bir-biriga joylashtiradi, yopishtiradi, unga pardoz beradi, oshiq- moshiq

qoqadi, kesaki o'rnatadi, ochib yopilishini tekshiradi va hokazo. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, duradgorning gavdasi, oyoq-qo'llari, boshining tutishi sa'i-harakatlari bilan birga «tanlash», «ishlov berish», «o'rnatish» amal qismlari majmuasi faoliyatni tarkib toptiradi. Sa'i-harakatning harakatdan farqli tomonlari uning aniqligi, maqsadga yo'nalganligi, epchilligi, uyg'unligi singari belgilarida o'z ifodasini topadi. Inson faoliyatida narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirlgan sa'i-harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati; b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish); v) joy almashish (yurish, yugirish); g) aloqa vositalari sa'i-harakatlari qatnashadi. Odatda aloqa vositalari tarkibiga: a) ifodali sa'i-harakatlar (imo-ishora, pantomimika); b) ma'noli ishoralar; v) nutqiy sa'i-harakatlar kiritadi. Sa'i-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush psychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa'i-harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning maqsadiga, ta'sir o'tkaziladigan narsalarning xususiyatlariga va harakatning amalga oshishi shart-sharoitlariga bog'liq. Jumladan, a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzdagi sa'i-harakatni taqozo etadi; b) avtomobilni haydash velosipedda uchishga qaraganda ayricha sa'i-harakat talab qiladi; v) ellik kg shtangani ko'tarishda bir pudlik tonnaga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi; g) kartonga katta shaklni yopishtirishga qaraganda kichik shaklni joylashtirish, qiyin kechadi. Yuqorida keltirilgan misollar turlicha ob'ektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Ob'ektlarning turlicha ekanligi sa'i-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati to'zilishiga har xil talablarni, tizimni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, E.A.Asratyanlarning tadqiqotlarida dalillab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'i-harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'i-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilishi mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'i-harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi. Sa'i-harakatlarning amalga oshirilishi beto'xtov ravishda nazorat qilinadi, uning mahsulasi harakatning pirovard maqsadi bilan qiyoslanadi va unga ayrim to'zatishlar kiritiladi, xuddi shu tarzda boshqaruv betinim takrorlanaveradi, harakatni nazorat qilish jarayoni esa sezgi a'zolari yordami bilan vujudga keladi. Sa'i-harakatni sensor (sezgi a'zolari yordamida) nazorat qilishning isboti uning oynadagi o'z aksiga qarab chizishda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, oynada qalamning odam qo'li harakat yo'nalishi bo'yicha emas, balki qarama-qarshi tomonga harakatlanayotganday tuyuladi. Inson ko'rish orqali mashqlanishi tufayli ma'lumotlardan foydalanish bilan harakatni muvofiqlashtirishni uddalaydi. Sa'i-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa prinsipi binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'i-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko'rinishini) rus tadqiqotchi P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan. Afferentatsiya (lotincha afforens keltiruvchi degan ma'no anglatadi) hamda tashqi qo'zg'atuvchilardan, hamda ichki organlardan, axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa- axborotlarining tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini aks ettiradi. Sa'i-harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega. Narsaga yo'naltirlgan harakatning ishga tushishi muayyan bir tizimga taalluqli sa'i-harakatlarning natijaga (maxsulaga) erishishni ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki u (harakat), birinchidan, sa'i-harakatlarning mahsulasiga mos ravishda, ikkinchidan, harakatlar ob'ektning xususiyatlariga mutanosiblikda, uchinchidan, sa'i-harakatlarni hissiy nazorat qilishni amalga oshirgan yo'sinda ularga ba'zi bir to'zatishlar kiritadi. Ushbu jarayonni osonroq tushunish uchun uning negizi: a) tashqi muhitning holati, b) muhitda harakatlarning vujudga kelishi, v) natijalar (mahsulalar) to'g'risida miyaga axborot beruvchi hissiy mo'ljallarni egallash mujassamlashtiradi. Masalan, haydovchi avtobusni to'xtatish tepkisini bosish kuchini, uning harakati tezligi, shoh ko'chaning holati, avtobusning vazni, harakat qatnovi, piyodalar gavjumligi bilan so'zsiz moslashtiradi. Holbuki shunday ekan, faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi oxir oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilib turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsulasining timsoli, o'zgaruvchan

andozasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo‘lg‘usi andoza bilan haraktning amaliy natijasi qiyoslanadi, o‘z navbatida andoza sa’i-harakatni yo‘naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo‘lib, ular «bo‘lg‘usi harakat modellari», «sa’i-harakat dasturi», «maqsadning dasturi», «miyada harakatning o‘zi oldindan hosil qiladigan andozalari» singari tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari: «harakat akseptori» va «ilgarilab aks ettirish» (P.K.Bernshteyn), «harakatlantiruvchi vazifa» va «bo‘lg‘usi ehtiyoj andozasi» (N.A.Bernshteyn), «zaruriy mohiyat» va «kelajak andozasi» (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o‘tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilihga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to‘g‘risidagi mulohazalari, bu borada tasavvurlarning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobjiy ilmiy voqelik bo‘lib hisoblanadi.

## **2.1. Faoliyatning o‘ziga xosligi**

Faoliyat jahon psixologiyasi fanining asosiy (fundamental) tushunchalaridan biri hisoblanib, ko‘pincha psixologik kategoriya sifatida olib qaraladi. Shuning bilan birga ushbu tushuncha haddan ziyod keng ma’noli va ko‘p ahamiyatli tarzda foydalanilganligi tufayli uning mohiyati yoyiq bo‘lib boradi, natijada qiymati asl mazmunini yo‘qotadi. Xuddi shu boisdan psixologiyada faoliyat uchun umumiyligini qabul qilingan definitsiya mavjud emas, foydalanib kelinayotgan to‘zilma, ta’rif esa ko‘p hollarda tanqidga uchraydi. Holbuki shunday ekan, semantik tahlil o‘tkazish orqali faoliyatga nisbatan turlicha qarashlarni umumlashtirish, o‘zaro taqqoslash zaruriyati aniqlangan bo‘lar edi, bu esa o‘z navbatida uning (faoliyatning) ilmiy-psixologik ob‘ektiga aylantirishi unga aloqador tushunchalar tarkibini mukammallashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ensiklopediya, izohli lug‘at va lingvistik so‘zliklardagi ma’lumotlar, ilmiy matnlar tahlilining ko‘rsatishicha, faoliyat tushunchasi falsafa, fiziologiya, sotsiologiya, psixologiya fanlari predmetidan kelib chiqib, o‘zaro qorishish oqibatida mehnat, ish, aktivlik, xulq singari to‘rt xil tavsifga ega bo‘lgan. I.M.Schenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lgan, shu sababdan uning asarlarida "tafakkurning faol shakli", "tafakkur faoliyat", "miya faoliyat", "muskul faoliyat" so‘z birikmalari keng ko‘lamda joy egallagan. I.P.Pavlov tomonidan "oliy nerv faoliyat", N.A.Bernshteyn esa "fiziologiya faolligi" atamasi fan olamiga olib kirgan. Lekin N.A.Bernshteyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma’nosiga ko‘ra farqlagan bo‘lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma’nosida qo‘llagan. Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma’nosni sifatida talqin qilingan bo‘lsa, ish, mehnat faoliyatni "mehnat faolligi" mazmunida qo‘llanadi. Ijtimoiy psixologiyada "faoliyat-faollik-ish-mehnat", "faoliyat-xulq", "mehnat-xulq-faoliyat" ko‘rinishlari juftligi uchrab turadi. S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi prinsipini ilgari surib va atroficha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zaruriyatini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki "ijtimoiy kategoriya", psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini" tadqiq etadi. Psixiklilikning namoyon bo‘lishi yoki hukm surishining ob‘ektiv shakli xulqda, faoliyatda ifodalanadi (aks ettirish harakati ma’nosida). A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "predmetli faoliyat" so‘z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomonidan "odamning hissiy amaliy faoliyat" so‘z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "faoliyat", "xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlataladi, jumladan, "teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish", "faoliyatning halqali to‘zilishi", "faoliyatni boshqarish", "qo‘lning tuyush faoliyat", "perseptiv faoliyat", "retseptor va effektor apparatlarning hamkorlik faoliyati" kabilalar. B.G.Ananov faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi ma’nosida tushunadi. Uning fikricha, bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko‘rinishidir. Tadqiqotchi "inson faoliyat", "tashkiliy ish", "tashkilotchilik faoliyati", "xulq jarayonining algoritmlari" atamalaridan har xil ma’noda foydalanadi.

## **3. Faoliyatni interiorizatsiyalash va ekstreoriozatsiyalash**

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, miyani ilgarilab aks ettirish imkoniyati va hali amalga oshirilmagan harakatning natijasi inson psixikasida qay tarzda in’ikos etilishi kuchli qiziqish uyg‘otadi. Bu hodisani izohlashning yagona yo‘li – u ham bo‘lsa borliqning muhim xususiyati hisoblanmish qonuniyatning mavjudligidir. Borliqdagi qariyb (neosfera hisobga olinmaganda) barcha narsalar, munosabatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar, to‘zilmalar bir-biri bilan doimiy bog‘liqlikka ega bo‘lib, muayyan qonuniyat asosida harakatlanadi, bu holatdan ikkinchisiga o‘tadi. Shuning uchun idishdagi suv qaynatilsa bug‘ga aylanadi, harorat pasaysa, u mo’zlaydi, havo

isiganida esa mo'z eriy boshlaydi, bahor ketidan yoz keladi, narsalar ishqalansa qiziydi va hokazo. Xuddi shu bois ob'ekt bilan hodisa o'rtasidagi o'zgarmas, barqaror munosabatlar, ob'ektning muhim xususiyatlari hodisaning qonuniyati deyiladi. Ularda o'zgarmas xususiyatlari va qonuniyatlarning mavjudligi o'zgarishlarni oldindan payqash, harakatlarni muvofiq yo'naltirish imkonini vujudga keltiradi. Tashqi, yaqqol faoliyat favquloddagi davrda ichki timsoliy (psixik) faoliyat tarzida his etiladi. Ob'ektlarga yo'naltirilgan yaqqol harakatlar ularning muhim xususiyatlariiga mo'ljallangan timsoliy jarayon bilan almashtiriladi. Xuddi shu sababdan tashqi, yaqqol harakatdan, ichki, timsoliy harakatga mana shu tarzda o'tish jarayoni interiorizatsiya (ichki tarzga aylanish) deb ataladi. Interiorizatsiya muammosi rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiqot qilingan. Interiorizatsiya sharofati bilan inson psixikasi muayyan vaqt oralig'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi)dan foydalanish qurbiga ega bo'ldi. Shu narsa ma'lumki, bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib so'z, o'zgarish vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlari axborotidan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir. Inson faoliyati murakkab va o'ziga xos jarayon bo'lib, shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas, balki ko'pincha jamiyatning maqsadi va talablari bilan belgilanadi. Xuddi shu boisdan qo'yilgan maqsadning anglanilganligi va unga erishish bo'yicha ish-harakatlari tajribasi anglanilganligi va unga erishish bo'yicha ish-harakatlari tajribasi bilan bog'liq ekanligi inson faoliyatining o'ziga xos belgisi bo'lishini tasdiqlaydi. Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) to'zilmalari bir-biri bilan uyg'unlashganligi ko'zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan sa'i-harakatlar ichki (psixik) jihatiga bog'liq bo'lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek, tashqi jabha o'z navbatida: a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ularni o'zluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi, yaqqol faoliyatni ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriozatsiyalashuvi (tashqi tarzga aylanishi) deb baholash maqsadga muvofiq.

#### **4. Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallah**

Psixologiya fanida harakat tushunchasi tahlil qilinganida u motor (jismoniy) harakat, sensor (hissiy) harakat va markaziy qismiga ajratiladi. Shunga muvofiq ravishda ajratilgan tarkiblar harakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan ishlarni ijro etish, nazorat qilish va boshqarish bilan shug'ullanadi. Faoliyat harakatlarini ijro etish, nazorat qilish va boshqarishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar uning usullari deyiladi. Odatda harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshirilishi ko'ztiladi. Harakatni bajarishda ong borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ishni amalga oshirish avtomatlasha boshlaydi, ayrim mayda- chuyda qismlarga nisbatan e'tibor (nazorat) kamayadi. Shuning uchun inson faoliyatida maqsadga yo'naltirilgan sa'i-harakatlarni ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi. Xuddi shu boisdan harakatlarni boshqarish bilan sa'i-harakatlarni boshqarish aynan bir narsa emas, albatta. Chunki sa'i-harakatlarning yuksak darajada avtomatlashuvi uning o'z tarkibidagi harakatni ongli ravishda idora qilish bilan uyg'unlashib ketadi. Patologik holatlardan tashqari, barcha faoliyat turlari ong bilan boshqarilib turadi. Harakat tarkiblarining avtomatlashuvi: birinchidan, ongli ravishda yo'naltirilgan ob'ektni almashtiradi. Ikkinchidan, harakatning umumiylarini, uning ijro etilishi shart- sharoitlarini, natijalarini nazorat qilishni, uchinchidan, ularni baholashni ong uning tasarrufi doirasiga kiritadi. Malakaning to'zilishi. Harakatning qisman avtomatlashuvi tufayli uning to'zilishida ayrim sifat o'zgarishlari yo'z beradi va ular quyidagilardan tashkil topgandir: Birinchidan, sa'i-harakatlarning ijro etilishi usullari o'zgaradi. Bunda bir qator sodda sa'i-harakatlar yagona jarayonga (tarkibga) kiruvchi ba'zi sodda sa'i-harakatlar o'rtasida to'siq va o'zilish ro'y bermagan bitta murakkab sa'i-harakat o'zaro bir-biriga qo'shilib ketadi, ortiqchalari esa bartaraf etiladi. Masalan, bola velosipedni uchishga o'rganayotgan paytida bir qancha ortiqcha harakatlarini amalga oshiradi: o'zini bir tekis tuta olmaydi, pedalni birini bosib, ikkinchisini bosmaydi, rolni qattiq tutadi, yo'lga diqqatini taqsimlay olmaydi, o'rindiqqa noqulay o'tiradi, birovning yordamiga tayanadi. Malakali velosiped haydovchisi harakatni silliq bajaradi, ortiqcha urinishlarga yo'l qo'ymaydi. Harakatlarni o'zlashtirish jarayonida: a)sa'i-harakatlar tarkibi; b)sa'i-harakatlar izchilligi; v)sa'i-harakatlar uyg'unligi; g)ularning tezligi rejali kechishiga sharoit yo'zaga

keladi.Ikkinchidan, harakatni sensor (hissiy) nazorat qilish usullari o‘zgaradi. Dastavval, sa’i-harakatlar amalga oshishini ko‘rish organi orqali nazorat qilish kinestetik (mushaklar yordamida harakat) nazorat bilan almashadi. Chunonchi, charxchi asbobning tezligiga emas, balki ko‘proq pichoq tig‘iga e’tibor qaratadi. Sa’i-harakatlarning xususiyatini aniqlovchi har xil o‘lchamlarining nisbatini baholash imkonini vujudga keltiradigan sensor sintezlar (yunoncha synthesis uyushma demakdir) hosil bo‘ladi. Harakat mahsullarini nazorat qilishga alohida ahamiyat kasb etadigan mo‘ljallarni farqlash va ajratish uquvchanligi insonda rivojlanadi.Uchinchidan, harakatni markazdan turib boshqarish usullari o‘zgarib boradi. Harakat usullarini idrok etishdan diqqat xoli bo‘lib, u uning vaziyati va mahsulasiga qaratilgandir. Topshiriq yechimlari, aqliy faoliyat jarayonlari tezkorlikda, hamkorlikda bajarila boshlaydi. Jumladan, uchuvchi samolyot dvigatelining ortiqcha kuch bilan ishlayotganini tovushidan fahmlaydi. Narsalarni aniqlashga sarflanadigan vaqt kamaya boradi. Qo‘llanishga mo‘ljallangan usullarni turkum tarzda ong yordamida oldindan payqash (sezish, fahmlash, bilish) jarayoni antitsipatsiya (lotincha anticipatio oldindan fahmlash, sezish ma’nosini anglatadi) deyiladi.Shuning uchun harakat usullaridagi mazkur o‘zgarishning siri nimada va ular qanday psixologik mexanizmiga ega? degan savolning tug‘ilishi tabiiydir. Psixologik mexanizm (ta’minalash) o‘z ichiga izlanish urinishlarini va tanlashni oladi. Shaxs u yoki bu harakatni bajarishga urinib ko‘radi, hatto ushbu jarayonni nazorat qilib ham turadi. Bu o‘z navbatida muvaqqiyatli urinishlar (sa’i-harakatlar), o‘zini oqlagan chandalashlar, mo‘ljallar inson tomonidan tanlanadi va asta- sekin mustahkamlanadi. Qo‘llanganda foyda (naf) bermagan harakatlar samara beruvchilari bilan almashtiriladi. Bu holat muayyan davr davomida takrorlanadi yoki mashq qilinadi. Ana shundan kelib chiqqan holda muayyan harakatlarni o‘zlashtirish maqsadida ularni ongli ravishda nazorat qilishga va o‘zgartirishga harakat qilinadi. Amaliy ish harakatlarini takrorlanmasdan turib, turli xususiyatli malakalarini shakllantirib bo‘lmaydi.Malakan shakllantirishda bajarilayotgan harakatlarning nutq faoliyatida so‘z bilan ifodalanishi va harakatning timsolini xayolda mujassamlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu yo‘sinda insonning malakasi anglashinilgan tarzda avtomatlashgan xatti-harakat sifatida shakllanadi. Malakalarini shakllantirish mexanizmiga, prinsipiqa muayyan odatiy jabhalarga, usul va vositalar tanlash xususiyatiga alohida e’tibor qilish uning muvaffaqiyatli hosil bo‘lishini ta’minalaydi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq: a) usullarni tanlash, b) harakatda ong nazorat funksiyasini kamaytirish, v) maqsadni oydinlashtirish, g) shart-sharoitni tasavvur etish, d) malakan shakllantirish modelini xayolda yaratish va hokazo.

Psixologiya fanida malakan shakllantirishning asosiy bosqichlari sxemasi ishlab chiqilgan, bunda asosiy e’tibor malakaning xususiyatiga, maqsadiga, harakatni bajarish usullariga qaratiladi. Shuningdek, malakalarning o‘zaro ta’siri muammosiga alohida ahamiyat beriladi, chunki inson malakalar tizimiga amal qilgan holda yangi malakan o‘zlashtiradi.Oldin egallangan malaka, keyingisini tarkib topishiga yordamlashadi, goho unga xalaqit berishi ham mumkin. Harakatning avtomatlashuvi uning maqsadi, ob’ekti, vaziyati va shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Harakatning muvaffaqiyati, samaradorligi ko‘p jihatdan sensor nazoratga hamda uning yangi sharoitiga ko‘chishiga bog‘liq.Malakalarning noto‘g‘ri (teskari) ko‘chirilishi interferensiya hodisasini vujudga keltiradi. Faoliyat ko‘nikma, malaka, usul, harakat,sa’i-harakat, operatsiya kabi tarkibiy qismlar tufayli muayyan mahsullarga erishadi, moddiy va ma’naviy natijalarni hamda bilimlarni vujudga keltiradi.Psixologik ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, faoliyat shaxslararo munosabatlar tizimi tariqasida, hamkorlik tarzida namoyon bo‘ladi. Faoliyatda inson shaxsi (uning xususiyatlari) aks etadi va ayni bir davrda faoliyat odam shaklini tarkib toptiradi. Ong bilan faoliyat birligi prinsipiqa asoslanish orqali shaxs kamol topadi, shaxslararo munosabatga kirishadi, ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtiradi, o‘zaro ta’sir yordamida ijtimoiylashadi. Inson shaxsining shakllanishi o‘yin, ta’lim, mehnat, sport va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yo‘zaga keladi, xulqatvor, muomala (kommunikatsiya) vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, turli xususiyatli axborotlar o‘zlashtirishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi.

**O‘yin faoliyati.** Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o‘yin hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan keyinchalik syujetli, roli o‘yinlarga, hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof-muhitni aks ettirishida ishtirok eta boshlaydi. Insonning borliqni in’ikos etishidagi dastlabki urinishni harakat orqali namoyon etadi. Harakatlar bolaning tabiatga, uni qurshab turgan kishilik dunyosiga nisbatan munosabatini, ular to‘g‘risidagi ilk taassurotlar,

sodda tasavvurlar, bilimlarni o'zlashtirishni anglatib keladi. Keyinchalik oddiy harakatlar muayyan ma'no kasb etib, syujetli va rolli o'yinlarga aylanadi. O'yinlar milliy (etnik) va umumbashariy turkumlardan tarkib topgan bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jahbalarini o'zida aks ettiradi. O'yinlar takomillashib borib sport turlariga, sport faoliyatiga o'sib o'tadi, jumladan, shaxmat, damino, futbol, shashka va hokazo. Sport o'yin faoliyati sifatida barcha yoshdag'i insonlarga xos bo'lib hisoblanadi.

O'yin faoliyatida bola ijtimoiy vogelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi. So'z bilan harakatning birikuvi natijasida o'yin faoliyat tusini oladi va muayyan ma'no, axborot berish, o'zatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallahsga xizmat qiladi.

O'yin dastavval bola uchun vaqt o'tkazish, uni mashg'ul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o'sib o'tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug'ilganidan to maktab ta'limigacha davrida uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek, o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Bolalar o'yinlarining dastlabki ilmiy tahlili rus olimi Yo.A.Pokrovskiy tomonidan 1887 yilda amalga oshirilgan. Uning fikriga ko'ra, "o'yin" to'g'risidagi tushunchalar o'ziga xoslikni va tafovutni u yoki bu xalqqa mansublikni bildiradi. Oradan yarim asr vaqt o'tgandan keyin 1933 yilda "o'yin" tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirgan va uning o'ziga xos alomatlarini tasniflashga harakat qilgan golland olimi F.Boyntendayk hisoblanadi. Boyntendayk o'yinning alomatlari qatoriga quyidagilarni kiritadi: "u yoqqa va bu yoqqa" harakat, ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik. Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini ko'zatish orqali aniqlash mumkin, chunki o'yinning qiymati va ahamiyati ularning o'zlarini tomonidan oqilona baholash, degan xulosaga keladi. O'yinni vujudga kelish tarixiga ilmiy yondashish nemis psixologgi V.Vundtga 1887 yilda nasib etdi. Uning mulohazalariga ko'ra, o'yinning manbai ho'zur qilish, rohatlanishdan iboratdir. V.Vundt bildirgan fikrlar yoyiq xususiyatga ega bo'lib, o'yinning u yoki bu jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Uning fikricha, o'yin – bu bolalarning mehnatidir. Hech bir o'yin yo'qki, u jiddiy mehnatning u yoki bu shaklining prototipi bo'lmasin, hamisha uning vaqtidagi va fazodagi haqiqiy holatini o'zida aks ettirmas. Yashash zarurati insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Mehnat orqali inson o'z kuch-qudratini baholashga o'rgana boradi, ho'zur qilish va rohatlanishining manbai ekanligiga iqror bo'ladi. Uningcha, o'yin mehnatning foydali jihatini yo'qotib boradi. Shuningdek, mehnat jarayonidagi eng yoqimlilik, uning natijasi maqsadga aylanadi. V.Vundt mehnat predmetini harakat usullaridan alohida hukm surishiga ishora qiladi. Bu bilan u psixologiya tarixida ustunlik qilib kelayotgan "o'yin insonning biologik jabhasi" degan g'oyaga qo'shimcha tariqasida unga ijtimoiy-tarixiy jihatni kiritadi. V.Vundtning ushbu g'oyasi psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi va o'yinning tadqiqotiga keng imkoniyatlar ochadi. Jalon psixologiyasi fanida o'yin nazariyasiga yirik ulush qo'shgan olimlardan biri – K.Gross hisoblanadi. Yigirmanchi asrlarning boshlarida o'yin nazariyasi uchun eng qulay va sermahsul davr bo'lgan. U o'z zamondoshlari D.A.Kolotssa va G.Spenserlarning fikr va mulohazalariga asoslangan holda o'yin nazariyasini yaratdi. K.Gross o'z g'oyasini umumlashtirib, uni "mashqlantirish nazariysi" yoki o'z-o'zini tarbiyalash deb ataydi va uni quyidagicha tasniflashga harakat qiladi: Har qaysi tirik mavjudod irsiy beriluvchanlik, mayl xususiyatiga ega bo'lib, uning xulq-atvorida maqsadga muvofiqlikni kasb ettiradi. Yuksak darajadagi jonivorlarning tug'ilishidan berilgan xislatlari qatoriga faoliyatga impulsiv intilishni kiritish mumkin, chunki u jismoniy o'sish davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Yuksak darajadagi mavjudodda, xususan insonda irsiy javob harakatlari murakkab hayotiy muammolarni bajarishga yetarli emasdир. Har qaysi yuksak taraqqiy etgan mavjudod hayotida bolalik davri mavjud bo'lib, u o'sish va rivojlanish xususiyatiga ega. Lekin mustaqil hayot va faoliyatni ta'minlay olmaydi. Chunki unga bunday imkoniyatni ota-onaning parvarishi yaratadi va u tug'ma mayl va moyilliklarga asoslanadi. Bolalik davri hayot uchun eng zarur shart-sharoitlarga va ularga moslashuvni egallah maqsadiga tabiiy ravishda yo'nalgan bo'ladi. Biroq irsiy javob harakatlariga bevosita asoslanmaydi. Inson zotiga o'zundan-o'zun bolalik davri beriladi. Qanchalik faoliyat

mukammal bo‘lsa, unga shunchalik ko‘proq tayyorgarlik joiz. Bolalik xususiyatiga binoan hayotga ko‘nikish yo‘llari turli-tumandir. Ko‘nikish yoki moslashish yo‘lining eng tabiysi va shuning bilan eng zaruri shundan iboratki, bunda faoliyatga nisbatan impulsiv ehtiyojning mavjudligi irsiy reaksiyalar o‘z-o‘zicha namoyon bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Bunday sharoit irsiy harakatlarga asoslangan holda yangi malakalarni egallahshni vujudga keltiradi. Avvalo yangi odatiy harakatlar yaraladi. Ko‘nikish yoki moslashish yo‘llari insonni taqlid qilishda o‘z ifodasini topuvchi nasliy intilish, mayl orqali amalga oshiriladi. Bu narsa keksa avlodning qobiliyatları va odatlari bilan o‘zviy bog‘liq ravishda kechadi. Shaxsiy ichki qo‘zg‘alish xususiyatiga ko‘ra, rivojlanuvchi individuum hech qanday maqsadning tashqi ko‘rinishisiz o‘z mayli hamda intilishini namoyon qiladi, mustahkamlaydi va o‘stiradi. Bu o‘yining dastlabki nishonalaridan dalolat beradi. K.Byuler K.Grossning ogohlilik nazariyasini tan olib, o‘yin filogenezga taalluqli ekanligini ta’kidlab, uning dressura bosqichi uchun ogohlilik ekanligini uqtiradi. U o‘yining mohiyati va tomonlarini ochishda o‘zining gedonalogik (ho‘zur qilish) reaksiyaning birlamchiligi nazariyasiga asoslanadi. K.Byuler Z.Freydning rohatlanishga intilishdan iborat g‘oyasini e’tirof etsa-da, lekin inson faoliyati va rivoji uchun harakatlantiruvchi emas ekanligini uqtiradi. O‘yin nazariyasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan olimlardan biri – bu Boytendaykdir. U K.Grossning ogohlilik nazariyasiga ikki xil mazmunda e’tiroz bildiradi. O‘ynay bilmagan hayvonlar instinct darajasiga ko‘ra zaif deyishga hech qanday dalil yo‘q. Chunki instinctiv faoliyatda mashqlanishning roli yetarli yuksak emas. Shuning uchun faoliyatning instinctiv shakllari mashqlanishga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ulardan tashqari muhitda takomillashadi. Mashqlanish o‘yining mohiyatida yotmaydi, lekin uning tayyorgarlik mashqlari mavjud bo‘lib, ular o‘yin deyilmaydi.

F.Boytendayk o‘yin predmetining tanishligi yoki notanishligi o‘rtasidagi munosabatini uning obrazliligi deb ataydi. Obrazning affektiv va gnostika munosabati (notanish yoki hayotiy) fantaziyanı keltirib chiqaradi. Binobarin, antropomorfizm sahovati sifatida fantaziyalashgan obrazlar, tasavvurlar vujudga keladi. O‘yin nazariyasiga oid ilmiy qarashlar E.Klapared, Dj.Kollarits, X.Shlosberg, Dj.Bruner kabi xorijiy psixologlar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Sobiq sovet psixologiyasida o‘yin faoliyati nazariyasini ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biri Ye.A.Arkin bo‘lib hisoblanadi. Uning fikricha, bolalar o‘yini va o‘yinchog‘i o‘yin nazariyasiga negiz bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘yinchoqlar tarixiga asoslanib, ularni quyidagi turlarga ajratadi:

Ovozli o‘yinchoqlar – tartarak, vizillagich, qo‘ng‘iroqlar, shaqildoqlar va boshqalar;

Harakatlanuvchi o‘yinchoqlar – bizbizak, koptok, varrak, bilbok kabilar;

Qurol (yarog‘, aslaha) o‘yinchoqlari – kamalak (yoy), o‘q, bumerang singari;

Obrazli o‘yinchoqlar – hayvonlar, jonivorlarning tasviri va qo‘g‘irchoqlar;

Arqon o‘yinlari – shakllari yasash, sakrash va hokazolar.

O‘yinlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularni maxsus guruhlarga biriktirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, psixolog Ye.A.Arkin o‘yinlarning quyidagi tasnifini taklif qiladi: Ishlab chiqarishga (texnikaga): sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, kasb-xunarga oid o‘yinlar; Maishiy va ijtimoiy siyosatga: bog‘cha, maktab, kundalik turmushga oid o‘yinlar; Harbiy: urush-urush o‘yinlari;

Dramalashtirilgan: kino, spektakl va boshqalarga oid o‘yinlar.

D.B.Elkonin maktabgacha yoshdagи bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhgа ajratishni tavsiya qiladi:

Maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar.

Ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar.

Ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

.B.Elkonin harakatli o‘yining qoidalari mazmuni o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, ularni besh guruhgа ajratadi:

Harakatga taqlid qilish: taqlidiy-protsessual o‘yinlar.

Muayyan syujetni dramalashtirilgan o‘yinlar.

Syujetli o‘yinlar.

Syujetsiz o‘yinlar.

Aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport o‘yinlari.

Boshqa xalqlardan, millatlardan o‘zbek milliy o‘yinlarning va o‘yin faoliyatini uyushtirishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: O‘yinda yoki o‘yin faoliyatida o‘zbek xalqining(hududiy xususiyatidan qat‘i nazar) yashash tarzi, intilishi, xohishi, istagi, ezgu

niyati, uning mavsumiyligi, kasb-korga taalluqli jihatlari, holatlari aks ettirilgan bo‘ladi. Emotsiya, hissiyat, xarakter, milliy qiyofa, ta’b, bilish jarayonlari, xulq-atvor, ularni namoyon bo‘lish tezligi (sur’ati), davomiyligi, kechishi milliy xususiyatga egadir. Nafaqat milliy o‘yinlar, balki xalqning (millatning, elatning) raqslari; ularning syujeti, tezligi, osoyishtaligi; uning qo’shiqlari chastotasi, tembri, amplitudasi, badiiy ijodiyoti xususiyatlari umumiy milliy kaloriti bilan uyg‘unlashgandir. Milliy harakatli va sport o‘yinlarining mohiyati, mazmuni, ma’no ifodalashi, manbai, negizi, ularning in’ikosi, ularda aks ettiriluvchi kechinmalari, syujetda o‘z aksini topgan shaxslararo munosabat, muomala, xarakteriologik va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omil(sabab, faktor)lardan tashqari milliy o‘yin faoliyati tabiiy, geografik qonuniyatlarga (iqlim, yog‘ingarchilik, joylashish sathi, qulay va noqulayligi, shamol, ofatlar ehtimolligi), xossalari, ularga nisbatan xayrixohlik, qat’iy yoki beayov kurash yoki sajda, yolvorish, iltijo qilish milliy idrok, tasavvur, irodaviy kuchga asoslanadi. Ijtimoiy tajriba va uni egallahsh, shakllangan etnik stereotiplarga asoslanish natijasidan kelib chiquvchi milliylik, umumiylilik, xususiylik, alohidalik, yakkahollik, guruhiylik, jamoaviylik, tabiatga va jamiyatga munosabatni aks ettirish tarzida o‘yin vujudga kelishi mumkin. Tabiat mo‘”jizalari, ilohiy kuchlarga e’tiqod, aql-zakovatdan hayratlanishni ifodalovchi syujet va mazmundan iborat bo‘lgan milliy o‘yinlar. Kasbni tasvirlovchi, unga barol tilovchi, uni takomillashtirishga olib boruvchi imkoniyat, intilishni harakat va his-tuyg‘u yordamida namoyon etuvchi, qadriyat, ma’naviyat, ruhiyatga asoslanuvchi milliy o‘yinlar. Millatlararo ta’sir natijasida yaraluvchi, lekin milliylikning u yoki bu qirralarini saqlab qoluvchi baynalmilal xususiyatlari o‘yinlar. Ijtimoiy garmoniya ta’siri, ijtimoiy ong rivoji, madaniyat, fan va texnika mahsulasi sifatida tug‘iluvchi yangi toifaga xos milliy o‘yinlar. Milliy o‘yinlar hududiy ko‘rinishlari, takomillashish imkoniyati, yosh davrlari xususiyati, jinsiy tafovuti, mavsumiyligi, mavsumbopligi, rasm-rusumga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Milliy o‘yinlar muayyan syujet, mazmun, qoida, muddatga asoslanadi. Ular unutilish, yangilanish, takomillashish xususiyatiga ega bo‘lib, ko‘nikma, malaka va odatlarni mashqlantirishni taqozo qiladi. Bu narsa ijtimoiy tajribani avlodlar tomonidan o‘zlashtirish tariqasida yo‘zaga kelib turadi. Oqibat natijada mangulik xususiyatni kasb etadi, shaxsni u yoki bu yo‘sinda kamol topishiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi o‘yinlar tug‘iladi. Jahon psixologiyasi fanida o‘yinlar yo‘zasidan mulohaza yuritilganda aksariyat hollarda ularni oilaviy turmushga, dehqonchilikka, qurilishga, sanoat sohasiga, siyosatga, harbiyga, kasbga taalluqli ekanligiga qarab guruhlarga ajratiladi. Eng qadimiy milliy o‘yinlar qatoriga harakatli va sport o‘yinlari kiritiladi hamda xalqning keng tarqalgan, sevimli o‘yinlari bo‘lib hisoblanadi. Ular o‘zining syujeti, mazmuni, roli bilan bir-birlaridan keskin tafovutlanib turadi. Ba’zi hollarda harakatli o‘yinlar bir davrning o‘zida ham sport o‘yinlari bo‘lib hisoblanadi. Yoinki sport o‘yinlari harakatli o‘yinlar qatoriga kiritilishi mumkin.

**2.Ta’lim.** Ta’lim ham jarayon, ham faoliyat sifatida insonning hayotida muhim rol o‘ynaydi va muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida gavdalanishi mumkin. Ta’lim boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qituvchi bilan o‘quvchining sub’ekt-sub’ekt munosabatidagi hamkorlik faoliyati hisoblanadi. Aksariyat hollarda o‘qituvchi axborot o‘zatuvchi (kommunikator) o‘quvchi esa uni qabul qiluvchi(kommunikat) ob’ekt sifatida talqin etiladi, lekin ikkiyoqlama harakat tufayli ma’lumot insonga anglashiniladi, o‘zaro ta’sir, o‘zaro anglashuv, tushunuv, o‘zaro sub’ektlarning bir- birga zaruriyligi, taqozochanligi hamkorlikning muvaffaqiyati kafolatli sanaladi. Ta’lim o‘quv faoliyati, aqliy faoliyat, bilish faoliyati turkisi vazifasini o‘taydi, chunki har qaysi faoliyatning shakli aqliy mehnat tufayli amalga oshadi. Ta’limning boshqa faoliyat turlaridan farqi uning mahsulining o‘ziga xosligi, barcha bosqichlariga ongli yondashuvda va munosabatda bo‘lishdir. Ta’lim o‘quv faoliyati yoki jarayon sifatida mustaqil izlanishni, ijodiy munosabatni, turli vaziyat (auditoriya va undan tashqarida)ni, har xil bosqichni (boshlang‘ich, o‘rta, maxsus, oliv ta’lim) o‘zida mujassamlashtiradi. Mustaqil bilim olish va mutolaa qilish ham o‘quv faoliyatining muayyan ko‘rinishlari bo‘lib, shaxsiy ilmiy, ijodiy izlanishning mahsuli hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya bilan uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘ladi, sub’ektga ob’ektiv ta’sir o‘tkazish tufayli bilimlar egallanadi, muayyan shaxsiy fazilatlar tarkib topadi. Ta’limning mohiyatiga (matnda g‘oya, taassurot, mazmun, syujet, timsol orqali) tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish dasturiy asosda, ierarxik (yunoncha hierarchia izchillik) tarzda singdiriladi. Ta’lim muayyan guruh va jamoani shakllantiradi, shaxslararo munosabat maromlari bilan tanishtiradi, shaxsiy fazilatlarning tarkib topishiga, sub’ektning ijtimoiylashuviga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Ta'limning yana bir muhim funksiyasi shuki, u turli yoshdagagi odamlarni kasb tanlashga yo'naltiradi, kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishga, mutaxassis sifatida shakllanishga muhim ta'sir o'tkazadi. Ta'lim ijtimoiy jihatdan shaxslarni shakllantirish, ixtisos ko'nikmalari bilan qurollantirish, u yoki bu sohada mutaxassis bo'lib faoliyat ko'rsatishga xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash, psixologik imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, barkamollikni egallahash borasida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ta'lim yetakchi faoliyat tariqasida muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim talabaga muayyan ko'lama va darajada bilim, ko'nikma va malaka berishga, shuningdek, shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. U ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, o'qituvchi (ta'lim beradi) va talaba (ta'lim oladi)larning hamkorlikdagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi, shuning bilan birga mazkur jarayon pedagogik salohiyatli, kasbiy uquvli, yetuk inson boshchiligidagi fan asoslari egallanadi. Ta'limning muvaffaqiyati, birinchidan, o'qituvchi bilan talabalar jamoasini hamkorlik faoliyatining faol tarzda o'tishiga, ikkinchidan, nimalardan saboq berishga, kim tomonidan tashkil qilinishga, uni qanday metodlar bilan amalga oshirishga va kimlarni o'qitishga ko'p jihatdan bog'liqidir. Binobarin, o'qituvchi bilan talabalarning hamkorlik faoliyatining uyg'unlik, ijodiy izlanish, faollik kasb etishi-muvaffaqiyat garovidir.

Hozirgi davrda fan va texnikaning rivoji, axborot va bilim ko'laming kengayishi, oliy maktab talabalari oldiga mustaqil bilim olish vazifasini yuklamoqda. Mazkur mas'uliyat pedagoglarga ham bevosita aloqador bo'lib, faqat talabalarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan qanoatlanmasdan, balki faol va mustaqil ravishda ularni egallahsha o'rgatishni taqozo etadi. Ana shu tariqa ta'lim tushunchasidan o'qish (o'rganish) atamasi ajralib chiqqan. O'qish yoki o'rganish talaba faoliyati bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka va odatlar shaklida ifodalanib, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalarini o'zlashtirish hamda ulardan amaliy ehtiyojni qondirish uchun foydalanish anglashiladi.

Xalq ta'limi tizimida o'qish o'qituvchi rahbarligidagi o'qitish jarayonining bir tomonini tavsiflaydi, xolos. O'qishdagi muvaffaqiyatni ta'minlovchi asosiy omil-bu talabaning mustaqilligidir. Mustaqillik ta'limning ob'ektiv o'quv materiali, o'qitish sur'ati, metodi, darsliklar va sub'ektiv motiv, qiziqish, mayl, ustakovka, qarash va boshqa sabablariga ta'sir qiladi. Bu o'rinda ta'sir o'tkazish, ta'sirlanish, o'zini o'zi qo'lga olish, o'ziga o'zi buyruq berish holatlari muhim rol o'ynaydi.Pedagogik psixologiyada ta'lim o'qitish, o'qish, o'rganish bilan bir qatorda o'zlashtirish tushunchasi ham qo'llaniladi. Ta'lim amaliyotida o'qish va o'qitish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifa- bu bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdan iboratdir. O'zlashtirish jarayoni bilish faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, pedagogik-psixologik ta'sirlar talabalar ongida qay yo'sinda tasavvur obrazlari, fikr va mulohazalar bo'layotganligi, ularning amaliy faoliyatida qanday shaklda aks etayotganligi, psixik o'sishga, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlarni egallahsha yordam berayotganligini aks ettiruvchi murakkab voqelik hisoblanadi.

Bilimlarni o'zlashtirishning samaradorligi o'rganilayotgan materialning mazmuniga, muayyan tizimda o'zatilayotganiga, pedagogik mahoratiga, uning shaxsiy xususiyatiga, o'qitish metodikasiga, talabalarning individual-tipologik xususiyatlariga va qiziqishiga bevosita bog'liqidir. O'quv materiallarni o'zlashtirishda idrok jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Genetik nuqtai nazardan ushbu masalaga yondashsak, mavhum tushunchalarga nisbatan aniq materiallar osonroq idrok qilinadi. Dastavval bilish jarayoni atrof-muhitni amaliy jahatdan inson tomonidan o'rganish tariqasida namoyon bo'lganligi tufayli o'z qadriyatini saqlab kelmoqda.Ta'lim jarayonida aniq tasavvurlilik, tasviriy ko'rgazmalilik, "jonli mushohada"lik materiallarning o'rni nihoyatda muhimdir. O'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining ma'lum qismi hissiy tana a'zolarimiz tomonidan aks ettiriladi. Talabalar bilimlarni egallah paytida aniq narsalar, ob'ektlar, hodisalar, jismlarni yoki ularning ramziy tasvirlarini ko'zatish natijasida aniq tasavvur obrazlarini yaratadilar. Psixologik nuqtai nazardan ko'rgazmalilik tabiiy-predmetli, tasviriy va jonli nutqli yoki "jonli mushohada"lik turlariga ajratiladi.

O'qitishda yangi mavzu auditoriyada tajriba o'tkazish yoki ba'zi ob'ektlarga sayohat yushtirish bilan bog'liq ravishda olib boriladi. Mazkur holat materialni talaba tomonidan puxta o'zlashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Tajriba maydonlarida, jonli burchaklarda o'tkazaziladigan mashg'ulotlar ana shular qatoriga kiradi. Tasviriy ko'rgazmalilik rasmlar, mulyajlar, diapozitivlar, kinokartinalar, chizmalar, chizgilar, jadvallar, diagrammalar, kartinalar va simvolli belgilarni yordamida namoyish qilinadi. Jonli nutq ko'rgazmaliligida o'qituvchi

talabalarda aniq obrazlarni, tasavvurlarni uyg‘otadigan yorqin, qanotli iboralardan (“taraqqiyot-dunyoni larzaga keltirdi”, “kambag‘allik-kishi qaddini bukadi”) kabilardan unumli foydalanadi.

Biroq hissiy idrok qilishdan me’yorida ortiqcha foydalanish - talaba aqliy taraqqiyotini sustlashishga olib kelishi, mavhum tafakkurga salbiy ta’sir o’tkazishi mumkin. Buning natijasida mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, munozaraga kirishish rivojdan orqada qoladi. Bundan kelib chiqqan holda talabalarning ko’zatuvchanligini takomillashtirish, taraqqiy ettirish maqsadga muvofiqdir.

Ko’zatuvchanlikni talabalarda shakllantirish uchun o’qituvchi ularga aniq va muayyan maqsad qo’yishni, yaxlit narsadan bo’lak va qismlarni ajratishni, ob’ektlarni o’zar o’tqoslashni, ulardan muhim va nomuhim belgilarni ajratishni o’rgatadi. Ko’zatish yordamida o’rganilgan narsa va hodisalar talabalar tomonidan rasmlar, chizmalar, esdaliklar, mulohazalar tarzida qayd qilib boriladi. Faol maqsadga yo’naltirilgan, o’zluksiz ko’zatish zamirida ularda ko’zatuvchanlik xususiyati tarkib topadi.

Bilimlarni o’zlashtirishning muhim tomonlaridan biri-bu o’quv materialini tushunishdan iborat bo’lib, ularning o’zar bog‘liqligi, fanlararo aloqasi, muayyan sohalarga va tizimlarga taalluqlilagini anglash bosqichiga ko’tariladi. Talaba o’rganilayotgan materiallarni o’tilgan mavzular bilan murakkab ichki bog‘lanishga ega ekanligini, qonuniyat ta’rifini, sabab-oqibat munosabatlarini kelib chiqishini tushuntirish imkoniyattiga ega bo’lmog‘i zarur. Bu narsalarni oddiy idrok qilish yoki ko’zatish orqali anglab bo’lmaydi, shuning uchun fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish, ya’ni tafakkur qudrati bilan aniqlanadi.

O’quv materiallarini o’zlashtirish uchun talabalar matndagi har bir tushunchalarni anglab yetmog‘i zarur. Masalan: kitob-umumiy tushuncha, ya’ni bunda bir jinsdan bo’lgan ko’p narsa va hodisalar gavdalanadi; “Samarqand” -yakka tushuncha, chunki yakka nom haqida ma’lumot beradi; “daraxt” –aniq tushuncha, bu yerda alohida olingan bir butun narsaga aloqadorlik aks ettirilmoqda; “siyosat” - mavhum tushuncha. Hatto talaba “gulzor” so’zini tushunchalarga taalluqli ekanligini isbotlab, dalillab bermoqlari shart. Bundan tashqari, ular to’planma tushunchalar yakka “Respublika Pedagogik adabiyotlari kutubxonasi” hamda umumiyl “xulq”, “sinf”, “yoshlar” turlariga ajratilishini tushuntirib berishlari lozim.

Bilimlarni anglash va ularni mustaqil o’zlashtirish jarayonida fikr yuritish jarayonlaridan unumli foydalanmoqlari darkor. Masalan: matnni analiz va sintez qilish, taqqoslash, klassifikatsiyalash, umumlashtirish, tizimlashtirish va hokazo. Analiz narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat bo’lib, unda butunning bo’laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi. Sintez esa, aksincha, fikr ob’ekti bo’lgan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlarini fikran bir butun qilib qo’shishdir.

O’rganilayotgan narsa va hodisalardan ularning muhim belgilarni, sifat yoki xususiyatlarini fikran ajratib olib, ana shu belgi, sifat yoki xususiyatlarni mustaqil fikr ob’etiga aylantirishi, mavhumlashtirishi ayni muddaodir. Shuningdek, ular o’zlashtirilayotgan narsa va hodisalarning muhim va o’xshash belgilari ko’ra bir guruhga birlashtirishni uddasidan chiqmoqlari lozim. Bundan tashqari, talaba o’quv materiallarida uchraydigan narsa va hodisalardagi xossa, belgi, alomatlarni topish va shu umumiyl asosida ularni fikran birlashtirish, ya’ni umumlashtirish zarur.

Talaba o’zlashtirilgan bilimlari yo’zasidan mustaqil ravishda hukm chiqarish imkoniyatiga erishmoqlari kerak. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytigan fikr hukm deyiladi. Ta’limda odatda hukmlarning yakka, umumiy, ehtimollik kabi turlari ko’p qo’llaniladi. Masalan: “Alisher Navoiy - o’zbek adabiy tilining asoschisidir” (yakka hukm). “O’zbekiston fuqarolari mehnat qilish, bilim olish huquqlariga egadirlar” (umumiy hukm), “Ehtimol, quyosh tizimidagi sayyoralarining ko’plab yo’ldoshlari bordir” (ehtimollik hukm) va boshqalar. Shuningdek, ular o’qish jarayonida tez-tez “mavzularni o’z vaqtida takrorlash-puxta eslab qolishning garovi”, “mashaqqat bilan to’plangan ilm zoe ketmaydi”, “goh havo ochilib ketadi, goho uning yo’zini bulut qoplaydi” degan hukmlardan juda o’rinli foydalana boshlaydilar. Bu holat-o’qishga ongli munosabatning timsoli bo’lib hisoblanadi.

Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi bilan talaba ikki va undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qiladi. Xulosa chiqarish induktiv, deduktiv va analogiya turlariga bo’linadi. Induktiv xulosa chiqarishda fikrning yo’nalishi xususiyidan

umumiylar tomon boradi. Masalan: “birinchi bosqich talabalari shanbalikda faol ishtirok etdilar”, “Shanbalikda ikkinchi bosqich talabalari ham qatnashdilar”, “Shanbalikda magistrler ham chetda turmadilar”.

Talaba yuqoridagi hukmlardan yangi umumiylar hukm chiqaradi: Universitetimizning hamma talabalari shanbalikda faol ishtirok qildilar.

Deduktiv xulosa chiqarishda fikrning yo‘nalishi umumiylardan xususiy tomon boradi. Masalan: “Mamlakatimiz aholisi yer kurrasida tinchlik uchun kurashmoqdalar”, “Universitetimiz jamoasi ham tinchlik ishiga qo‘l qo‘yanlar”, “Fakultetimiz talabalari ham tinchlik tarafidordirlar”.

Analogiya yo‘li bilan xulosa chiqarishda fikrning yo‘nalishi xususiydan xususiy tomoniga qaratiladi. Masalan: “Havo o‘zgarib, avzoyi bo‘zilmoqda”, “O‘tgan yili ham shunday havodan keyin sovuq shamol esib, qor yoqqan edi”, “Ob-havo xuddi shunday o‘zgarib turibdi, albatta yana qor yog‘sa kerak”. Xuddi shu analogik yo‘l bilan talabalar boshqa hodisalar to‘g‘risida ham xulosa chiqarishlari mumkin. Mustaqil xulosa chiqarish o‘zlashtirilgan materiallarni tushunishdan dalolat beradi.

Shuningdek, talabalar oldida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilganda, ularning yechimini mustaqil ravishda topishlari kerak. Aytaylik, mana bunday vaziyat maydonga keldi deb: “Mustaqil bilim olish uchun talabada qanday imkoniyatlar bo‘lishi kerak?” Mazkur muammo yechimini topish uchun, birinchi navbatda, uning mohiyatini anglash, yechish yo‘llarini va vositalarini topish, yo‘l va vositalarni tatbiq qilish, yechimni tekshirish kabi murakkab faoliyatni amalga oshirish zarur. Ana shundan so‘ng talabada materiallarni o‘zlashtirishga ongli yondashish vujudga keladi.

Shuning bilan birga ular narsa va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdan (mavhum tafakkurdan), nazariy mulohaza bildirishdan (nazariy tafakkurdan) foydalanishlari kerak. Chunki, tushunchalarni anglash fikr yuritishning turli ko‘rinishlaridan mustaqil ravishda qo‘llashni taqozo etadi.

Ta’lim jarayonida anglashilgan bilimlar, egallangan ko‘nikma va malakalar talaba xotirasida saqlanadi. O‘quv materialini esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uchun xotiraning bir necha xil vositalaridan foydalaniladi. Dastlab bilimlar, axborotlar talaba ongiga assotsiativ yo‘l bilan kirib boradi. Jumladan, o‘rganilayotgan narsa va hodisalarning o‘zaro o‘xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiligi mavjud bo‘lganligi sababli ular yengilroq o‘zlashtiradilar. Ba’zan qonun va qoidalar ma’nosiga tushunmay, mexanik ravishda yod olinadi. Lekin unday materiallar esda puxta saqlanmaydi. Ana shuning uchun o‘quv materiallari mohiyatini imkoniboricha mantiqiy yo‘l bilan esda olib qolish yuksak samaralar beradi. Ayniqsa esda olib qolishning omilkor usullaridan foydalanish o‘zlashtirish sifatini oshiradi. Chunonchi, ma’nosiga ko‘ra matndagi so‘zlarni fikran guruhash, matndan tayanch nuqtalarini topish, matn bo‘yicha reja to‘zish, o‘tilgan mavzularni idrok qilgan holda yangi mavzuni takrorlash yaxshi natijalar beradi.

O‘qituvchi talabalarda esda olib qolish ustakovkalarini hosil qilishda qaysi materialni o‘zoq muddat saqlashni, qaysi turkumdagisi materialni sidirg‘asiga emas, balki mohiyatini tushunib olishni, nimalarni aynan esda olib qolishni, qanday axborotlarni o‘z so‘zi bilan ifodalagan holda xotirasiga joylashning yo‘l va vositalarini tushuntirib berishi lozim. Ustanovkalar ta’lim jarayonida ob’ektiv omil va kundalik zaruriyat ekanligini talaba anglab yetishi shart. Ulardagi oddiy ustakovkalar asta-sekin ijtimoiy ustakovkaga o‘sib o‘tib, shaxsda qadriyatni vujudga keltiradi.

Bilish jarayonining barqarorligi, mazmundorligi va tazimliligi bevosita diqqatga bog‘liq. Diqqat passiv, kuchsiz bo‘lgan vaziyatda bilish jarayoni sekinlashadi va tormozlashadi. Talabalarning diqqati o‘zoq vaqt davomida muayyan vazifaga qaratilgan taqdirdagina bilish jarayoni amalga oshadi. Diqqat faolligiga ko‘ra ixtiyorsiz, ixtiyorli, ixtiyoriyidan keyingi, ob’ektga qarab tashqi, ichki, faoliyat shakliga qarab individual, guruhiy va jamoaviy turlarga bo‘linadi.

Ixtiyorsiz diqqat ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, o‘qitishda diqqatning faqat mana shu turiga asoslanib ish tutish maqsadga muvofiq emas. Ma’lumki, o‘ta qiziqarli ma’ro’zalar talaba fikr yuritishiga, iyiinchiliklarni yengishiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun saboq berish jarayonida ko‘proq ixtiyoriy diqqatga tayanish yaxshi natija beradi,

chunki, irodaviy diqqat bilan hissiy qiziqishning birlashuvi diqqatni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, irodaviy diqqatdan o'zoq fursat foydalanish uning chalg'ishiga olib keladi. Binobarin, auditoriyada diqqatning har qaysi turidan foydalanish zarur. Ayniqsa, bu o'rinda ixtiyoriydan keyingi avtomatlashgan diqqat turi alohida ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida qiziqishning roli g'oyat muhim. Chunki qiziqishlar talabalarning o'qishga nisbatan munosabatini, o'quv predmetlarining mazmuniga ko'ra moyillik kuchini aks ettiradi. Moyillik kuchi ularda yo'zaga kelgan bilish ehtiyojlariga javob reaksiyasini bildiradi, bilishga chanqoqlik hislarini qondirish vositalarini izlab topishga yo'llanma beradi.

Oliy maktab oldidagi dolzarb vazifalardan biri – bu barcha talabalarni bilish faoliyatiga yetaklovchi, oliy maktabdan tashqari vaqtida ham izchil mazmundagi turg'un qiziqishlarni boshqarish yo'llarini ko'rsatib berishdir. O'z navbatida talaba uni qabul qilishga psixologik jihatdan tayyor turishlari kerak. qiziqishlar, odatlar, bevosita va bavosita, beqaror, keng va tor, umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. U sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishga qiziqish, turg'un qiziqish bosqichlarini bosib o'tadi. Qisqa muddatli sinchkovlikka ega bo'lgan talabalar darsda olgan bilimlarini oddiygina idrok qilish bilan kifoyalanadilar. Ularning ichki mohiyatini ochib berishga urinmaydilar. Qiziquvchanlikka ega bo'lganlar-predmet, voqeа va hodisalarini o'zaro jamlab umumiy xulosa chiqarishga harakat qiladilar. Lekin bunday harakatlarni amalga oshirish chuqur mazmunga ega emasligi namoyon bo'ladi. Bilishga qiziqish paydo bo'lgan talabalar o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishga intiladilar. Ularning intilishlari barqaror xususiyat kasb etib, narsa va hodisalar mohiyatini anglab olishga qaratilgandir. Turg'un qiziqishni egallagan talabalarga bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishdan, maqsadni aniq yoritishdan tashqari barcha narsa va hodisalarning o'zaro munosabatlarini tushuntirib berishda hamma vaqt ijodiy munosabat, ijodiy yondashish xarakterlidir. Ularda tashabbuskorlik, ijodiy izlanish, tirishqoqlik, qat'iylik kabi shaxs sifatlari mavjuddir.

Talaba qiziqishini stabillashtirish uchun fikr yuritish faoliyatining barcha ko'rinishlariga e'tibor qilish, hissiy holatini ko'zatish, auditoriyada o'z xohishicha nimalar bilan shug'ullanishini aniqlash, auditoriyadan tashqari vaqtarda nimalar bilan mashg'ul bo'lishini va bo'sh vaqtarda qanday narsa bilan band ekanligini belgilash zarur.

Oliy ta'lim jarayonida talabalarning irodaviy zo'r berishlari ularning topshiriqlarni yechishga intilishlarida, o'ziga o'zi buyruq berishida, o'zini o'zi qo'lga olishida o'z ifodasini topadi.

O'zlashtirishning samaradorligi talabalarning irodaviy zo'r berishi, ma'naviy ehtiyoji va anglashilgan o'quv motiviga bevosita bog'liq. Modomiki shunday ekan, ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish, ayrim paytda duch keladigan muvaffaqiyatsizliklar oldida dovdirab qolmasdan, balki ularni o'zini o'zi idora qilishga o'rgatish ayni muddaodir. Buning uchun ularda qiyinchiliklarni yenga olish uquvini, o'zini o'zi qo'lga olish fazilatini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Oliy maktabda talabalarni ta'limiy ish usullari, individual ishslash uslubi bilan, o'quv ko'nikmalari va malakalari bilan qurollantirish o'qitish samaradorligini oshiradi, o'zini o'zi boshqarish uquvini tarkib toptiradi, ijodiy fikr yuritish, mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan talaba muloqotini oqilona tashkil qilish, ularning individual-tipologik va yosh davr xususiyatlariga, intellektual imkoniyatlariga e'tibor berish oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**3 Mehnat faoliyati.** Insoniyat o'zining mehnati tufayli ongli mavjudodga aylangan, jamiyatda mo'l-ko'lchilikni yaratgan, tabiatda esa ayrim o'zgartirishlarni amalga oshirgan, borliq to'g'risidagi ma'lumotlarni egallashga musharraf bo'lgan. Mehnat faoliyatining tarkibida mehnat, ish-harakat yotadi. Ularning har qaysisi muayyan ulushni amalga oshirish tufayli faoliyat mahsuli vujudga keladi, u moddiy yoki ma'naviy ko'rinishda bo'lishi mumkin.


Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kasb-kor ko'nikmalarini avlodlarga o'rgatish mehnat faoliyati yordamida amalga oshiriladi. Kasbiy malakalarni shakllantirish, takomilashtirish, mahsulot yaratish va undan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish mehnat faoliyati orqali ro'yobga chiqariladi. Mehnat faoliyatida amaliy ko'nikmalar barqarorlashadi, nazariy fikr, g'oya,

mulohaza vujudga keladi. Faoliyat bilan ong birligi mavjud bo‘lganligi sababli shaxs tarkib topadi, ham axloqan, ham aqlan rivojlanadi. Mehnat faoliyati individual xususiyat kasb etsa-da, lekin uning mohiyati ijtimoiydir. Inson shaxsiy ehtiyojini qondirish uchun mehnat qiladi, u yoki bu mahsulot ishlab chiqariladi, oqibat natijada odam ijtimoiy jamiyat farovonligi uchun o‘z shaxsiy ulushini qo‘shadi.


Mehnat faoliyati yashash, ehtiyojni qondirish, kelajak uchun mo‘l-ko‘lchilik vujudga keltirish, yaratilgan mahsullarni (me‘morchilik, san‘at, madaniyat asarlarini) saqlash, asrash, meros sifatida qoldirish funksiyalarini bajaradi. Shuning uchun mehnat faoliyati o‘n minglab kasb-kor professiogrammasiga asoslangan holda turli shaklda tashkil qilinadi va muayyan reja, maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun har xil vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Mehnat maishiy va ishlab chiqarish turlariga ajratilgan holda imkoniyatga, layoqatga, qobiliyatga, salohiyatga qarab taqsimlanadi. Shuning uchun mehnat faoliyatining sodda ko‘rinishlari ilk bolalik yoshidan ko‘zga tashlanadi, bu o‘rinda dastyorlik, ko‘maklashish holatlari nazarda tutiladi. Keyinchalik yaxlit mehnat faoliyati tashkil qilinadi va muayyan maqsad amalga oshiriladi, uning mahsuli (natijasi) moddiy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

### Faoliyatning asosiy jabhalari to’zilishi:



### Faoliyat to’zilishining tasnifi



## **11-Mavzu:Shaxs**

### **REJA.**

- 1.Shaxs haqida tushuncha.
- 2.Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya.
- 3.Shaxs shakllanishi va rivojlanishi.
- 4.Shaxs nazariyalari.

## **SHAXSNING PSIHOLOGIK TA`RIFI**

**Shaxs-bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob`ekti  
ham subektidir**

A.G.Kovalyov

**Shaxs bu-faoliyat sub`ektidir**

A.N. Leontev

**Shaxs-jamiyatning o`z rolini anglovchi,  
ishga layoqatli a`zosi**

K.K.Platonov


**Shaxs-tashqi ta`sirlar yo`nalishini  
o`zgartiruvchi ichki shart-sharotlar majmuidir**

S.L.Rubinshteyn


**Shaxs-o`z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi,  
Bilishga intiluvchi faoliyat, xulq, muomala**

**sub`ektidir**

E.G` .G` oziyev



## SHAXS NAZARIYALARI



## SHAXSNING TIZIMLI TUZILISHI

**Yo`nalganlik - Ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e`tiqodlar, faoliyatning etakchi motivlri**

**Bilimlar, ko`nikmalar, malakalar**

**Individual-tipologik xususiyatlar-temperament, xarakter, qobiliyatlar**

**S.L.Rubinshteyn**

**Individ va shaxs.** Odam dunyoga odam bulib keladi. Bu ta'kid yo'zaki karagandagina isbot talab kilmaydigan xakikat bulib va takrorlanaverib siyksasi chikib ketgan **iborat** bulib tuyuladi. Gap shundaki, bu urinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarning rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bulishi genetik jixatdan oldindan belgilab kuyilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chakalokning gavda to'zilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini takozo etsa, miyasingin to'zilishi akli-xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tugdiradi, kollarining shakl-shamoyili mexnat kurollaridan foydalanish istikbolining mavjudligini kursatadi va xokazo. Bular bilan chakalok o'z imkoniyatlari yigindisiga binoan odam xar qanday xolatda xam bu xildagi fazilatlar yigindisining soxibiga aylana olmaydigan xayvon bolasidan farq qiladi. Shunday kilib, yuqorida aytilganlar orkali chakalokning inson zotiga mansubligi tasdiklanadi va faqat individ tushunchasida kayd etiladi (bundan farqli o'laroq, xayvon bolasini dunyoga kelishi bilanok va xayotning oxiiga kadar jonzot deb yuritiladi). "Individ" tushunchasida kishining nasl-nasabi xam mujassamlashgandir. Yangi tugilgan chakalokni xam, katta yoshdagи odamni xam, mutafakkirni xam, akli zaifni xam, yovvoyilik boskichidagi kabilanling vakilini xam, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini xam individ deb xisoblash mumkin.

Shunday kilib, konkret individ deb ataganda biz juda kup narsalarni aytgan bulamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilgandir. Uning bundan keyingi va xatto juda xam umumiy tarzdagi ta'rifi fazilatlarini bayon etilishi va izoxlanishini takozo qiladi. Bunday fazilatlarsiz u faqat boshqalarga uxshamaydigan emas, balki ular kabi xarakat kilmaydigan, fikrlamaydigan, izardrob xam chekmaydigan, jamiyat a'zosi sifatida, tarixiy jarayonning ishtirokchisi sifatida sosial alokalarga jalb xam etilmagan real kishi emas, balki demografik ma'lumotnomalardagi jonsiz birlik xolida qoladi, xolos. Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alovida sosial fazilat kashf etadi, shaxs bulib yetishadi. Individ xali bolaligidayok tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar sistemasiga jalb etiladi. U bu sistemani allakachon tayyor xolda uchratadi. Kishining jamiyatdagи bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarning shu kadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu xol uni shaxs sifatida shakllantiradi.

Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida xosil kilinadigan

xamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir utkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzdagi sosial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Individning aloxida sosial fazilati sifatidagi shaxsning o'zi nima? Eng avvalo, agar biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bulsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiklagan va ayni paytda bu tushunchalarning bir-biriga uxshashligini inkor etgan bulamiz (misol uchun, yoruglikni sezuvchanlik fotoplenkaning xususiyati xisoblanadi, lekin fotoplenka-bu yoruglikni sezuvchanlik, yoki yoruglikni sezuvchanlik-bu fotoplenka degan ma'noni anglatmaydi). "Shaxs va individ" tushunchalarining bir-biriga uxshashligini barcha yetakchi sovet psixologlari - B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn va boshqalar inkor etishadi.

**Shaxs individlararo munosabatlar sub'yekti**. "Individ" va "shaxs" tushunchalarining bir-biriga mos kelmasligi va aynan uxshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning xar bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, kadriyatlari va moxiyati orkali namoyon buladigan shaxslararo barkaror boglanishlar sistemasidagina anglanilishi mumkin. Bunday shaxslararo alokalar realdir, lekin ular tabiatan "gayrixissiy"dir. Ular jamoaga kiradigan odamlarning konkret individual xususiyatlari va xatti-xarakatlaridan namoyon buladi, lekin ularning sababchisi bula olmaydi. Ular xar bir individlararo alokalar sistemasida va undan kengrok mikyosda-ijtimoiy munosabatlar sistemasida egallaydigan aloxida mavkeini belgilab beradigan ana shu shaxsiy xislatlarini namoyon qiladigan gurux shaklidagi sha faoliyatning aloxida fazilatini tashkil etadi.

**Shaxs va individuallik.** Xar bir kishining shaxsi uning individualligi vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkibtopgandir. Individuallik-kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi kizikishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da kobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va xokazolarda namoyon buladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirilgan odam yuk-inson shaxsi o'z individualligi jixatidan betakrordir.

Shunday kilib individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarning faqat bitta jixati bulib xisoblanadi, xolos!

Individuallik bilan shaxsning to'zilishi urtasidagi o'zaro bog'liqlik. "Shaxs" va "individuallik" tushunchalari kanchalik darajada birlikdan iborat bulganiga karamay, bir-biriga mos kelmasligining o'zi xam shaxsning to'zilishini kishining individual-psixologik xislatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. "Shaxs" va "individuallik" tushunchalari (xuddi "individ" va "shaxs" tushunchalari singari) aynan bir-biriga uxshaydi, deb tan olinadigan va shaxsga tabiat ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida, individning sitemasi tarzidagi sosial fazilat sifatida karaladigan Garb psixologiya fanining nomarksistik yo'naliishlarida shaxs bilan individuallikning strukturasi (ya'ni to'zilishi, tashkil topishi) bir-biriga tamomila mosligi tan olinadi. Bunday psixologik maktablar va yo'naliishlarning vakillari individuallikning to'zilishi anik ta'riflab berilsa bas, bu kishining shaxsini to'laligicha o'z ichiga oladi va ta'riflab beradi, degan nuktai nazarni ilgari surishadi. Jumladan, psixologlar maxsus shaxsiy suroknomalarni kullahashi (bular sinaluvchining o'ziga, o'zining individual-shaxsiy fazilatlariga o'zi baxo berishini taklif etadigan savollardan tashkil topgan o'ziga xos anketalardir). Ulardagi javoblar mazmunini taxlil kilgan va surok natijalarini matematik amallar vositasida kayta ishlagan xolda tadkikotchi biron bir xislatning (tipning) ana shu xislatga mos keladigan darajasida namoyon bulishining sonlar bilan ifodalanadigan belgisiga ega buladi. Lekin bunday metodlr yordamida nari borsa kishining individualligi tavsiflanishini tasavvur qilish mumkin. Birok kishi jalgab etilgan ijtimoiy munosabatlarning "yaxlit birligida" shaxsni xar tomonlama tavsiflab bulmaydi.

Xakikatda esa, agar shaxs xamisha o'zining konkret sosial muxiti bilan "xakikiy munosabatlari" sub'yekti sifatida namoyon bulishi inobatga olinadigan bulsa, "shaxsning to'zilishiga konkret sosial guruxlar va jamoalar faoliyati va munosabatida tarkib topadigan ana shu "xakikiy munosabatlari" va alokalar mukarrar tarzda kiritilishi shart. Suroknomalalar esa kishining o'ziga xali shakllanib bulmagan sosial muxit sharoitidagi, "umuman mavxum muxitda"gi xolati buyicha beradigan baxosiga muljallangandir. Shaxsning individlararo real munosabatlaridan iborat jixatini suroknomalarda aks ettirib va aniklab bulmaydi. aytib utilganidek, suroknomalalar shaxsning to'zilishiga umumiylar ta'rif berish xukukiga da'vogarlik kilar ekan, aslida individuallikni tavsiflashga,

individuallik xislatlarining uning bir asosiy belgilari (omillari) atrofida tashkil bulishi prinsiplarini topishga urinishlar bilan cheklanadi. Majoziy ma'noda aytganda individual-psixologik xislatlarning keng "kolleksiyasi" yorliklar taqiladigan ("shizotimiya-siklotimiya" "introversiya-ekstroversiya", "xissiyotlilik-vazminlik" va xokazo) bir kancha "vitrinalarda" joylashtiriladi.

Jumladan, psixologiyada individuallikning kungina xislatlari-moslashuvchanlik, tajovo'zkorlik, mayillik darajasi, tashvishlanish va shular kabilalar aniklangandir. Bular jumlan individuning o'ziga xosligini kursatadi. Bu psixologik xodisalar o'z moxiyatiga kura o'zaro munosabatda bulib, oshkor yoki oshkora bulmagan xolda allaqanday muxitning mavjudligini takozo etadi. Shaxs aynan ana shunday muxitga nisbatan moslashuvchanlik, tajovo'zkorlik tashvishlanish va xokazolarni namoyon qiladi. Bordiyu, agar odamlarning individual fazilatlari bu tadkikotlarda izchil, o'zgaruvchan, rang-barang mazmunli tarzda namoyon bulsa, u xolda sosial muxit o'zgarmaydigan, shakllanmagan (amorf), mazmunsiz, "umuman muxit" sifatida tasavvur kilinadi. Sosial muxitning "shaxs-muxit"dan iborat o'zaro munosabatiga kiyosan as'ana bulib kolgan mexanistik tarzda talkin kilinishi muxitni yo faol shaxsnинг o'z kuch-gayratlarini ishga soladigan maydon sifatida, yoxud gurux tarzida shaxsga tazyik kursatuvchi kuch sifatida izoxlaydi. Shaxsnинг va uni kurshab turgan sosial muxitning o'zaro birgalikdagi xarakatining faol xususiyati tugrisidagi tasavvur garb fanida na shaxs psixologiyasining nazariy kismlari tukimalariga va na shaxsiy tadkik etishning psixologik metodlariga kiritilmagandir.

Boshqa tadkikotlarda kishi individualligining ekstrapunitivligi (o'zining xususiy muvaffakiyatsizliklari uchun aybni boshqa odamlarga agdarish mayli) kabi belgisi yaxshi jamoa a'zosining fe'l-atvoriga xos bulish-bulmasligi, ya'ni bu uning shaxsida mukarrar namoyon blish-bulmasligi aniklandi. Oldiniga shaxs testi yordamijda ekstrapunitivligi yakkol sezilib turgan sportchilar (sportning uynaladigan turlariga oid komandalarning a'zolari ular juda xam kupchilik edi) guruxi aniklanadi. Individuallikning ushbu belgisi ular uchun yetakchi xisoblanmish sport faoliyatida ularning shaxsiga oid fazilatlarni anik kursatib beradigandek tuyuladi. Xakikatda esa sportchilarning yaxshi uyushgan guruxlarida (xakikiy jamoalarda), shaxsiy test ma'lumotlariga binoan ekstrapunitiv shaxslar o'z komandasasi a'zolariga nisbatan jamoaning aynan bir xil bulib kolishiga karatilgan munosabatda bula boshlashibdi (11.6.ga karang), ya'ni shaxsnинг ektrapunitiv belgisiga tomomila karama-karshi fazilatni namoyon qilishibdi.

Shunday kilib, inson shaxsining to'zilishi individuallikning to'zilishiga karaganda keng ekanligi shubxasizdir. Shu boisdan bunga, birinchi navbatda, uning individualligini kursatadigan va faqat extirosda, ichki kiyofada, kobiliyatlarda va xokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlari va umumiyl to'zilishigina emas, balki shaxsnинг rivojlanish darajasi xai xil bulgan guruxlarda, ana shu gurux uchun yetakchi xisoblangan faoliyat orkali ifodalanadigan individulararo munosabatlarda o'zini namoyon etishni xam kushish shart.

**Shaxsnинг to'zilishdagi biologik va ijtimoiy omillar.** Inson shaxs to'zilishida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning o'zaro nisbati masalasi xozirgi zamon psixologiyasida eng murakkab va munozarali masalalarda biridir.

Psixologiyada shaxsda ikkita omil-biologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura borligini aloxida ta'kidlaydigannazariya sezilarli urin egallaydi. Inson shaxsining o'zi "endopsixik" va "ekzopsisixik" to'zilishga bulinadi, degan fikr xam ilgari murildi. Shaxs to'zilishining kichik strukturasi sifatidagi "endopsixika" bamisol kishining nerv-psixik to'zilishiga uxshash bulgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik kismlar va funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligini ifoda etadi. "Ekzopsisixika"ning tashki muxitga munosabati bilan, ya'ni shaxs qanday bulmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bulgan va shaxsga karama-karshi turadigan to'zilishlarning barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

Inson shaxsnинг individualligida uning tabiiy, biologik to'zilishi o'zining izini koldiradi, albatta. Gap shaxsning to'zilishida biologik va ijtimoiy omillarni xisobga olish kerakmi, yukligi haqida emas (ularni e'tiborga olish shart, albatta), balki ular urtasidagi o'zaro munosabatlarni qanday tushunish kerakligi haqidadir. Ikkita omil nazariyasi ijtimoiy va biologik omillarni, muxit va biologik to'zilishni, "ekzopsisixika"ni beixtiyor ravishda bir-biriga karama-karshi kuyadi. Xakikatda esa bunday tashki, o'zidan-o'zi buladigan karama-karshi kuyish samarasizdir va shaxsning to'zilishini anglab olish uchun xech bir naf keltirmaydi. Lekin shaxsning shakllanishi va to'zilishidagi tabiiylik va ijtimoiylik masalasiga boshqacha yondashish xam mumkin.

Buni buyi 80-130 santimetrdan oshmaydigan odamlar shaxsiga xos belgilarning

shakllanishini urganishga bagishlangan tadtikot misolida kurib chikamiz. Buyining pastligidan boshqa biron-bir patologik cheklanishlari bulmagan bu odamlar individualligining to'zilishida anchagina uxshash jixatdan mavjudligi aniklandi. Ularda o'ziga xos bachkana humor, muloxazasiz nekbinglik, samimiylilik, anchagina xissiy zurikishni takozo etadigan vaziyatlarga yuksak sabrbardoshlik, biron-bir darajada iymanib utirmaslik va shu kabilar ko'zatildi. Tabiiy, tarkibiy jixatlar va belgilar kishi shaxsning individualligi to'zilishida uning ijtimoiy jixatdan takozo etilgan kismlari sifatida mavjud buladi. Tabiiy (anatomik, fiziologik va boshqa fazilatlar) va ijtimoiy xislatlar birlikni tashkil toptiradi va shaxsning mustakil kichik to'zilishi sifatida bir-biriga o'zidan-o'zi karama-karshi kuyilishi mumkin emas.

**Shaxs to'zilishining uch tarkibiy qismi.** Shunday kilib, shaxsning to'zilishiga, birinchi navbatda, uning individuallagini kishi extirosining, ichki kiyofasining, kobiliyathalarining to'zilishida mujassamlashgan, shaxs psixologiyasini anglab yetish uchun zarur, lekin yetarli bulmagan sistemali tarzda to'zilish kiradi. Shu tarika shaxs to'zilishining birinchi tarkibiy kismi-uning individ ichkarisidagi (interindivid) kichik sistemasi aloxida namoyon buladi.

Shaxs o'zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruxlar bilan xakikiy munosabatlar sistemasida sub'yekt bulib, individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yopik bushlikdagina joylashgan bulishi mumkin emas, balki u o'zini individlararo munosabatlar bushligida namoyon qiladi. Individ o'z xolicha emas, balki shaxslararo birgalikdagi xarakatning xech bulmaganda ikkita individ (amalda birlik, gurux, jamoa) jalb etiladigan jarayonlari ana shu o'zaro birgalikdagi xarakat ishtirokchilaridan xar birining shaxsi namoyon bulishi sifatida talkin kilinishi mumkin.

Intraindivid va interindivid kichik sistemalari shaxsning o'zini namoyon qilishining barcha jixatlarini aks ettira olmaydi. Shaxsning to'zilishini tarkib toptiradigan uchinchi bir kismni - metaindivid (individning ustki kurinishi) kichik to'zilishini xam aloxida kursatish imkoniyati mavjuddir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashkariga chikarilib kolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan "shu yerda va endilikda" mavjud bulgan alokalaridan xam tashkarida joylashtiriladi. Bunday xolda sub'yektning o'z faoliyati yordamida bilib yo bilmasdan boshqa kishilarga utkazadigan "jamgarmalari" psixologning dikkat markazida buladi. Bu bilan individ shaxs sifatida o'zi bilan u yoki bu darajada bog'liq odamlarning akliy va xissiy-irodaviy jixatlarida faol tarzda xosil kilinadigan tub o'zgarishlar sub'yekti bulib xizmat qiladi. Gap sub'yektning boshqa individlarga ta'sir utkazishi chogidagina emas, balki bevosita bir laxzali o'zaro birgalikda xarakat qilish chegaralaridan tashkarida xam o'zligini boshqalarda o'ziga xos davom ettirishdek faol jarayon haqida bormokda. Sub'yektning o'zligini boshqa individda davom ettirishdan, boshqa kishilarga utkazilgan "jamgarmalar" xisobiga o'zining shaxs sifatida boshqalar "kungildagidek" urnashib kolishni ta'minlashdan iborat bulgan bu jarayon ayersonalizasiya (personajlashtirish) degan nom olgандир.

Shunday kilib, inson shaxsning to'zilishi uchta tarkibiy kismidan, uchta kichik sistemadan iboratdir: shaxsning individualligi, uning shaxslararo munosabatlar sistemasida va boshqa odamlarda gavdalanganligi xamda shaxsning o'zi kelib chikishiga kura individlararo, ijtimoiy alokalar va munosabatlar sub'yekti sifatida mavjud bulishiga barcha, uchala jixatning birligida ta'riflangan bulishi shart.

Shaxsni uning barcha uchala kichik to'zilishi jixatidan taxlil etishning birligini uning obrue'tiborligi kabi muxim ta'rifi misolida kurib chikamiz.

Obru-e'tibor individlararo munosabatlar sistemasida tarkib topadi va guruxning rivojlanish darajasiga bog'liq xolda bir xil jamoalarda kat'iy avtoritarizm, kuchlining xukuki tan olinish sifatida afzalligiga kura "xokimiyat obru-e'tibori" sifatida namoyon bulsa, boshqalarida, ya'ni yuksak darajada uyushgan guruxlarda esa "obru-e'tiborning" demokratik "xokimiyati" sifatida yo'zaga chikadi. Bunda shaxsiy xususiyatlar guruxga xos xususiyat, guruxning xususiyatlari esa shaxs xos xususiyatlar sifatida (shaxsning interindivid kichik sistemasi) xizmat qiladi. Shaxsning metaindivid kichik sistemasi doirasidagi obru-e'tiborlilik-bu individlarning axamiyatga molik xolatlarda o'zları uchun axamiyatli karorlar kabil kila olish xukukining boshqalar tomonidan tan olinishi, u o'z faoliyati bilan kushgan xissaning shaxsga tegishli faoliyatlar natijasidir. Yaxshi rivojlanmagan guruxlarda bu uning a'zolari moslashuvchanligining natijasi bulsa, jamoa tusidagi guruxlarda jamoaning o'zini o'zi belgilashi samarasini xisoblanadi. Shunday kilib, jamoadagi obru-e'tiborlilik-bu sub'yektning avvalo boshqalarda (ba'zida u o'z obru-e'tiborining kay darajada ekanligini bilmasligi xam mumkin) va faqat shu munosabat bilan sub'yektning o'zida yuksak darajada

gavdalanganligi demakdir. Nixoyat, shaxsning individ ichidagi "bushligi"da-sub'yeqtning psixologik fazilatlari kompleksidir: birinchi xolda o'zboshimchaligi, kattikkulligi, o'ziga ortikcha bino kuyishi, tankidni yoktirmasligi bulsa, boshqa xollarda-prinsipialligi, bexad akilliligi, xayrixoxligi, me'yorida talabchanligi (shaxsning interaindivid kichik sistemasi) va xokazolar.

Shaxsning metaindivid kichik sistemasi kishining eng muxim ma'naviy extiyojlaridan birlashxs darajasiga kutarilish extiyojini, ya'ni o'z faoliyati bilan boshqa odamlarning akliy va xissiy jabxalarida ular uchun axamiyatga ega bulgan o'zgarishlar yashashiniboshqalardan kuproq darajada ifoda etadi. Bunday extijoq sub'yeqt tomonidan anglanilgan yoki anglanilmagan bulishi mumkin, bir kishida u ancha terok,boshqa birovida esa sekinrok bulishi, uning ruyobga chikarilishi boshqa odamlar uchun ijobjiy yoki salbiy okibatlar keltrishi mumkin, nixoyat, bir kishida bu extiyojlarni kondirish uchun vositalar mavjud bulishi (yuksak darajada bilimdonligi, yoxud xissiy olimining boyligi, yoxud turli xildagi kuplab mamlakatlarga egalik, yoxud bexad mardligi va kat'iyligi, yoxud ana shu fazilatlarning xajmi evaziga) mumkin, boshqasida esa bunday vositalar ancha cheklangan buladi.

*Shaxsning faolligi va uning xayotiy pozitsiyasi.* Kishining tevarak-atrofda munosabat, birlgalikda faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon buladigan ijtimoiy axamiyatga molik o'zgarishlar qilish layokati shaxsning faolligi sifatida tushuniladi. Shaxs faolligini ancha umumiylar tarzdagi, birikma xolidagi ta'rifi uning goyaviy prinsipialligida, o'z nuktai nazarini izchil ximoya kila borishida, so'zi bilan ishining birligida ifodalananadigan faol xayotiy pozisiyasining bildiradi. Jamiyatda faol xayotiy pozisiya ijtimoiy burchga nisbatan ongli munosabatda bulishni, grajdanchilikni, jamoachilikni, faoliyatga nisbatan ijodiy munosabatda bulishni, ilmiy dunyokarashga tayanadigan e'tiqodni, ijtimoiy-axlokiy koidalarning bo'zilishiga murosasizlikni takozo etadi.

Ijtimoiy foydali faoliyatda me'yordan ortikcha deb atalmish faollik kishilarga xos faol xayotiy pozisiya turishning eng muxim kurinishlaridan biri xisoblanadi. Me'yordan ortikcha faollik-shaxs faolligining xali birinchi kommunistik shanbalik uchun va keyinchalik mexnat zarbdorlari uchun, staxanovchilik xarakati, kommunistik mexnat brigadalari va shu kabilarga xos xolda namoyon bulishining sosialistik jamiyatda ruy beradigan turidar. Me'yordan ortikcha faolik muayyan shaxs uchun kat'ian majburiy bulmagan, lekin sosialistik jamiyatning oliy maksadlariga va kadriyatlariga mos keladigan faoliyat kursatilishini takozo etadi. Xech kim ishchiga mexnat xukuki tartib-koidalariga binoan o'zining kunlik topshirigidan oshirib yuborish, kelgusi yil xisobiga ishlash,faqt o'z normasini emas, balki sexda o'zi bilan birga ishlagan va Vatani ximoya qilish chogida mardlarcha xalok bulgan urtodingin normasining xam bajarish, o'z jamgarmalarining Tinchlik fondiga, yodgorlik umatish uchun xadya qilish kabi talablami kuymaydi. Bulaming xammasi me'yordan ortikcha faollik tufayli yo'z beradi. Shaxs me'yordan ortikcha faollik kursatgan xolda o'zining ijtimoiy orzu-istaklari sari olga kadam tashlaydi. Shu asnoda pedagog me'yordan ortikcha faollikni uning xujakursin uchun namoyish kilinadigan turidan farqlay bilishi kerak. O'zi uchun majburiy bulgan, ya'ni koida tarzdagi faollik ukishda, mexnat tayyorgarligi va xokazo yetarli darajada faollik kursatmasdan, ba'zi xollarda xammaning ko'z ungida "me'yordan ortikcha" faolligi haqida tasavvur xosil qilish uchun urinadi. Jumladan, u devoriy gazeta chikarishni o'z zimmasiga olayotib, extimol, bu bilan o'zining butun kollektivga malum bulib kolayotgan faoliyatsizligini yashirishga uringan bulishi xam mumkin. Me'yordan ortikcha faollik me'yordagi (normativ) faollikkdan xoli va undan tashkarida yo'z berishi mumkin emas.

Shaxsning moslashuvchanlikka xam, xulk atvorning salbiy (nokonformlligi) turiga xam zid bulgan jamoa tarzida o'zini-o'zi belgilashi xam uning faol xayotini pozisiyasidan dalolat beradi.

Yosh yigit va kizlarda faol xayotiy pozisiyaning shakllantirish axlokiy tarbiyaning eng muxim vazifalaridan biridir.

Shaxs va uning faolligi tugrisidagi garb nazariyalarining tankidiy taxlili. Xozirgi paytda garb psixologiyasida shaxsni tadkik qilish va tushunish borasida "insonparvarlik psixologiyasi" deb atalmish psixologiya vakillarining psichoanalitik nazariyalari va karashlari (shaxsning ekzistensialist nazariyalari) eng nufo'zli yo'nalishlar bulib xisoblanadi.

Asrimiz boshlaridayok venalik psixiatr va psixolog Z.Freyd kishi shaxsi faolligi manbai va xarakterining o'zicha talkinini tavsiya kilgan edi. Uning kupchilik izdoshlari tomonidan ma'kullangan nuktai nazariga kura, kishi unda xayvonot dunyosiga mansub ajdodlaridan meros kilib olgan instinkтив mayllar va, eng avvalo, jinsiy instinkt va o'zini ximoya qilish instinkti mavjud bulganligi tufayli faoldir. O'zini xayvonot olamida bulgani kabi namoyon kila olmaydi, negaki, jamiyat kishini kuplab cheklashlar turiga urab tashlaydi, uning instinktlari va mayillari "senzura"ga rubaru qiladi, bu esa kishini ularni cheklashga, tayilishga majbur etadi. Instinkтив mayllar shu

tarika shaxsning anglanilgan xayotidan sharmandali bulgan, man etilgan va obru-e'tiborga putur yetkazadigan xodisalar sifatida chikarib tashlanadi va anglanilgan soxasiga aylanadi, "yashirin yashay boshlaydi", lekin yukolib ketmaydi. Ular o'zining xarakatlanuvchi kuchini, o'z faolilgini saklab kolgan xolda anglanilganlik soxasida sekin-asta kishilik madaniyatining turli shakllari va inson faoliyati maxsuli tusiga kirib (kismlarga ajratgan xolda) shaxsning xulk-atvorini yo'naltirishni davom ettiraveradi. Anglanilganlik soxasida instinctiv mayllar o'zining kelib chikishiga bog'liq xolda turlicha "kosplekslar"ga birlashadi, bu esa, Freydning va freydchilarining ta'kidlashlaricha, shaxs faolligining xakikiy sababi bulib xisoblanadi.

Freydning shaxs faolligi haqidagi konsepsiysi (barcha xatolariga karamay, uning yutugi anglanilmaganlik va moyilliklar jabxasiga e'tiborni jalg etganligida edi)ni xatto bolaning shavoniy istaklari va kurkinchlari haqida xech narsaga asoslanmagan xayoli uydirmalarini bir chekkaga surib kuygan xolda dikkat bilan karab chiqilishi bu yerda faollikning o'zi xam biologik tabiiy kuch deb tushunilayotganini paykab olish imkonini beradi. U xayvonlar instinctiga uxshash, ya'ni o'zining barcha ulchovlariga, "sublimasiya"lari ("kismlarga ajratilishi") va unga karama-karshi kuyilgan jamiyat bilan mojarolari bulgani xolda usha xayvonlar istinkti singari anglanilmagan buladi. Bunda jamiyatning vazifasi mayllarni seklashda va "senzura" ostiga olishdan iborat bulib qoladi. Shaxs va uning faolligini bunday tarzda talkin qilish shaxsning ijtimoiy mavjudot emas, balki biologik jonzot ekanligi haqidagi baxoni keltirib chikaradi. Bunda inson va jamiyat bir-birlariga prinsipial jixatdan yotdir va ularning "uygun tarzda" munosabat urnatishlari faqat birinchi ikkinchisining kuchi bilan bostirilgan takdirdagina, birining ikkinchisi ustidan abadiy zurligi bulgandagina, anglanilgan jabxaning isyon kutarishi, tajovo'zga yo'z tutishi, ichki a'zolarning kasallanishi va xokazolar doimiy xavf solayotgan takdirdagina mumkin deb faraz kilinadi.

Freydning shaxs faolligini butunlayicha faqat shaxvoniy xirsga bog'liq kilib kuyishga intilishi markscha yo'nalishda bulmagan psixologiyaning xam kupchiligidagi e'tiroz tugdirdi. Bu xol klassik freydizmning va undan muayyan chekinishlarning birikuvidan iborat xususiyatga ega bulgan neofreydizm (A.Kardiner, E.From, K.Xorni va boshqalar)ning kelib chikish sabablaridan biri bulgan edi. Neofreydchilar shaxsning faolligini tushunish borasida shaxvoniy mayllarning ustunligi fikridan voz kechishadi va insonning biologik mavjudotligidan chetga chikishadi. Shaxsning muxitga bog'liqligi birinchi uringa kuyiladi. Bunda shaxs guyo uni beixtiyor belgilaydigan ijtimoiy muxitning shunchaki oddiy tasviri sifatida namoyon buladi. Muxit shaxsga o'zining eng muxim xususiyatlari aksini singdiradi. Ular ana shu shaxs faolilginin kurinishlariga aylanadi. Masalan, qanday bulmasin mexr kuyishlariga va ma'kullashlariga muvaffak bulish uchun intilish, xokimiyatning, obru-e'tiborning va soxiblikning orkasidan kuvish, obru-e'tiborli odamlar guruxining fikriga buysunishga va kabul qilishga intilish, jamiyatdan o'zini olib kochish ana shunday kurinishlardir. Bu konsepsiyalarda xam shaxsning faolligi xakikatga tugri kelmaydigan fikriligicha qoladi.

Shaxsni va uning faolligini tushunish borasida garb psixologiyasi (asosan amerikaparast psixologiya)ning boshqa bir nazariy yo'nalishi "insonparvarlik psixologiyasi" birinchi karashda psixoanalitik yo'nalishga nimasi bilandir zid bulib kurinadi. Lekin keyinchalik ular o'zlarining asosiy ta'riflariga kura bir-birlariga yakinlashib ketgani anik-ravshan bulib qoladi. Faollikning manbaini kashf etishga urinarkan, utmishga bolaning "anglanilmagan xolatga surib chikarilgan" taassurotlari va kechinmalariga murojat qiladigan psixanalitiklardan farqli o'laroq rivojlanishi K.Rodgers, A.Maslou, G.Olport va boshqalarning ilmiy ishlari bilag bog'liq bulgan "insonparvarlik psixologiyasi" kelajakka, o'zligini eng kup darajada namoyon qilishga (o'zini faollishtirishga) intilishni shaxs faolligining asosiy omili deb xisoblaydi.

Maslou, Rodgers va "insonparvarlik psixologiyasi"ning boshqa vakillari o'zini faollashtirishni o'z moxiyati e'tibori bilan egosentrik (o'zini xammadan ustun kuyish) jarayonga aylantirib yuborishadi. O'zligini faollashtirish, A.Maslouning fikricha, o'zini va faqat o'zini ruyobga chikarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va "xususiy Men"ini to'lakonli namoyon qilish uchun intilish kabi fazilatlarga ega bulgan "o'zini faollashtiruvchi shaxslar"ning (A.Maslouning fikricha, ularning soni unchalik kup emas-1 prosent atrofida buladi) uta individualligi haqida dalolat beradi. Xakikatda esa agar o'zligini faollashtiruvchi shaxsni o'z xattixaarakatlari va ishlari bilan o'zini ijtimoiy jixatdan shart kilib kuyilgan alokalar orkali boglangan boshqa odamlarning xissiy va akliy jixatlaridagi o'zgarishlarni ta'minlovchi sifatida personajlashuvini amalga oshiradigan faoliyat va munosabat sub'yekti tarzida tushuniladigan bulsa,

u xolda A.Maslou va boshqalar tomonidan e'lon kilingan o'zini faollashtirish uydirmaligidan nari utmaydi. Xaykalni yasayotgan xaykaltarosh marmarda o'z rejasini mujassamlashtirishdek ijodiy intilishini ruyobga chikaradi va avvalom bor usha intilishning o'zini anglab yetgan buladi. Shaxsning A Maslou konsepsiyasiga uxshash tarzda "o'zligini namoyon etishi" va "o'zini faollashtirish" kabi xar xil nazariyalar aynan ana shu momentni ushlab oladi va shu bilan uralashib qoladi. Bu xolda san'atkor nima uchun o'z ijodining maxsulini loji boricha kuprok odamlarga va, ayniqsa, o'zicha "kadriga yetmaganlar" deb xisoblaydiganlarga, ya'ni o'zining referent guruxiga namoyish qilishga intiladi? Shunchaki o'zligini namoyon qilish, buyumda ruyobga chikarish, nixoyat buning uchun pul olish bilan o'zining faollashtirish xam tugallaganday bulib tuyuladi. Shubxasiz, ijodiy faoliyat sub'yekt-ob'yekt (rassom-kartina) ishi bilan tugallanmaydi va maksad rassomning o'zi "boshqalar" xisoblaydiganlar uchun axamiyatlari bulgan mukarrar personajlashuvini amalga oshirish imkonini beradigan sub'yekt-ob'yekt-sub'yektga oid boglani (rassom-kartina-tomoshabin)ning navbatdagi bugini xosil kilinmagunga kadar ruyobga chikmagan bulib qoladi.

Dunyoni odamlarning o'zlari o'zgartirishadi, lekin buni ongli ravishda amalga oshirish uchun dastavval uni o'zgartirishda, uni kurishda ishtirot etishga yo'naltirishgan bulish kerakka, bu ish jarayonida shaxsning o'zi xam o'zgaradi. Yukoridakursatib utilganidek, sovet psixologiyasi markscha-lenencha nazariyaga tayangan xolda kishi o'z faolligini faoliyat jarayonida va, eng avvalo, birgalikda faoliyat jarayonida namoyon qilishi tugrisidagi koidani kabul qiladi.

**Shaxs faoliyati motivlari.** Sobiq sovet psixologiyasida inson xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan motivlar chuqur va yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Ularning psixologik mexanizmlari, o'zlusizligini ta'minlovchi omillar, zarur shart-sharoitlar mohiyati, vujudga kelish imkoniyatlari to'g'risida juda yo'zaki ma'lumotlarga muayyan darajada tartibga keltirilgan, tub ma'nodagi motivlar tabiatini izchil ravishda, pedagogik va yosh psixologiyasi fanlari qonuniyatlariga asoslangan holda tadqiq qilinmagan. Bu esa respublikamizda ularning keng ko'lamma o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab-oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar to'zilishini yuksak darajada rivojlangan tizim sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv esa o'z navbatida materiya rivojlanishining oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Chunonchi, maqsadga yo'naltirilgan va maqsadga muvofiqlashtirilgan har xil mazmundagi savollar, axborotlar, ma'lumotlar, xabarlar kishilar faoliyatining ongli xususiyati ta'kidlab o'tilgan mulohazalar mohiyati tarkibiga kiradi. Motivlar to'zilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish-inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, reguliyativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yo'zaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafosat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televidenie va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal va stress holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasini uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi. L insonlarning faolligi va ularning faolligi manbai hisoblanmish insoniy ehtiyojlar tubdan boshqacha manzaraga ega bo'lib, biologik shartlanganlikdan tashqari, moddiy va ma'naviy ko'rinishlardan iboratdir. Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma malaka, odat, ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishish, ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tabiat tomonidan vujudga keltirilgan jism, narsa, buyum inson uchun biologik ehtiyojni qondiruvchi o'lja ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi. Odam boshqa mavjudodlardan farqli o'laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruriyat talabiga binoan tubdan qayta o'zgartirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Xuddi shu boisdan odamning o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy tarixiy taraqqiyot darajasi bilan o'lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ma'lum rejaga asoslangan ijodiy ko'rinishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

«Insoniyatga xos bo‘lgan ehtiyojlarning mazmuni, shakli va qondirilishi» usuli ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida rivojlanib, o‘zgarib va takomillashib boradi. Hozirgi zamon kishisining ehtiyojlari va ularning qondirilishi ajdodlarnikidan ham, avlodlarnikidan ham tubdan farqlanadi, lekin etnopsixologik xususiyatlar ta’siri o‘z ahamiyatini yetarli darajada yo‘qotmaydi. Shaxsning ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirish uni komil inson sifatida kamol toptirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblansa-da, lekin bu uning ustuvor ekanligini bildirmaydi, chunki boshqa ta’sirchan omillar ham mayjuddir. Kamolotga erishishning muhim shart-sharoiti hisoblanlmish mehnat insonning ehtiyojiga aylanmasa, u o‘z ehtiyojlarining yengil, oson yo‘llar bilan qondirishga harakat qilsa, inqirozga uchraydi. Yengil yo‘l bilan o‘z ehtiyojlarini qondirish ijtimoiy qonun va qoidalarga zid xulq-atvor manbaiga aylanishiga, jinoiy xatti-harakat kelib chiqishiga, tekinxo‘rlik illatining namoyon bo‘lishiga zamin hozirlaydi.

Huquqiy, demokratik jamiyat kishisi shaxsini shakllantirishga nisbatan qo‘yilayotgan eng muhim talablardan biri-unda mehnat qilish ehtiyojini, mehnatdan faxrlanish tuyg‘usini va undan lazzatlanish hissini tarkib toptirishdan iboratdir. Mehnatga nisbatan ehtiyojning vujudga kelishi sanoatda va qishloq ho‘jaligida ishlab chiqarishni rivojlanterish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, mehnat faoliyati umumidorligini oshirish, ish vaqtidan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi va faqat mehnatdagina o‘z imkoniyatini namoyon etuvchi, bonyodkor, vatanparvar, fidoiy shaxslarni shakllantiradi. Kishilarning iqtisodiy ehtiyojlarini qondiruvchi, ba’zan og‘ir va zerikarli tuyulgan mehnat turi vatanparvar, komil insonlikka intiluvchi shaxs uchun quvonch, qoniqish, hatto rohat-farog‘at his-tuyg‘ularining manbaiga aylanishi mumkin.

**Shaxsning yo‘naltirilganligi.** Agar biz kishi nima uchun faollashib kolayotgani haqidagi masalani xal etayotib, nimagadir yoki kimgadir, zarurat mavjudligi xolatini ifodalaydigan extiyojning faollikka olib boradigan moxiyatini taxlil kilar ekanmiz, u xolda bunday faolli nimalar evaziga yo‘z berishini aniklash uchun uning yo‘nalishi nima bilan belgilanishini, bu faollik kayokka va nimaga karatilganligini taxlil kilib chikamiz.

Shaxsning faoliyatini yo‘naltirib turadigan va mayjud vaziyatlarga nisbatan bog‘liq bulmagan barkaror motivlar majmui kishi shaxsining yo‘naltirilganligi deb ataladi.

O‘quvchining xulk-atvorini yaxlit xolda karab chikkan va uning psixologiyasini taxlil etgan xolda uning barkaror mayllarini aniklash lozim. Faqat shunday kilgan takdirda uspirinning muayyan xatti-xarakatni tasodifan yoki konuniy tarzda kilgani haqida xulosa chikarish, uning takrorlanish extimolini oldindan kura bilish, shaxsning xislatlaridan biri paydo bulishining oldini olish va boshqalarining rivojlanishini ragbatlantirish mumkin buladi.

Motivlar oz yo kup darajada anglangan bulishi yoki umuman anglanilmagan bulishi xam mumkin.

Shaxsning yo‘naltirilganligida anglangan motivlar asosiy rol uynaydi. Kishi extiyoj ob‘yektini maksad deb anglagn xolda o‘zining shaxsiy maksadlarini o‘zi kirgan jamoaning maksadlari bilan boglaydi va o‘z maksadlarini tegishli ravishda o‘zgartiradi, mazmunga to‘zatishlar kiritadi, yoxud jamoaning, jamiyatning maksadlariga mos kelmay kolgan takdirda ularning nikoblaydi.

Istikboli anglaydigan kishiga xos ta‘bi xiralik, kechinmalarga karama-karshi o‘laroq ruxsizlik xolati frustrasiya deb ataladi. Bu kishi maksadiga erishish yulida real tarzda bartaraf etib bulmaydi deb xisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan tuskinliklarga, govlarga duch kelgan xollarda yo‘z beradi.

**Qiziqishlar.** Qiziqish-biron bir soxada tugri muljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, vokelikni ancha to‘la va chukur aks ettirishga yordam beradigan motivdir. Individ uchun kizikish, sub‘yektiv tarzda olinganda, bilish jarayoni tusini kashf etadigan ijobiy xissiy oxangda, ob‘yekt bilan chukurrok tanishishga, u xakda kuprok bilish, uni anglab yetishga bulgan istakda namoyon buladi.

Qiziqishning faoliyat farayonlaridagi roli benixoya kattadir. Qiziqishlar shaxsni o‘zida bilim olish va anglab yetish borasida xosil bulgan ishtiyokni kondirish yullarini va usullarini faol tarzda izlashga majbur etadi. Shaxsning yo‘naltirilganligini ifodalaydigan kizikishning kondirilishi, odamda, uning sunishiga olib kelmaydi, aksincha, uni kayta kurgan, boyitgan va chukurlashtirilgan

xolda biolish faoliyatining yanada yuksak darajasigamos keladigan yangi qiziqishlarni keltirib chikaradi.

Shunday kilib, kizikishlar bilishning doimiy ko'zgatuvchi mexanizmi sifatida namoyon buladi.

Qiziqishlar mazmuniga, maksadlariga, mikyosi va barkarorligiga kura tasnif kilinishi mumkin.

Qiziqishlarning mazmun jixatidan farqi bilan extiyojlarini ob'yektlarini va ularning mazkur faoliyat maksadlari uchun va, kengrok kilib olganda, shaxs mansub bulgan jamiyat uchun real axamiyatini kursatadi. Kishida kuprok nimaga kizikish paydo bulishi va uning bilish extiyojlar ob'yektining ijtimoiy kimmati psixologik jixatdan muxim axamiyatga ega. Maktabning eng muxim vazifalaridan biri-usmirlik yoki yoshlarning faol bilish va mexnat faoliyatiga ragbatlantiradigan va maktabdan tashkarida xam saklanib kolishi mumkin bulgan jiddiy va sermazmun kizikishlarini uygotishdan iboratdir.

Qiziqishlarning maksad jixatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon buladigan qiziqishlarning borligini aniklaydi. Bilvosita qiziqishlar axamiyatga molik ob'yektning xissiy jixatdan jozibaliligi tufayli yo'zaga keladi. ("Buni bilish, kurish, anglab yetish men uchun kizikarli"-deydi kishi.) Bilvosita kizikishlar biron bir narsa (masalan, ta'lim olish)ning real ijtimoiy axamiyati bilan uning shaxs uchun subektiv axamiyati bir-biriga mos kelgan. (Bunday xolda kishi: "Bu meni kiziktirgani uchun xam kizikarlidir!"-deydi) takdirda paydo buladi Mexnat va ukish faoliyatida xamma odam xam bevosita xissiy jozibaga ega bulavermaydi. Shuning uchun xam mexnat jarayonini ongli tashkil etishda yetakchi rol uynaydigan bilvosita kizikishlarni tarkib toptirish muximdir.

Qiziqishlar o'zining kengligi buyicha xam farq qiladi. Bir xil odamlarda qiziqishlar bir soaga karatilgan bulishm mumkin, boshqalarda esa barkaror aamiyatga ega bulgan kuplab ob'yektlarga bulingan buladi. Qiziqishlarning tarkokligi kupincha shaxsning salbiy xislati sifatida yo'zaga keladi, lekin ayni chogda qiziqishlarning keng mikyoslilagini kamchilik tarikasida talkin qilish notugri bulur edi. Shaxsning kungildagidek rivojlanishi, ko'zatishlar kursatganidek, kizikishlar mikyosini tor emas, aksincha keng bulishini takozo etadi.

Qiziqishlar barkarorligi darajasiga kura xam xar xil bulishi mumkin. Qiziqishning barkarorligi uning nisbatan jadal tarzda namoyon bulishi o'zok davom etishi bilan ifodalanadi. Shaxsning asosiy extiyojlarini eng kuprok darajada namoyon qiladigan va shu boisdan xam uning psixologik to'zilishiga xos xislatlarga aylanib qoladigan kizikishlari barkaror xisoblanadi. Barkaror kizikish kabi kobiliyatları uygonishining bir kurinishi bulib, shu jixatdan xam muayyan darajada muxim kimmata egadir.

Qiziqishlar-shaxs faoliyatini asoslashning birdan-yuir emas, lekin muxim jixatidir. Xulk-atvorning muxim motivlaridan biri e'tiqoddir.

**Shaxsning e'tiqodi va dunyoqarashi.** E'tiqod-shaxsni o'z karashlariga, prinsiplariga, dunyokarashiga muvofik tarzda ish kurishga da'vat etadigan motivlar sistemasidir. 'tikod shaklida namoyon buladigan extiyojlarini mazmuni-bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam tugrisidagi bilimlar va ularning muayyan tarzdagi tushunilishi demakdir. Bu bilimlar nuktai nazarlar (falsafiy, estetik, axlokiy, tabiiy-ilmiy va xokazolar)ning tartibga solingan va ichki uyushgan sistemasini tashkil etgan takdirda kishining dunyokarashi sifatida talkin kilinishi mumkin.

E'tiqodlarning evolyusiyasi eng avvalo ularning mazmunli tomonlariga taalluklidir. Ularda shaxsning dunyokarashini ifoda etadigan xislatlar kuprok darajada namoyon bula boshlaydi. Kishining fikrlari va goyalari, prinsiplari uning butun xayoti mazmuni bilan, uning o'zlashtirgan bilimlari bilan belgilanadi, uning karashlari sistemasiga zarur tarkibiy kism sifatida kirgan buladi, kishi uchun aloxida shaxsiy moxiyat kasb etadi va shuning uchun xam u bu fikrlar v prinsiplarni karor toptirishga, ularni ximoya qilishga, ularni boshqa odamlar xam ma'kul kurishlariga erishish uchun kat'yan extiyoj sezadi.

**Shaxsning yo'l-yo'riqlari.** psixologiyada shaxsning yo'l-yo'riqlari uning u yoki bu extiyoji kondirilishiga yordam berishi mumkin bulgan faoliyatga tayyorligining, moyilligining o'zi tomionidan anglanilmaydigan xolatini belgilaydi. Yo'l-yo'riq ob'yektni aynan muayyan tarzda idrok etish, tushunib yetish va anglab olish yoki u bilan ish kurishga utmishdagi tajribada shallangan shaylik va moyillikdan iboratdir. D.N.O'zdanzo va uning xodimlari utkazgan ajoyib tadkikotlar shaxs xulk-atvoring belgilaydigan kayd etган yo'l-yo'riqlarning shakllanish jarayonini kursatib berdi.

Masalan birinchi sinf o'quvchilarining muallimaga nisbatan uning xar qanday kursatmasini bajarishga shayligi shaklida namoyon buladigan yo'l-yo'riqlar ana shundaydir. Bunda muallimaning xar qanday xatti-

xarakatlari, shu jumladan, biron bir boshqa kishida namoyon bulganida bolalarning karshi xarakatini ko'zgatishi mumkin bulgan xatti-xarakatlariga nisbatan xam xech qanday tankidiy yondashish bulmaydi.

Kupgina yo'l-yo'riqlarning moxiyatini tashkil etadigan noxolislik yo kishining shaxsiy tajribasidagi ba'zi faktlardan shoshilinch va yetarli darajada asoslanmagan xulosalar chikarilishini okibati xisoblanadi, yoxud bu tafakkur stereotiplarining- muayyan ijtimoiy guruxda kabul kilingan standartlashtirilgan muloxazalarning natijasi buladi.

Ijtimoiy xayotning turli faktlari (xodisalar, odamlar va boshqalar)ga nisbatan yo'l-yo'riqlar ijobiy bulishi xam (vrachning barcha kursatmalarini bajonidil va anik bajaradigan bemor umuman tibbiyotga va kolaversa, uni davolayotgan doktorga nisbatan ijobiy munosabatga asoslanadigan yo'l-yo'riqka amal qiladi) va notugri tushuncha tusini olgan xolda salbiy bulishi xam mumkin.

Komil inson muammosi insoniyatning azaliy ezgu niyati bo'lib, ijtimoiy —tarixiy taraqqiyot davrining barcha bosqichlarida o'zining birlamchiligi, o'ta dolzarbli bilan alohida ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahamiyat kasb etib kelgan. Ma'naviy merosimiz bo'lmish "Avesto"dan boshlab komillik masalasi tadqiqot predmetiga aylangan va bu narsa to hozirgi davrgacha kishilik dunyosining serqirra olimlari, ma'rifatparvarlarini chuqur qiziqtirib kelgan hamda uning betakror nufo'zi bundan keyin ham asrlar osha shaxslar aql — zakovatining markazidan puxta joy egallaganicha qolaveradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tabiat bilan jamiyat o'rtasida hukm surib turuvchi aloqalar va munosabatlarni amalga oshiruvchi, uning (tabiatning) ne'matlarini tartibga keltirishda faol ishtirok etuvchi ongli mag'pyp zot hamda olamning sirlari, ajoyibotlarini tushunishga intiluvchi keng saviyali, yuksak darajaga erishuvchi, betakror komil inson masalasi har bir davr uchun o'ta ahamiyatli, qiymatli hisoblangan. Ma'naviyat va ma'rifat masalasi davlat siyosatining diqqat markazida turganligi tarixiylik tamoyiliga bevosita asoslangan holda narsa va hodisalarga to'g'ri yondashish, ularni oqilona, odilona, omilkorlik bilan ekspert baholash, soxta talqindan, bo'zilgan tahlildan batamom tozalash, teran fikrlar, donishmandlik mahsulalari sarchashmalaridan xalqimizga ma'naviy ozuqa berish umumbashariy voqelik tantanasiga aylanadi. Eng kamida uch ming yillik yozma ilmiy-tarixiy manbara egalik, hukmronlik qilgan ajdodlarimiz jahon madaniyatiga (sivilizatsiyasiga) salmoqli hissa qo'shganliklari yo'zasidan ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan va izlanishlar hozir ham jadal sur'atda davom ettirilmoqda. Ammo biz O'rta Osiyo Uyg'onish davri va undan keyingi asrlarda ijod etgan allomalar, daholar ta'limotini tahlil qilmoqchi emasmiz, binobarin, ezgu niyatlar xalq ijodiyoti, amaliyoti mohiyati bilan qorishib ketgan qadriyatlarning ilmiy ildizini ochishga harakat qilamiz, xolos. Ajdodlarimiz insonni komillikka erishishining bosqichlari, manbalari, asoslari, omillari, mexanizmlari yo'zasidan keng ko'lamli mulohazalar yuritish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki uni harakatlantiruvchi kuchiga ob'ektiv (tabiiy) va sub'ektiv (shaxsga oid) shart — sharoitlari haqida ham ilmiy — amaliy xususiyatli g'oyalar yaratganlar va atroficha tahlillab berishga harakat qilganlar. Ajdodlarimizning vakillari qaysi ta'limotga (diniy yoki dunyoviy) va ilmiy platformaga (ilmiy maktabga, nazariyaga) asoslanganligidan qat'i nazar, amaliyot — haqiqat mezoni ekanligidan kelib chiqib, uning birlamchi, ustuvor mezon, o'cham sifatida milliy o'zlikni anglashning sur'atini oshirish uchun o'rganilishga loyiqidir.

Organizm (tana va uning a'zolari)ning mo'tadil ravishda ishlashi insonning barcha ruhiy holatlari, hodisalari, xususiyatlari, xislatlari, mexanizmlari, qonuniyatlar, shuningdek, aks ettirish imkoniyati, xulq — atvori, turlicha faoliyat ko'rinishlari hukm surishini maqsadga muvofiq amalga oshishini ta'minlab turadi. Modomiki shunday ekan, funksiya (fiziologik holat sifatida), a'zolarning o'zaro muvaffiqlashgan tarzda harakat qilishi birlamchi, ya'ni tabiiy — biologik negizini tashkil qilib, uning negizida in'ikos etish imkoniyatining muayyan darajalari, bosqichlari, fazalari hamda o'zaro ta'sir (interaksion), o'zatuv (kommunikativ); perseptiv (stereotiplik), indentifikatsion (refleksiv), interiorizatsion, eksteriorizatsion vaziyatlari, ekstropolyatsiya shakllari, mikro, makro hamda mize muhitlarga aloqadorligi umumiyligi holatning xususiy vaziyatlarga ko'chishi ko'p jihatdan ta'kidlab o'tilgan birlamchilikka bog'liqdir. Ma'lumki, tana a'zolarining funksional xususiyatlari ularga kelib tushadigan ozuqalar sifati, to'zilishiga, qabul qilish muddatiga, boshqacha so'z bilan aytganda nutritiv (ichki) holatlar majmuasiga bog'liq bo'lib, muayyan mezonlar, me'yorlarga rioya qilingan holdagina mo'tadil ishlashi mumkin, xolos. Ijtimoiy—tarixiy taraqqiyot davomida insonlarning organizmlarida u yoki bu tarzdagi o'zgarishlar yo'z berib kelmoqda, buning natijasida ularning kattalashuvi yoki kichiklashuvi, pishiqlashuvi va mo'rtlashuvi

bilan antropogenetik, fonogenotipik, morfologik, konstitutusyon to'zilishlarga ma'lum ta'sirini o'tkazadi. Organizmning tarkiblarini yo'zaga keltiruvchi moddalar (zarrachalar) nisbatining, (arxikorteks, paleokorteks, nookorteks qismlari orasidagi munosabat kamayishi yoki ortishi) tabiiy ravishda o'zgarishi ularning tiriklik, tashqi ta'sirlarga chidamliligi (mo'rtligi), funksiyasi, ya'ni ichki to'zilishining o'ziga xos tomonlarini keltirib chiqaradi. Biosfera bilan noosfera o'rtasidagi o'zluksiz ravishdagi aloqalarning mavjudligi bir tekis, muayyan qonuniyat asosida harakatlanish bilan bir qatorda notekis (g'ayritabiiy, xaotik) harakatlar ham amalga oshib turishligini ilmiy jihatdan tan olish zarur ekanligini taqozo etmoqda. Ajdodlarimiz osmon jismlari harakatlarini ko'zatib u yoki bu tarzdagi falokiyot ilmi — mo'jizasi to'g'risida bashorat (prognоз) qilishlari negizida ham qandaydir emas, balki aniq, amaliy ko'zatishlar (vizual tafakkur) mahsulasi ma'lum davr va davriylik qonuniyati asosida harakatlanishning ham sababi, has oqibati mujassamlashganligidan dalolat beradi. Munajjimlarning bashoratlari mutlaq haqiqat bo'lmasa — da, lekin ularning mazmunida (kosa tagida nimkosa deganlariday) ma'lum darajada oqillik, ajdodlardan avlodlarga vorislik sifatida o'tuvchi ijtimoiy, ilmiy — amaliy tajriba yotishini unutmaslik joiz. Xurofat tariqasida har qanday g'oyani tanqid qilishlari oson yo'l yo'q, ammo inkor siyosiy, sinfiy yorliqlar asosiga qurilishi ijtimoiy taraqqiyot (progress), ijtimoiy madaniyat (sivilizatsiya, sotsiokultura) uchun salbiy (negativ) oqibatlarni olib keladi, jadallik (intensifikatsiya) o'rnini to'xtalish (tormozlash) egallaydi, natijada ilmiy g'oyalar baxsi eski qolipdagi izmlarning (materializm va idealizm) murosasiz kurashi talqini bilan o'rinn al mashish xavfi tug'iladi. Bunday noxush ilmiy safsatalarning oldini olish uchun ijtimoiy — tarixiy taraqqiyot davrida insoniyat tomonidan to'plangan xilma—xil qarashlar, yondashishlar, talqinlar, tavsiflar, ta'limotlar, stereotiplar, xullas barcha ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganish, tahlil qilish orqali omilkor tomonlarini topish va ulardan odilona foydalanmoqlik darkor. Shu mulohazali fikrni takror — takror ta'kidlash joizki, tabiatdagi xoh qonuniy, xoh g'ayritabiiy (xaotik) harakat bo'lishdan qati nazar, biosferaga har xil zarrachalar, moddalar borliq bo'yicha keng tarqalishi, osmon jismlarining o'zaro bir—biriga yaqinlashuvi haddan ziyod harorat ko'tarilishi, issiqlikning me'yordan ortiqcha taqsimlanishi, nurlar (nurlanish) ko'payishiga olib kelishi, ularning oqibatida tabiiy ofatlar (ko'rgiliklar) paydo bo'lishi mumkin. Xuddi shu boisdan ajdodlarimizning ma'naviyatida davr o'zi uchun zarur allomalarini va betakror shaxslarni bir asrda yoki undan ham ortiq davrda (muddatda) yaratadi, degan bashorat quriq mushohada emas, balki tabiatdagi o'zgarishlar, munosabatlar, muvofigliklar, murojaatlar, inson kamoloti uchun eng qulay (senzitiv) moddalar bilan ta'minlash to'g'risidagi (uning mag'zidagi) tabiiy mayl, layoqat, iste'dod, iqtidor, salohiyat kabilarning baquvvat harakatchan nishonalari, alomatlari imkoniyati yo'zasidan ilmiy g'oya yotadi. Shuning uchun xalq, etnos, ulis o'rtasida dohiy, daho har kuni tug'ilmaydi, balki unga nisbatan juda kuchli extiyoj sezilgach, ijtimoiy zaruriyat ustuvorlik qilganda, evolyutsion qonuniyat esa imkon berganda, vaziyat pishib yetilganda ixtiyorsiz ravishda sodir bo'ladi.

Ajdodlarimiz farzandning tug'ilishi lahzasiga, kuniga, oyiga, yiliga, xafasiga, mavsumiga, ota—onaning yoshiga qat'iy ahamiyat bergenlar. Shuningdek, poklik, halollik farzandlar kamoloti uchun muhim negiz ekanligi ajdodlarimiz ta'limotining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ular komillikka turlicha talqin berishiga qaramay, negizida eng muhim va asosiy uchun uchta mezon yotishi (jismoni, axloqiy, aqliy) tan olinadi, lekin bu darajalarga erishish yo'l va vositalari ayricha ekanligi ta'kiddab o'tiladi.

Ijtimoiy hayotda taraqqiyot (progress) ni keltirib chiqaruvchi omillar va tamoyillar to'g'risidagi ta'limotlarga nisbatan munosabatlar o'zgarib borishi bir qator har xil xususiyatlari metodologik muammolarni yo'zaga keltiradi. Bizningcha, har qaysi muammo taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchining mohiyati va mazmuni bilan o'zviy bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'mni, biosfera bilan noosfera aloqasi, ularda batartib (tekis harakat) va betartib (xaos) harakatlanish ehtimoli mavjudligi haqidagi mulohazalar avj olib bormokda.

Psixologiya fanida uning moddiy asoslari yo'zasidan mulohaza yuritilganda biosfera va noosferada harakatlar batartib amalga oshadi, buning natijasida tabiiy qonuniyatlar vogelik, holat va hodisalarini bevosita boshqarib turadi, ya'ni regulyatsiya qiladi deb tushuntirilgan. Biroq biosferada ham, noosferada ham betartib (xaos) harakat hukm surishi mumkinligi haqidagi omillar diqqat markazidan muayyan darajada o'zoqlashgan. Natijada ob'ektiv va sub'ektiv sabablar oqibatni keltirib chiqarishi tan olinib, oqibat sababning (sababiylikning) yuksak motivi sifatida vujudga

keltirishi psixologiyaning tadqiqot predmetiga xatto kiritilmagan. Fazoviy aloqalar nafaqat stixiyalar keltirishi bilan tavsiflanadi, balki tabiatga va insonlarga ijobiy ta'sir etuvchi zarrachalar, moddalar, nurlar yoyish, boyitish imkoniyatiga ega. Yer kurrasiga ba'zi bir kasalliklar (infarq, rak, insult va hokazolar) tarqalishining asosiy omili hisoblansa, ikkinchi tomondan, miya, tana a'zolari tarkiblariga mos zarrachalarning muayyan shaklda muvaqqat idrok maydoniga to'planishi tufayli tez fikrlash, kashfiyot (intiutsiya negizida), ijodiy (kreatsiya) ilhom vujudga kelishi mumkinligini gipotetik tarzda izohlashga, dalillashga imkon tug'iladi. Xuddi shu xodisaga asoslanib idrok maydoniga (inson turgan cheklangan fazoda) kirib kelgan zarrachalar miya tarkibiga mutanosib ravishda "sun'iy miya" ni muvaqqat tarzda hosil qiladi. Moddiy insondagi miya bilan uning atrofidagi "sun'iy miya" o'rtasida aloqa o'rnatiladi, idrok maydoni o'zaro tutashgan zanjir reaksiyasini paydo qiladi, natijada ikki manbaga asoslanuvchi fikrlash jarayoni ishga tushadi. Ikkijoqlama tutash tafakkur manbalarining jadal (intensiv) harakati tufayli bilish jarayonlarining samaradorligi va mahsulasi ikki baravar ko'payadi. Bizning, xuddi shu faktik hodisa intuitsiyaning moddiy asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin idrok maydonidagi "sun'iy miya" zarrachalari havoga tarqaladi, ikkinchi stimulyator xuddi shu tariqa o'z funksiyasini bajarib bo'ladi. Mazkur hodisaning takrorlanishi kashfiyot, ijodiy ilhom kuchayishiga olib keladi, fikrlash mahsuldarligi mexanizmi rolini ado etadi.

Stixiyalar haqida ham manfiy, xaotik harakatlarning ma'lum yo'nalishda, muayyan fazoda va makonda muvaqqat hukm surishi ehtimolini dalillash mumkin. Ba'zi o'rnlardagi favquloddagi hodisalar, holatlar, kechinmalar, omadsizliklar yoki omad kulib boqishi kabi voqelikni tushuntirishda ham ikkijoqlama stimulyator (goh musbat, goh manfiy) tarkibining dadillik, xayolparishonlik, frustratsiya, eyforiya (kashfiyot kuchayishi) qamrab olishi, bir tomondan, insonga quvonch tuyg'usini, ikkinchi tomondan, omadsizlik, baxtsizlikni keltiradi. Sun'iy kuchaytirgich yoki susaytirgichlar ta'sirini ilmiy asosda tushuntirish psixologiya fani javob bera olmaydigan biron—bir hodisa yo'q ekanligidan dalolat beradi.

Psixologiya fanida ko'p yillar davomida ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi muvofiqlik, mutanosiblik taraqqiyotni belgilaydi, degan g'oya fanimiz metodologiyasida hukm surib kelar edi. Vaholanki, ishlab chiqarish kuchlari (insonlar: xizmatchilar, ishchilar) bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi muvofiqlik, moslik taraqqiyotni emas, balki barqarorlik (stabillashuv)ni keltirib chiqaradi, xolos. Binobarin, barqarorlashuv o'sishni (progressni) bildirib kelmasdan, balki uning bir tekis maromda kechayotganligini (mahsulot, xomashyo tayyorlanilayotganligini) anglatadi, demak bu holat umumiy taraqqiyotni emas, balki mo'l-ko'lchilikni, serobchilikni bildiradi.

Ikkinchidan ishchilar sinfiga nisbatan berilgan yuksak baho ham taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi to'g'risidagi muammoga adekvat tarzdagi javob vazifasini bajara olmaydi. Chunki ishchilar sinfi uyushgan, ilg'or bo'lishiga qaramasdan, bu makro guruh ijtimoiy hayotda mo'l-ko'lchilikni yaratish, ya'ni moddiy ne'matlar, mehnat aslahalari ishlab chiqarish bilan cheklangandir. Lekin ushbu sinf yangilik vujudga keltirish, kashfiyot qilish bilan aslo shug'ullangan emas va bu narsani amalga oshirish imkoniyati bu ijtimoiy guruhda mutlaqo zaifdir.

Bizningcha, taraqqiyotni yo'zaga keltiruvchi asosiy omil — bu shaxslar (olimlar, konstrukturlar, me'morlar, salohiyatli davlat arboblari) bo'lib, ular biosfera va noosferaning insoniyat uchun noma'lum, yangi qirralarini ochish, fanni rivojlantirish, texnika va texnologiya ishlab-chiqarishga qodirdirlar.

Psixologiya fanida inson omili o'zluksiz ravishda ta'kidlanib turilishiga qaramasdan, u taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi batamom tan olimmagan. Xuddi shu bois individuallik va umumiylilik ("Biz" va "Men") ustuvor rol o'ynashi birlamchi voqelik sifatida talqin qilingan.

Bugungi kunda inson omili, komil inson psixologiyasining bosh maqsadiga aylanib, uning xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari, xosiyatlari, sifatlari, ichki imkoniyatlari, iste'dod alomatlari qancha erta ro'yogga chiqarilsa, demak taraqqiyotni yo'zaga keltiruvchi super shaxslarni shakllantirish shunchalik tezlashadi, Inson kamoloti quyidagi bosqichlardan iborat: murtaklik — odam — inson — shaxs — sub'ekt — komil inson. Inson komillik sari qancha tezkor harakatqilsa, u kamolotni ertaroq egallaydi, taraqqiyotni jadallashtirishga munosib hissa qo'shamdi.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'ekti, ham sub'ektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub'ektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqtli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroqq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'naliшини о'зgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

### **3-Modul. Kognitiv psixologiya 12-Mavzu:Diqqat.**

#### **REJA.**

- 1.Diqqatning haqida tushuncha.
- 2.Diqqat turlari.
- 3.Diqqat xususiyatlari.
- 4.Diqqatning rivojlanishi.

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalgalashishning va ular samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan o'zoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtiroy etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtiroyida sodir bo'ladi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongi bir nuqtaga to'plab, muayyan bir ob'ektga aktiv (faol) qaratilishi aytildi (P. I. Ivanov). P. I. Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning ob'ekti bo'la oladi.

N. F. Dobrinin, N. V. Ko'zmina, I. V. Straxov, M. V. Gamezo, F. N. Gonobolin va boshqalarning nuqtai nazaricha, diqqatning vujudga kelishida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi. Bunday torayish va tig'izlanish natijasida ong doirasi yanada yorqinlashadi. Ongning eng toraygan, tig'izlangan yorqin nuqtasi diqqatning markazi (fokusi) deb nomlanadi. Xuddi shu markaz (fokus) ga tushgan idrok qilinayotgan jismlar, tasavvur obrazlari, o'y va fikrlar to'la, yorqin va aniq ifodalanadi. Jahon psixologlarining fikricha, diqqat o'zlusiz ravishda, muayyan darajada aktivlik xususiyatini saqlab turadi. Bunday aktivlik, ongning biron bir ob'ektga o'ynalishining kuchayishi va ma'lum vaqt davomida diqqat yo'naltirilgan narsaga ongning faol (aktiv) qaratilishini regulirovka qilib turadi hamda mazkur holatning saqlanishini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsulorligini oshirishga ta'sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan ob'ektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat-aqliy jarayonlarning sifati, mahsulorligi va samaradorligini ta'minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Psixologiya tarixining sahifalarini varaqlasak, diqqatning kishi faoliyatidagi roliga berilgan yuksak va qimmatli mulohazalar uchraydi. Jumladan, fransuz olimi Kyuve geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, Nyutonning kashfiyot fikrini doimo shu masalaga qaratilish jarayoni deyishi, Ushinskiyning diqqat psixik hayotimizning yagona eshigi deb baho berishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlovchanlik va yo'nalişanlik bilan xarakterlanadi. Shu boisdan inson atrof-muhitning ko'plab qo'zg'atuvchilari, ta'sirlari orasidan alohida nimanidir idrok etadi, faraz qiladi, allaqaysi narsa to'g'risidagina mulohaza yuritadi, xolos. Ongning bu xossasi diqqat xususiyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Diqqat bilish jarayonlari singari o'zining alohida mazmuniga, muayyan mahsuliga ega emas, shuning uchun u barcha jarayonlarning jo'shqinligi, ildamligini ta'minlaydi. Demak, diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan

tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir (E. B. Pirogova). Berilgan ta'rifga binoan, ushbu yo'naltirilganlik sub'ektning ehtiyojlariga, uning faoliyati maqsadlari va vazifalariga mos keladigan ob'ektlarning tanlanganligida, ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy tanlashda va ajratishda vujudga keladi. Diqqatning muayyan ob'ektlarga to'planishi, to'planganligi (konsentratsiyalanishi) ayni paytda boshqa jismlardan chalg'ishni yoki ularning vaqtinchasi (muvaqqat) inkor etilishini talab qiladi. Ana shu omillarga ko'ra, aks ettirish ravshanlanib boradi, tasavvurlar, mulohazalar faoliyat yakunlangunga qadar, qo'yilgan maqsadga erishguncha ongda saqlanadi. Ana shu yo'sinda diqqat faoliyatini nazorat qilib boradi va uni boshqaradi. Shuning uchun ko'pgina psixologlar (P. Ya. Galperin va uning shogirdlari) diqqatni yuksak turini bilish jarayonlari, kishining xulq-atvori kechishini boshqarish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Diqqatning biror ob'ektga yo'nalishiga ko'ra sensor (perseptiv), aqliy (intellektual), harakatlantiruvchi (harakat) shakllariga ajratish mumkin.

Diqqat muayyan ob'ektga to'planishi ko'p jihatdan insonning his-tuyg'usi, irodaviy sifati, qiziqlishi kabilarga bog'liqdir.

His-tuyg'ular va emotsiyonal holatlar diqqatning ob'ekti bilan o'zviy bog'langandagina uning uchun ijobjiy ahamiyat kasb etadi. His-tuyg'ular, emotsiyonal holatlar qanchalik kuchli va ko'tarinki tarzda namoyon bo'lsa, demak diqqat ham shunchalik ob'ektga mustahkam qaratiladi. Hislar, emotsiyalar diqqatning ham ixtiyorsiz, ham ixtiyoriy turlarini zo'raytiradi. Insonning amaliy va aqliy faoliyati jarayonida uning ongi muayyan darajada yangi bilimlar ma'lumotlar bilan boyib borishi natijasida diqqat ham takomillashadi. Yangilikni payqash hissi odam aqliy faoliyatini faollashtiradi (aktivlashtiradi), shu bilan birga, diqqatning ob'ektga o'zoqroq to'planishini ta'minlaydi. Insonning barqarorlashgan kayfiyati diqqatning kuchi va ildamligini oshiradi, tanlovchanligiga ijobjiy ta'sir etadi. Stress, affekt singari emotsiyonal holatlar diqqatga salbiy ta'sir etib, uning tashqi ta'sirlariga beriluvchan, kuchsiz qilib qo'yadi. Ana shuning oqibatida diqqat chalg'iydi, bo'linadi, parishonlik namoyon bo'ladi, faoliyatdagi bir tekislik bo'ziladi.

Psixologiyada diqqatning ixtiyoriy turi, ko'pincha irodaviy deb nomlanadi. Bu, albatta, bejiz emas, chunki, diqqatning muayyan ob'ektga yo'naltirilishi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Hatto ixtiyorsiz diqqat faoliyatida qatnashsa, u ham irodaning zo'ri bilan yo'naltirilgan ob'ektda to'planib turadi. Irodaning faoliyatni amalga oshirishda ishtirok qilishi ko'p jihatdan kishining maqsadiga intilishi, ishchanlik qobiliyati, psixologik tayyorligiga bog'liq. Shu boisdan diqqatning kuchi, barqarorligi, mustahkamligi, ildamligi odamning muayyan faoliyatini bajarishga moyilligi, shayligi bilan o'lchanadi. Diqqatning yuksak darajada mujassamligini ta'minlab turishda odamning faoliyatni bajarishga muvofiqlashgani muhim rol o'ynaydi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishning boshida qiyinchiliklar yo'zaga keladi va ular kishidan irodaviy zo'r berishni talab qiladi. Faoliyatni bajarishdagi nuqsonlarning namoyon bo'lishi diqqatni to'plashdagi qiyinchiliklarning oqibati bo'lib hisoblanadi.

Diqqatning ob'ektga to'planishi, mustahkamlanishi odamning qiziqlishlariga bog'liqdir. Hatto ixtiyorsiz diqqatning faoliyatda mujassamlashishida kishining ishtiyoqi va qiziqlishi katta ahamiyatga egadir. Odadta faoliyatga qiziqlish bevosa va bilvosita shaklda namoyon bo'ladi. Bevosita qiziqlish faoliyat jarayoniga, xatti-harakatlarning o'ziga, ish uslublariga qaratilgan qiziqlishdan iboratdir. Bilvosita qiziqlish esa faoliyatning maqsadga, uning natjasiga yo'naltirilgan qiziqlikdir. Ixtiyoriy, irodaviy diqqat bilvosita qiziqlish bilan aloqadordir. Psixologik ma'lumotlarning tahliliga ko'ra, diqqatning ob'ektga to'planishi va mustahkamlanishi ko'zlangan maqsadni, faoliyat mahsulining zarurligi hamda sifatining ahamiyatini inson tomonidan anglash orqali ta'minlab turiladi. Faoliyat maqsadini anglash o'z ish-harakatida kishi diqqatining yuksak darajada mujassamlanishini ta'min etuvchi eng muhim shart va sharoitlardan birdir.

Diqqatning ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda vujudga kelishi o'zining yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Agar diqqatning manbai ongimizdan tashqarida bo'lsa tashqi deb ataladi. Masalan, shofer, tikuvchi, muharrir kabilarning faoliyatida sodir bo'ladigan diqqat tashqi diqqatdir. Tashqi diqqat faqat idrok qilish jarayonidagina namoyon bo'lmashdan, balki fikr yuritilayotgan narsalarga ham qaratiladi. Jumladan, ixtirochining o'zi yaratgan narsasini tasavvur qilishi, rassomning obrazlarni kashf qilish jarayoni, muhandisning to'g'on qurilishini ko'z o'ngiga keltirish bilan bog'liq holatlar bunga misol bo'la oladi. Inson onging o'zida sodir bo'layotgan o'z hissiyotlarini, fikrlarini, orzu istaklarini va shu kabilarni ko'zatishda ichki diqqat yo'zaga keladi. Diqqatning har ikkala ko'rinishi ham faoliyatning muvaffaqiyatli yakunlanishiga munosib hissa

qo‘shish imkoniyatiga egadir.

### **Diqqatga oid ilmiy tushunchalar izohi**

Dominanta (lat. dominans–hukmronlik qiluvchi) –muayyan nerv uchastkasidagi kuchli qo‘zg‘atuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lgan qo‘zg‘alish markazi. Dominanta mavjudligida undan boshqa nerv markazlari tormozlangan bo‘ladi. Dominanta markaziy nerv tizimiga kelgan har qanday qo‘zg‘alish, impulslarni qabul qilib, ularga tegishli javob qaytaradi-da, shu tariqa boshqa markazlarni tormozlash evaziga o‘z faoliyatini yana kuchaytiradi.

1. Dominanta tushunchasi fiziologiya faniga A. A. Uxtomskiy tomonidan kiritilgan. Uning isbotlashicha, D. orqa miyadan tortib to bosh nerv markazlarini ishslash prinsipini tashkil qiladi. Dominanta diqqatning fiziologik asosidir.

Nerv jarayonlarining induksiyasi-oliy nerv faoliyatining qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat: MNSining biror markazida qo‘zg‘alish paydo bo‘lsa, u boshqa markazlarda tormozlanishning kelib chiqishiga, tormozlanish esa qo‘zg‘alishning kelib chiqishiga sabab bo‘lishdan iborat qonuniyat.

Nerv tizimi jarayonlarning konsentratsiyasi- markaziy nerv tizimidagi qo‘zg‘alish yoki tormozlanish jarayonlarining vaqt o‘tishi bilan dastlabki paydo bo‘lgan uchastkasiga to‘planish qonuni.

Diqqatning ko‘lami-bir davrning o‘zida diqqat tomonidan qamrab olinishi mumkin bo‘lgan ob‘ektlarning miqdori.

Diqqatning ko‘chuvchanligi-faoliyat jarayonida diqqatning ongli ravishda bir ob‘ektdan ikkinchi ob‘ektga ko‘chirilishi. Diqqatning ko‘chuvchanligi har qanday faoliyatda, ayniqsa pult boshqaruvidagi alohida ahamiyatga egadir.

Diqqatning taqsimlanishi-diqqatning bir vaqtning o‘zida bir qancha ob‘ektlarga qaratilishidan iborat xususiyati. Diqqatning taqsimlanishi murakkab faoliyat jarayonini amalga oshirishda alohida ahamiyatga egadir. Masalan: shoferning, o‘qituvchining ish jarayonidagi diqqati taqsimlangan diqqatdir.

Diqqatning barqarorligi-diqqatning o‘z ob‘ektiga kuchli yo‘naltirilishi va faol to‘planishidan iborat ijobjiy xususiyati.

Parishonlik-diqqatni ma’lum bir ob‘ektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat. Parishonlik vaqtincha holat bo‘lishi ham, shaxsning nisbatan barqaror xislati sifatida gavdalanishi ham mumkin. Parishonlikning ikki turi mavjud bo‘lib, biri diqqatni umuman hech narsaga qarata olmaslik hisoblansa, ikkinchisi diqqatning muayyan ob‘ekt ustiga kuchli to‘plantirib, boshqa narsalarga qaratilmasligidir. Parishonlik psixopatologik sabablarga ko‘ra kelib chiqishi ham mumkin.

Kasbga xos diqqat-ma’lum bir kasbda ko‘p yil ishslash natijasida shu kasbning talabalari va ob‘ektiv xususiyatlariga mos ravishda tarkib topgan diqqat turi. Masalan: chorrahada ko‘cha harakatini boshqaruvchining diqqati bilan mikroskop yordamida ilmiy ko‘zatish olib boradigan olimning diqqati bir-biridan keskin tafovut qiladi. Birinchisi diqqatning taqsimlanishini, ikkinchisi esa markazlashuv xususiyatlarini talab qiladi.

Ixtiyoriy diqqat- ongning oldindan belgilangan maqsadga muvofiq irodaviy va asabiy faollik ko‘rsatgan holda muayyan ob‘ektga yo‘nalishi va unga to‘planishidan iborat diqqat turi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat- diqqatning muayyan ob‘ektga avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so‘ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o‘z-o‘zidan qaratilib boriladigan (avtomatlashgan) diqqat turi. Ushbu tushuncha psixologiya faniga N. F. Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Diqqat chalg‘ishi-ma’lum bir faoliyat jarayonida diqqatning bir ob‘ektdan boshqa bir ob‘ektga ixtiyorsiz ravishda o‘tib turishidan iborat salbiy xususiyati.

Diqqatning hajmi-diqqatning bir vaqtning o‘zida qamrab olishi mumkin bo‘lgan mustaqil ob‘ektlar miqdori bilan belgilanadigan xususiyati. Diqqatning hajmi eksperimental sharoitda 2-6 mustaqil ob‘ektga tengdir. Diqqatning ob‘ektlari o‘rtasida qanchalik yaqin bog‘lanishlar mavjud bo‘lsa, uning hajmi shunchalik kengdir va aksincha.

Diqqat ob‘ekti- ongimiz atrofdagilardan ajratib olgan holda yo‘naltirilgan va faol to‘plangan narsa yoki hodisa. Diqqat ob‘ekti faqat ob‘ektiv narsalar emas, balki sub‘ektiv hodisalar, o‘z histuyg‘ularimiz, fikrlarimiz, xayol yoki xotira tasavvurlarimiz va boshqa shu kabilar ham bo‘lishi mumkin.

Ixtiyorsiz diqqat- ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan ob‘ektga yo‘naltirilishi va unga to‘planishidan iborat diqqat turi. Ixtiyorsiz diqqat ob‘ektlari narsa va

hodisalarning odatdan tashqari holati, belgisi, sifati va boshqalardir.

Diqqatsizlik-diqqatni ob'ektga yo'naltira va to'play olmaslik, atrofdagi kishilarga nisbatan e'tiborsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat salbiy xarakter xislati.

Diqqatning o'zgarib turishi- idrok, xotira, tasavvur yoki tafakkur jarayonida diqqatning ma'lum vaqt ichida dam kuchayib, dam susayib turishdan iborat qonuniyat; diqqat ba'zan minutiga 25-30 marta ham o'zgaradi. Diqqatning o'rtacha o'zgarish-tebranish chastotasi 2-3 sekundga tengdir.

Ko'rav diqqati-narsa va hodisalarni ko'rav organi orqali idrok qilish, esga tushirish munosabati bilan namoyon bo'ladigan diqqat turi.

Ikkinci tartibli ixtiyoriy diqqat-ongimizning muayyan ob'ektga ixtiyorsiz ravishda yo'naltirilsa-da, uning ustiga ma'lum vaqt barqaror holda, to'planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi; diqqat to'plangan ob'ektining mazmuniga qarab ixtiyorsiz diqqatning ixtiyoriy diqqatga aylanishi.

Ichki diqqat-ongimizning o'z sub'ektiv taassurotlarimiz, his-tuyg'ularimiz va intilishlarimizga qaratilishidan iborat diqqat turi.

Tashqi diqqat- ongimizning ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarga, ularning ayrim belgi va xususiyatlari yo'naltirilish, ularda faol to'planadigan diqqat turi.

Retikulyar formatsiya- bosh miya tepe qismidagi (o'zunchoq miya, Voroliev ko'prigi, o'rtal miya) nerv hujayralari bo'lib, ular o'z to'zilishiga ko'ra, qalin to'rni eslatadigan o'simtalarga egadir. Ko'zg'ovchilar ta'sir ostida turli retseptorlardan bosh miyaga signallar olib boradigan sezuvchi nervlarning o'simtalari. R. F. ga tutashgan bo'lib, mavjud singal R. F. ni ham qo'zg'aydi. R. F. da xos bo'lgan qo'zg'alish, o'z navbatida, bosh miya qobig'idagi turli markazlarni qo'zg'aydi. Bosh miyadagi qo'zg'alish esa R. F. ning faoliyatini yo kuchaytiradi, susaytiradi. Demak, R. F. ning har bir hujayrasi sezgi organidan ko'p signallar qabul qilib olib, bosh miya va orqa miya faoliyatiga umumiyl holda ta'sir ko'rsatib turadi.

Bedor holat- bosh miya yarim sharlaridagi tegishli nerv markazlarining qo'zg'alishi bilan belgilanadigan uyqudan tashqaridagi holat, ongli holat. Shaxs bedor holatidagina ma'lum bir faoliyat turini amalga oshira oladi.

Qo'zg'alish markazi-markaziy nerv tizimining qo'zg'alish jarayoni ro'y bergan uchastkasi.

Ergograf (yunon. ergon) -mushaklarning ishini grafik usulda ifodalashda qo'llaniladigan, ayniqsa, toliqish jarayoni o'rganishda qo'llaniladigan asbob.

Vigilllik( lat. vigil -xushyor, sinchkov)-ziyraklik; diqqatni yangi ob'ektlarga, ayniqsa sub'ektiv taassurotlarga tez to'play olish qobiliyati.

Diqqat depressiyasi (lat. depresio -pasayish)-turli tashqi va ichki omillarga ko'ra ob'ektda to'planish va mustahkamlanishning kuchsizlanishi va bo'zilishi.

Alfa-ritmasining ekzaltamiyasi (lat. Exatatio-kuchayish)-bioelektrik potensiallar amplitudasining kuchayishi; signallarga javob berishda tomirlarning torayishi o'rniga ularda kengayishning yo'z berishi.

Kuch qonuni (I. P. Pavlov)-kuchli qo'zg'ovchilar kuchli, kuchsizlar esa kuchsiz reaksiya berish holati.

Paradoks fazasi-kuchli qo'zg'atuvchilarga qaraganda kuchsiz qo'zg'atuvchilarning kuchli reaksiyasining vujudga keltirishi (patologik holatlar nazarda tutiladi).

Orientir refleksining elektrofiziologik simptomlarining barqarorlashuvi-ixtiyoriy diqqat bo'zilganda maqsadga muvofiq topshiriq va oqilona instruksiya (yoki ustanovka) berish hamda vaziyatga qarab uni o'zlashtirish orqali insonda orientirovka refleksini qaytatdan tiklashdan iborat korreksion faoliyat.

Diqqat korreksiyasi (lat. correctio-to'zatish)-insonda diqqat patologik holatga (bo'zilishga) uchraganda maxsus usul va uslublardan foydalanib to'zatish.

## 2. Diqqatning fiziologik asoslari

Diqqatning fiziologik asoslarini tushuntirib berishda buyuk rus fiziologlari I. P. Pavlov va A. A. Uxtomskiylarning olib borgan ilmiy kashfiyotlari muhim ahamiyat kasb etidi.

Oliy nerv faoliyatining alohida reaksiyalari bo'lmish orientir reflekslar to'g'risidagi I. P. Pavlov ilgari surgan ilmiy taxmin (gipoteza) psixologiya fani uchun muhim hissa bo'lib qo'shildi, chunki «bu nima?» refleksisiz diqqatning tabiatini ochish mutlaqo mumkin bo'lmash edi. I. P. Pavlovnning «bu nima?» refleksi haqidagi g'oyasi ixtiyorsiz diqqatning g'ayritabiyy (refleksiv) xususiyatini ochib berish uchun xizmat qildi. I. P. Pavlovnning fikricha, biz paydo

bo‘layotgan siymoga nigohimizni qaratamiz, eshitilgan tovushga qulq solamiz, dimog‘imizga urilgan hidni zo‘r berib yutamiz. Lekin ushbu mulohazalar refleks mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berish imkoniyatiga ega emas, vaholanki uning negizini asoslash uchun bir talay omillarni keltirish zarur. Ye. N. Sokolov, A. R. Luriya, P. Ya. Galperin, Ye. I. Boyko va boshqalarning hozirgi zamon ma’lumotlariga suyanib mulohaza yuritilganda, I. P. Pavlovning orientir reflekslari juda murakkab jarayondir.

Aslini olib qaraganda, orientir kompleksiga tashqi xatti-harakatlar, ko‘zlarning va boshning qo‘zg‘atuvchi tomonga burilishi, muayyan analizatorlarning sezuvchanligi, modda almashinuvi, nafas olish, yurak urish va qon aylanish harakati, teri-galvanik reaksiyalari, vegetativ nerv tizimi xususiyati va miyaning elektr faolligi o‘zgarishi kabi son-sanoqsiz jarayonlar kiradi.

I. P. Pavlov va A. A. Uxtomskiylarning ta’limotlariga binoan diqqatning holatlari, sifatlari, xususiyatlari, birinchidan, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining o‘zaro birqalidagi harakati bilan, ikkinchidan, miya strukturasida hukm suruvchi qo‘zg‘aluvchanlik bilan uyg‘unlikka egadir.

I. P. Pavlovning taxminiga ko‘ra, vaqtning har bir lahzasida miya qobig‘ida qo‘zg‘alish uchun ancha qulay (senzitiv) va maqbul sharoitga ega ekanligi bilan ajralib turuvchi u yoki bu qism hukm suradi. Alovida ajratib ko‘rsatiladigan mazkur qism nerv jarayonlarining induksiysi qonuniyatiga binoan vujudga keladi. Bosh miya qobig‘ining biron-bir qismida to‘plangan (markazlashgan) nerv jarayonlari induksiya qonuniga muvofiq boshqa uchastkalarni tormozlanishga olib keladi. Qo‘zg‘alishning eng optimal markazida yangi shartli reflekslar vujudga keladi, differensiallash esa muvaffaqiyatli amalga oshadi. Qo‘zg‘alishning optimal o‘chog‘i o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Bu holatni chuqurroq dalillash uchun I. P. Pavlovning ushbu fikrini keltirib o‘tish joizdir: «Agar bosh suyak kosasi orqali ko‘rish mumkin bo‘lganda edi va agar eng optimal qo‘zg‘aladigan katta yarim sharlar o‘rni yoritilganda bormi, bu holda biz fikrlaydigan ongli odamda uning katta yarim sharları bo‘ylab doimo o‘zgarib turadigan, shakli va kattaligi g‘alati ko‘rinishga ega bo‘lgan hamda yarim sharlarning qolgan barcha bo‘shlig‘ida ko‘proq yoki ozroq darajadagi soya bilan o‘ralgan och rangli dog‘ning u yoqdan bu yoqqa qay tarzda ko‘chib yurishini ko‘rgan bo‘lardik» (Dvatsatiletniy opo‘t ob‘ektivnogo izucheniya vo‘shey nervnoy deyatelnosti (povedeniya)) jivotno‘x. -Poln. sobr. soch. M. -L, Izd-vo AN, 1951, III tom, . 1kniga, 248 bet. I. P. Pavlov ta’kidlab o‘tgan och rangli «dog» optimal qo‘zg‘alish o‘chog‘i markaziga mos keladi, uning harakati to‘g‘risidagi fikr esa diqqatning intensivligini ta’minalashning fiziologik omili hisoblanadi. I. P. Pavlovning qo‘zg‘alish markazining bosh miya po‘sti bo‘ylab harakat qilish yo‘zasidan ilgari surgan g‘oyalari, gipotezalari va bashoratlari keyinchalik N. M. Livanovning eksperimental tadqiqot materiallari bilan to‘la isbotlandi.

Diqqatning fiziologik asosini tushunib yetishda A. A. Uxtomskiyning ilmiy ishlari katta ahamiyatga egadir. Muallif diqqatning fiziologik mexanizmlari to‘g‘risida tadqiqot o‘tkazib dominanta prinsipini kashf qiladi. A. A. Uxtomskiyning nuqtai nazaricha, miya po‘stida qo‘zg‘alishning ustun va hukmronlik qiluvchi markazi hukm suradi. Olimning dominantaga baho berishga ko‘ra, u yuksak darajadagi qo‘zg‘alish markazi konstellyatsiyasi (muayyan holati) dir. Dominantaning hukmronlik xususiyati shundan iboratki, u qo‘zg‘alishning yangi vujudga kelayotgan markazlari faoliyatini cheklash bilan qanoat hosil qilmasdan, balki zaif qo‘zg‘atuvchilarni o‘ziga tortadi va ana shu yo‘l bilan ularning hisobiga kuchayadi, muayyan darajada ustunlikka erishadi. A. A. Uxtomskiyning fikricha, dominanta qo‘zg‘alishning barqaror markazidir. Shuning uchun dominanta tushunchasi diqqatning harakatlantiruvchi mexanizmini ilmiy jihatdan dalillash uchun xizmat qilishi turgan gap.

A. A. Uxtomskiyning ta’rifiga binoan, dominanta- bu bir davrning o‘zida ana shu markazda yo‘z beradigan reaksiyalar xususiyatini belgilab berishga qodir hukmron qo‘zg‘alish o‘chog‘idir. Uning fikricha, dominantalar vujudga kelgan paytda bosh qo‘zg‘alish o‘choqlari, ya’ni »subdominantalar« nisbatan kuchsiz qo‘zg‘alish o‘choqlari mutlaqo yo‘qolib ketmaydi, balki ular o‘zaro qo‘shilib, dominanta bilan kurasha boshlaydilar. Mazkur qo‘zg‘alish o‘choqlarining o‘zaro kurashishi natijasida subdominantada dominantaga aylanishi yoki oldingi dominanta esa subdominantada bilan o‘rin almashishi mumkin hukmron qo‘zg‘alish o‘chog‘i hisoblangan dominanta diqqatni muayyan ob‘ektga yo‘naltirishi, to‘planishi, mustahkamlanishi, barqarorlashning fiziologik asosidir.

Shunday qilib, diqqatning fiziologik asoslari to‘g‘risida mulohaza yuritilganda fan olamida

ikkita ta'limotning mohiyatiga to'xtaladi. Ushbu ta'limotlarning birinchisi (I. P. Pavlov qalamiga mansub) diqqatning fiziologik asosi qo'zg'alish jarayonining bosh miya yarim sharlar qobig'ining ayrim uchastkalarida to'planishi natijasida optimal qo'zg'olish o'chog'ining hosil bo'lishi va ayni vaqtda manfiy induksiya qonuniga binoan miya qobig'ida boshqa nerv markazlarining ma'lum darajadatormozlanishidir. Ikkinchisi esa A. A. Uxtomskiyning dominanta nazariyasi talqinidan iboratdir. Chunki dominanta muayyan nerv uchastkasidagi kuchli qo'zg'aluvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan qo'zg'alish markazidir. Dominanta mavjudligida undan boshqa nerv markazlari tormozlangan bo'ladi. U markaziy nerv tizimiga kelgan har qanday qo'zg'olish, impulslarni qabul qilib, ularga tegishli javob qaytaradi-da, shu tariqa boshqa markazlarni tormozlash evaziga o'z faoliyatini yana kuchaytiradi.

Hozirgi zamон psixofiziologiya fanida miyaning spetsifik bo'lмаган тизими oid turli to'zilishidagi diqqat holatlarining retikulyar formatsiya, talamo'z, gipotalamo'z va gippokamplarga aloqasi haqida anatomik, fiziologik va klinik ma'lumotlar mavjuddir. Ular to'g'risidagi mulohazalar keyingi sahifalarda beriladi.

### **3. Diqqatning neyrofiziologik mexanizmlari (retikulyar tizimi aktivatsiyasi)**

Hozirgi zamonda diqqatning neyrofiziologik mexanizmlarini tadqiq etish, ko'p jihatdan psixik jarayonlar kechishini tanlovchanlik xususiyatiga bog'liqdir. U faqat qo'zg'alishing optimal darajasi mavjud bo'lgan miya po'stining uyg'oq (tetik) holati orqaligina ta'minlanishi mumkin. Miya po'stining uyg'oqlik darajasi po'stda zarur mexanizm (tonus) bilangina ta'minlanib, bosh miyaning tepe stvolida normal munosabatni saqlovchi ko'tariluvchi retikulyar formatsiyani aktivlashtirish faoliyati bilan uyg'unlikka egadir.

Ko'tariluvchi retikulyar formatsiyaning aktivatsiyasi miya po'stlog'iga organizmdagi jarayonlarning almashishini ta'minlovchi impulslar olib borib, uyg'oqlik holatini yo'zaga keltirib turadi. Bunda ekstraretseptorlar tashqi qo'zg'atuvchilar yordamida tashqaridan kirib keluvchi informatsiyalarni oldin stvolning tepe bo'linmasiga hamda ko'rish tepaligining yadrosiga, keyin esa bosh miya po'stiga olib boradi.

Biroq miya po'stining optimal tonusi va uyg'oqlik (tetiklik) xolatini ta'minlash faqat ko'tariluvchi retikulyar formatsiyaning aktivatsiyasiga bog'liq emas. Balki bu narsa tushuvchi retikulyar formatsiya faoliyatiga ham aloqadordir. Tushuvchi retikulyar tizimning apparati tolalari bosh miya po'stidan boshlanib (peshona va chakka qismlarining medial va medibazal bo'linmalarida), stvol yadrosi tomon, so'ng orqa miyaning harakat yadrosi sari yo'nalishda harakat qiladi. Shuning uchun tushuvchi retikulyar formatsiyaning faoliyati juda muhim bo'lib, uning yordamida miya stvoli yadrosiga qo'zg'alishni tanlovchi tizimiga yetkaziladi, dastavval bu jarayon bosh miya po'stlog'ida yo'z berib, murakkab bilish jarayonlari ontogenetida vujudga kelgan xattiharakatlarning murakkab programmasi tariqasida inson ongli faoliyatining yuksak shakli mahsuli bo'lib hisoblanadi.

Har ikkala retikulyar formatsiyalarni tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri miyaning aktiv faoliyatini o'z-o'zini boshqaruvchi murakkab shakli bilan ta'minlaydi. Ular elementar, sodda biologik hamda murakkab, kelib chiqish jihatdan ijtimoiy stimulyatsiya shakli ta'siri bilan o'rin almashtirib turadilar.

Aktivatsiya jarayonini ta'minlashdagi bu tizimning muhim ahamiyati ko'p seriyadan iborat eksperimental dalillar bilan neyrofiziologlar Matun, Djasper, Lindsli, Anoxin kabilalar tomonidan tekshirilgan.

Bremer tajribasining ko'rsatishicha, stvolning quyi bo'linmalarini kesish tetiklik (uyg'oqlik) holatining o'zgarishiga olib kelmaydi, lekin stvolning yuqori qismini kesish elektr potensiallarning asta-sekin paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan bo'lgan uyguni vujudga keltiradi.

Lindsli, sensor qo'zg'atuvchini vujudga keltiruvchi mazkur signallar miya po'stlog'iga borishni davom ettiradi, lekin po'stning bu signallarga javobi qisqa muddatli bo'lib, o'zoq vaqtli turg'un o'zgarishni amalga oshirmaydi. Ushbu dalillarning ko'rsatishicha, uyg'oqlik (tetiklik) holatining xarakterlovchi qo'zg'alishning murakkab jarayonlarini vujudga keltirish uchun sensor impulslar oqimining o'zi kifoya qilmaydi. Shuning uchun retikulyar tizimi aktivatsiyasini qo'llab-quvvatlab turuvchi ta'sir zarur.

Lindslining psixologik tajribasiga qaraganda, ko'tariluvchi retikulyar formatsiyaning aktivatsiyasi natijasida stvol yadrosidagi qo'zg'alish hayvonlarda sezgi chegarasini pasaytiradi, ular

uchun oldin mumkin bo‘lmagan ishni amalga oshirish imkoni yaratiladi, nafis farqlash (diffirensirovka) vujudga keladi: konus bilan uchburchak tasvirini aniqlash va boshqalar.

Doti, Ernandes Peon va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, ko‘tariluvchi retikulyar formatsiya yo‘llarining kesilishi oldin mustahkamlangan shartli reflekslarning yo‘qolishiga olib keladi. Biroq retikulyar formatsiya yadrosini qitiqlashda, hatto qo‘zg‘atish chegarasi atrofida bo‘lsa ham shartli reflekslarni yo‘zaga keltiradi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, ko‘tariluvchi retikulyar formatsiyaning aktiv ta’siri (tetiklik) uchun zarur shart bo‘lgan optimal holat bilan miya po‘stini ta’minlaydi.

Jahon psixologiyasi fanida olingen (to‘plangan) ma’lumotlarning aksariyati, ko‘tariluvchi retikulyar formatsiyaning aktivatsiyasi ta’siri o‘ziga xos tanlovchanlik xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Retikulyar formatsiya alohida sensor jarayonlarning tanlab (saralab) faollashuvini barpo qilmasdan, balki bir qancha biologik tizimlarni tanlab faollashuvini ta’minalash zarur: ovqat, himoya, orientir refleksi va hokazolar.

P. K. Anoxinning ko‘rsatishicha, retikulyar formatsiyaning alohida qismlari mavjud bo‘lib, ular turli biologik tizimlar faoliyatini faollashtiradi, shuningdek, har xil farmokologik ta’sirga (agentlarga) nisbatan sezgirdirlar. Masalan: a) uretan-tetiklikni blokada qilib, uyquni keltiradi, b) aminazin-og‘riq, himoya qilish reflekslarini blokada qilib, tetiklikka befarq qoladi.

Demak yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, ushu fikr va mulohazlarni bildirish mumkin: ko‘tariluvchi retikulyar formatsiyani faollashtirish ta’siri tanlovchanlikka ega bo‘lib, bu tanlovchanlik asosiy biologik sistemalar xususiyatiga mos (munosib) tushib, organizmni aktiv faoliyat sari undaydi.

Tushuvchi retikulyar formatsiyani faollashtirish muhim ahamiyat kasb etib, uning impuls tolalari bosh miya po‘stidan (peshona va chakka medial qismlaridan) boshlanib, undan stvolning yuqori bo‘linmalari apparati tomon yo‘naladi. Olimlarning fikricha, mazkur tizim diqqatni oliy formatsiyasining fiziologik mexanizmlariga ta’sir etish nuqtasiga juda yaqin joylashgandir.

Jahon fanida anatomik ma’lumotlarga qaraganda, tushuvchi retikulyar formatsiyaning tolalari bosh miya po‘stining barcha uchastkalariga tarqalgan bo‘lib, eng xususiyatlisi- bu peshona qismining medial va mediobazal bo‘limlaridan boshlanib, to uning limbik oblastigacha davom etadi. Miyaning limbik zonasiga (gippokamda) va bazal uchlariagi neyronlar boshqa neyronlardan farq qiladi, natijada ko‘rish va eshitish qo‘zg‘atuvchilarining ayrim xususiyatlariga nisbatan javob reaksiyasini beradi. Mazkur neyronlar har qanday qo‘zg‘atuvchilarining kuchayishida emas, balki kuchsizlanishida ham faol harakatni yo‘zaga keltiradi.

Bu holatni o‘rgangan kanadalik neyrofiziolog Djasper yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xususiyatlarni nazarda tutib, bu neyronlarni «yangilik neyronlari» yoki «diqqat katakchalari» deb nomlashni tavsiya qiladi. Uning fikricha, hayvonlarning signal kutish, labirintdan chiqish yo‘lini qidirishda, po‘stning xuddi shu oblastlarida neyronlarning 60 foizi paydo bo‘lib, aktiv razyadiga aylanadilar.

Agarda hayvonlarda tayyorgarlik holatini boshqarishda limbik oblastning medial bo‘linmasi va bazal boyqlamlari muhim rol o‘ynasa, insonlarda esa murakkab faoliyat formatsiyaning asosiy markazi miyaning peshona (manglay) qismlari hisoblanadi.

Ingliz fiziologi Grey Uolter o‘z tadqiqotlarida faol kutish (masalan, sinaluvchining 3 yoki 5 signalni kutishi va unga javob tariqasida knopkani bosishi) holatining har qaysisi miyaning peshona qismida elektr tebranishni paydo qilishini va ular «kutish to‘lqinlari»dan iborat ekanligini dalillaydi. Kutilayotgan signalni namoyon bo‘lish imkoniyati ortganda bu to‘lqinlar nisbatan kuchayadi, signallarning ehtimoli pasayganda esa, ular kuchsizlanadi yoki butunlay yo‘qoladi. Ushbu holat vujudga kelsa, signal paydo bo‘lishini kutish ko‘rsatmasi (instruksiyasi) bekor qilinadi.

Miya po‘stini peshona qismining faollik holatini boshqarishda (regulyatsiyasida) qanday rol o‘ynashini dalillovchi tajriba M. N. Livanov tomonidan o‘tkazilgan. M. N. Livanovning guvohlik berishicha, har qaysi aqliy zo‘r berish (matematik topshiriqlarni yechish paytida) miyaning peshona qismida ko‘p miqdorda sinxron tarzda ishlovchi nuqtalarni vujudga keltiradi, bu holat topshiriq yechib bo‘lgunga qadar saqlanadi, keyin o‘z-o‘zidan g‘oyib bo‘ladi. Miya po‘stining peshona qismidagi sinxron tarzda ishlovchi punktlar barqaror xususiyatga egadir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. Miyaning peshona qismi qo‘zg‘ovchini vujudga keltirishda muhim ahamiyatga ega, chunki odamda faollik holatining o‘zgarishi unga bevosita bog‘liqidir. Shuning uchun hayvon yoki odam miya po‘stining limbik

oblastidagi qo‘zg‘ovchilarning kuchayishi tushuvchi retikulyar formatsiya to‘qimalari bo‘ylab harakat qiluvchi impulslar manbai hisoblanadi.

Jahonning yirik neyrofiziologlarning aksariyati, miya po‘stining qismlarini qo‘zg‘atish miya stvoli yadrosining elektr faoliyatida bir qator o‘zgarish yasaydi va bular, o‘z navbatida, orientir refleksini jonlanishga olib boradi, degan xulosaga kelishgan.

Tadqiqotchi S. N. Narikashvilining tajribasida bosh miya po‘stining orqa qismlarini qo‘zg‘atish natijasida ko‘rish tizimining ichkari bo‘limlarining javob reaksiyasida ham keskin o‘zgarishlar yo‘zaga kelishi ko‘zatilgan. Miya po‘stining sensomotor qismini qo‘zg‘atish bilan harakat tizimining po‘stosti bo‘limlari faoliyatini susaytirish yoki kuchaytirish mumkin. Ba’zi bo‘limlarni qo‘zg‘atish orientir refleksi tarkibiga kiruvchi xulq reaksiyalari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikrni tasdiqlovchi tajriba Ernandes Peon tomonidan o‘tkazilgan. Uning tadqiqotida miya po‘stini qo‘zg‘alish o‘chog‘ining kuchayishi tushuvchi retikulyar formatsiya orqali o‘tib butun stvol bo‘ylab tarqalgan. Tajribada mushukning oyog‘i ostiga sichqon yoki baliq tashlanganda, ularni hidlab ko‘rsa, «shilq»etgan ovozga javob beruvchi eshitish nervi yadrosining aktiv elektr razryadlari yo‘qolgan. Bu dalilning ko‘rsatishicha, bosh miya po‘stida qo‘zg‘alish o‘chog‘ining vujudga kelishi miya stvoli faoliyatini to‘sish yoki faollik holatini boshqarish (regulyatsiya qilish) imkoniyatiga ega.

Shunday qilib, bosh miya katta yarim sharlari po‘stini uning stvoli bilan ikkiyoqlama bog‘lab turuvchi ko‘tariluvchi va tushuvchi retikulyar tizim tanlab faollashtiruvchi ta’sirga ega bo‘lib, organizm aktivatsiyasining yuksak formatsiyasi bilan insonning ongli (mehnat, o‘qish, kasbiy) faoliyatini ta’minlab turadi.

Hayvonlarda limbik po‘stga ozor berish (ekstirpatsiya) miya stvoli qismlari elektr faoliyatining keskin o‘zgarishiga olib keladi va ularning xulqida nuqsonlar xosil qiladi. Buning oqibatida orientir refleksida patologik jonlanish nomoyon bo‘ladi, shuningdek, tanlovchanlik xususiyati yo‘qoladi. Kompleks metodlarga asoslangan hozirgi zamon biologiya, fiziologiya, neyrofiziologiya, psixofiziologiya, psixologiya fanlarida ushbu omil miya stvoli strukturasining po‘stosti mexanizmlarini miya po‘sti tormozlash ta’siridan xalos qilish deb baholanmoqda.

Demak, diqqatning neyrofiziologik mexanizmlari to‘g‘risida mulohaza yuritilganda, ko‘tariluvchi retikulyar tizim bosh miya po‘stiga impulslarni yetkazuvchi, formatsiyaning biologik shartlangan shakli ekanligini, tushuvchi retikulyar tizim esa impulslearning faol ta’sirini vujudga keltirish imkoniyatini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

#### **4. Jahon psixologiya fanida diqqat nazariyaları**

Psixologiya fanining aksariyat manbalarida diqqat deb psixik faoliyatning yo‘naltirilishi va shaxs uchun ma’lum darajada ahamiyatga ega bo‘lgan ob‘ektning ustida to‘planishi tushunladi. Diqqat shunday muhim bir psixik jarayonki, u insonning jamiki faoliyatlarida bevosita ishtiroy etadi va ularning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta’minlaydi. I. P. Pavlovnning oliy nerv faoliyatini haqidagi ta’limoti, A. A. Uxtomskiy ilgari surgan dominantlik prinsipi va ularning zamondoshlari tadqiqotlari diqqatning fiziologik assoslari va mexanizmlarini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirish imkonini yaratdi.

Diqqat bilish jarayonlarini (sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalarni) vujudga kelish, rivojlanish va takomillashishning zaruriy shartidir. Bilish jarayonlarining birligi, barqarorligi, o‘zaro ularning uyg‘unligi, samaradorligi, mazmundorligi va tizimliligi bevosita diqqatga bog‘liqdir.

Insonning har bir bilish jarayoni faqat diqqat yordamidagina ro‘yobga chiqsa oladi (lekin qiziqish va irodaviy aktni e’tibordan chetda qoldirmaslik shart). Agarda diqqat passiv (faolsiz) qo‘zg‘atuvchilar yordamida vujudga kelsa, u taqdirda bilish jarayoni mahsuldarligi keskin kamayadi, hatto tormozlanishi ham mumkin. Diqqat kuchsiz, beqaror, ob‘ektga to‘planishi zaif bo‘lsa, kishining diqqati o‘zoq vaqt muayyan vazifani bajarishga ongli ravishda yo‘naltirilgan taqdirdagina bilish jarayoni maqsadga muvofiq amalga oshadi, xolos.

Ob‘ektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, sub‘ektiv ruhiy kechinmalar, muayyan taassurotlar, insonning xulqi, faoliyati diqqatning ob‘ekti bo‘lib hisoblanadi. Diqqat jarayonida ongning voqelikka nisbatan tanlab munosabatda bo‘lishi (to‘planish, qaratilish, yo‘naltirish, mustahkamlanish)xususiyati namoyon bo‘ladi. Odamning biron-bir ob‘ektga e’tiborini yo‘naltirar

ekan, u ongida faqat xuddi shu ob'ektning o'zinigina aks ettirib qolmasdan, balki ayni bir davrda qolgan narsalar va hodisalarini ong doirasidan chetda qoldirmaydi. Diqqatning ko'lami qanchalik keng doiraga yoyilsa, demak, u tanlangan ob'ektning miqdori shunchalik ko'p bo'ladi va boshqalar.

Sobiq sovet psixologiyasida diqqat muammosi bo'yicha xorijiy psixologiya faniga nisbatan ancha murakkab, mustaqil, ilmiy manbalarga ega hisoblanadi va u shu bilan o'zaro farq qiladi. Lekin sobiq sovet psixologiyasida diqqatga nisbatan mukammal, qat'iy fikr vujudga kelgani yo'q, lekin uning atrofida juda ko'p tortishuvlar, munozaralar bo'lib o'tgan. Diqqatning psixologik tabiatini to'g'risidagi XX asrning 20-30 yillarda boshlangan ilmiy bahslar to'hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Ilmiy munozaralarning zamirida asosiy fikr-diqqatning bitta ob'ektga qaratilishidir. Bu ilmiy model ong-ob'ektda tarzda ifodalanadi. Bu g'oya yirik psixolog P. P. Blonskiy tomonidan ilgari surgan va asoslangan. Uning fikricha, odamning ongi bitta ob'ektga qaratilgandan keyin u atrofdagi narsa va hodisalarini ko'rmaydi. Ko'pchilik psixologlar P. P. Blonskiyning bu fikriga qo'shilmaydilar. Jumladan, atoqli psixolog S. L. Rubinshteyn mulohazasiga ko'ra, diqqat ongga ham, ob'ektning xususiyatlariga ham bog'liq emas. Buning ahamiyatli tomoni diqqatning ob'ektga yo'naltirilishidadir. Mazkur yo'naltirishning asosiy sabablari: shaxs, ehtiyoj, maqsad. Demak, diqqat odamning munosabati orqali ifodalanadi: diqqat-munosabat. Lekin bu o'rinda odamning diqqati shaxsnинг xususiyatiga aylanib qolmasmikin? Ikkinchisi bir tomonidan, odam o'z diqqati xususiyatlariga qarab, ularni o'zaro bir-biridan farq qilish mumkin.

Psixologiya fanida diqqatni o'rganishning yana ikki xil nazariyasi mavjuddir (kursiv bizniki-E. g.). Birinchi nazariya negizida ongning bir nuqtaga yo'nalgaligi yotadi. Ikkinchisi nazariyaga binoan uning zamirida organizmning orientirovka faoliyati turadi. Ushbu gipotezelarni ilgari surgan psixologlar diqqatni yo'nalgaligining ob'ektga bog'liqligini va unda jarayonni boshqarish imkoniyati mavjudligini tushuntirishga harakat qiladi. N. F. Dobrinin, A. N. Leontev, P. Ya. Galperinlarning fikricha, organizmning qidiruv harakatlari, orientirovka faoliyati ikki qismdan iboratdir.

Diqqat qaratilgan tashqi ifodaga ega bo'lgan ob'ektni sezish, idrok qilish. Shu yerda qarama-qarshilik vujudga keladi: chunki ob'ektning yo'qolishi bilan diqqat ham o'z funksiyasini tugatadi. A. N. Leontev mulohazasiga ko'ra, bu orientir faoliyati emas, chunki ob'ektning paydo bo'lishi bilan diqqat ham namoyon bo'ladi, ob'ekt yo'q bo'lsa, demak diqqat ham bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. P. Ya. Galperin esa, ob'ektning paydo bo'lishi bilan diqqat yo'zaga keladi. Ob'ekt yo'qolganidan keyin esa psixik qism bo'lgan tekshirish, nazorat qilish jarayoni boshlanadi. Demak, diqqat ongini bir ob'ektga yo'naltirilishi va ongli holatni nazorat qiluvchi jarayondan iboratdir.

Psixologiyada diqqatni «yo'naltirilishi» deganda, psixik faoliyatning tanlovchanligi va ixtiyoriy hamda ixtiyorsizligi tushuniladi. Bu to'g'rida mulohazalar boshqa sahifalarda davom ettiriladi.

XX asrning 20-yillarda bir qancha psixologlar diqqat muammosini ustakovka bilan boqlab tushuntirdilar. Buning yaqqol isboti K. N. Kornilov tahriri ostida 1926 yilda chop qilingan psixologiya darsligidagi bir mavzu «Ustanovka va diqqat» deb atalganligidir. Darslikda yozilishicha, qator ob'ektlardan bir ob'ektni ajratish diqqatning sub'ektiv kechinmasidir va buni ob'ektiv hodisalar bilan taqqoslash sezgi organlarining ustakovkasidan- ishslash vaziyatidan iboratdir.

Shunga o'xshash g'oya L. S. Vigotskiyning dastlabki tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. L. S. Vigotskiy diqqat bilan aloqador bo'lgan ikkita ustakovka turini ajratib ko'rsatadi:

Sensor ustakovka - tayyorgarlikda idrokning ustunligi qobiliyati.

Motor ustakovka - tayyorgarlikda harakatning ustunligi qobiliyati.

Sensor ustakovkada idrok, motor ustakovkada esa harakat ustunligi sezilib turadi. L. S. Vigotskiy bularga misol qilib jismoniy tarbiya mashg'ulotida komanda (buyruq) berishni keltiradi. Safda turganlarga qarab «O'ng» deb aytamiz. Shu zahotiyoy saflanganlar buyruq oxirini aytishga sensor ustakovka qo'zg'aydi «ga !» deyish oyoqlarni aylantirishga moslashish bilan bog'liq motor ustakovka komanda oxirini eshitishni ta'minlaydi.

Bu yillarda psixologlar ustakovkani kishining ijtimoiy tajribasi bilan bog'liq ravishda tadqiqot qilishga harakat qilganlar. P. P. Blonskiyning mulohazasicha, diqqatning asosida kishining ijtimoiy qiziqishlari yotadi. Psixologlar orasida diqqatni tushuntirishda turli qarashlar, nazariyalar

vujudga keladi. Vaholanki, P. P. Blonskiy diqqat bilan qo‘rquv, vahimani bir narsa deb qaradi. Qo‘rquv-bu diqqatning intensivroq namoyon bo‘lishi, ya’ni maksimal darajada aks etishi deb tushuntiradi. Bu yerda psixik faoliyatning ma’nosи butunlay yo‘qotib ko‘rsatilgan tuyuladi va diqqat biologik nuqtai nazardan qaralganga o‘xshab ketadi. Biologik pozitsiyada diqqat bosh miya yarim sharlari faoliyati bilan emas, balki vegetativ nerv tizimi bilan bog‘liqlikda tushuntiriladi.

Taniqli psixolog D. N. O’znadzening diqqatni ustanovka bilan bog‘lash nazariyasiga N. F. Dobrinin qarshi chiqdi. N. F. Dobrinin fikricha, diqqatning ustanovka bilan bog‘lovchi nazariyasi quyidagi jihatlarni hisobga olmagan. Diqqat haqiqatdan ma’lum moslashuvchi harakatlar bilan birga bo‘ladi, lekin bu harakatlarga borib yetmaydi. Agar tomoshabin sahnadan o‘girilsa, ko‘zini yumadi, qulog‘ini berkitadi, u sahnada nima bo‘layotganiga diqqat qilolmaydi. Sahnaga qarash va eshitish uchun boshqa hamma narsalardan chalg‘ish kerak va idrokni sahnada bo‘layotgan hodisalarga qaratish lozim. Qarab turib ko‘rmaslik, tinglab turib eshitmaslik mumkin. Diqqat shundan iboratki, u nimaga qaratilgan bo‘lsa, uni ko‘rish demakdir. Yuqorida mulohazalardan kelib chiqqan holda N. F. Dobrinin diqqatni kishi psixik faoliyatini biron-bir ob‘ektga yo‘naltirish va to‘plash bilan boshqa ob‘ektlardan chalg‘ish orqali tushuntiradi.

Diqqatning psixik faoliyatning qandaydir ob‘ektga yo‘nalishi va to‘planishi orqali o‘rganishni qator mualliflar tanqid qiladilar. Ana shulardan biri S. L. Rubinshteyndir. S. L. Rubinshteyn diqqatni alohida mazmunga (mahsulga) ega emasligiga qo‘shiladi, lekin uning guvohlik berishicha, diqqatni biror ob‘ektga tanlab yo‘nalishi uning fenomenologik xarakteridir. Bunday fenomenologik xarakteristikada ham diqqatning tabiatini va xususiyatlari ochilmay qolaverar ekan.

Mana biz diqqat nazariyalari yo‘zasidan muayyan darajada ma’lumotga ega bo‘ldik. Ijtimoiy turmushda diqqat xususiyatlari ahamiyatligining oshishi-uning eksperimental tarzda o‘rnatalishiga muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Diqqatning ahamiyatligi qanday muammolarda namoyon bo‘lyapti? Ushbu savolga javob berishdan oldin ilmiy-texnika revolyutsiyasi kishilar oldiga qanday masalalar qo‘yayotganligini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Bular:

bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik ob‘ektlarni qabul qilish;

distatsion boshqarish, ya’ni informatsiyani boshqarish;

har xil operatsiyalarning tez va aniq bajarilishini ta’minalash va boshqalar. Bular kishining faoliyatida alohida psixik jarayonlarning aniq, ravshan va ravon yo‘zaga chiqishini ta’minalaydi.

Diqqat ta’kidlab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Diqqatning xususiyatlari, ayniqsa uning kuchi va barqarorligi tanlovchanligi, bo‘linuvchanligi, ko‘chishi, ko‘lami (hajmi), taqsimlanishi, to‘planishi, mustahkamlanishi kabilarning ahamiyati kattadir. Odamning har qanday faoliyatida diqqatning ishtirot qilishi (qatnashishi), bu faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyatli chiqishini ta’minalaydi. Diqqatning kuchi va barqarorligi-bu shunday xususiyatki, buning negizida qilinayotgan ishning natijasi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Diqqatning kuchi va barqarorligi o‘z odam faoliyatini biror narsaga yoki hodisaga muttasil ravishda o‘zoq vaqt davomida qaratib turilishidir.

Diqqatni faoliyat ustida to‘plash va ushlab turish uchun faoliyatni to‘g‘ri tashkil qila bilish kerak. Masalan, 10-12 yoshli bolalar 40 minut davomida tanaffo’zsiz ishlashlari mumkin. Agar faoliyat qiziqrarli tashkil qilinsa, u holda bundan ham ko‘proq vaqt mashg‘ul bo‘lishlari mumkin.

Psixolog G. S. Bakradze diqqatning ob‘ektda to‘planishi faoliyatning roli haqida qiziqrarli ilmiy tekshirish tajribasini o‘tkazgan. Agarda diqqat zaifligini tekshiruvchi o‘z vaqtida payqab, unga nisbatan qandaydir muskul harakatini amalga oshirsa, u yana tiklanadi. Bulardan tashqari, diqqat barqarorligi faoliyatning xarakteriga, shaxsning o‘ziga bog‘liqligi bir qancha psixologlar tomonidan isbotlangan.

Jumladan, A. P. Gazova diqqatning bo‘linuvchanligini ko‘p stanokda ishlovchi to‘quvchilarda o‘rganib, juda qimmatli materiallar yig‘adi. Uning fikricha, diqqat bu kasbdagi odamlarda ixtiyororsiz va ixtiyoriy muvozanatlashgan bo‘lishi mumkin. Bir nechta stanokda ishlash malakalari hosil bo‘lishi natijasida bularda ixtiyoriy muvozanatlashgan diqqat turi vujudga keladi.

Diqqatning bo‘linuvchanligi ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikkita yoki uchta ishni birdaniga bajarish mumkin, bunda I. P. Pavlov ko‘rsatganidek, ulardan biri tanish (ishdan oldin bajarilganligini eslatuvchi) va bosh miya yarim sharlar po‘stlog‘ida «navbatchi punktlar» mavjud bo‘lsa. Ikkiti faoliyatni bir davrning o‘zida bajarish uchun faoliyatning biri

diqqatni talab qilmaydigan yoki avtomatlashgan bo‘lishi talab qilinadi. Kishida bunday imkoniyat faqat mashq qilish orqaligina yo’zaga kelishi mumkin, xolos.

Diqqatning ko‘chuvchanligi mezoni (kriteriyasi) faoliyatimizning bir turdan ikkinchi turga aylanishidir. Jumladan, telefonistka diqqatini tezkorlik bilan bir abonentdan ikkinchisiga ko‘chirishi bunga yorqin misoldir. Diqqatning ko‘chuvchanlik xususiyati sekinlashuvi uning sifati pasayishiga olib keladi. Diqqatning ongli ravishda ko‘chishi namoyon bo‘lsa-da, lekin ayrim hollarda ongsiz holatda inson diqqati bir ob‘ektdan ikkinchisiga ko‘chishi ham mumkin. Misol uchun tabiat quchog‘iga sayr qilish chog‘ida, kino film tamosha qilishda xuddi shunday ko‘chish holati yo’zaga keladi.

Diqqatning xususiyatlaridan keng doirada va aniq o‘rganilgani uning qo‘lami (hajmi) bo‘lib hisoblanadi. Diqqat qaratilgan narsalar va hodisalardan qanchasi ongimiz ob‘ektidan joy olgan bo‘lsa, demak uning shu bilan ko‘lami(hajmi) o‘lchanadi. Diqqat ko‘lami (hajmi) taxistoskop degan asbob yordamida aniqlanadi. Taxistoskop ekranida tekshiriluvchilarga bir to‘p harflar ko‘rsatiladi.

Ob‘ektdagi narsalarni idrok qilishda ularni to‘la aks ettirish mumkin emas. 0, 1 sekund oralig‘ida ob‘ekt yaqqol namoyish qilinsa, o‘rtacha 5-9 tagacha harflar idrok qilinadi. Agarda tanish so‘zlar idrok qilinsa, uning ko‘lami 12 tagacha ortishi mumkin. Bu asbob yordamida chet el psixologiyasida diqqatning ob‘ektiv va sub‘ektiv tiplari o‘rganiladi: A) ob‘ektiv tip-kamroq idrok qilinsa-da, lekin aniqligi bilan ajralib turadi; b) sub‘ektiv tip- ko‘p idrok qilinsa-da, biroq noaniq, shuningdek, o‘zidan qo‘shilgan ortiqcha elementlarga serobdir.

Sobiq sovet psixologiyasi fani namoyandalari, jumladan N. F. Dobrinin o‘zi va shogirdlari o‘tkazgan tekshirishlariga asoslanib, bunday tipologiya diqqatning mohiyatini ochishga yetarli emas deb, hisoblaydi. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular ob‘ektni ham ko‘p, ham aniq idrok qila oladilar. Yana shunday toifadagi kishilar mavjudki, ular narsalarni ham kam, ham noaniq idrok qiladilar, o‘zlaridan ko‘p narsalarni qo‘shib yuboradilar.

Tadqiqotchi Ye. B. Pirogova o‘quvchilarda eshitish va ko‘rish diqqatini o‘rganib, eshitish diqqatining ko‘lami (hajmi) ko‘rish diqqatidan bir necha bor kichikligini ta’kidlab o‘tadi.

P. Ya. Galperin diqqati sust bo‘lgan bolalar ustidan «aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi» ga asoslanib, bir necha seriyadan iborat tajriba ishlarini olib borgan. «Aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish» tajribasi 5 seriyadan iborat bo‘lib, uning birichi qismida 23 ta sinaluvchi (3-sinf o‘quvchilari) qatnashgan. Ularga 14ta xatosi bor tekst (matn) berilib, ularni to‘zatish vazifasi qo‘yiladi. P. Ya. Galperin nazariyasiga binoan, bu asosda bolalarga orientirlashni shakllantirish kerak. Shuning uchun 1-seriya «Orientirlash asosi» deb nomlanadi.

Tajribaning 2-seriyasi esa, «Moddiylashtirish» deb atalib, 9 ta sinaluvchidan 20-25 minut davomida o‘tkaziladi. Bu tajriba individual tarzda olib boriladi. O‘quvchilar matndagi xatolarni topib, ularni kartochkalardan tekshirishlari (taqqoslashlari) kerak. Tajribada 5 ta o‘quvchi ko‘proq qiyinchiliklarga duch kelishadi, ovoz chiqarmasdan o‘qib, tezgina xatolarni to‘zatishadi.

3-seriya ob‘ektni ovoz chiqarib muhokama qilish deyiladi.

Berilgan topshiriqni bajarish jarayoni birmuncha qiyin ko‘chadi. Chunki, hali bu yoshda bolalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish shakllanmagan bo‘ladi. Shuning uchun tajribada uy topshiriqlarini o‘quvchilar mustaqil tarzda yechadimi yoki yo‘qmi nazorat qilish ota-onalardan iltimos qilinadi.

Va nihoyat, shunga erishildiki, «diqqatsizlik» yo‘qolib, o‘qishga munosabat o‘zgaradi. Ularda intiluvchanlik va qunt shakllanib, o‘z-o‘ziga ishonish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish paydo bo‘ladi.

4-seriya shivirlab o‘zi uchun mulohaza yuritishdan iboratdir. Bu seriyada «diqqatsizlik» tufayli qilinayotgan xatolar barham topadi. Bolalar ushbu bosqichda 0, 2 xatoga yo‘l qo‘yadilar, xolos.

5-seriya-«Dilga jo qilish» («v ume») dir. Bu seriyada eksperimentatorlar o‘z oldilariga nazorat qilish xatti-harakatlarini umumlashtirish vazifasini qo‘yadilar.

«Shaxmat doskasiga figura holati to‘g‘riligini tekshir»

«Shular orasidagi o‘xshashini top»

«Namunaviy kartochkadagi raqam bilan bunisidagi (kartochkadagi) raqam bir xilmi, tekshir»

«Betartib joylashgan raqamlar ichidan mana bunaqasini top» va boshqalar.

Umuman olganda, 3-seriyaning natijalaridanoq ko‘rinadiki, topshiriqlar ko‘lmini (hajmini) kengaytirib nazorat qilish xatti-harakatlarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Diqqat muammosini o‘rganuvchi olimlar uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog‘liqligi va roli masalalarini o‘rganganlar. Jumladan, N. N. Lange, A. R Luriya va boshqalar.

N. N. Lange diqqatning iroda, reflektiv, instinctiv, perceptiv holatlar bilan bog‘liqligini o‘zingiz «Irodaviy diqqat nazariyası» asarida ko‘rsatib beradi. A. R. Luriyaning fikricha, kichik yoshdagι bolalarda diqqatning bu holatini ko‘rish oson. Birinchi bosqichda u beqarorligi va ko‘laming torligi (bola dastlabki yoki maktabgacha yoshida yangi paydo bo‘lgan qo‘zg‘atuvchini yo‘qotadi, orientir refleks unda juda tez so‘nadi yoki boshqa qo‘zg‘atuvchilarini tormozlaydi) uchun qo‘zg‘atuvchilar qurshovidagi diqqatni bo‘lomaydi. Biz o‘quv faoliyatida diqqatni shakllantirishda irodaviy diqqat bilan emotsiyalarning qiziqishning birlashuviga, ko‘z yogurtirish, illyustratsiyalarini chuqur tahlil qilish, mantiqiy urg‘uga e’tibor berish, tekstdan mantiqiy xatoni topish, undagi nuqsonlarni payqash usullaridan foydalanan tajriba o‘tkazib, diqqatni asoslanganmiz. Tajribalarda topshiriqni bajarish uchun unga diqqat yo‘naltiriladi, uni yechish faoliyatida esa diqqat shakllantiriladi.

Rus psixologi N. N. Lange o‘zining «Irodaviy diqqat nazariyası» degan kitobida (1893 yilda bosingan) diqqatning nazariyasiga bag‘ishlangan jamiki ishlarning xronologik tarzda turkumlarga (guruuhlarga) ajratib xayrli ishni amalga oshirgan. Uning nazariy mulohazalarini turkumlashtirish muammosi yo‘zasidan fikrlar P. Ya. Galperinning asarida ham keng joy ajratilgan (P. Ya. Galperin, S. L. Kabilnitskaya. Formirovanie (eksperimentalnoe) vnimaniya. M. : MGU, 1974).

N. N. Lange diqqat muammosini o‘rganishning qadimgi davrdan boshlab, to XIX asrgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichini sakkiz turkumga ajratgan holda tahlil qiladi va ularning har birini o‘ziga xos xususiyatlari atroficha ochib beriladi.

N. N. Lange birinchi turkumga (guruhgaga) diqqatning motor nazariyasini yoqlab chiqqan olimlarni kiritadi: R. Dekart, Ya. Friz, F. Bek, G. Lotse, T. Sien, R. Ribo, N. N. Lange. Ta’kidlab o‘tilgan nazariyalarning barchasida diqqat motor harakatni moslashish natijasi sifatida vujudga kelib, shu zahotiyoy predmetni idrok qilishni yaxshilaydi yoki g‘oyalarning aqaliy jihatdan oqilona tahlil qilishni taqozo qiladi. N. N. Langening ta’kidlashicha, bu hol diqqatni nazariy tadqiq qilishdagina namoyon bo‘lib, uch xil o‘zaro o‘xshamagan holatni hisobga olishni taqozo qiladi: a) g‘oya yoki ob‘ektni dastlabki bosqichini payqash, b) ularni idrok qilish jarayonini takomillashtirish, v) g‘oya yoki predmetni aniq va ravshan idrok qilish natijasini hisobga olish. Muallifning uqtirishiga binoan, diqqatni tadqiq qilish uning ikkinchi zvenosiga yo‘naltirilishi lozim, buning shu jarayonga qaratilishi natijasida uning mexanizmini aniqlash imkonini bersin, ob‘ekt bilan dastlabki tanishishni takomillashtirish uchun xizmat qilsin. N.N.Langening shaxsiy nuqtai nazari shundan iboratki, har qaysi sezgi va g‘oya qaysidir, harakat bilan bog‘liq bo‘lib, harakatni esga tushirish (tiklash) davomida sezgi va g‘oyaning qo‘shimcha kuchayganligi to‘g‘risida ma’lumot beramiz.

Ikkinchi turkumga N. N. Lange diqqat ong ko‘laming cheklanishi degan nazariyalarni kiritadi: jumladan, I. Garberg, V. Gamilton kabilalar. Bularning tushuntirishlariga ko‘ra, diqqat bu ong ko‘laming cheklanishdan iborat bo‘lib, «kuchlilar» nisbatan kuchsizlarini siqib chiqarish bilan xarakterlanadi.

Uchinchi turkumga ingliz assotsianistik empirizm klassik nazariyasi kiradi (D. Xartli, P. Braun, Dj. Mill, A. Ben kabilalar). Mazkur guruhgaga kirgan olimlarning mohiyatidan iborat bo‘lib, u alohida jarayon sifatida hukm surmaydi. Ana shundan kelib chiqqan holda ushbu psixologik maktabning namoyandalari, sodda his-tuyg‘ular (mamnuniyat-mamnun bo‘lmaslik) va oddiy xotira bilan tenglashtirib qo‘yadi. Ularning fikricha, diqqatni o‘ziga tortadigan narsa bu qiziqish bilan bog‘liqidir, ma’lumki qiziqish emotsiyaning aynan o‘zidir: emotsiya esa ob‘ektga idrok yoki tasavvurni jalb qiladi, assotsiatsiya o‘rniga intensivlik, anqlik, ravshanlik, barqarorlik kabilarni olib keladi.

Beshinchi turkumni shunday diqqat nazariyalari tashkil qiladiki, qaysiki diqqat operatsiyalarining birlamchi ruhiy qobiliyat tariqasida namoyon bo‘lishi (G. Leybnits, I. Kant, V. Vundt), ichki iroda birlamchi ruhiy kuchning avtonomiysi(U. Djems) dan iboratdir. Bu nazariyalarda diqqatning faollik xususiyatini tan olishlarini ta’kidlab o‘tsalarda, lekin ularchasiga, diqqat hamma narsani tushuntirish uchun xizmat qilsa-da, biroq uning o‘zini xaspo‘shlash juda mushkul, shuning uchun ularning negizida qandaydir g‘ayritabiylilik (binobarin, noilmiylik) yotadi.

Beshinchi turkumni shunday diqqat nazariyalari tashkil qiladiki, ularning talqinicha, diqqat bu oliy nerv markazlaridan keladigan qo‘shimcha nerv qo‘zg‘alishlarining faoliyatidan iborat

bo‘lib, obraz yoki tushunchalarning kuchayishiga olib keladi (R. Dekart, I. Miller, Sh. Bonne). Bu nazariyalar diqqatni shunday ta’riflaydiki, hissiy organlardan keladigan qo‘zg‘ovchiga markaziy nerv uchastkalari nerv impulslarini yuborib turadi, natijada impuls tashqi qo‘zg‘atuvchining u yoki bu tomoniga to‘planadi, ularga qo‘shimcha aniqlik va ravshanlik kiritadi. Bu o‘rinda N. N. Langening ushbu holat fiziologik gipoteza (taxmin) emas ekanligini aniq payqash qobiliyatini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki mazkur fiziologik terminlar, omillar, dalillar zamirida diqqat jarayoni muallif tomonidan shaxsan o‘zi ko‘zatganligi turadi.

Oltinchi tukumini tashkil qilishda N.N.Lange to‘rtinchi guruhda qayd qilingan nazariyaga qaytatdan murojaat qiladi. Agarda to‘rtinchi turkumda appersepsiya va irodaning idealistik talqini yo‘zasidan mulohaza yuritilgan bo‘lsa, oltinchi guruh nazariyalarida ularning ruhiy yoki psixologik faolligi to‘g‘risida fikr bildiradi.

N. N. Lange yettinchi guruhga diqqatni bir narsa bilan mashg‘ul bo‘lishi faoliyati sifatida talqin qiladigan nazariyalarni kiritadi (G. Ulritsi, G. Lotse). Lekin faoliyat to‘g‘risidagi g‘oya bu olimlar tomonidan yoritilib berishga harakat qilingan, lekin bir narsa bilan mashg‘ul bo‘lish ruhiy faoliyatni har qanday mazmunli, ob‘ektiv, predmetli faoliyatga qarama-qarshi qo‘yish to‘la-to‘kis mazmunsiz faoliyat haqida fikr yuritishga olib kelgan.

N. N. Lange diqqat nazariyalarining sakkizinchı turkumini amalga oshirishda nerv jarayonining ontogenetik o‘zaro ta’sirini asos qilib oladi. Bunda ongi muayyan ob‘ektga to‘planishi nerv jarayonlari bilan bog‘liqligi va ular diqqatning fiziologik assosini tashkil qilish mezonini ekanligi muallif tomonidan dalillab beriladi. Bu haqida diqqatni o‘rganish metodlari sahifamizda fikrlarni yana davom ettiramiz.

Shunday qilib, N. N. Lange yuqorida mulohaza yuritilgan asarida bir tomonidan, tarixiy, ikkinchi tomonidan, ilmiy-eksperimental jihatdan diqqatni yoritib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Shuning uchun bu asar o‘zining qiymatini hali yo‘qotganicha yo‘q.

## 5. Diqqatning pedagogik psixologiyada o‘rganilishi

Ulug‘ rus pedagogi K. D. Ushinskiy ishlardida diqqat to‘g‘risida juda iliq fikrlar aytilgan. Uning fikricha, diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o‘tib kradi. Diqqat ob‘ektni to‘la va aniq idrok qilish qobiliyatiga ega. Ziyaraklikning qator sabablariga oldin idrok qilingan ob‘ekt izlarining ahamiyatidan tashqari, Ushinskiy «ta’sirotning kuchi va to‘plangan aktlarni boshqara olishni ko‘rsatadi. Bolaning rivojlanishi uning diqqatini to‘g‘ri yo‘naltira bilishdaligini muallif ko‘rsatadi. Diqqatning to‘laligi, barqarorligini ta’minlovchi to‘planishning psixologik mexanizmlarini muhokama qilish ham Ushinskiyning asarlarida uchraydi. U diqqatning asosiy omili irodaviy boshqarish deb hisoblaydi. Shuning uchun diqqatni maqsadga yo‘naltirib boshqara olish qiyin va murakkab jarayondir. K. D. Ushinskiyning ko‘rsatishicha, kishi o‘z hissiyotlarini diqqat orqali boshqaradi, bunda u ixtiyoriy yo‘naltiriladi. Muallif diqqat turlarini ixtiyorsiz yoki passiv, ixtiyoriy yoki aktiv kabilarga ajratadi. Uningcha, ixtiyoriy diqqat bizning tomonimizdan zo‘r berish orqali o‘ziga predmet tanlaydi. Ixtiyoriy diqqatni ob‘ektivlashtirish uning faol xususiyatidan biridir. Chunki, u kishining o‘zi orqali qo‘zg‘atiladi va qo‘llaniladi.

K. D. Ushinskiyning aytishicha, ixtiyorsiz diqqat tashqi va ichki sabablarga ko‘ra hosil bo‘ladi. Tashqi sabablar, qo‘zg‘atuvchining kuchiga, organizmning ayni vaqtdagi holatiga bog‘liq. Passiv diqqatning ichki sabablari bizning sezgilarimiz izlarini bog‘lanishidir. Idrok qilingan ob‘ektning yangiliklar bosqichini diqqatning istovchi omili ekanligini muallif farqlaydi. Diqqat qaratilayotgan ob‘ekt ma’lum o‘lchovda bo‘lishi kerak.

Diqqatning psixologik tahlilini K. D. Ushinskiy tarbiya muammosi bilan bog‘laydi. Diqqatni boshqara bilishni aqliy rivojlanish va amaliy faoliyat uchun asosiy omil deb hisoblaydi. Diqqatning maqsadga muvofiq boshqarish-idrok qilish paytida va asosiy ishdan tashqaridagilarga chalg‘imaslik tushuniladi. Tarbiyachilarining vazifasi bolalarning aktiv diqqatini to‘g‘ri yo‘nalishda ko‘rish va ularning diqqatini o‘zlarini boshqarishga o‘rgatishdan iboratdir.

K. D. Ushinskiy tomonidan yechilgan muammolar, o‘tkazilgan tekshirishlar shuni ko‘rsatib turibdiki, u ongi to‘planish qobiliyatini diqqat bilan tushundi, u diqqatni o‘rganishda shaxs psixologiyasidan kelib chiqdi. Tabiiy-ilmiy tushuntirishda o‘z davrining fiziologik bilimlaridan unumli foydalandi.

XX asrning 40-yillarda psixologiya fani bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Psixologiya fani nazariya va tajribaga asoslangan holda juda ko‘p muammolarni yechishga muvaffaq bo‘ldi. Nazariy jihatdan katta o‘rin olgan masalalardan biri – «oliy psixik funksiyalarining rivojlanishi va strukturasi» to‘g‘risidagi L. S. Vigotskiy ilgari surgan konsepsiyalardir. Buning asosida ikkita gipoteza yotadi.

A) psixik faoliyatning xususiyati haqida.

B) birlamchi tashqi va ichki faoliyatdan ichki psixik jarayonlarning namoyon bo‘lishi.

L. S. Vigotskiy psixik funksiyalar rivojlanishini o‘rgana borib, shular ichiga ixtiyoriy diqqatni ham kiritadi. Uning fikricha, bola diqqatining tarixi-bu bola xulqining paydo bo‘lishi tarixidir. L. S. Vigotskiy ishlarining xarakterli tomoni kishi psixikasini tushunishda tarixiy va genetik yondashishdir. Buni u diqqatni o‘rganishga ham tatbiq qilgan va diqqatning rivojlanishini ko‘rsata olgan. Muallif diqqat rivojlanishining ikkita yo‘nalishini ko‘rsatadi.

1. Diqqatning natural (tabiiy) rivojlanishi. Bunda muallif umumorganik rivojlanishini tushuntiradi, ya’ni markaziy nerv tizimining strukturaviy va funksional jihatdan o‘sishini ko‘rsatadi. Bu rivojlanish butun hayot davomida sodir bo‘ladi, ammo bunda «sekinlashgan» va «bir oz pasaytirilgan» ko‘rinishlar mavjud.

Diqqatning madaniy rivojlanishi. Bunda ixtiyoriy diqqatni namoyon bo‘lish xususiyati madaniy konsepsiya bilan bog‘liq deb tushuntiriladi. Katta yoshdagi odamlar diqqatining psixologik mexanizmi haqida gapirib, tashqi operatsiya organzm xatti-harakatini ichki operatsiyasiga aylanadi, deydi. Madaniy rivojlanish bola tashqi muhit bilan aloqaga kirisha boshlaganidan o‘ssa boshlaydi.

Madaniy rivojlanish nazariyasining bir necha bahsbop tomonlari mavjud. Bularidan biri-bu bola diqqatini rivojlanishning «natural» fazasidir. L. S. Vigotskiy «interiorizatsiya» fikrini ilgari surganida, ya’ni ichki psixik faoliyatni tashqi amaliy faoliyatdan kelib chiqishi, tashqi harakatlarning ichki harakatlarga, narsalarning obrazlariga va ular haqidagi tushunchalarga aylanish jarayonini nazarda tutadi. Bu bilan psixik rivojlanishning bitta qonuniyatini ochdi, lekin bu to‘la xarakteristika bo‘la olmaydi, chunki bunda mazkur jarayon bilan birga «eksteriorizatsiya» jarayoni mavjud ekanligi diqqat markazidan chetda qoldi.

L. S. Vigotskiyning ilmiy yutug‘i shundan iboratki, u diqqat muammosini o‘rganishda ijtimoiy va genetik nuqtai nazardan yondashdi. Ixtiyoriy diqqatni tashqi stimullar vositasida nutq funksiyasini yo‘naltirish deb tushuntira oldi.

L. S. Vigotskiy ishlarini A. N. Leontev ijodiy davom ettirib, ixtiyoriy diqqat rivojlanishini o‘rgandi. U ixtiyoriy diqqatni xatti-harakatni boshqarishni oliy formasi va tarixiy rivojlanish mahsuli deb tushundi. Bolalarda diqqat formalarini tahlil qilib, ularning 3 ta bosqichi mavjud ekanligin ko‘rsatadi:

1. Natural bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aktlardan iborat.

Bunda to‘planish ixtiyorsiz namoyon bo‘lib, asosan maktabgacha bo‘lgan bolalarda vujudga keladi. Ya’ni bu bolalar o‘z xulq-atvorlarini o‘zlarini boshqara boshlaydilar.

2. Tashqi belgining ahamiyatini egallash, tushuna bilishlar turadi. Bu bosqich boshlang‘ich ta’limda asosiy rol o‘ynaydi.

Tashqi taassurotlarning ichki ta’sirlariga aylanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu asosan katta yoshdagi kishilarda uchraydi.

O‘zoq vaqt A. N. Leontev maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini tekshiradi. Chunonchi, idrok bilan diqqat aloqasini o‘rganadi. Diqqat shunday psixologik hodisaki, u idrokning qanday kechishi bilan belgilanadi, deb tushuntiradi. A. N. Leontev o‘zining keyingi ishlarida o‘quvchilar diqqatini rivojlantirish va ularda idrokni boshqarish, ko‘rish, eshitish, qo‘yilgan topshiriqni tushunish kabilarni egallahda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi.

N. F. Dobrinin diqqatni kishining psixik faoliyatini biron-bir obektga yo‘naltirish va to‘plash bilan boshqa obektlardan chalg‘ish orqali tushuntirdi. Agar yo‘nalish va to‘planish ixtiyorsiz bo‘lsa, ixtiyorsiz diqqat vujudga keladi. Agar ong qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lsa, u holda ixtiyoriy diqqat namoyon bo‘ladi. Bular bilan bir qatorda N. F. Dobrinin diqqatni uchta turga ajratadi. Uning fikricha, diqqatning uchinchi turi “ixtiyoriydan keyingi diqqat” deb ataladi. Bu ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan bo‘lib, irodaviy zo‘r berishni talab qilmaydi. Bular to‘g‘risida N. F. Dobrinin shunday deydi: “Ixtiyoriy diqqatda qiziqishni, intilishni o‘rnini bor, lekin bu qiziqish faoliyatning natijasiga qiziqishdir. Faoliyatning o‘zi esa qiziqarsizdir. Kishi psixik faoliyatining ajoyib xususiyati shundan iboratki, ya’ni natijaga qiziqish, jarayonga qiziqishga

aylanadi. Bu ixtiyoriy diqqat ixtiyoriydan so‘nggi diqqatga aylanganda bo‘ladi” (Dobrinin N. F. Vnimanie i yego vospitanie. Izd-vo “Pravda”. M. : 1951, str. 22).

B. G. Ananев “O‘quvchilarda diqqatni tarbiyalash” (Vospitanie vnimanie u shkolnikov) nomli asarida diqqatni hamma vaqt tekshirish, tadqiq qilish kerak, deydi. Buning uchun mana bunday holatlarga e’tibor qilishni ko‘rsatib o‘tadi: darsni to‘g‘ri tashkil qilish, ta’limning puxtaligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘quvchilarning darsdagi faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila bilish kabilarni ta’kidlaydi. B. G. Ananев bu bilan diqqatning o‘zoq vaqt bir obekt ustida to‘play bilish kerakligini uqtiradi.

Diqqat muammosini tadqiq qilish I. V. Straxov asarlarida ham o‘z aksini topgan. Quyida ularning asosiy mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz.

Kishi diqqatining kelib chiqishi va ishslash uslubiga ko‘ra ijtimoiy tabiatga ega. U kishilarning mehnat faoliyatiga sabab bo‘ladi va mehnat jarayonining asosiy psixologik tarkiblaridan biri bo‘lib sanaladi. Diqqatning muhim belgisi – kishining faoliyat jarayonida va atrofdagilar bilan aloqada psixikaning to‘planishidir. Psixologiyada o‘rganilgan diqqatning xususiyatlari-uning to‘planishi, har bil sifatlarda va rivojlanishda aks etishidir.

Qator munosabatlarda to‘planish ikki xil xususiyatga ega bo‘ladi: u predmet va hodisalarga tanlab yo‘naltiriladi, ya’ni diqqat ob’ektini ongli ajratish, bu vaqtda boshqa ko‘p ob’ektlardan chalg‘ish vositasi bilan aktlar tizimini tashkil qiladi, to‘planish mehnat predmetiga yo‘naltiriladi, lekin uning jarayoni ham diqqat ob’ekti hisoblanadi. To‘planish faoliyat ob’ektiga va u bilan harakatga yo‘naltiriladi.

Diqqat psixikaning alohida tomoni va formasi hisoblanmaydi, shuningdek qandaydir biron ta funksiyani bajarishga ham ko‘chmaydi. Maqsadga yo‘nalgan, intensiv-psixik faoliyatning strukturali va funksional asosi o‘zgarishiga, mahsuldarligi ortishiga va miyaning barqaror ishlashiga olib keladi.

Kishi diqqati mehnat faoliyatiga, faoliyat jarayoniga, mehnat qurollariga yo‘naltiriladi. Diqqat predmetlari bir xil emas, balki har xil faoliyat turlarida har xil bajariladigan mehnat operatsiyalari va vositalari kishi mehnat predmetiga ta’sir qiladi. Bularga bog‘liq ravishda diqqatni faoliyat turlarida o‘rganishda va har xil obrazli psixologik muammolar vujudga keladi. O‘tkazilgan tekshirishlar asosida diqqat ko‘p funksiyali jarayondir, degan xulosaga I. V. Straxov keladi. Bu funksiyalarni amaliy bajarish-mehnat, o‘qish, ilmiy va boshqa faoliyat turlaridan biron tasining shart-sharoiti mahsuldarligidir. Faoliyatning har bir turi diqqatga alohida mas’uliyat yuklaydi. Shuning uchun uning funksiyasi faoliyatning shu turiga to‘g‘ri kelishi juda muhimdir.

Diqqat tafakkur bilan birgalikda aks etadi. U bilish jarayonining tiniq va asosli bo‘lishining sababchisidir. Bu yo‘nalishda, ayniqsa ijodiy ilhomlanishning hisobga olmaganda, diqqatning qidiruv orientirovksi muhim ahamiyatga ega.

Diqqatning nazorat qilish-to‘zatish funksiyasi ham unchali kam ahamiyatga ega emas. Biroq uning shakllari mehnat va o‘quv faoliyatining har xil davrlarida bir xil namoyon bo‘lmaydi.

Diqqat kishilarning alohida munosabatlarida, jamoada o‘ziga xos funksiya bajaradi. Shaxsning ko‘zatuvchanligida, o‘zga odamlarning psixik holatini tushunishda, ziyraklikning faol shakllarida (mehribonlikda, g‘amxo‘rlikda, ishdagi yordamda) diqqat aks etadi. Ziyraklikning mehnatda va shaxslararo munosabatda axloqiy-psixologik ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunga muvofiq ziyraklikning motivatsiyasi o‘rganiladi. U aks ettirishning yaqqol shakllarida va tarbiyalash haqidagi masalalarda ko‘rib chiqiladi. Ziyraklikning bunday o‘rganishi uning tahlilida va shaxs psixologiyasida yangi yo‘nalishdir. Tadqiqotchi o‘z ishlarida diqqatni o‘rganishning ko‘rsatilgan jahbalarini sintez qilishga intiladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinib turibdiki, I. V. Straxov diqqatning bilish jarayonidagi ahamiyatiga, uning faol psixologik aks ettirish imkoniyatiga alohida e’tibor beradi. Shuningdek, diqqat bilish faoliyatining borliq bilan aloqasi keng va chuqr aks etishining muhim mexanizmi ekanligi ta’kidlanadi.

Diqqat shaxsning yo‘nalishida to‘plangan jarayon sifatida ishlaydi. Keng ma’noda bu so‘z asosida ehtiyoj, qiziqish, qarash, ideal kabi tarkibiy qismlar bor. Diqqat psixik jarayonlar strukturasida ko‘rsatilgan omillardan xosil qilingan hodisa sifatida ishtirok etmay, balki u shaxsning boshqa xususiyatlariiga nisbatan munosabatda tayanch xususiyat tariqasida qatnashadi. Bunga misollardan biri – diqqat va ziyraklikning pedagogik takt (odob)ning shakllanishida psixologik shart-sharoit ekanlidir.

I. V. Straxov “Diqqat va nutq” muammosi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. U nutq shakllari va funksiyalarini hamda tasviriy faoliyatni tahlil qiladi. U o‘quvchilarda sport gimnastikasi darslarini psixologik nuqtai nazaridan o‘rganadi.

Muallifning ta’kidlashicha, diqqatni nutqiy boshqarish quyidagi omillarda ko‘rinadi: predmetni nomlashda yoki maqsadli harakatlarni to‘plashda, faoliyatni rejalashtirishda, diqqatni ilgarilab ketish aktlarida, qidirish faoliyatida, diqqatni ko‘chish jarayonining verbalizatsiyasida, diqqatni nazorat qilish funksiyasini faollashtirishda, ziyraklikning aks etishida va uning axloqiy-psixologik ahamiyatida.

Diqqatni va butun faoliyat jarayonini boshqarish nutqning ichki va tashqi turlari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bu boshqarishda muallif fikricha, integral (yuqoridagi ikki nutq turi oralig‘idagi) nutq ishtirok etadi. Bularni tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, grafik harakatlarni amalga oshirish, aqliy-nutqiy jarayonlar ularni anglash va yo‘naltirish bilan birga boradi.

Shunday qilib, diqqatni boshqarish va uni tarbiyalash, o‘quvchilarda rivojlantirish masalasi I. V. Staxov tomonidan atroficha o‘rganilgan (Straxov I. V Vospitanie vnimanie u shkolnikov. M.:Uchpedgiz, 1958).

Psixolog N. V. Ko‘zminaning fikricha, o‘qituvchilarning dars davomida berilayotgan bilimini qanchalik o‘zlashtira olishini tekshirishda, asosiy va yetakchi rolni diqqat jarayoni o‘ynaydi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida dastavval tarbiyachi tomonidan o‘quvchi diqqatini torta bilishlik uning asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. Bu esa o‘qituvchi o‘tiladigan materialni puxta bilishni talab qiladi. Bundan kelib chiqadiki, diqqatning tarbiyalanishi va shakllanishi ham vujudga keladi.

F. N. Gonobolin, M. R. Raxmanova, D. T. Elkin, V. V. Repkin va boshqa qator tadqiqotchilar tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarda diqqatning namoyon bo‘lishi, kechishi, rivojlanishi, o‘ziga xos xossalari, individualligi kabi jihatlari o‘rganilgan. Ayniqsa, mактабгача yoshdagи bolalarga bag‘ishlangan ijodiy izlanishlar miqdori undan ham ko‘pdir. Biz ularga o‘z munosabatimizni bildirish imkonimiz yo‘q.

Shunday qilib, ob’ektiv voqelikdagi narsa va hodisalar, sub’ektiv kechinmalar diqqat ob’ekti bo‘lib hisoblanadi. Diqqat jarayonida ongning voqelikka nisbatan tanlab munosabatda bo‘lish xususiyati namoyon bo‘ladi. O‘quvchi biror ob’ektga diqqat qilar ekan, ayni bir paytda qolgan narsa va hodisalarni ong doirasidan chetda qoldirmaydi.

### **Mavzu: Xotira. Reja.**

1. Xotira haqida tushuncha.
2. Xotira turlari.
3. Xotira jarayonlari.
4. Xotira nazariyaları.

Idrok kilingan narsa va xodisalarni yoki inson tajribasida bor bo‘lgan narsalarni esda koldirish, mustaxkamlash xamda zarur vaktida esga tushirishdan iborat bo‘lgan psixik prosessga xotira deb aytildi. Xotiraning namoyon bo‘lish -shakllari xam boshqa psixik prosesslar singari xar xil bo‘ladi. Masalan:

-psixik aktivlik faoliyatiga ko‘ra: xarakat, obrazli, xis.tuygular, so‘z mantik,

-faoliyat maksadiga ko‘ra: ixtiyorsiz, ixtiyoriy:

-davomiyligiga ko‘ra: kiska muddatli, uzok muddatli va operativ xotira degan turlariga ega.

Xarakat xotirasi-xar turli xarakatlarni esda koldirish, mustaxkamlash va zarur paytlarda kaytadan esga tushirishdan iborat.

Obrazli xotira –yakkol mazmunli, ya’ni narsa va xodisalarning konkret obrazlarini, ularning konkret xususiyat va boglanishlarini esda koldirish, mustaxkamlash xamda esga tushirishdan iborat xotira turidir.

Obrazli xotira analizatorlarning nomiga kuruv, yeshituv, teri-tuyush kabi turlarga bulinadi. Obrazli xotiraning aloxida bir turi yeypetizm(narsa va xodisalarning obrazini anik yorkin esga tushirish)dir So‘z-mantik xotirasi—muayyan fikrlarni, fikrlar va suzlar urtasidagi mantikiy boglanishlarni esda koldirish, mustaxkamlash va esga tushirishdan iborat, fakat insonlarga xos bulgan (obraz, xarakat, emosional, xayvonlarga xam xos) xotira turi. Suz –mantik xotirasi kuprok tafakkur, ayniksa abstrakt tafakkur bilan boglikdir.

Xis-tuygular xotirasi--- vokelikdagi narsa va xodisalardan, o'z-o'zimizga bo'lган munosabatimizdan kelib chikadigan yoqimli xamda yoqimsiz kechinmalarni esda koldirish va esga tushirishdan iborat bo'lган xotira turi.

Xotiraning asosiy prosesslari:

-Esda qoldirish —idrok qilingan narsa va xodisalarni ongimizda qoldirishimiz.

-Esga tushirish:- avval idrok kilingan narsa va xodisalarning obrazlarini keyinchalik ongimizda kayta tiklanishi.

-Esda saqlash:- bosh miya yarim sharlari qobigining plastiklik xususiyatiga ko'ra, idrok kilingan narsa va xodisalar obrazlarining, izsiz yukolib ketmay, ongimizda saklanib kolishi:

-Unitish - avval idrok qilingan yoki esda qoldirilgan narsa va xodisalarni zarur payitda esga tushira olmaslik:

-Tanib olish—avval esda qoldirilgan narsa va xodisalarni takror idrok qilish orqali esga tushirish kabilardan iboratdir.

Xotira inson xayoti va faoliyatining barcha soxalarida ishtirok etadi. Shuning uchun xam uning axamiyati juda katta.

Xotiraning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari kobig'ida muvakkat nerv boglanishlarining xosil bo'lishi, mustaxkamlanishi va keyinchalik aktivlashuvi (jonlanishi)dir.

#### XOTIRA TURLARI VA PROTSESSLARINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH.

Ishning bajarish tartibi Har bir hotira jarayonlari bo'yicha amaliy tajriba o'tkazish asosida ularning hususiyatlarini aniqlash:

Ixtiyoriy esda qoldirish

Ishning maqsadi:

Emotsional va betaraf tusdag'i so'zlarni ixtiyorsiz esda qoldirishni tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar: bir qator so'zlar: zulmat, kuy, g'am, faryod, o'yin, og'riq.

Ishning bajarish tartibi: tekshiriluvchi bir varaq qogozni ko'ndalangiga buklab 2 qismga bo'ladi, tekshiruvchi yuqoridaq so'zlarni o'qib beradi. Sinaluvchi o'kilgan so'zlarni tinglab bo'lgach, ularni quyidagicha tartibda yozadi: kog'ozning chap tomoniga emotsiyonal tipdagi, ungdagiga esa emotsiyonal tusga ega bo'limgan betaraf so'zlarni yozib chiqadi. So'zlarni yozilgan qog'ozni bir chekkaga olib qo'ya di. So'ngra tekshiriluvchi yana bir varaq qog'oz olib ikkiga buklaydi. Keyin ol dungi so'zlarni birin ketin esga olib, ularning emotsiyonal tusga ega bulganlarini qog'ozning chap tomoniga, emotsiyonal tusga ega bulmaganini esa qog'ozning o'ng tomoniga takror yozadi.

Ish natijalarini taxlil qilish. Birinchi va ikkinchn qog'oz dagi so'zlarning sonini ( emotsiyonal, noemotsional so'zlar aloxida) hisoblab chiqiladi. So'ngra xar qaysi gruppadagi so'zlarning to'g'ri esga tushirilganini nisbati xisoblab chiqiladi.

#### MANTIQIY VA MEXANIK XOTIRA

Ishning maqsadi: ikki qator so'zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mexanik va mantiqiylarini tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar: ikki qator so'zlar. Birinchi qator so'zlar o'zaro ma'no jixatdan bog'lanishga ega. Ikkinci qator so'zlar yosa o'zaro ma'no jixatdan bog'lanishga ega yemas.

Birinchi qator.

Ikkinci qator.

Qug'irchoq ---o'ynamoq.

Qo'ng'iz---stul.

Tovuq---tuxum.

Taroq-yor

Qaychi----qirqmoq.

Kompas ---yolim.

Kitob----uqituvchi

Tosh---shamol.

Ishning ba ja rish ta rti bi:

Tekshirish ikki seriyada o'tkaziladi Birinchi seriyada ----- Tekshiruvchi tekshiriluvchi vchiga birinchi qator so'zlarini juft qilishga ega. 10 sekunddan so'ng tekshiri luvchi eshitgan juft so'zlarni qog'ozga yozadi. so'ngra tavsiya qilingan so'zlar bi lan tekshiriluvchining yesda olib qolgan so'zlarni solishtirib mantiqiylarini koeffisienti xisoblab chiqiladi. Ishning natijalari quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

#### MANTIQIY XOTIRANING XAJMI.

Birinchi kator so'zlar soni	Yesda qoldirilgan so'z.	Mantiqiylarini koef.

Ikkinci seriya : bunda xam birinchi seriyadagidek ish ko'riladi. Faqat tekshiru vchi ikkinchi qatordagi so'zlarni (xar bir juft oralig'ida 10 sek. tanaff. bg'n) o'qiydi. Oxirida yana 10 sek. tanaffusdan so'ng tekshiriluvchi yesda koldirilgan so'zlarni qog'ozga yozadi va tavsiya qilingan so'zlar bilan yesda olib qolgan so'zlani taqqoslab chiqilib, ular orasidagi koeff. xisoblab chiqiladi va jadvalda aks yettiladi.

#### MEXANIK XOTIRANING XAJMINI ANIQLASH

Ikkinci qatordagi so'zlar soni	Esda koldirilgan so'zlar soni	Mexanik xotira koeffitsenti.

So'ngra xar ikkala seriyadagi natijalar taqqoslanib ular o'rtasidagi farq va uning sa bablari xaqida umumiy xulosa chiqariladi.

#### OBRAZLI XOTIRA .

Ishning maqsadi; Turli predmetlar surati aks ettirilgan kartochkalar yordamida ob razli xotirani tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar.30ta predmet rasmi so ingan ikki komplekt kartochkalar Talabalar oldindan kartochkalarni tayyorlab qo'yadilar.

Ishning bajarish tartibi. Bu tajriba ikki variantda o'tkaziladi. Birinchi variantda tekshiriluvchi unga ko'rsatiladigan tasvirlarni yodda saqlab qolishi zarurligi ogoh lantiriladi. Ko'rsatma berib bo'lgach tadqiqotchi kartochkalarni tekshiriluvchiga ko'rsatib chiqadi. So'ngra yesda olib qolning rasmlarni nomini yozib chiqishni taklif etadi.To'g'ri yesda olib qolning predmetlar soni tekshiriluvchi obruzli xoti rasining hajmi bo'lib hisoblanadi. Ikkinci variantda tekshiriluvchiga 30ta boshqa xil kartochkalar beriladi.Ular orasida ayrim Jixatlari bilan umumiylig belgisiga ega bo'lgan suratlarni aloxida gruppaga ajratib chiqish tavsiya qilinadi. Bu ishning bajarilishiga 90 sek. vakt belgilanadi. Bu gruppaga tramvay, samalyot velosi pe d, chang'i singa ri tashqi be lgisi jixati dan xa r xi l ko' rinishga ega bu lgan p re dmet la r bu lishi mumkin.Chunki u la rning ba rchasiga tegish li bu lgan umumiylik be lgisi -u la rning ha rakan vositasi yekan ligi di r. 30 sek. sung ta dqiqotchi ka rtochka la rni yig'ishti ri b o la di.

Ishning nati jasini taxlil qilish. Olingan natijalar quyidagi jadvalda qayd qilinadi.

Variant no-me ri	Ta vsi ya qi lingan quzg'o vchi	Tekshi ri lu vchi-dan o lingan nati ja	X a t o	To'g'ri yesga tu shi ri lgan p re dmet la r soni.
Bi rinchি	30	22	-	20
Ikkinci	30	30	-	30

Mustaxkamlash uchun savollar.

Seminar rejali.

- 1.Xotira xaqida tushuncha
- 2.Xotira turlari.
3. Xotiraning nerv fiziologik asoslari.
- 4.Xotiraning individual xususiyatlari.

#### 12- Mavzu. Xayol. Reja.

1. Xayolning psixologik ta'rifi.
2. Xayolning fiziologik asoslari.
3. Xayolning turlari.
4. Xayolning inson xayotidagi axamiyati.
5. Orzu.

Tayanch so'z iboralari: Xayol, orzu, ijodiy xayol.

Insonlar borliqni anglab, unda yuz berayotgan narsalarni qabul qilib qolibgina qolmay, uni o'zgartirishga xam qodirdirlar. Borliqni amaliyotda o'zgartira olishni bilish bilan birga uni xayolan xam o'zgartirishni bilish kerak.

XAYoL – ong faoliyati bo’lib mavjud tassaBurlar orqali yangi, xayotida mavjud bo’lmagan o’brazlar, ob]ektlarni yaratishdir.

Xayolning funksiyasi- O’tgan tajriba natijalarini qayta ishlashdir. Xech narsasiz xayol mavjud bo’lmaydi. Xayolning nerv fiziologik asoslari inson ongida mavjud bo’lgan ilgarigi tajriba izlari, vaqt bilan boglik bo’lgan voqeа xodisalar qayta ishlash va yangi brikmalarni yaratishdir. Xayolning o’ziga xos faoliyati xotira tasavBurlarini taxlil va sintezida namoyon bo’ladi. Xayolning o’ziga xos xususiyatlari:

1 aglyutinatsiya:- bu bir necha predmetlarni qismlarini aloxida bir yagona obrazda birlashtirishdir.

2- aksentuatsiya:- bu shunday jarayonki insob u yoki bu xususiyatlarni

### **13- Mavzu .Tafakkur psixologiyasi. Reja.**

1. Psixologiyada tafakkur tushunchasining tarifi.
2. Tafakkur revolyutsiyasi va tarixiy tarakkiyoti.
3. Tafakkur nazariyalari, tafakkurning rivojlanishi.
- 4.Tafakkur xususiyatlari. turlari. Tafakkur va nutq.

Tayanch so’z iboralar: Tafakkur, nutq tafakkur xususiyatlari, turlari, operatsiyalari.

#### **Psixologiyada tafakkur tushunchasining tarifi.**

Tafakkur inson akliy faoliyatining, akl zakovatining, ongli xatti xarakatining yuksak shakli xisoblanadi. Tafakkur tevarak atrofni, ijtimoiy muxitni vokelikni bilish kuroli, shuningdek insonning keng ko’lamdagi faoliyatini okilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi.Tafakkur jarayonida insonda fikr, muloxaza, goya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, xukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.Tafakkur til va nutq bilan chambarchas boglik ravishda namoyon buladi. Inson uzining tafakkuri, nutqi xamda ongli xatti xarakati tufayli boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Ana shu boisdan boshka bilish jarayonlariga nisbatan tafakkur insonning akliy va jismoniy faoliyatida aloxida axamiyat kasb etadi.Inson fikr yuritish faoliyatida o’zi aks ettirgan, sezgan idrok kilgan tasavvur etgan narsa va xodisalarning to’g’riliqi, aniqligi, xaqiqiyligi yoki ularning voqelikka mos tushishini aniqlaydi. Bilish jarayonida xosil kilingan xukmlar, tushunchalar, farazlar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi.

Tafakkur sezgi, idok tasavvurlarga qaraganda vokelikni to’la anik va xaqiqiy aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Ana shu boisdan tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib bevosita aks ettiradi. Narsa va xodisalar o’rtasidagi eng muxim bog’lanishlar munosabatlar, xossalari, xususiyatlarni anglab yetadi.

Binobarin, inson muayyan konun va koidalarga asoslangan xolda ijtimoiy xodisa va vokealarni vujudga kelishi, rivojlanish xamda okibatni oldindan ko’ra bilish imkoniyatiga egadir. Xozirgi zamon kishisining bilish va amaliy faoliyatini okilona tashkil qilish jarayonida uning akliy faoliyati rivojlanib bormokda.

Malumki tafakkur ko’pgina fan soxalarining tadqiqot obekti bo’lib xizmat kiladi. Jumladan falsafa fani materiya bilan tafakkurni o’zaro munosabatini, shuningdek tafakkur yordami bilan olamni bilish yullari va imkoniyatlarini rganadi.Tafakkurning ijtimoiy aspektida uning jamiyatni turli formasiyalari ijtimoiy tuzilishiga boglik ravishda tarixiy tarakkiyot jarayonida taxlil kilinadi.

Fiziologiya fanida tafakkurni vujudga keltiruvchi miya mexanizmlari tadkik etiladi.

Kibernetika fanida esa EXM larda insonning fikrlash faoliyati axborotli jarayon tarikasida umumiyligi va xususiy jixatlari yoritilib beriladi.

Psixologiyada tafakkur vokelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositali xarakteriga, Obektning subekt uchun yangiligi, shaxsning aktivlik kursatish darajasiga kura bir nechta turlaga ajratilib tadkik kilinadi.

Tafakkur fikrlash faoliyati sifatida olib karalganda, inson tomonidan biron bir topshirikni yechish yoki shu topshirik ustida fikr yuritish nazarda tutiladi. Bu borada masala shartlari va subekt oldiga kuyiladigan shartlar, shaxsga berilgan topshirik moxiyatining angilanishi shuningdek mazkur shart va talablarning bajarilishi inson tomonidan sinchkovlik bilan kuzatiladi.Bundan tashkari topshirikni yechish shaxsniextiyoji va motivlari bilan boglik ravishda olib karaladi.

Fikr yuritish faoliyatida muammo yechimini kidirishni boshkarishda insonning xissiy kechinmalari aloxida rol uynaydi.

Ijtimoiy xayotda, talim jarayoni va ishlab chikarishda odamlar urtasida obektiv tarzda

yuzaga keladigan aloka va subektiv munosabatlarda xam tafakkur namoyon buladi. Individual tafakkur xamkorlikdagi akliy va jismoniy mexnat jarayonida, shaxslarning uzaro mulokatga kirishishi jarayonida kollektiv tafakkurga usib utadi. Jamoada tankidiy karash, o'z-o'zini tekshirish, nazorat qilish, jamoaviy uylash, guruxiy muloxaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari Bujudga keladi.

Insonning inson tomonidan idrok kilinishi xam uzviy alokador bulgan jarayondir. Notanish shaxsning ruxiy xolatini aniklash, taxminiy faraz qilish, eng zarur alomat va belgilarni aniklash va tuplash ba'vosita insonning fikr yuritish faoliyatiga boglikdir. Mazkur murakkab boskichli bilish jarayoni subektdan irodaviy zur berishni, akliy jiddiylikni talab kiladi. Bir vakting uzida idrok va tafakkurning namoyon bulishi natijasida u yoki bu karor kabul kilinadi.

Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, rasionaliza

torlik takliflari xam tafakkurning maxsuli xisosblanadi. Amaliy va nazariy axamiyatga molik bulgan gipotezalar, goyalar xam tafakkur maxsulidir. Uzining jismoniy va akliy kobiliyatları xattixarakatlari va uning motivlari, tashki olamga, uz-uziga bulgan munosabatlarini anglash xam fikr yuritish faoliyati orkali Bujudga keladi.

Insonning bilish faoliyati vokelikni, narsa va xodisalarni sezish va idrok etishdan boshlanadi, sungra asta-sekin tafakkurga aylanadi, fikr yuritishni akliy yul bilan aks ettirishga utadi. Fikr yuritishning sinteziga aylangan yukori darajadagi bilish jarayoni-tafakkur xam xissiy bilish organlarining maxsuli, yani sezgilar, idrok va tasavvur materiallariga asoslangan xolda namoyon buladi. Tafakkur uzi uchun zarur materiallarni xissiy obektlardan oladi, shu bilan birga u fikr yuritishning asosiy manbai bulib xizmat kiladi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvur yordamida atrof muxit bilan bevosita boglanadi, sungra vokelikdagi narsa va xodisalarni, ularning belgi va sifatlarini bosh miya yarim sharlarida aks ettirish imkoniyatiga ega buladi. Mazkur aks ettirishning adekvatligi insonning amaliy faoliyatida, tabiatni urganish va jamiyatni rivojlantirish jarayonida tekshirilib borilidi. Ong va akl-idrok yordamida uzluksiz ravishda nazorat kilinib boriladi. Fikr yuritish yordamida atrof muxitni chukurroq bilish, narsalar, vokealar va xodisalar urtasida mavjud bulgan uzaro munosabatlar, boglanishlarni aniklash muammoli tarzda namoyon buladi. Inson oldida muammo bulmas ekan, u xolda tafakkur jarayoni xosil bulishi mumkin emas. Tafakkur jarayonida inson xissiy bilish kobigidan tashkariga chikib, sezgi va idrok larda bevosita aniklash imkoniyati mumkin bulmagan murakkab xolatlarni anglay boshlaydi. Insonning bilish faoliyatida sezgi, idrok, tasavvur obrazlari bilan tafakkur uzaro uzliksiz ravishda bir-birini boyitib turadi. Inson uzining sezgisi, idroki va tasavvurlari orkali anglay olmagan narsa va xodisalarni yoki ularning, eng muxim ichki boglanishlarini tafakkur yordamida bilib oladi."Odam kuzining aloxida suratda tuzilganligi odamning olamni bilish imkoniyati uchun mutlak chegara emas, bizning kuzimizga boshka sezgilargina kushilib kolmay, balki shu bilan birga, tafakkurimizning faolligi xam kushiladi" – deganida mutlak xak edi buyuk faylasuflardan biri bulgan F. Engels. Tafakkur shunday murakkub jarayon bulishiga karamay vokelikni xamisha xam bir tekisda aks ettira olmaydi. Bazan chikarilgan xukm va xulosalar yanglish ekanligi amaliyotda kuzga tashlanadi. Bilish jarayoni kanchalik murakkab bulmasin, agar ular vokelikni bevosita idrok qilish maxsuliga tayanib ish kurmasa, obektiv aks ettirish xususiyatini yokotadi. Shuning uchun nazariya va amaliyot urtasida uzviy bogliklik mavjud bulishi kerak. Barcha psixik jarayonlar kabi tafakkur xam o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan;

1. Tafakkurning dastlabki muxim xususiyati vokelikni umumlashgan xolda aks ettirish natijasida inson juda kup malumotlar va axborotlarga ega bulib, bu uning muvaffakiyatli takomillashuviga yordam beradi.

2. Tafakkurning ikkinchi muxim xususiyati boglanishlarni bevosita aks ettirishdir. Ushbu xususiyat tafakkurning moddiy asoslari va mexanizmlariga bevosita tasir qilish kudratiga ega bulmagan atrof muxitdagi vokealarni aniklash va tushuntirish imkonini beradi.

3. Tafakkurning uchunchi muxim xususiyati suz orkali narsa va xodisalar urtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishdan iborat. Insonning fikr yuritishi bir va undan ortik suzlarda ifodalananuvchi tushunchalar vositasida ifodalananadi. Shuning uchun odam uylanayotganida uz fikrini aytayotganidek, gapirayotganida esa fikr yuritayotganidek tuyuladi.

Insonning fikrlash faoliyati ijtimoiy xarakterga ega. Insoniyatning tarixiy tarakkiyoti jarayonida avalo ovkatlanishi uchun ozika izlash, keyinchalik mexnat kurollari yasash, va ulardan o'z o'rnida okilona foydalanish jarayonida kishilar urtasida uzaro fikr almashish, tajribasi bilan

urtoklashishextiyoji Bujudga kelgan. Insonlarning uzaro mulokatga kirishishi, muomala qilishi, munosabat urnatishi kezida fikr bildirish, gapirish uquvi yuzaga keladi.I.P.Pavlovning obrazli tabiri bilan aytganda “fikrlash tufayli inson borlikning xokimiga aylangan bulsa, xayvonlar tabiat kuli bulib kolaveradilar. Shuning uchun tafakkur vokelikni bavosita suz yordamida umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni xisoblanadi. Atrof muxitdagи xodisaning tashki ifodasi sezgi, idrok tasavBur jarayonlarida yorkin obrazli, tarzda turli alomatlari, fazoviy joylanishi va xarakatida aks etadi.Tafakkurda esa inson ularni anglaydi. Ikkinchи signallar sistemasining paydo bulishi va rivojlanishi natijasida tafakkurning tarakkiyoti insonning ijtimoiy sharoitlarida namoyon buldi.Tafakkur jarayonida xar ikkala signallar sistemasi bir biri bilan chambarchas boglanib ketadi. Ikkinchи signal sistemasi tevarak atrofdagi olamni yaxshirok bilib olish imkoniyatini beradi. Lekin xar kanday suzlar xam vokelikning signallari rolini bajara olmaydi. Tafakkurning normal ishlashi uchun xar ikkala signallar sistemasi aktiv ishtirok etishi shart, birok ikkinchi signallar sistemasi bu urinda etakchi vazifani bajarishi zarur, chunki suzlar, fikrlar signallarning signali xisoblanib, murakkab umumlashtirish va abstraksiyalash jarayonlari bilan uzviy alokada buladi.

Xozirgi zamon psixologiyasida tafakkur muammosini atroficha tadqiq qilinmoqda Ana shu tadqiqotlarga ko'ra tafakkur tarifini turli psixologlar shunday tariflashadilar. Jumladan: P.I Ivanovning tarificha “tafakkur insonning shunday akliy faoliyatidirki, bu faoliyat vokelikni eng anik, tulik, chukur va umumlashtirib aks ettirishga, insonning yanada okilona amaliy faoliyat bilan shugullanishiga imkoniyat beradi”

M.V.Gamezo “Tafakkur vokelikni umumlashgan xolda va suz xamda utmish tajriba vositalarida aks ettirilishi” ekanligini bayon kiladi.U tafakkurning umumlashgan, suz vositasida va vositali atrof-muxit xodisalarini aks ettira olishini takidlaydi.Lekin shunga karamasdan bu tarik tafakkurni mazmunini tula ochib bera olmaydi.

S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan tafakkurni psixologik jixatdan urganishning asosiy predmeti-jarayon, faoliyat tarikasida namoyn bulishidir.Uning takidlashicha tafakkur jarayonlari, formalarini shakllantirishda –jarayon(prosess) muammoli vaziyatni xal qilishda esa – fikr yuritish faoliyati sifatida Bujudga kelishini chukur taxlil kilib beradi.

A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan muloxaza yuritib, tafakkurni turli kurinishlarga ajratadi.Fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi.

P.Ya.Galperinni fikriga kura, tafakkur–bu orientirlash-tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayonidir, yani orientirovka-jarayon, orientirovka-faoliyat.U psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda subektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini urganishdan iborat deb tushuntiradi.Olim tafakkurning boshka jixatlarini uzining akliy xarakatlarini boskichli shakllantirish nazariyasidan kelib chikkan xolda tushuntiradi.

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurni muxim yangilikni kidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni

oldindan aytish (prognоз qilish), oldindan paykash xususiyatlarini aloxida takidlaydi.Demak yukoridagi psixologlar tomonidan berilgan tariklar va muloxazalarga yakun yasab tafakkurga umumiyl tarif beramiz: “Tafakkur atrof-muxitdagи vokelikni nutq yordami bilan bavosita, umulashagan xolda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy boglanishlarni anglashga, yangilik ochishga, uni oldindan aytib berishga yunaltirilgan akliy faoliyatdir”.

### **Tafakkur evolyutsiyasi va tarixiy taraqqiyoti.**

Tafakkur obektiv vokelikni aks ettirishning eng yuksak forması bulganligi sababli uning filogeneti va tarixiy taraqqiyoti aspektlariga etibor qaratmok lozim.

Sobik sovet olimlarining tushuntirishlariga qaraganda, anorganik materiya xam, yuksak darajada taraqqiy etgan inson miyasi xam moddiy olamning umumiyl xususiyati xisoblangan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Aks ettirishning turli kurinislari mavjud bulib, ular materiyaning yashash formasiga bevosita boglik ravishda namoyon buladi. Xozirgi davrda aks ettirishning boshlangich forması bulgan seskanish organik tuzilishga ega bulgan malekulalardan, yani koaservatlardan boshlanadi deb taxmin kilinadi. Aks ettirishning oddiy seskanuvchanlik davrdan boshlab, to uning yuksak forması tafakkurgacha bulgan davr uzok evolyusion tarakkiyotning makxsulidir.

Malumki aks ettirishning barcha formalari uzaro katiy chegaraga ega bulmaydi, shuning

uchun ular evolyusion tarakkiyotning uzlusiz yuliga bevosita amal kiladi. Binobarin, seskanish sezuvchanlikka, instinktlar kunikmalarga, kunikmalar intellektual xarakatlar darajasiga kutarilib boradi. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk boskichlarida inson amaliy faoliyati kuchsiz bulganligi tufayli tafakkuri xam cheklangan va zaif bulgan.

Inson tafakkurining tarixiy tarakkiyoti yuzasidan muloxaza yuritish uchun faoliyat muammosini taxlil qilish maksadga muvofik. Agarda xayvon xatti-xarakati atrof-muxitga moslashish bilan yakunlansa, inson faoliyati esa yaratish, tiklash bilan xarakterlanadi. Inson u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun uz oldiga ongli maksad qo'yadi. Mazkur maksad, motiv, akliy xarakat, jarayonlar tafakkurning amal qilishi va tarkibiy kismi bulib xisoblanadi. Psixolog olimlar tarakkiyot qonunlariga asoslanib, tafakkurning tarixiy taraqqiyoti ijtimoiy formatsiyalarning ishlab chikarishga tubdan oglik bshlishini, u ijtimoiy trakkiyt maxsuli ekanligini tushuntirib beradilar. Tafakkur taraqqiyotiga tarixiy yondashish prinsipining vujudga kelishi tafakkur borasidagi soxta nazariyalarga keskin zarba berdi.

Ijtimoiy taraqqiyot inson tafakkurining mezoni bo'ulishini A.R.Luriya yana bir marotaba asoslab berdi. U tafakkurning tarixiy tarakkiyotini o'rganish uchun Uzbekistonning chekka kishloklarida savodsiz balogatga yetgan odamlar ustida tajriba o'tkazgan. Uning olgan empirik va nazariy malumotlariga qaraganda, savodsiz katta yoshdag'i odamlar tafakkuri ko'rgazma-xarakatli va ko'rgazma-obrazli boskichda bo'lishi, lekin savod chikargandan keyin darxol tafakkurning so'zmantik darajasiga o'sib o'tishini tasdiklagan. Bu fakat inson tafakkuri darjasini ijtimoiy tarakkiyot boskichi bilan uzviy boglik ekanligini ko'rsatadi. A.R Luriyaning bu malumotlari g'arb olimlari jumladan Levi-Byurl nazariyasini puchligini ochib tashlashda asosiy rol o'ynadi. Va bir vaktda tafakkurning ijtimoiy tarakkiyoti haqidagi biogenetik qonun nazariyasini soxta ekanligini fosh qilishda yordam berdi

Bola psixik taraqqiyotini, aqliy qobiliyatini faqat uning xususiyatlari bilan belgilab ong taraqqiyotining belgilovchi boshka omillarini, ayniksa ijtimoiy muxit xamda talim tarbiyaning rolini inkor kiluvchi irqiy reaksiyon biogenetik nazariya g'arbda avj olgan. Bu konunga kura shaxs psixologiyasining individual tarakkiyoti butun insoniyat tarixiy tarakkiyotining asosiy boskichlarini kiskacha takrorlaydi deb tushuntiradilar. Ular organning individual va tarixiy tarakkiyoti munosabatlarini tushuntirishda kupol xatoga yul kuyadilar. Fransuz faylasufi va etnologi Levi - Byurl tomonidan ibtidoiy xalklar tafakkurlarining uziga xos xususiyatlarinikursatish uchun pralogik tafakkur terminini kiritgan. Uuz asarlarida tafakkur tarakkiyoti soxalarini urganishda kupgina materiallarga ega buladi. Va malum sistemaga soladi. Lekin uning pralogik tafakkur konsepsiysining uzi maksadga muvofik emas edi. Chunki unda ibtidoiy xalklar tafakkurining o'sha vaktdagi ishlab chikarishga bog'likligi, kishi ongi, xususan tafakkuri xamisha ijtimoiy maxsul ekanligi kursatilmagan. Ibtidoiy xalklar va xozirgi zamon kishilari tafakkuridagi farklar fikrlash mexanizmlari va mantik konuniyatlardan emas, balki tafakkurning insoniyat erishgan yutuqlari bilan belgilanadigan mazmunidan iboratdir.

Shunday qilib, moddiy borlikni aks ettirishning yuksak formasi bo'lmish tafakkur o'zining xozirgi darajasiga erishguncha bo'lgan davrda uzok, murakkab evolyusion va tarixiy tarakkiyot boskichini bosib o'tgan. Til yordami bilan tafakkur fan va texnika tarakkiyotini amalga oshirmokda, ijtimoiy tarakkiyot boskichiga uzining munosib xissasini kushmokda, shuning bilan birga uzi xam takomillashib bormokda.

### **Tafakkurning tuzilishi va rivojlanishi .**

Tafakkurning tariflaridan kelib chikib, uning asosiy tuzilmasi haqida xamda tadqiqot moxiyatini aniklashga xarakat kilamiz. Shuningdek talabalar tafakkurini rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalamiz.

Tafakkur predmetini belgilash mashakkati uning murakkab bilish (kognitiv) jarayoni ekanligini yana bir karra tasdiklab, kuyida tafakkur tuzilmasining xozirgi zamon kurinishi asosida kurib chikamiz:

- A) Tafakkur operasiyalari (jarayonlari) tarkibiga
- 1.analiz va sintez (nazariy va amaliy)
- 2. taqqoslash (nazariy va amaliy).
- 3.mavxumlashtirish- abstraksiyalash (takidlovchi, ayurvchi cheklovchi).
- 4.umumlashtirish (mazmuniga ko'ra: elementar, empirik

, nazariy; fikrning yunalishiga kura: xususiydan umumiy-ga, umumiydan xususiyga va usha umumiydan yanada umumiy-ga, kamrok umumiydan yanada umumiya yagona umumiy xolatdan yanada umumiyroqqa)  
5. konkretlashtirish(yakkollashtirish)  
6.klassifikasiyalash(tasniflash;tabiy va suniy, );  
7.sistemalashtirish (tizimlashtirish fazoviy, xronologik , mantikiy) kabi jarayonlar kiradi.

Kurib chikilgan tafakkur jarayonlari shaxs akliy, fikrlash jarayonida aloxida axamiyatga egadir.Narsa va xodisalar haqida fikr yuritayotganda bevosita tafakkur operasiyalari yordamida xukm va xulosalar chikariladi.

Insonning tafakkuri faoliyat jarayonida malum bir turlari asosida mavjud buladi, yani tafakkur kuyidagi turlarga bulinadi:

- 1)Shakliga kura; kurgazmali-xarakat; kurgazmali-obrazli; suz-mantik (verbal);
- 2) topshirik (muammo) xususiyatiga binoan;amliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, izoxli.
- 3)Fikr yoyikligiga karab; konkret, abstrakt, realistik, autistik, avtoritar, intuitiv,
- 4) fikrning yo'nalishiga binoan;konvergent, divergent.
- 5) originallik darajasiga kura; reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy, tankidiy.  
Inson tafakkur qilar ekan, u o'z navbatida fikrlarining sifatiga etiborini karatishi lozim, chunki fikrlarning kanchalik mazmunga egaligi, tushunarligi va boshkalar uning tafakkuri sifatlari asosida namoyon buladi. Tafakkurning kuyidagi sifatlari mavjud;
- 1) mustakilligi,
- 2) tankidiylici, chukurligi, kengligi, pishikligi, sertashabbusligi, tezligi, maxsuldarligi, samaradorligi, ixchamligi, egiluvchanligi.

Tafakkur shakllari

- 1) xukm;(yakka, umumiy, xususiy, juziy, shartli, taxminiy, tasdiklovchi, zid, qarama-qarshi, inkor.)
- 2)tushuncha;(konkret, abstrakt, yakka, umumiy, xususiy, tuplanma )
- 3)xulosa chikarish ;( indukriv, deduktiv, analogiya);

Tafakkurni tadqiq etish usullari; kuzatish, suxbat, faoliyat maxsulini taxlil qilish, test, eksperiment.

Tafakkurning rivojlanishi xar yosh davrda o'ziga xos xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy va shaxsiy turmushda yuz bereyotgan favkulotdagi vokealar, xolatlar, murakkab muammolar, ularga yechim topish da izlanish usmirlar tafakkurining rivojlanishiga keng kulamda imkoniyat yaratadi, ularda mavjud yuulgan ichki imkoniyatlar, akliy rezervlarni ishga solishga muxim zamin xozirlaydi. M alumki muammoli vaziyat tugilmasdan turib, tafakkurning oddiy shakli xam usishi mumkin emas. Bu xolatlar ukishga xam ijobjiy, xam salbiy tasir utkazishi turgan gap.Chunki kadriyatlarni uzlashtirish va ularni baxolash mutlako boshkacha mezon asosiga kurilishini takozo kilmokda, bu xolat esa barcha narsaga uzgacha munosabatda bulishni keltirib chakaradi.

O'smirlar tafakkuri talim jarayonida va mustaqbil bilim olish faoliyatida intensiv va uzlusiz ravishda rivojlanadi. Goxo maruza mashguloti produktiv- ijodiy tafakkurni takozo etsa xam, lekin mashgulotlar, turli dars topshiriklari, uyga vazifalar baribir o'smirlardan produktiv fikr yuritishni talab qiladi. Ayniksa, xozirgi zamonda ijodiy izlanish ularning muxim fazilatlaridan biri bulmogi shart, chunki ilmiy axborotlar tarmogining kundan-kun kupayishi, kulamining kengayishi mustakkil faoliyatni tugri tashkil qilishni nazarda tutadi. Talim jarayonining turli shakllari, turlari usmirlar akliy mexnat maksadga muvofiklashtirilgan, avtomatlashtirilgan dikkatni yordami bilan amalga oshadi. Lekin bu takomillashish uzicha ruyobga chikavermaydi, kolaversa uziga-uzi tasir utkazish, uzini-uzi takomillashtirish, uzini-uzi tarbiyalash orkali namoyon buladi.Shunga karamasdan, ularning psixologik mexanizmlari tugrisida tula amaliy malumotlariga ega emasmiz.Bu narsa kelajak tadqiqotlariga predmet vazifasini utashi mumkin.

### Tafakkur va nutq.

Shaxs tafakkurining rivojlanishi nutqning o'sishi bilan mustaxkam boglangandir, nutqning o'sishi tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi, chunki so'z narsa, predmet va xarakatlar bilan

uzaro munosabatda buladi. Uz navbatida, tafakkurning rivojlanish darjasini so'z zaxiralarining oshishiga, umuman nutqning usishiga yordam beradi. Nutq shaxsning xar tomonlama tarakkii etishida eng muxim omillardan bulib xisoblanadi. So'z shaxsning bilish tajribasini tartibga soladi va mustaxkamlaydi, shu bilan birga, so'z yangi bilimlarni egallash vositasi bo'lib koladi. Nutq shaxsga olani anglashga, xar xil predmet va xodisalarga boy bulgan son sanoksiz boglanish va munosabatlarni bilib olishga yordam beradi va takomillashishiga imkoniyat yaratadi. Nutq tufayli shaxs ijtimoiy axlok normalarini egallay boshlaydi, va uz xayoti faoliyatida ongli ravishda amal kiladi.

Insonning fikr yuritish faoliyati boshka psixik jarayonlar, ipologik xususiyatlari bildan boglikligidan tashkari til va nutq bilan xam uzviy aloqada bo'ladi. Bu muxim omil-dalil inson psixikasi bilan xayvonlar psixikasi o'rtaqidagi keskin tafovutni aniqlab beradi. Xayvonlarda goxo uchrab turadigan elementar (primitiv) darajadagi tafakkur kurtagi u yoki bu xarakatni amalga oshirish uchun xizmat qiladi, lekin ularning tafakkuri mavxum va bevosita bilish boskichiga ko'tarila olmaydi.

Xayvonlarning tafakkuri ayni amaliy xarakterga ega bulib, karshisida turgan obektlarni bevosita idrok qilish, domiga tortish bilan kifoyalanadi.

Insonlarda fakat suz-nutq yordami bilan narsa va xodisalarda, obektlardan muxim xususiyatlarni ajratish, tasavvur qilish, tushunchalarda ifodalash, munozara va muloxazalarni mustaxkamlash, kayd qilish imkoniyati kabi shart sharoitlar Bujudga keladi. Tafakkur so'z bilan ifodalangandan so'ng moddiy asosga ega bo'ladi, fikrlovchi insonning o'zi uchun, o'zgalar uchun bevosita reallikka aylanadi. Inson tafakkurini tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi, chunki xar kanday fikr nutqda o'z ifodasini topadi, nutq esa so'z orqali mujassamlashadi.

Fikr kanchalik chukur va puxta bildirilsa, shunchalik ravon mantiqan uzviy boglangan so'z, iboralar xamda nutq (ogzaki yoki yozma) namoyon buladi, va aksincha so'z, nutq kanchalik anik, yakkol ifodalansa fikr shunchalik tushunarli aks ettiriladi. Turli yoshdagagi odamlar (o'kuvchilar, katta yoshdagagi kishilar) qo'yilgan muammoni xal qilish jarayonida, ko'pincha ogzaki nutqdan foydalanib ish kuradilar, kattik ovoz chikarib muloxaza yuritadilar, u yoki bu xarakterdagi xukm va xulosaga keladilar. Sobik sovet psixologlarining o'tkazgan tajribalariga karaganda, muloxazani ana shu tarzda so'zlar vositasi bilan ifodalash, yaxlit muammoga karatilgan fikrni bulaklarga xayolan taksimlash, muxim jixatlarini nomuximdan ajratgan xolda chukurroq tushunish imkonini yaratadi. Guyoki fikrlarni ovoz chikarib ifodalash tufayli keng, izchil, tizimli muxokama yuritish shart sharoitlari tugilar, turli xarakter va yunalishda bildirilgan fikrni xayolan solishtirish mumkin bular ekan. Qator sobik sovet psixologlarining muloxazalariga binoan, so'zda fikrni aks ettirishda tafakkurning diskursiv (zaruriy), mantikiy bo'laklarga ajratilgan jixatlari, tomonlari, kismlari ifodalangan bo'ladi. Odatda fikr so'zda ifodalangandan so'ng, u yo'kolib ketmaydi, balki so'z iboralarida, og'zaki va yozma nutqda mustaxkamlanib koladi. Shuning uchun zaruriyat tug'ilgan kezda mazkur fikrni qayta ko'rib chiqish, uning ustida chuqurroq muloxaza yuritish, bosh qotirish, yangi fikrlar bilan solishtirish imkoniyatini nutq bilan uzviy alokada bo'lib, so'z vositasi bilan ifodalanadi va so'zning moddiy asosi sifatida xukm suradi.

## **14-mavzu: HISSIYOT TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHA. Reja.**

1. Hissiyot haqida tushuncha,
2. his-tuyg`ularning vazifalari, hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari,
3. insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar,
4. hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari,

Kishi biror nimani idrok va tasavvur qilganida, eslab qolganida va esga tushirganida, fikr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli (hush) yoki yoqimsiz (nohush) holatni kechiradi, bu holat huzur qilish yoki ranjishdan, maza qilish yoki qiynalishdan iborat bo'ladi. Bu kechirmalarda odamning o'z tevarak-atrofidagi narsalarga (hodisalarga), odamlarga va o'ziga nisbatan sub'ektiv munosabati ifodalanadi. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning (emotsiyalarimiznnig) birinchi belgisi va elementidir.

Vоqelikning ayrim hodisalari kishini quvontiradi, ayrim hodisalar xafa qiladi ba'zi hodisalarga kishi qoyil qoladi, ba'zi hodisalardan g'azablanadi, odam ba'zi hodisalarni ko'rib jahli chiqadi, ba'zilaridan qo'rqadi. Xursandlik, xafalik, qoyil bo'lish, g'azablanish, qahr, qo'rquv va shu

kabilarning hammasi emotsional kechinmalarning xilma-xil turlaridir, odamning voqelikka bo'lgan turli subektiv munosabatidir, odamning o'ziga ta'sir qilayotgan va uning o'zi ta'sir qilayotgan narsalardan tug'iladigan kechinmalardir.

Yoqimli kechinmalarda odamning voqelikdagi ayrim narsalarga, hodisalarga va o'ziga nisbatan ijobjiy munosabati ifodalanadi, yoqimsiz kechinmalarda esa bunga odamning salbiy munosabati ifodalanadi. SHuning uchun ham subektiv kechinmalardan iborat bo'lgan hissiyotlar **ijobjiy va salbiy hissiyotlar** deb ajratiladi. Lekin hissiyotlar yoqimli yoki yoqimsiz sub'ektiv kechinmalar bo'lism jihatidangina emas, shu bilan birga obektiv, ijtimoiy ahamiyatlari jihatidan ham ijobjiy va salbiy hissiyotlar deb farq qilinadi. Hissiyotlarga shaxsiy nuqtai nazardan beriladigan baho bilan ijtimoiy nuqtai nazardan beriladigan baho hamisha bir-biriga muvofiq bo'lavermaydi. Sub'ektiv ravishda nohush, kishini ranjitadigan kechinmalar tariqasidagi ko'pgina hissiyotlar, ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, ijobjiy hissiyotlar hisoblanadi. Masalan, kishidagi uyalish vijdon azobi yoqimsiz va hatto qattiq azob hissi bilan kechiriladi. Lekin ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, bu hislar yuksak, ijobjiy ahloqiy hislardir. G'azab va qahr hissi har bir kishida salbiy, nohush kechinma holatida o'tadi. Ammo ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, bu hissiyot nima sababdan tug'ilganligiga va nimaga yo'nalganligiga qarab ijobjiy yoki salbiy hissiyot bo'lismi mumkin. Agar bu hissiyotlar ahloq tamoyillarga to'g'ri kelmaydigan nojo'ya ish qilib qo'yan kishiga nisbatan tug'ilgan bo'lsa, bu hissiyot ijobjiy ahloqiy hissiyotdir. Ammo bu hissiyot biror shaxsiy norozilik sababli, masalan, majlisda qilingan haqli tanqid sababli tug'dirgan bo'lsa, bunday hissiyot o'zbek kishisiga nomunosib, past hissiyotdir.

Hissiyot biz idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan va fikr qilayotgan hodisalar va tasavvurlar, shuningdek, bizning harakatlarimiz va qiliqlarimiz ta'siri bilan tug'iladi. Narsalar idrok, tasavvur va fikr qilinayotganligi uchungina bizda ayrim tuyg'ular tug'ilib qolmasdan, balki, asosan, bu narsalar bizning ehtiyojlarimiz, manfaatlarimiz bilan ma'lum bir darajada bog'langanligi uchun ham bizda turli tuyg'ular tug'diradi. Biz idrok, tasavvur va fikr qilayotgan narsalar bizning ehtiyojlarimizga va manfaatlarimizga aloqasi bo'lмаган taqdirda bizda sezilarli hissiyotlar tug'ilmaydi. Bunday narsalar ko'pincha e'tiborimizdan chetda qolaveradi.

SHunday qilib, hissiyotlarning manbalari (yoki sabablari), bir tomonidan, bizning ongimizda aks etayotgan tevarak-atrofdagi voqelik bo'lsa, ikkinchi tomonidan, bizning ehtiyojlarimizdir.

Ko'p hollarda emotsional kechinmalarimizning mazmuniga bizning intilishlarimiz ham kiradi. Intilishlar esa hamisha ehtiyojni ifodalaydi. Lekin hissiyotlar ehtiyojlar sababli paydo bo'lismi tufayli, intilishlar bilan hissiyotlar bir-biriga «qo'shib ketib» bitta tuyg'u, kechinma holida namoyon bo'ladi. Bunday hollarda hissiyotlar, odatda, intilishlarni tug'diradi yoki mavjud intilishlarni kuchaytiradi, shuning uchun ehtiyojlarning o'zi ham aktiv kechinmalar bo'lib qoladi. Hissiyotlarning yo'naliishi, faolligi intilishlarda namoyon bo'ladi.

SHunday emotsional holatlar ham bo'ladiki, bunda intilish juda sust bo'ladi yoki butunlay bo'lmaydi. Bu xil samarasiz, passiv hissiyotlarni, odatda, sentimentallik deb ataydilar. Sentimentallik – harakatsiz hissiyot bo'lib, odatda, faqat so'z bilan cheklanib, oh-vohlar qilish, ba'zan ko'z yoshi to'kishdan nariga bormaydi.

Hissiyotlarning faollik darajasi kishidagi qo'zg'alish va kuchlanish holatida yoki tinchish va bo'shashish holatida, yoki kishidagi hamma kuchlar g'ayratga kirgan holatda, yoxud bu kuchlar zaiflashgan va bo'shashgan holatda namoyon bo'ladi. Hissiyotlarning mana shu faollik darajasiga qarab, ular stenik va astenik hissiyotlarga bo'linadi.

Kishining hayotiy faoliyatini oshiradigan, g'ayratini orttiradigan hissiyotlar stenik hissiyotlar deb ataladi. Masalan, nihoyatda xursandlik, g'azablanish hislari stenik hissiyotlar qatoriga kiradi. Kishining hayotiy faoliyatini pasaytiradigan, g'ayratini susaytiradigan hissiyotlar astenik hissiyotlar deb ataladi. G'am-g'ussa, ma'yuslik, afsuslanish kabi hissiyotlar mana shunday astenik hissiyotlardir.

«His» degan termin ko'pincha «sezgi» degan termin bilan bir ma'noda ishlataladi. Masalan, ba'zan: «Men yorug'likni his qilyapman, men issiqlikni his qilyapman» deyish o'rniiga: «Men yorug'likni sezyapman, men issiqlikni sezyapman» deb ham aytishadi. SHu vaqtgacha biz psixologiyada ham sezgi organlari deyish o'rniiga his qilish organlari deb aytishga odatlanib qolganmiz.

Sezgi bilan hisni bir-biridan farq qilishi kerak. Sezgi odamdan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi, u narsalar va hodisalarning in'ikosidir. Hissiyot esa odamning shu narsalarga va hodisalarga munosabatini ifodalovchi tuyg'ular, kechinmalardir. Sezgilar bizga narsalar va hodisalarning o'zini

bildiradi, ammo hissiyot esa odamning shu narsalarga va hodisalarga munosabatini, bu narsalar va hodisalar odamda qanday holat tug'dirganligini (hush yoki nohush holat tug'dirganligini) bildiradi.

### **III. HISSIYOTNING TASHQI IFODALANISHI.**

Psixik jarayonlarning hammasi organizmning tashqi o'zgarishlarida va harakatlarida ma'lum darajada ifodalanadi. Lekin odamning hissiyotlari ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Emotsional kechinmalar organizmning tashqi o'zgarishlarida shu qadar yaqqol alomatlarda ifodalanadiki, odatda, biz odamning tashqi ko'rinishiga qarab unda qanday hissiyotlar yuz berayotganligini – u xursandmi, yoki xafami, g'azablanganmi yoki biror nimadan qo'rqib turganmi, unda muhabbat paydo bo'lганми yoki nafrat paydo bo'lганми, shodlik paydo bo'lганми yoki uyalish paydo bo'lганми, xullas, mana shu hislarning ko'pini aytib bera olamiz. Rang ko'r, hol so'r, degan hikmatli so'zning psixologik ma'nosi bunga misol bo'la oladi. hissiyotlarning tashqi alomatlarini *ifodali harakatlar* deb ataladi.

Emotsional kechinmalar avvalo muskullarning ixtiyorsiz bo'ladigan harakatlarida ifodalanadi. Ijobiy hissiyotlar vaqtida bu harakatlar, odatda, shu hislarni tug'dirgan narsa tomonga yo'nalgan bo'ladi, salbiy hissiyotlar vaqtida esa bu harakatlar shu hislarni tug'dirgan narsadan teskari tomonga yo'nalgan bo'ladi. Masalan, biz bir badiiy suratni ko'rib undan zavqlansak, bizda yoqimli his tug'iladi, shuning uchun beixtiyor shu suratga yaqinlashamiz. SHuningdek, qalin do'stimiz bilan to'satdan uchrashib qolganimizda, biz shu do'stimizga tomon beixtiyor harakat qilamiz, ya'ni unga yaqin borib qolganligimizni o'zimiz ham sezmay qolamiz.

Ayrim salbiy hissiyotlar vaqtida bizning harakatlarimiz shu hisni tug'dirgan narsadan chetlatishga intiladi. Boshqa ba'zi salbiy hissiyotlar vaqtida, masalan, g'azab, nafrat hislari vaqtida bizning harakatlarimiz shu emotsional kechinmalarga sabab bo'lgan narsa tomonga yo'naladi. Buning sababi shuki, bizda shu narsani yo'q qilish yoki uning harakatini bostirish harakati tug'iladi va biz shunga intilamiz. Mustaqil vatanimizning dushmanlari, terorizmga, diniy aqidaparastlikka, vahobizmga nisbatan bizdagi g'azab va nafratning ajoyib ahamiyati bor, chunki bu g'azab va nafrat dushmanni yo'q qilishga qaratilgan emotsional kechinmalardir.

Bizning emotsional kechinmalarimiz mimikada, gavda harakatlarida va imo-ishoralarda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Kishining emotsional kechinmalar fiziologik jarayonlarda va yig'i, kulgi, boshqa shu kabilarda ham namoyon bo'ladi.

Hissiyotlarning harakatlarda, mimikada, gavdada, imo-ishoralar va ma'noli ko'z qarashlarda, boshqa shu kabilarda mana shu tariqa tashqi ifodalanishlarining hammasi suratga va kinoga olish yo'li bilan qayd qilinishi mumkin.

Kishining emotsional kechinmalarini uning nutqida ifodalanadi. Turli emotsional kechinmalar vaqtida uning tezligi o'zgaradi, ko'pincha, nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, ritmika va intonatsiya o'zgaradi. O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, g'amginlik va ma'yuslik hislарини ifodalovchi nutq vaqtida shu nutqni so'zlovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, nutqning o'zi susayib qoladi, so'zlayotgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi. Xursandlik holatida bir nima so'zlayotgan kishining nutqida bunga butunlay teskari holat namoyon bo'ladi. Turli emotsional kechinmalar vaqtida ovozning titrashi va uning past-balandligi turlicha o'zgaradi.

Hissiyotlarning mana shu tashqi ifodalari, odatda, ixtiyorimizdan tashqari namoyon bo'ladi. SHuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim hislar o'ziga xos formada ifodalanadi. Masalan, qo'rquv vaqtida kishining ko'z qorachiqlari kengayib ketadi, badani qaltiraydi, yuzi oqarib-bo'zarib ketadi. Xursandlik hissi vaqtida kishining ko'zi yarqirab ketadi, yuzida qizarish paydo bo'ladi, harakatlar tezlashadi va hokazo.

Ammo odam o'zining ifodali harakatlarini o'zgartirishi mumkin: u ba'zi harakatlarni tiyib turishi, ba'zilarini esa kuchaytirishi mumkin. Odam sun'iy ravishda yangi ifodali harakatlar yaratishi va shu ifodali harakatlar yordami bilan o'zidagi emotsional kechinmalarni to'liq va xilma-xil qilib ochib berishi mumkin.

Odam o'zining mimikasi va gavda harakatini, shuningdek, tovushini atayin chiroyli qilib ko'rsatishi mumkin. U garchi o'zi muayyan hissiyotlarni kechinmayotgan bo'lsa ham, ammo shu hissiyotlarni ifodalaydigan harakatlar yaratishi mumkin. CHunonchi, artistlar sahnada o'z hislарини emas, balki sun'iy mimika, imo-ishoralar, nutqining intonatsiyasi va shu kabilarni yaratish yo'li bilan

muayyan ifodali harakatlarni tasvirlab ko'rsatishlari lozim bo'ladi. Har bir kishi ham o'z hissiyotlarining tashqi ifodalarini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin.

Mana shu o'zgartiriladigan va yangidan vujudga keltiriladigan ifodali harakatlar, ya'ni emotsional kechinmalarning tashqi alomatlari kishida mustahkam o'rashib qolishi, ko'nikma va odatga aylanishi, so'ngra esa hislarning tabiiy ifodasi tariqasida beixiyor namoyon bo'lishi mumkin.

## 15-Mavzu: IRODA. Reja.

1. Iroda haqida tushuncha
2. Irodaviy faoliyatning umumi yususiyatlari
3. Iroda borasidagi nazariyalar
4. Irodaviy akt va uning tuzilishi

Psixik jarayonlarning va shaxsnинг eng muhim tomoni ularning faolligidir. Bu faollik ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Ixtiyorsiz harakatlar u yoki bu hollarda kishida oldindan belgilanmagan biron maqsadsiz voqeа bo'ladi; bunday harakatlar biron-bir tashqi sabablar tufayli paydo bo'ladi. Ixtiyorsiz harakatda ongli ravishda zo'r berish bo'lmaydi.

Ixtiyoriy yoki irodaviy harakat oldindan qo'yilgan maqsad asosida, bizning hohishimiz bilan bo'ladigan faollikdir. Bu harakat bizning «o'zimiz» bilan bog'liqdir va u ongli ravishda zo'r berishimiz natijasida sodir bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ixtiyorsiz va ixtiyoriy harakat diqqat jarayonida va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa aqliy jarayonlarda sodir bo'ladi. SHuning uchun, ixtiyorsiz va ixtiyoriy idrok, ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish hamda esga tushirish, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol hamda tafakkur deb, farq qilinadi.

Psixikaning faolligi ish-harakatlarda juda yaqqol sodir bo'ladi. Ish-harakatlar ham ixtiyorsiz va ixtiyoriy (irodaviy) bo'ladi. Biz iroda haqida gapirar ekanmiz, faoliyatimizda sodir bo'ladigan ongli harakatni ko'zda tutamiz.

Irodaviy harakatlar deganda faqat jismoniy (ya'ni muskullar bilan bog'liq bo'lgan) harakatlarnigina emas, balki shuning bilan birga ahloqiy harakatlarni ham tushunish lozim. Aqliy ishlar jarayonida odam ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelib qoladi. Bunday hollarda irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Lekin shunga qaramay, iroda haqida gapiranimizda, asosan odamning tashqi harakatlarida namoyon bo'ladigan ongli faolligini nazarda tutamiz.

SHunday qilib, *iroda, kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan bior maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish natijasida voqe bo'ladi.*

SHuni nazarda tutish kerakki, irodaviy harakatlar hech qanday sabablarsiz o'z-o'zicha yuzaga keladigan harakatlar emas. Burjua psixologlari irodani hech qanday sabab bilan hattoki organik jarayonlar bilan ham bog'liq bo'lman va odamning hatti-harakatlarini «erkin» boshqaradigan mahsus ruhiy kuch deb tushuntirishga intiladilar. Biz burjua psixologlarining iroda haqidagi bunday g'ayri ilmiy ta'limotlarini mutlaqo asossiz ta'limot sifatida rad etishimiz kerak.

Dialektik va tarixiy materializm ta'limotiga ko'ra, inson irodaviy harakatlarining o'z sabablari bordir. Irodaviy harakatlar inson shaxsi shakllanadigan va inson yashaydigan hamda harakat qiladigan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liqdir.

Irodaviy harakatlar deyarli hamma vaqt ixtiyorsiz faollik bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Reflektor harakatlar, masalan, yo'talish, chuchkurish, ko'z pirpiratish, qo'lga bexosdan nina qadalganda yoki qo'l sinib qolganda qo'lni siltab tortib olish ixtiyorsiz harakatlar jumlasidandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi shartsiz reflekslardir.

Impul'siv harakatlar ham reflektor harakatlar jumlasiga kiradi. Bunday harakatlar organizmda yig'ilib qolgan nerv quvvatining bo'shalib ketishi tufayli yuzaga keladi. Impul'siv harakatlar go'yo portlashga o'xshagan harakatlardir. Sof holda uchraydigan impul'siv harakatlar bolalarga xos bo'ladi. Masalan, sog'lom, qorni to'q bola uyqudan so'ng odatda butun gavdasini ko'tarib, qo'l va oyoqlarini qimirlatib yotadi. Impul'siv harakatlar o'yinlarda va umuman kichik yoshdagи bolalarning hatti-harakatlarida katta o'rin egallaydi.

Instinktiv harakatlar murakkab ixtiyorsiz harakatlardandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi bir-biri bilan ulanib ketgan qator shartsiz reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning mahsus turi *avtomatlashgan* harakatlar, ya'ni malaka va odatlardir. Bunday avtomatlashgan harakatlar odamning amaliy hayoti davomida hosil qiladi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi.

Ixtiyorsiz harakatlarga kishining hissiy (emotsional) kechinmalari bilan bog'liq bo'lган harakatlar ham kiradi.

Kishining hissiyoti bilan bog'liq, bo'lган (emotsional) harakatlari turli (instinktiv) va odatlanib qolgan harakatlarda namoyon bo'ladi. Emotsional harakatlarning nerv-fiziologik mexanizmlari shartsiz va shartli reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning xususiyati shundan iboratki, odatda bunday harakatlar ongsiz ravishda voqe bo'ladi. Ammo ixtiyorsiz harakatlarning ko'pchiligini kishi ma'lum darajada o'sha ish-harakatlar voqe bo'lган paytda va ayniqsa ular bo'lib o'tgandan keyii *bilib-anglab* oladi. Bunday anglash ixtiyorsiz qilingan harakatlarning zarurligi, foydaliligi va ahloqiyligi jihatidan baho berish tufayli kanoat hosil qilish yoki norozi bo'lishda ifodalanadi. Aqliy va ahloqiy taraqqiyot darajasiga qarab, kishi xuddi ixtiyoriy harakatlar singari bu harakatlarni ham o'zi ma'qullaydi yoki qoralaydi.

## P. IRODAVIY HARAKATLARNING ASOSIY BOSQICHLARI

### (YoKI FAZALARI)

Irodaviy harakatlar, ixtiyorsiz ish-harakatlardan farqliroq ongli ravishda qilinadi. Bu holda ongning faoliyati harakat maqsadini belgilashda, bu maqsadga erishish vositalari va yo'l-yo'riqlarini oldindan belgilashda, ma'lum bir qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon bo'ladi.

#### Harakat maqsadini belgilash.

Irodaviy protsess va irodaviy harakatning dastlabki momenti maqsad qo'yishdan iboratdir. Maqsad deganda biz-odam nima qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligi va qanday qiyinchiliklarni yengishi lozimligini anglashni tushunamiz.

Nima qilish kerakligini anglash va maqsad qilib qo'yish bajariladigan ish-harakatlaridan kelib chiqadigan natijalarni o'ylash va tasavvur qilish bilan muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Qilinadigan harakatning aniq maqsadi hamma vaqt shu maqsadga erishtiruvchi vositalar va yo'l-yo'riqlarni tasavvur etish bilan ham bog'liq bo'ladi. Biror narsani maqsad qilib qo'yish ma'lum sabablar, muayyan faktorlar va inson ayni shu chog'da idrok qilayotgan sharoitning o'zi bilan belgilanadi. Masalan, odam ba'zan qiyin ahvolga tushib qoladi va u bu ahvoldan qandaydir yo'l bilan chiqib ketishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U halaqit qilayotgan narsalarni yo'qotib, sharoitni o'zgartiradi va yangi sharoit yaratadi.

Maqsad qilib qo'yish shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlar nuqtai nazaridan muayyan bir harakatlarni bajarish zaruriyati bilan belgilanadi. Masalan, davlat chegaralarini qo'riqlashda qo'yiladigan maqsadlar.

Maqsad qilib qo'yish va shu maqsad asosida harakat qilish odamning mehnati, kasbi bilan bog'liq bo'lган vazifalari bilan belgilanadi. Odamning jamiyatda va jamoada tutgan o'rni uning o'z oldiga muayyan bir narsani maqsad qilib qo'yishini belgilaydigan muhim faktorlardandir.

Ayrim odam tomonidan qilinadigan harakatning maqsadi, ko'pincha boshqa odamlarning biror maslahati, iltimosi, buyrug'i va shuning kabilar ta'siri bilan belgilanadi. Xuddi shuning singari, maqsadga erishtiruvchi vosita va yo'riqlar ham, ko'pincha, tashqaridan (maslahat, iltimos buyruq tariqasida) ko'rsatiladi.

Nima qilish kerakligini anglash va maqsad qilib qo'yish ko'pchilik hollarda, odamning biologik va ruhiy ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Ehtiyojlarniig aktiv tomoni intilishlarda ko'rindi. Intilish ehtiyojni qondira oladigan narsaga, shu ehtiyojni qondirish uchun qidirib topish yoki yangidan yaratish, o'zgartirish va hokazo lozim bo'lган narsaga qaratilgan bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, intilishlar hissiyotlarning muhim elementlaridandir.

Intilishlar turli darajada anglanishi mumkin. Intilishlarni anglash darajasi kishi ehtiyojining kuchiga, hayotiy tajribasi va bilimlariga hamda uning tafakkuri va xayolining taraqqiyotiga bog'liqdir. Anglash darajasiga ko'ra, odatda, intilishlarning quyidagi turlari yoki fazalari bo'ladi istak, tilak va hohish.

**Istak** – intilishning shunday bir turidirki, bunda kishi faqatgina o'zining hozirgi holatidan

norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini binobarin, bu maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlarini aniq bilmaydi. Istak shunday bir holatdirki, bunda kishi o'ziga allanima kerakligini, allanima yetishmayotganini his qilib turadi-yu, ammo bu narsaning nima ekanligini aniqlab ololmaydi, ya'ni tasavvur qila olmaydi, fahmiga yetmaydi. Bunday hollarda «U nima istayotganini o'zi ham bilmaydi» deyishadi.

Istak paytida kishi qanday maqsadga intilayotganini, bu maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini anglab yetmas ekan, demak, istakni bevosita amalga oshirib yuborish mumkin emas.

Kishi, nima istayotganini o'zi anglab yetolmagan paytda, odatda, bir xil ko'ngli g'ashroq holatida bo'ladi, ya'ni zerikkandek, nimagadir ko'ngli g'ashdek va qandaydir noaniq bir holatda bo'ladi. Istak bolalarda juda yorqin namoyon bo'ladi. Buning sababi shundaki, bolalar o'zlarida tug'ilgan ehtiyoj va intilishlarini turmush tajribalari va bilimlarining yetarli darajada emasligi tufayli aniq anglay olmaydilar. Bolalar bunday holatda ko'pincha injiqlik qiladilar. Istak tarzida intilishlar, ko'proq biron ish bilan shug'ullanmaydigan, ma'lum hayotiy qiziqishlari bo'lman va kam harakatroq kishilarda uchraydi. Kishida hosil bo'lgan istak ma'lum darajada anglashilsa, tilak-havasga aylanib ketishi mumkin. Tilak havasni dastavval shunday tushunish kerak.

Tilak-havas intilishning shunday bir turidirki, bunda kishi faqatgina qanday maqsadga intilayotganligini biladi, lekin bu maqsadga erishish yo'llarini aniq bilmaydi. Bunday tilak ba'zan zo'r xayol surish bilan, ba'zan esa «cheksiz» orzu bilan bog'liq bo'ladi.

Bunday tilak bo'lgan paytda, ko'pincha yangi intilish paydo bo'ladi, ya'ni tilakka erishish uchun vosita va yo'llar qidirish, ba'zi paytda esa o'zida tug'ilgan tilakni bosishga intilish hosil bo'ladi. Agar amalga oshirish uchun vosita va yo'llar topilib qolsa, u paytda tilak -to'la anglangan intilishga aylanadiki, bu holda kishi faqat qanday maqsadga intilayotganliginigini aniq bilib qolmay, balki bu maqsadni amalga oshirish vositasi va yo'llarini ham biladi.

Mana shunday qilib, tilak tobora anglashilib borishi natijasida hohishga aylanib ketishi mumkin.

**Xohish** – to'la anglangan intilishdir. Bunda faqat nntilishning maqsadi va bu maqsadni amalga oshirish vositalarigina emas, balki maqsadni amalga oshirish imkoniyati, ma'lum bir maqsadda harakat qilishga tayyor va qilinadigan harakatlardan kelib chiqadigan natijalar ham anglashiladi.

Irodaviy harakatlar – ilgaridan mo'ljallangan hohish bilan amalga oshiriladigan harakatlardir. Irodaviy harakatlar ixtiyorsiz harakatlardan dastavval shuning bilan farq qiladiki, ularda oldindan mo'ljallangan va to'la anglanilgan intilish bo'ladi.

Xohish bilan turli-tuman tegishli harakat boshlanib ketishi mumkin. Bunday harakatlar oddiy irodaviy harakatlar yoki oddiy irodaviy aktlar deb ataladi. Masalan, odam o'rnidan turishni xohlar ekan, u o'rnidan turadi, biron qalamni olishni hohlasa, uni bemalol oladi.

Lekin bizning irodaviy harakatlarimizning ko'pchiligi murakkab harakatlardir. Bu murakkablik shundan iboratki, hohish bilan uni amalga oshirish o'rtasida yana ma'lum bir maqsadni belgilash, bu maqsadni amalga oshirish vositasi va yo'llarini belgilash hamda ma'lum qarorga kelish kabi jarayonlar bo'ladi.

Bizning kundalik faoliyatimizda, ko'pincha, bir xil maqsadlar qo'yishga va bu maqsadlarni bir xil yo'l-yo'riqlar bilan amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda, albatta, maqsadni amalga oshirish vositalarining to'g'riliqi shubhalanishga va maqsadni amalga oshirish vositalarini tanlash uchun vaqt sarf qilishga to'g'ri kelmaydi.

Agar odam o'z oldiga yangi maqsad va yangi vazifalar qo'ysa-yu, lekin bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish vositalari hali tajribada sinab ko'rilmagan bo'lsa, asosan, ana shunday hollarda irodaviy jarayonlar murakkablashadi. SHuning uchun oddiy xarakatlarga qaraganda, murakkab irodaviy harakatlar vaqt jihatidan davomliroq bo'ladi.

### **Maqsad va vositalarni belgilash**

Kishida ayni bir vaqtning o'zida bir necha tilak va istaklar tug'ilishi mumkin, chunki kishining ehtiyojlari juda ham xilma-xildir. Masalan, kishi kechqurun bo'sh bo'lgan paytida teatrga yoki biror do'stining oldiga borishni hohlashi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir istak, ayni bir maqsadga erishish yo'li va erishish vositasi turlicha bo'la olishini tasavvur etish istak va maqsadga erishmoq uchun qilingan ish-harakatlardan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish mumkin.

Bir necha maqsad yoki ularga olib boruvchi bir necha yo'l bo'lgan taqdirda, bulardan muayyan bir maqsadni hamda shu maqsadga olib boradigan ma'lum bir yo'lni tanlab olish lozim bo'ladi.

Biron maqsad va uni amalga oshirish vositalarini tanlash jarayonida ularning ma'qul yoki noma'qul ekanliklari chamalab ko'rildi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa harakatning motivi deb ataladi. Motiv deb – kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki ayni shu maqsadni qo'yishi kerak, nima sababdan u o'z maqsadiga erishmoq uchun, boshqa bir yo'llar bilan emas, balki xuddi shu yo'l bilan harakat qilishi kerak, degan savollarga javobdir.

Irodaviy harakatlarning ixtiyorsiz harakatlardan farqi yana shundan iboratki, ular motivlar asosida amalga oshiriladi.

Inson irodaviy faoliyatining motivlari xilma-xildir. Bu motivlardan avvalo kishiniig intilish va hohishlarini tug'diruvchi ehtiyojlarni ko'rsatish mumkin. Ma'lum maqsad va unga erishish yo'llarini tanlash ko'pincha biror ehtiyojning mazmuniga va ahamiyatiga *bog'liq*. Kuchliroq ehtiyoj boshqa motivlar orasida kuchliroq motiv bo'lishi mumkin.

Irodaviy harakat natijalari to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham irodaviy harakat motivlari bo'la oladi, chunki bu natijalar ma'lum ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biz tasavvur qilgan maqsad va bu maqsadga erishish yo'llari turli hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, ma'lum darajada jozibali bo'lishi mumkin. Bu jozibalilik ham harakat motivi bo'la oladi.

Biron maqsad va unga erishish yo'llarini tanlaganda har bir kishi ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, ahloqiy printsiplariga, estetik didlariga, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlariga asoslanadi.

Jamoatchilik fikri va odamning bu fikrga bo'lgan munosabati ham ma'lum qarorga kelish motivlaridan biri hisoblanadi. Biron maqsadni tanlash jarayonida, odatda, tafakkur va hissiyot ishtirok etadi.

Bu yerda tafakkur faoliyati eng avval har bir motivga «qarshi» yoki «tarafdar»likni muhokama qilib, asoslashdan iborat bo'ladi. Motivlarni muhokama qilishda va asoslashda kishi, odatda, ayni hodisa yuzasidan yoki o'zining hatti-harakatlarida doimo asoslanadigan ma'lum bir faktlardan, tamoyil va qoidalardan foydalanadi. Motivni shunday muhokama qilish va asoslash motivizatsiyalash deb ataladi.

Biron maqsadni tanlashga hissiyotlar sabab bo'ladi. Hissiyotlar ayrim tasavvur va motivlarni yorqin, jonli va biz uchun jozibali qilib ko'rsatadi. Hissiyot biron narsaga intilishni aktivlashtiradi yoki sustlashtiradi, ya'ni hissiyot, ma'lum maqsad va ma'lum harakat yo'llarini tanlashga sabab bo'ladi.

Biron maqsad va uni amalga oshirish yo'llarini tanlash ba'zi paytda har xil kuch va har xil jozibaga ega bo'lgan bir qancha motivlar qatnashishi tufayli ichki kurash xarakterini kasb qiladi. Mana shuning uchun ham bu protsess motivlar kurashi nomi bilan yuritiladi.

Motivlar kurashi jarayonida motivlardan ba'zi birlarining anchagina asosliligi, boshqalarning esa bir qadar asossizligi ma'lum buladi ba'zi bir motivlar kuchliroq tuyg'ular bilan, boshqalari esa kuchsizroq tuyg'ular bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyotning o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi; odam ba'zan go'yo ikkiga bo'linib ketadi; «Aql uni deydi, hissiyot (ko'ngil) buni deydi».

Biron maqsad yoki biron masadga olib boruvchi yo'llar aqlga muvofiq kelsa-yu lekin kishida nohush hissiyotlar tug'dirsa va, aksincha, biron maqsad yoqimli hislar tug'dirsa-yu, lekin aqlga muvofiq kelmasa, ana shunday bo'ladi.

Motivlar kurashi ba'zan turli hissiyotlar o'rtasidagi kurash tarzida, masalan, burch hissi bilan qandaydir uning qarama-qarshisi bo'lgan boshqa shaxsiy hissiyot tarzida sodir bo'ladi.

Bu motivlar, ko'pincha, bir-birlariga teskari ta'sir etishlari tufayli biron qarorga kelish va bu qarorni bajarishga to'sqinlik qilib, irodaviy jarayoni sekinlashtiradilar. Motivlar o'rtasidagi ana shunday kurash odamda *ichki ixtilof* holatini yuzaga keltiradi.

Albatta, shunday holat odamda g'oyat ko'ngilsiz, og'ir tuyg'u sifatida o'tadi. Agarda odamning dunyoga hamda turmushga bo'lgan qarashlari aniq bo'lsa, shuning bilan birga u o'zining hatti-harakatlarida ahloq tamoyillariga asoslansa va uning shaxsiy motivlari ijtimoiy manfaatlar bilan qo'shilib ketsa, ana shunday ko'ngilsiz, og'ir holatning oldini olishi yoki batamom qutilishi (yo'qotib yuborishi) mumkin.

## Qarorga kelish

Motivlar kurashi bilan bog'liq bo'lган biron maqsadni amalga oshirish yo'llarini tanlash jarayoni qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish – ma'lum bir maqsad va bu maqsadni amalga oshirishning biron usuli yoki ma'lum yo'llari haqida to'xtash demakdir. Bu esa motivlardan biri hal qiluvchi rol o'yinaydi demakdir. Masalan, kechqurun kaerga borish kerak: teatrgami yoki do'stimning oldigami degan fikrdagi motivlar kurashi natijasida kishi do'stinint oldiga borishga qaror qiladi. Kasb tanlash tufayli paydo bo'lган motivlar kurash natijasida bir o'smir traktorchi bo'lismaga qaror qilsa, boshqasi pedagogika institutiga kirishga qaror qiladi.

Ba'zi hollarda kishi qabul qilinadigan qarorning amalga oshirish imkoniyatlariga ishongan holda juda tez ma'lum bir qarorga keladi. Buni biz **qat'iyat** deb ataymiz.

Boshqa bir hollarda esa, motivlar kurashi uzoq, vaqtga «cho'zilib ketadi» va qaror bajarilishiga ishonchszlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu – **qat'iyatsizlikdir**. Masalan, o'rta maktabni tugatayotgan va tugatgan ba'zi bir yoshlar qaysi institutga kirish masalasini juda tez hal qiladilar, boshqa birlari bo'lsa juda uzoq vaqt ikkilanib o'ylab yuradilar. Qat'iyat, odatda, jiddiylik vaziyatning yengillanishi, mammunlik tuyg'usini tug'dirsa, qat'iyatsizlik esa ikkilanish hissi, jiddiylik tuyg'usi va alohida og'ir noaniq holat bilan birga sodir bo'ladi. Biror qarorga kelishning sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan: ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, sharoitga, hissiyotlarga, tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, turmush tajribasi va bilimlariga, kishining dunyoqarashiga, uning temperamenti va xarakteriga hamda boshqalarning maslahatlariga, buyruqlariga, iltimos va takliflariga bo'ysunishga bog'liq bo'ladi.

Biron qarorga kelishning sur'ati, asosan, oldinga qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga kelishga olib boruvchi faoliyatni xarakteriga bog'liq bo'ladi.

SHunday hollar ham bo'ladiki, biron qarorga kelish oldidan avval o'ylab, andisha va ehtiyyotlik bilan har bir motivni hisobga olib va solishtirib ko'rish lozim bo'ladi. Boshqa bir hollarda murakkab faoliyat bo'lsa ham, hech bir ikkilanib o'tirmay, uzil-kesil qarorga kelish lozim bo'ladi. Bunday qat'iyat urush sharoitida zarurdir. Bunday paytda anchagina fahm va ziyraklik hamda sharoitning barcha murakkabliklarini hisobga olish zarur bo'lishiga qaramay, tezlik bilan qarorga kelish talab qilinadi.

Ana shunday murakkab tarzdagi motivlar kurashi va qarorga kelish faqat shunday hollarda bo'ladiki, bunda odamning hayoti va faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган yangi maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yangicha vosita hamda usullar talab qilinadi.

Kundalik hayotimizda juda ko'p ongli irodaviy harakatlarni uzoq davom etadigan va jiddiy tusdagi motivlar kurashisiz amalga oshirila beradi. Bunday hollarda biron qarorga kelish ilgaridan odat bo'lib qolgan bir tarzda yoki belgilangan qoida asosida, yo bo'lmasa, mazkur qaror va harakatlarni ma'lum turdag'i hatti-harakatlarga rioya qilish tarzida amalga oshiriladi.

Qabul qilingan qaror keskin va mustahkam yoki bo'sh, sabotsiz – o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Bir marta qabul qilinib, keyinchalik o'zgartirishdagi va ma'lum vaqt davomida albatta bajariladigan qaror qat'iy va *mustahkam qaror* deb ataladi. Qaror o'ylab qabul qilingan ijtimoiy vazifalar va shuning bilan birga, kishining hayotiy manfaatlariga, uning dunyoqarashi va ishonchlariga moslashtirilgan bo'lsa, bunday qaror ko'pincha mustahkam bo'ladi. Qat'iy va mustahkam qarorga kelish – irodaning yuksak sifatidir.

Bir marta qabul qilishgan qarorni keyinchalik o'zgartirish yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirish, yoki bo'lmasa, batamom bekor qilib yuborish subutsizlik deyiladi.

Qat'iy qaror qila olmaslik – kishi irodasi bo'shligining alomatidir.

Qabul qilingan qarorning o'zgarishi, ya'ni beqarorlik, subutsizlik, ko'pincha yana bu qaror to'g'risida yetarli darajada o'ylamaslikdan, emotsiyal holatning o'zgarishidan, yoki bo'lmasa kishi harakat qilib turgan sharoitning o'zgarishidan kelib chiqadi. Qarorning o'zgarishi, ko'pincha, motivlar kurashining qaytadan boshlanib ketishiga va oxirgi marta qat'iy qaror qabul qilishga olib keladi.

Qat'iyatsizlik va beqarorlikni, odatda, qabul qilingan qarorni oldindan rejallashtirilgan harakatlar bilan bog'lash orqali yengish mumkin. Rejallashtirish – oldinga qo'yilgan maqsadga olib boradigan eng qulay usul va vositalarni qidirishdan iborat bo'lган murakkab aqliy faoliyatdir. Rejallashtirish jarayonida bo'lishi mumkin bo'lган va zaruriy barcha harakatlar duch kelib qoladigan qiyinchilik va qarama-qarshiliklar hisobga olinadi hamda qilinadigan ishlardan kelib chiqadigan natijalarga oldindan baho beriladi.

SHunday qilib, irodaviy harakatlar ixtiyorsiz harakatlardan farq qilib, ular ilgaridan qabul qilingan qaror va ilgaridan tuzilgan reja asosida amalga oshiriladi.

### **Qarorni ijro etish**

Biron qaror shu qarorga muvofiq keladigan choralar ko'rish va ish-harakatlar qilish, uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish bajarish deyiladi. Irodaviy jarayonlarda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni bajarishdir. Kishining irodasi xuddi mana shu qarorni bajarishda namoyon bo'ladi deyish mumkin.

Odatda ikki turli irodaviy harakat farqlanadi: jismoniy va aqliy.

Jismoniy harakatlarga har turli mehnat operatsiyalari, o'yin hamda sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Akliy harakatlarga bo'lsa- hisob ishlari, yozma ishlari, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shuning kabilalar kiradi. Ko'p vaqt takrorlab, o'zlashtirilib ketgan, ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Iroda, yana ayni chog'da keraksiz harakatlarni to'xtatish, tugatish yoki o'zgartirishda ham namoyon bo'ladi.

Qarorni ijro etish, odatda, ma'lum vaqt va ma'lum muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qarorning hech kechikmay, belgilangan vaqtida ijro etilishi irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik va puxtalikni bildiradi.

Biroq, qabul qilingan qaror hamma vaqt bajarilavermaydi va ayrim hollarda esa o'z vaqtida bajarilmaydi. Masalan, irodasi kuchsiz bo'lgan kishilar ko'pincha juda ko'p yaxshi qarorlarga kelishlariga qaramay, bu qarolarning ijro etilishini sustlashtirib, cho'zib yuboradilar va boshqa muddatlarga qoldiradilar. Bajarilishi galdan-galga qoldiriladigan yoki batamom bajarilmaydigan qarorlarni **niyat** deb ataladi. SHuning bilan birga, ancha vaqtidan so'ng bo'lsa ham, lekin ma'lum vaqt davomida bajarilishi shart bo'lgan qarorlarni ham **niyat** deb ataladi. Masalan, student o'qish yilining boshida qishki va yozgi sessiyadagi imtihonlarni faqat «a'lo» bahoga topshirishni niyat qilishi mumkin.

Ba'zan odam sharoitning o'zgarishiga qarab qabul qilingan qarorni bekor qilib yangi qaror qabul qilishiga to'g'ri keladi. Undan so'ng o'zgargan sharoitga mos holda yangi qarorni bajarishga kirishadi. Qabul qilingan qaror to'g'ridan-to'g'ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni bajarish uchun, yana, ongli ravishda irodani ishga solib zo'r berish kerak. Irodaviy zo'r berishni kishi ongli jiddiylik tarzida his qiladi. Bunday jiddiylik irodaviy harakatga o'tish bilan tarqalishi mumkin.

Irodaviy zo'r berish butun nerv va muskullarni alohida tarang holga keltiradi va bu sirtqi alomatlarida ko'rindi. Irodaviy zo'r berishning ana shunday sirtqi alomatlari irodasini ishga solgan kishilarni tasvirlovchi badiiy asarlarda yaqqol tasvirlanadi.

Qabul qilingan qarorni zo'r berish bilan ijro etish irodaning muhim belgisini tashkil etadi deyish mumkin. Zo'r berish juda muhim hususiyatlardan biri bo'lib, bu xususiyat orqali irodaviy harakatlar va ixtiyoriy psixik jarayonlar ixtiyorsiz psixik jarayonlardan farq qiladi.

Irodaviy zo'r berish - motivlar kurashi va qarorga kelishdayoq seziladi. Bunday zo'r berish fikrlash jarayonlarini ishga solib, muhokama yurgizishda va shuning bilan birga, keraksiz hissiyotlarni yengishda o'z ifodasini topadi. Ko'pincha motivlar kurashi va qarorga kelish g'oyat jiddiylik hamda juda katta irodaviy zo'r berish bilan hosil bo'ladi.

Juda ko'p hollarda qarorga kelingandan so'ng ham uni bajarish uchun yana «kurash» davom etadi. Bu kurash natijasida qarorni ijro etishga qaratilgan irodaviy zo'r berish maydonga keladi.

Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. Kishining irodasi juda katta qarshiliklarni yengishga to'g'ri kelgan paytda ayniqsa yaqqol ko'rindi. Bunday qarshiliklar ikki turli bo'lishi mumkin: ichki va tashqi qarshiliklar.

### **Ichki qarshiliklarni yengish.**

Ichki qarshiliklar kishining o'ziga xos bo'lgan ma'lum holatidir. Kishi tinch, harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo'lishi mumkin. Masalan, bunday holat dam olayotganda, uxmlayotganda, toliqsan paytda va kasal paytda bo'ladi. Biron ish bilan shug'ullanmay harakatsiz o'tirishga, ya'ni yalqovlikka undovchi mayl ham shunday holatdandir.

Irodaviy zo'r berish vositasi bilan avvalo organizmning passiv holatini o'zgartirib, uni aktiv holatga keltirish lozim bo'ladi. Masalan, o'rinda yotgan kishi, tursammikan yoki turmasammikan, - deb bir oz o'ylagandan so'ng (motivlar kurashi), turishga qaror qiladi hamda o'zini majbur qilib

o'midan turadi. Yalqovlikni yengish uchun ba'zan juda ko'p zo'r berishga to'g'ri keladi. Irodaviy zo'r berish vositasi bilan kishining aqliy-faoliyati ham aktiv holatga keltiriladi. Masalan: lektsiya boshlanishi bilanoq student iroda kuchini ishga solib, diqqatini bir yerga to'playdi, irodaniing barqarorligini saqlab turadi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.

Ko'pincha, kishining o'zida bo'ladigan ixtiyorsiz harakatning paydo bo'lismeni irodaviy zo'r berish bilan yengishi, susaytirishi va yo'q qilib yuborilishi lozim bo'ladi. Ayni shu chog'da keraksiz harakatlarni o'zgartirish yoki to'xtashiga to'g'ri keladi. Juda qattiq singib ketgan, lekin salbiy,zararli odatlarga qarshi irodaviy zo'r berish bilan kurash olib borish va tashkil topgan stereotiplarni, ya'ni bir qolipga tushib qolgan salbiy harakatlarni buzish lozim bo'ladi.

Paydo bo'layotgan ixtiyorsiz harakat, ko'pincha, qabul qilingan irodaviy qarorga nisbatan boshqacha (ba'zan qarama-qarshi) yo'naliishga moyil bo'ladi. Masalan, kishining hissiyotini aks ettiradigan ba'zi ish-harakatlari shular jumlasidandir. Ixtiyorsiz harakatning paydo bo'lismeni kerakli irodaviy harakatni susaytirib yoki batamom to'xtatib qo'yishi mumkin. SHuning uchun, qabul qilingan qarorni bajarishda paydo bo'ladigan ixtiyorsiz harakatni irodaviy zo'r berish bilan yengishga to'g'ri keladi. Masalan, parashyutchilar birinchi marta o'zlarini samolyotdan tashlaganlarida (irodaviy harakatlarida) tabiiy ravishda paydo bo'ladigan qo'rqish hissini yengib borishlari lozim bo'ladi.

«Harakat qilishning o'ziga qanday o'rganilgan bo'lsa, - deydi I.M.Schenov, - harakatni to'xtatib qolishni boshqarishga ham xuddi shunday o'rganish kerak». (Izbrannye proizvedeniya, T.G.M.L. izd.API. RSFSR, 1952 y, 96-bet).

Kishi – irodaviy zo'r bergenida, ixtiyorsiz harakatni batamom yo'qotib yubormaydi, balki uni bir oz o'zgartiradi yoki bunday harakatning paydo bo'lismiga yo'l qo'ymaydi. Ixtiyorsiz harakatni bosishga vazminlik deb ataladi. Vazminlikning nerv-fiziologik asosi ikkinchi signal sistemasining birinchi signal sistemasini orqali miya po'stining ostki qismiga tormozlantiruvchi ta'sir o'tkazishdan iboratdir.

Iroda – avvalo kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tuta bilishi demakdir. Iroda – kishining o'z-o'zini iroda qila bilishi, o'z hulki va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish va boshqara olish qobiliyatidir.

Odamning ichki to'lqinlarini yenga olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila bilish qobiliyatini odatda **ichki iroda** deb yuritiladi.

### Tashqi qarshiliklarni yengish.

Kishi irodaviy zo'r berishi bilan yengishi lozim bo'ladigan tashqi qarshiliklarni tevarak-atrofdagi voqelikda uchratadi.

Kishi o'z oldiga qo'yiladigan maqsadni amalga oshirishga qarshilik qilayotgangan to'sqinliklarni yengadi, voqelikni o'z maqsadiga muvofiq ravishda o'zgartiradi va uni o'z ehtiyojlarga moslaydi.

Kishi tabiatni o'zgartiradi. Bunda u tabiatning qarshiligini yengadi, uning stixiyalariga, ya'ni suv, sovuq bo'ron, olov kabi tartibsiz, xalokatli harakatlariga qarshi kurashib, uni o'zgartiradi, qayta ko'radi. Kishi masofani yengib bir joydan ikkinchi joyga ko'chadi, og'ir narsalarni ko'tarib, ularni bir joydan ikkinchi joyga olib boradi. Kishi irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat yordami bilan, ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan yangi narsalar: uylar, fabrikalar, zavodlar, yo'llar, mashinalar, san'at asarlari va shuning kabilarni yaratadi. Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan irodaviy zo'r berishni talab qiladi. Inson mehnati undagi iordaning namoyon bo'lishidir. Odamiing irodasi mehnatda paydo bo'lgan, u mehnatda o'sgan va o'sib boradi.

Odamning tashqi to'sqinliklarni tashqi qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatini *tashqi iroda* deb yuritiladn. Biroq, faqat shartli ravishda irodani ana shunday tashqi va ichki deb bo'lismenin mumkin. Inson irodasi yolg'iz birginadir, lekin u tashqi olamdagisi hodisalarini o'zgartirish va boshqarishga yo'naltirilishi hamda shuning bilan birga o'zining shaxsiy, ya'ni sub'ektiv holatini va jarayonlarini boshqarishga yo'naltirilishi mumkin. SHuning uchun irodaviy faoliyatda tashqi qarshiliklarni yengish ichki qarshiliklarni yengish bilan uzviy bog'liqidir.

Ob'ektiv voqelikka ta'sir qilishda kishi iroda kuchining yordami bilan dastavval o'z organizmini harakatga solishi lozim va shu bilan birga, har qanday ixtiyorsiz harakatni doimo bosib va o'zgartirib turishi kerak. SHuning uchun kishining tashqi qarshiliklarni yengishga qaratilgan irodaviy zo'r berishlari va irodaviy harakatlarini ayni vaqtning o'zida kishining ichki

holatini ham o'zgartiradi. Kishi tashqi muhitni o'zgartirishi bilan birga, u o'z-o'zini ham o'zgartiradi.

### **Bajarilgan ishga baho berish**

Odatda, qaror bajarilgandan so'ng va ba'zan esa bajarish jarayonidayoq qilingan ishlarga baho beriladi. qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarga baho berish bu qaror va ishni ma'qullah yoki qabul qilingan qarorni hamda qilinadigan ish-harakatni qoralashdan iborat bo'ladi. Bu baho qabul qilingan qaror va bajarilgan harakatlardan mammun yoki mammun emaslik tufayli hosil bo'lgan alohida hissiy kechinmalarda ifodalanadi.

Salbiy baho, ko'pincha, qilingan ishlarga achinish, uyalish va afsuslanish kabi hissiyotlar tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Qilinayotgan yoki qilingan ishlarga baho, asosan, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy estetik nuqtai nazaridan beriladi. Mana shunday baho berishdan hosil bo'ladigan his va hukmlarda kishining dunyoqarashi, uning ahloqiy sifatlari va tamoyillari hamda, shuning bilan birga, uning xarakteri va qiziqishlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Qarorni bajarish yuzasidan qilingan ishlarga faqat kishi o'zi baho berib qolmaydi balki qilingan ish-harakatlarga jamiyat tomonidan ham baho beriladi. Jamiyat tomonidan kishilarning harakatlariga berilgan baho tanqid va o'z-o'zini tanqidda juda yaqqol ifodalanadi.

Qilingan ish-harakatga jamiyat tomonidan berilgan baho kishining faoliyati uchun juda katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu baho kishining keyingi faoliyati uchun rag'batlanish va motiv bo'lib qoladi. Salbiy baho, odatda, ayni faoliyatni to'xtatish yoki o'zgartirish uchun sabab bo'ladi. Ijobiy baho faoliyatni davom ettirish, kuchaytirish va yanada yaxshilash, jumladan, mehnat unumini oshirishga rag'batlantiradi.

### **III. IRODAVIY HARAKATLARNING SIFATLARI**

Kishining irodasi o'z sifatlari, ya'ni kuchi, ahloqiyligi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi.

#### **Iroda kuchi**

Iroda ma'lum kuchga ega bo'ladi; ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli suratda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi.

Iroda kuchi iordaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi butun irodaviy jarayonlarda ko'rindi. Iroda kuchi avvalo intilishlarda ko'rina boshlaydi; biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli va kuchsiz hohishlarni farq qilamiz. Iroda kuchi yana tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorning mustahkamligida ko'rindi.

Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan ongli qat'iyat va sabotlilik kuchli iroda belgilaridandir; qat'iyatsizlik, ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarila olishiga shubha bilan qarashlik va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir. Iroda kuchi qat'iyatlikda ifodalanadi. Qat'iyat qarorning bajarilishiga to'la ishonish va qarshilik hamda qiyinchiliklar qanchalik katta bo'lmasin (yoki katta bo'lib ko'rinasin) uni albatta amalgalashga oshirishga otlanishdir.

Jazm o'z-o'ziga buyruq berishdir. Vijdoniy burch talabi yoki yuksak maqsadni amalga oshirish tufayli odamning kerak bo'lib qolgan paytda o'lim bilan hayot o'rtasidan birontasini darhol tanlab ola bilishida ko'rindigan jazm, kuchli iroda dalilidir. Bunday jazmning misoli sifatida Usmon Nosir, CHo'lpon, Abdulla Kodiriyarlarning mardona jasoratini ko'rsatishimiz mumkin .

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rindi. SHuning uchun qarorni bajarmaslik yoki uning bajarilish muddatini doim «galdan-galga» qoldira berish va boshlangan ishni oxirigacha yetkaza olmaslik kuchsiz iordaning alomatidir. Ammo berilgan qarorni bajarishning, qilingan ish-xarkatning hammasi ham iordaning kuchli ekanidan darak beravermaydi. Iroda kuchi, asosan, irodaviy harakatlar yordami bilan qanday to'siqlar yengilgani va buning bilan qanday natijalarga erishilganligi ila aniqlanadi. Biz irodaviy zo'r berishlar vositasi bilan yengadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Agar kishi katta to'sqinlik va qiyinchiliklarni, qarshi harakatlarni irodaviy zo'r berish va irodaviy harakatlar yordami bilan yengib, katta muvaffaqiyatlarga erishar ekan, bunday holda biz shu kishining kuchli irodaga ega ekanligi va kuchli iroda ko'rsatgani haqida gapira olamiz.Ishlab chiqarishda faqat shaxsiy muvaffaqiyatga erishishgina cheklanib qolmay, balki boshqa

shaxslarning hamda butun bir jamoaning irodasini uyg'ota olish, tarbiyalay olish va tashkil qila olish muhimdir.

Bizda yuksak irodaviy sifatlar faqat ayrim shaxslarninggina emas, balki butun bir jamoaning ham xususiyatidir.

Ishlab chiqarish korxonalarida unumli ishlari bilan bir vaqtida sirtqi hamda kechki o'quv muassasalarida o'qiyotgan yoshlarimiz irodaviy faollik na'munalarini ko'rsatmoqdalar.

Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arzimas qarshiliklarni ham yenga olmasligida ko'rindi. Masalan, ba'zan kishi, biron kerakli xatni yozishga yoki biron zarur ishni boshlashga o'zini majbur eta olmaydi.

Irodaning kuchsizligi, odatda, irodasizlik deb ataladi,

Iroda kuchi, ayniqsa, o'zini tuta bilishda, jasurlikda, qat'iyatda, matonatda va chidamlilikda namoyon bo'ladi.

**O'zini tuta bilish.** Mana shu so'zning o'zidan ko'rinish turibdiki, o'zini tuta bilish – kishining o'z-o'zini qo'lga ola bilishidir. O'zini tuta bilish – kishining oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga qarshilik ko'rsatuvchi ichki holatini yengishda ko'rindigan kuchli irodadir. O'zini tuta bilish – toliqish hissini, og'riqni, qo'rquinchni, shuning kabilarni yengishda ko'rindi, o'zini tuta bilish ayni paytda keraksiz bo'lgan reflekslarga, odatlarga, mayllarga yo'l qo'ymaslikdir. Yu.A.Gagaringa murojaat qilib, uchish paytingizdag'i ba'zi vaqtarda qo'rqlik hissi paydo bo'lganmi? – deb savol berilganda, kosmonavt shunday deb javob bergen: «Albatta, hamma tirik odamlardagi kabi menda ham bo'lgan. Biroq, men kurkinch hissini tezda yengib tashladim». Bu o'rinda Gagarin K.D.Ushinskiyning so'zini maqol qilib keltiradi: hech narsadan qo'rqlmay o'zini havf-xatarga uradigan odam mard emas, balki eng kuchli qo'rquinch hissini yenga oladigan hamda qo'rquinch hissiga bo'ysunmay, havf-xatar haqida o'ylay oladigan odam marddir». Bu juda to'g'ri aytilgan fikr – deydi Gagarin. Men g'ashlanish va bo'shashishdan hech qanday foyda yo'q ekanini bilar edim. Ana shuning uchun, garchi barcha havf-xatarni aniq bilsam ham, bunday narsalarni miyamga kiritmas edim». (Uchitel'skaya gazeta, №108 ot 9 sentyabrь, 1961 goda).

O'zini tuta bilish va qo'rqlaslik odamning qo'rquinch hissini kechirmasligida emas, balki ongi yo'qotib qo'ymay, o'z irodasining kuchi bilan bunday hissiyotlarni bosishi va batamom yo'qotib yuborishidadir. Bu degan so'z – o'zini idora qila bilish degan ma'noni bildiradi. O'zini tuta bilish – vazminlikka oid yuksak fazilatdir. Kishi o'zini biron narsadan tiyish uchun ba'zan anchagini irodaviy zo'r berishga, ya'ni iroda kuchini ishga solishga majbur bo'ladi.

Irodasi kuchli kishilar deganda biz o'zini mahkam tuta biladigan bosiq kishilarni tushunamiz. Ulug' Vatan urushi yillarida bizning askarlarimiz, razvedkachilarimiz, qahramon uchuvchilarimiz va temir yo'lchilarimiz kuchli irodaning yuksak na'munalarini ko'rsatdilar.

Irodaviy zo'r berish orqali hushidan ketib qolmaslik va hattoki o'limni to'xtatib qolish kabi hodisalar qadim zamonarda ham bo'lib o'tgani ma'lum. Masalan, asrimizdan oldingi V asrda Gretsiya bilan Eron urushi paytida bir askar greklarning eronliklar ustidan qozongan g'alabalari haqida habar yetkazish uchun Marafon degan joydan Afinaga chopib kelgan. Biroq bu habarni yetkazgan-u shu zahoti jon bergen. Ana shu askarning xotirasini abadiylash maqsadida sport musobaqalaridan bir turiga, ya'ni 42 kilometr-u 195 metrga yugurishga – «Marafon yugurishi» deb nom berilgan. Janglardan birida Napoleonga bir otliq elchi yugurib kelgan. U Napoleonga xat uzata turib, egarda tebranib ketgan.

Siz yaralanganmisiz? – deb so'raydi Napoleon. – Yo'q; o'ldirilganman- deb javob beradi shu zahotiyoy qasadi otdan ag'darilib tushadi.

O'zini tuta bilishning aksi deganda biz – ixtiyorsiz harakatlar tomonidan yengilib, ya'ni yo'q qilib yuboriladigan irodani tushunamiz. Odamning bunday xususiyatini o'ziga kuchi yetmaslik, o'zini tiya olmaslik deb ataladi. O'ziga kuchi yeta olmaslikning eng keskin ko'rinishi beboslik, pastkashlikdir. Bunday odam o'zida beixtiyor tug'iladigan salbiy tuyg'ularga, instinctlarga berilib, o'z nafsi tiya olmaydi. Bu hayvonlik holatiga tushib qolish demakdir.

Dadillik – kishining hayot va omonligi uchun havfli bo'lgan qarshiliklarni yengishda ko'rindigan iroda kuchidir. Masalan, parashyutchi har gal samolyotdan o'zini tashlaganida dadillik qiladi. Dushmanning orqa tomoniga o'tib olgan razvedkachilar ham dadillik namunasini ko'rsatdilar. Dadillik o'zini tuta bilish bilan mahkam bog'liqidir. Dadil harakat qilish uchun avvalo o'zini tuta bilish kerak. Dadillik bor joyda o'zini bilish ham bor.

Biron maqsadni amalga oshirishda hamisha dadillik ko'rsatish mardlik va jasorat deb ataladi. Bizning jamoa sportchilarimiz sportning turli sohalarida dadillik va o'zini tuta bilishning ajoyib namunalarini ko'rsatmokdalar.

SHuni qayd qilib aytish kerakki, yoshlarimiz irodasining bu sifatlari yil sayin mustahkamlanib bormokda. Masalan, 1963 yilda to'rtta qiz – Ol'ya Sushinskaya (Moskva), Ninel' SHveynova va Irina Serlitskaya (Kiev), Aminat Sultanova (Maxachkala) lar bir grupper bo'lib tunda 7100 metr balandlikdan parashyutda o'zlarini samolyotdan tashladilar. Sibirlik yosh sportsmenka Valentina Seliverstova 7150 metr balandlikda samolyotdan o'zini tashlab, 6150 metr masofa davomida parashyutni ochmay tushgan. 1965 yilda esa 25 dan 26 iyunga o'tar kechasi parashyutchilardan S. Vlasova, A. Kensitskaya, L. Masich, N. Grishenkova, O. Rukosueva, A. Malisheva, L. Kuleshova, G. Sarigina va N. Basovalar grupper bo'lib parashyutni ancha vaqtgacha ochmasdan tushdilar. Ular «AN-12» samolyotini 12080 metr balandlikda qoldirib, 11280 metrgacha parashyutni ochmay erkin tushib keldilar. Bu butun jahon miqyosida yangi yutuqdir.

O'sha kechaning o'zida A. Korovochkina, A. Zalusskaya, N. Koldobina, Ye. CHepilova, T. Suxareva, T. Duganova, G. Grudina va S. fuqarolardan iborat bo'lgan bir grupper parashyutchilar sostavi balandlikdan parashyutni darhol ochish usulida tushdilar. Ular 12200 metr balandlikdan o'zlarini parashyutda tashladilar. Bu ham yangi butun jahon yutug'i bo'lib qoldi. Dadillikning yo'qligi kuchsiz irodaning alomatidir. Buni qo'rkoqlik, nomardlik deb ataladi.

**Qat'iyat.** Ma'lum maqsadni amalga oshirishda, ko'pincha uzoq, vaqt davomida irodamizga aks ta'sir qiluvchi katta qarshiliklarni va qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi. Ba'zi bir qarshilik va qiyinchiliklar go'yo yengib bo'lmaydigandek bo'lib ko'rinadi. Bunday hollarda kishi ba'zan qabul qilingan qarordan voz kechadi. Qiyinchiliklardan cho'chib, o'z oldiga qo'yilgan maqsaddan qaytishi mumkin. Biroq, kishi bunday hollarda boshqacha harakat qilishi ham mumkin: maqsadga erishish uchun qilinadigan harakatlarning usulini o'zgartirishi, yangi yo'llarni o'ylab topishi mumkin. Kishi kerakli natijalarni qo'lga kiritish uchun o'zining butun kuch-quvvatini to'plab, barcha qarshilik va qiyinchiliklarga qaramay, ularga bardosh berib, qabul qilingan qarorga muvofiq, uzoq vaqt davomida harakat qilaverishi mumkin. Katta qarshiliklarni yengib uzoq vaqt davomida biron maqsadning payiga tushishda ko'rinadigan bunday iroda kuchiga qat'iyat, matonat deb ataladi.

Bunday yoshlarimiznnng iroda kuchlari dastavval mustaqillikni mustahkamlashga aktiv ravishda qatnashishni qizg'in sur'atda hohlaganliklarda ko'rinadi. Bu iroda kuchi mustaqillikni qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yuksaltirish yuzasidan qo'yilgan ulug' vazifalarni amalga oshirish yo'lida uchraydigan barcha qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan ongli qat'iylik va tayyorgarlikda namoyon bo'ladi.

Mashhur fizik Lebedev o'n yil davomida yorug'lik nurlarining qattiq jismlar hamda gazlarga bo'lgan bosim o'rgangan. Lebedev bunday uzoq yillar davomida o'rganish jarayonida belgilangan usullarni yigirma martalab o'zgartirgan va qo'yilgan masalani qoniqarli hal qilguncha tobora yangidan-yangi tajribalar o'tkazib borgan.

Er-xotin Kyurilar bir gramm radiyni tayyorlash uchun sodda, xunarmandlik sharoitida sakkiz tonna uran rudasini qayta ishlaganlar.

Har qanday faoliyatning, jumladan o'qishning ham muvaffaqiyati qat'iyatga bog'liqdir. Bilim egallash uchun qat'iyat kerak bo'lganidek, malakalar orttirish (masalan, muzika malakalari) uchun ham qat'iyat kerak.

**CHidam va toqat.** Maqsadlarni amalga oshirishda yengishga to'g'ri keladigan qarshilik va qiyinchiliklar kishidan kuch hamda vaqt sarf qilishni talab qilibgina qolmay, balki unga, ko'pincha, jismoniy va ruhiy azob beradi.

Kishi o'z faoliyati davomida, ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish va och qolishlikdan hamda turli kasalliklardan azob chekadigan hollari bo'ladi. Agar, mana shunday qarshiliklarga qaramay, kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib, uni amalga oshirishga urina bersa, bunday harakatlarda ko'rinadigan irodani chidam va toqat deb ataladi. Masalan, jangovar sharoitdagi iroda kuchi harbiy hayotning kundalik falokatlari va qiyinchiliklariga chiday olishda ko'rinadi. Ma'lumki, ulug' Vatan urushi yillarida jangchilar va komandirlari o'zlarining dushman ustidan g'alaba qilishga qaratilgan qat'iy intilishlarida uzoq davom etgan hamda og'ir janglardagi charchashni, uyquni, ochlikni, tashnalikni, og'riqni va shuning kabi og'ir sharoitlarni yenga olganlar. Misol keltiramiz.

Jangchi Afonin quroq va aslahalarni qutqarishga kirishdi. Qattiq sovuq bo'lishiga

qaramay u tez yechinib o'zini suvgaga tashladi. U 20 minut davomida suvda bo'ldi. Afonin ana shu vaqt mobaynida daryo tubidan 11 yashik quroq-aslahalarni chiqarishga va shatak trosini to'p hamda avtomashinaga bog'lashga ulgurdi, o'tib borayotgan shatakchi paroxod to'p va avtomashinani sohilga chiqarib berdi.

Bizning ilg'or ishchilarimiz sanoatning turli sohalarida chidam va toqatining na'munalarini ko'plab ko'rsatmoqdalar.

Arktikaning dovyurak tadqiqotchilari tomonidan ko'rsatilayotgan chidam va toqat na'munalarini hammaga ma'lum. Bu ekspeditsiyaning qatnashchilari omonat va havfli muz maydonida bo'lishlariga qaramay, shafqatsiz sovuqlar, kuchli shamollar hamda ko'p bo'ronlariga chidab, oldinda turgan vazifalarni qat'iyatlik bilan bajaradilar.

Kosmonavtlarning jasoratlari g'oyat **ZO'R** chidam va toqatliligi bilan xarakterlidir. Irodanining bunday sifati ulardan tahminiy mashqlar o'tkazish davridayoq talab qilingan edi. Lekin irodanining bu sifati xususan o'qish paytida, ya'ni ular g'oyat ZO'R jismoni va asabiy o'zgarishlarni toqat bilan kechirishlariga to'g'ri kelgan paytda kuchli namoyon bo'ladi. SHuning bilan bir vaqtida bu qahramonlar jiddiy keskinliklarga chidab o'qish davomida turli yo'l tutmoq va harakat qilmoq uchun ongalarini juda ravshanlikda saqlab qolishlari lozim edi. Meditsina va psixologik tekshirishlarning ko'rsatishicha, shu qadar jiddiy vazifani ado etishga faqat mustahkam sog'lik, hamda kuchli irodaga ega bo'lган kishilargina chiday olishlari mumkin edi.

Odamdag'i qat'iyat va chidamlilik aniq maqsad va o'zining anchagina barqarorligi bilan ajralib turadigan kuchli motivlarning mavjudligiga bog'liq.

O'zini tuta bilish, dadillik, qat'iylik, chidam va toqat paytalarida namoyon bo'ladigan kuchli irodaga **mardlik** deb ataladi.

### Irodanining ahloqiyligi

Irodanining ahloqiyligi deganda biz, odatda, kishi oldiga qanday maqsadlar qo'yganligini, bu maqsadlarga qanday vositalar yordami bilan erishilishini, irodaviy intilishlar (hohishlar) qanday mayillar tufayli tug'ilishini, ma'lum bir qarorga kelishda kishi qanday tamoyillarga tayanishini nazarda tutamiz.

Irodaviy harakatlarda kishining ahloqiy sifatlari namoyon bo'lishi tufayli iroda kuchi ijobjiy sifat deb hisoblaniladi. Boshqa bir tomondan olganda, odamlarning ahloqiy sifatlari haqida quruq gaplarga qarab emas, balki shu odamlarning ahloqiy kiyofalari namoyon bo'ladigan irodaviy harakatlariga qarab hukm chiqaramiz. SHuning uchun kuchli irodanining – mardlik, o'zini tuta bilish, qat'iyatlik, chidamlilik va botirlik kabi xususiyatlari bizda inson ahloqiy sifatlarining namoyon bo'lishi deb hisoblaniladi.

Odam u yoki bu qarorga kelishida o'zining qarori va hatti-harakatlari uchun ahloqiy jihatdan javobgar ekanligini sezsa hamda anglay olsa, iroda ahloqiy bo'ladi.

Ahloqiylikning darajasi irodaviy protsessning fazalarida, ya'ni motivlar kurashida ham, ma'lum qarorga kelishda ham, qarorni amalga oshirishda ham va qilingan ishlarga keyin baho berishda ham ko'rindi.

Motivlar kurashi va qarorga kelishda ahloqiylik ma'lum bir motivni asoslashda ko'rindi. SHuning uchun, qabul qilingan qarorlar ahloqiy tomondan asoslangan yoki asoslanmagan bo'lishi mumkin. Motivlar kurashidagi hissiy mayillar ham ahloqiy yoki ahloqqa xilof bo'lishi mumkin, chunki kishining ahloqiy holati kechirgan hissiyotlarida va intilishlarida ham ifodalananadi. Ahloqiy tamoyillarga muvofiq sur'atda qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan harakatlar ahloqiy qarorlar deb ataladi.

Kishining ahloqiy kiyofasi qabul qiliigan qaror va amalga oshirilgan harakatlarga keyinchalik baho berishda ham ko'rindi. Agar kishi yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lsa, u yaramas qaror qabul qilishdan va nojo'ya hatti-harakatdan o'zini tiyadi, buning oqibatini oldindan o'ylaydi. SHu tariqa, kishi o'z harakatlarining natijalarini oldindan ko'rib qabul qilinishi mumkin bo'lgan qaror va harakatlarni noma'qul topishi yoki ma'kullashi mumkin.

Ahloq dunyoqarash bilan uzviy bog'liqidir.

Kishining irodaviy harakatlarida muhim rol o'ynaydigan hayotiy maqsadlari va tamoyillari xuddi ana shu dunyoqarashdan kelib chiqadi.

SHuning uchun dunyoqarash va ahloq tamoyillariga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan maqsadlar, qarorlar va harakatlar yuksak iroda ko'rsatishdir. Ahloq nuqtai nazaridan, iroda kishining o'z shaxsiy, individual intilishlarini jamiyat manfaatiga bo'ysundira olishiga qarab

baholanadi.

Mana shuning uchun biz o'z intilishlarida, qaror va harakatlarida mehnatkashlarning manfaatlariga sodiq bo'lgan, vatanga muhabbat qo'ygan va unga sodiq bo'lgan, mehnatni sevuvchi, qat'iy barqaror, dadil, sabotli, chidamli va o'zini tuta biladigan kishilarni yuksak qadrlaymiz.

### Mustaqillilik

Kishilarning irodaviy harakatlari ularning mustaqillilik darajasi jihatidan ham baho beriladi. Biz, odatda, mustaqil va mustaqil bo'lman harakatlar haqida gapiramiz.

Irodaviy harakatlarning mustaqilligi, avvalo, kishining tashabbuskorligida ko'rindi. Tashabbuskorlik biron bir ishni shaxsan boshlab yuborishdir. Tashabbus ko'rsatish ma'lum ko'rsatma bo'lishini kutib o'tirmay, biron maqsadni ilgari surish, uni amalga oshirish yo'l va vositalarini tanlash hamda belgilangan maqsadga mustaqil sur'atda erishish demakdir. Tashabbuskorlik, odatda, atrof-tevarakdagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talabini epchillik va mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda ko'rindi.

Tashabbuskorlik hayotimizning hamma sohasi uchun zarur bo'lган juda ham qimmatli sifatdir.

Tashabbuskor kishilar hamma vaqt ishda va o'qishda faollik ko'rsatadilar. Ular jamiyat, jamaa va guruhlarda tashkilotchilik qilishga qobiliyatli bo'ladilar va har qanday qiyin muammolarni ham osonlikcha amalga oshira oladilar, yo'l-yo'riqlarini topa oladilar va muvaffaqiyat qozona oladilar.

Mustaqillilik amalga oshirilayotgan va amalga oshirilgan hatti-harakatlar uchun *javobgarlikni* sezishda ko'rindi.

Javobgarlikni sezish deganda biz ayni shu harakatlarning to'g'rilingiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilishni tushunamiz. Qandaydir xato va yangishga yo'l qo'yib yuborilgan vaqtda javobgarlikni sezish – o'z xatolariga samimi, beg'arazlik bilan va ochiq tan berishda hamda hakqoniy tanqidga diqqat bilan qulq solishda ko'rindi. Javobgarlikni sezish – o'z xatolarini tuzatishga tayyor turish va haqiqatan ham uni tuzatish demakdir.

Iordaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikrlarini, maslahatlarini va takliflarini tanqidiy mulohaza qilib qarashda ham ko'rindi. Kishi boshqa odamlar bergen maslahat va takliflarining to'g'rilingiga ishonib harakat qilar hamda bu maslahat va takliflarning jamiyat manfaatiga va ahloq tamoyillariga mos ekaniklarini tushunar ekan, buning bilan u o'z mustaqilligini namoyon qilgan bo'ladi.

Mustaqillilikni iordaning negativizm va qaysarlik kabi salbiy ko'rinishlaridan ajrata bilish lozim.

**Negativizm** boshqa kishilarning hamma taklifiga, ya'ni buyruqlarga, qoidalarga, maslahatlarga va boshqa yo'l bilan o'tkaziladigan qanday bo'lmasin ta'sirga asossiz qarshilik qilish demakdir. Negativizm ikki turli bo'ladi; passiv va aktiv negativizm. Passiv negativizm shundan iboratki, bunda kishi taklif qilingan ishni qilmay, o'z holatida qolaveradi. Aktiv negativizm esa boshqalar hohlagan va taklif qilgan ishni qilmay, uning aksini qilishdan iborat bo'lgan terslikdir.

Negativizm hodisasini uch yoshtan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarda, ayniqsa kattalar tomonidan suyultirib yuborilgan va barcha ishlarini boshqa kishilar qilib beradigan bolalarda uchratish mumkin. Bunday o'jarlik bolalarda, ko'pincha qandaydir mustaqil faoliyat sohasida o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyati berilmagan taqdirda paydo bo'ladi.

Negativizmning xarakterli xususiyati harakatlarning asossizligidan iboratdir. Odatda negativizm holatida kishi sen nega bunday qilyapsan, nima uchun boshqalarning taklifini bajarmayapsan, degan savolga hech qanday javob qaytarmaydi; u indamay, aytilgan narsaning aksini qilaveradi.

Qaysarlik –boshqa kishilarning aytgan hamma gapiga, ya'ni buyruq va takliflarga atayin qarshilik qilishdir. Qaysarlik qilayotgan odam o'zi deganini qila beradi va nima sababdan shunday qilayotganini ob'ektiv ravishda asoslab bermaydi: «Bu mening ishim», «O'zim bilaman» deb sub'ektiv dalil keltiradi, xolos.

Qaysarlik, asosan, mana bunday hollarda, masalan, kishi biron narsadan xafa bo'lgan yoki g'azablangan, jahli chiqqan yoki bo'lmasa manmanligi oshib ketgan paytda ko'rindi. Bunday hollarda kuchli hissiyot ta'siri tufayli kishining ongi o'tmaslashib ketadi. Qaysarlik tutgan paytda kishi ob'ektiv nuqtai nazardan qaray olmaydi va boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish shart ekanligiga ob'ektiv asoslar keltira olmaydi. Qaysar odamni juda yaqqol dalillar yordami bilan har narsaga ko'ndirish yoki undan qaytarish qiyin. Qaysarlik ko'rsatishda biron narsaga intilish va kuchli hissiyot bo'ladi, lekin yetarli tafakkur unga ishtirok qilmaydi.

Mustaqilsizlik shunday hollarda ko'rindiki, bunda kishi ma'lum bir hatti-harakatlarni faqat

boshqa odamlarning bevosita ta'siri ostida (ularning maslahatlari, takliflari bilan) qiladi va o'zining qarorlari hamda harakatlarida faqat boshqa odamlar fikriga tayanadi.

Kishi mustaqillik ko'rsata olmasa, boshqa odamlar irodasini amalga oshiruvchi bo'lib qoladi, xolos. Mustaqilsizlik tashabbuskorlikning yo'qligi, har bir ishni yuzada bo'lgan sharoit va boshqa odamlarning ta'siriga berilib, bajarishlik va qilinayotgan ish-harakatining sababini kishi o'zi bilmasligida ifodalanadi. Bunday holda odatda asossiz motivlar yoki hech qanday motivlarsiz qarorga kelinadi. Mustaqilsizlik ko'pincha, kishining printsipsizligi bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqilsizlikning xarakterli belgisi o'zining qabul qilgan qarori va harakatlariga nisbatan javobgarlik hissining yo'qligidan iboratdir.

Mustaqilsizlik va irodasizlikning yaqqol ifodasi boshqalarning ta'siriga berilib, laqmalik bilan harakat qilishdan iboratdir. Laqmalik paytida harakatlar boshqa odamlarning qarorlari asosida amalga oshiriladi. Biroq boshqa odamlarning qarorlarini laqma odam go'yo o'zining qarori va o'z irodasining namoyon bo'lishi deb bilaveradi.

Laqmalik bilan qilinadigan harakatlarda boshqa odamlarning maslahatlari va takliflariga nisbatan tanqidiy munosabat bo'lishi yo'q bo'ladi. Ana shunday paytda odam boshqa odamlarning ta'siriga yoki yot unsurlarning ta'siriga osonlik bilan berilib ketishi mumkin. Lakmalik bilan qilinadigan harakatlarni negativizm va qaysarlikka qarama-qarshi xususiyat desa bo'ladi.

Odam boshqa kishilar ta'siri bilan harakat qilish hususiyatiga laqmalik deb ataladi.

Laqmalik qilish ma'lum darajada har bir kishiga xosdir. U iroda va umuman faollik zaiflashgan paytda hamda tanqidiy fikr qilish yo'qolib, fikr yuritish qobiliyati cheklangan va sustlashgan paytda sodir bo'ladi. Aql-idrokning ishlamay qolishiga faqat affektiv holat sababchi bo'lmay, balki psixik faoliyatning umumiyy susayishi ham sabab bo'ladi.

Bunday holat har bir odamning toliqkan paytida va endi uxmlay boshlagan paytida bo'lishi mumkin. uzoq, vaqt davom etgan xavotirlik hissi va zo'r xursandchilik tufayli ham kishi laqmalik qilib qo'yishi mumkin. Kishi gipnoz holatida haddan tashqari laqmalik qiladi.

Mustaqilsizlik orqasida qilinadigan ana shunday harakatlar, albatta irodaga taalluqli salbiy xususiyatlardandir. Lekin shuni nazarda tutish kerakki, boshqa odamlar buyrug'i va maslahatlari bilan qilinadigan har qanday harakatlarni ham mustaqilsizlik deb hisoblayverish yaramaydi. Bizga boshqa odamlar tomonidan beriladigan buyruqlar, taklif va maslahatlari o'zimizning asoslangan shaxsiy qarorlarimizga mos kelishi mumkin. Bunday holda boshqa odamning buyrug'i bilan qilingan harakat mustaqil harakat bo'ladi. Tashqi ko'rinishi jihatidan bir xil bo'lgan ikkita harakatdan biri mustaqil bo'lmasligi, ikkinchisi esa mustaqil bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim bir o'quvchi buyruq, tarzida bildirilgan maktab intizomi qoidalarni qo'rqqanidan bajaradi. Bunda bu o'quvchi majburiyat ostida o'z hohishiga qarshi harakat qiladi. Boshqa bir o'quvchi bu qoidalarni ongli ravishda bajaradi. CHunki u bu qoidalarning zarur ekanligiga tushunib, qanoat hosil qiladi. Ongli intizom mustaqil irodaning ifodasidir. Kishi biron buyruq yoki intizomga shuning uchun so'zsiz itoat qiladiki, u bunday itoat qilishning ahloqiy jihatdan zarur va maqsadga muvofiq ekanini tushunadi, anglay oladi.

Har bir kishi o'zining ko'pchilik harakatlarida kamolot tashkilotining jamoa qarorlariga asoslanishi kerak. Ammo jamoa ruhida rahbarlik qilish— har bir jamoa a'zosini mustaqillikdan mahrum kilingan egasizlik demak emas. Kishi o'z mustaqilligining hamma alomatlarini, ya'ni tashabbuskorligini, topshirilgan ishning bajarilishiga javobgarlik hissini va o'z-o'zini tanqidni faqat jamoadagina ko'rsata olishi mumkin.

Kishining o'z vijdoni burchini bajarishga qaratilgan harakatlarida uning mustaqilligi namoyon bo'ladi. Kishining mustaqilligi va irodasining erkinligi o'z qaror va harakatlarini ahloqning yuksak tamoyillarga ongli ravishda bo'ysundirishning uddasidan chiqa olishda va o'z harakatlarini shu tamoyillarga asoslanib baholashida ko'rindi.

Mustaqillilik ayni vaqtning o'zida iroda kuchining belgisi hamdir. Iroda kuchi faqat katta to'siqlarni yenga olish qobiliyati bilangina belgilanib qolmay, balki tashabbuskorlik, o'z mustaqilligini anglash, o'z qat'iyati va qabul qilingan qaror hamda o'z harakatlari uchun javobgarlikni sezish bilan ham belgilanadi.

#### **IV. IRODAVIY HARAKATLARNING NERV-FIZIOLOGIK ASOSLARI**

Odamning turli xildagi faoliyatlarida namoyon bo'ladi u yoki bu irodaviy faollik dastavval nerv sistemasining holatiga va irodaviy harakatlarni amalga oshiradigan nerv-fiziologik

mexanizmlarining ishiga bog'liqdir.

«Odatda ixtiyoriy deb ataladigan barcha ongli harakatlar,— deydi Sechenov,— o'z mohiyati jihatidan aks ettirilgan harakatlardir». Bu degan so'z «barcha insoniy harakatlarning dastlabki sababi odamdan tashqarida, ya'ni tashqi muhitga bog'liqdir». (Izbrannye filosofskie i psixologicheskie proizvedeniya. Gospoligizdat, 1947, str 148, 174)

Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi. I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, irodaviy harakatlarning hamma mexanizmi yuksak nerv faoliyatining butun qonunlariga bo'ysunuvchi shartli bog'lanishlardan, ya'ni assotsiativ jarayonlardan iboratdir. Irodaviy harakatlar mexanizmlarida, asosiy rolni kinestezik qo'zg'atuvchilar tufayli, ya'ni muskullar harakati tufayli yuzaga keladigan mahsus shartli reflekslar o'yndi. Kinestezik hujayra va harakat analizatori turlituman qo'zg'atuvchilar bilan muvaqqat aloqa bog'lay olishligi I. P. Pavlov hamda uning hamkorlari tomonidan o'tkazilgan mahsus tajribalarda isbotlab berilgan.

Miya po'stining kinestezik hujayralari organizmga tashqi muhitdan va shuning bilan birga ichki jarayonlardan bo'ladigan ta'sirotlarni qabul qiladigan miya po'stining boshqa hamma hujayralari bilan aloqaga kirishi mumkin va haqiqatan ham aloqaga kiradi. «Bu esa ixtiyoriy deb ataladigan harakatlarimizning fiziologik assosi, ya'ni bunday harakatlar miya po'sti umumiy faoliyati bilan bog'liqligining dalilidir». (I. P. Pavlov. Polnoe izb. soch. III., 2 - kitob, 317b.)

Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida optimal qo'zg'alish manbaining faoliyati bilan bog'liqdirlar: «...Mening tasavvurimcha, ong,— deydi I. P. Pavlov,— ayni shu chog'da, xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda, o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lган katta miya yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat. Ana shu momentda katta miya yarim sharlarining qolgan hamma qismlari birmuncha bo'shroq qo'zg'alish holatida bo'ladi». (O'sha kitob, 247b.)

Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signal sistemasining faoliyati bilan bog'liqdirlar. Xususan, ichki nutqqa tegishli so'zlar kerakli harakatlarni yuzaga keltiruvchi va boshqaruvchi signal hisoblanadilar. I. P. Pavlov fikricha, ikkinchi signal sistemasi odam hulqi va hatti-harakatlarining oliy regulyatori, ya'ni boshqaruvchisidir.

Ikkinci signal sistemasining mexanizmlari birinchi signal sistemasining sgnallariga va ixtiyorsiz harakatlarning miya po'sti ostki markazlariga bularning ishlarini tartibga solish yuzasidan ta'sir etib turadi. Hamonki, ongli faoliyatlarimizning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signal sistemasi yotar ekan, demak, bu signal sistemasining induktsiyasi, ya'ni yaqin atrofga tarqalishi birinchi signal sistemasiga va miya po'stining ostki qismlariga ta'sir etadi. SHuning uchun, chunonchi, vazminlik va o'zini tuta bilish kabi irodaviy hollarnng fiziologik mexanizmi ikkinchi signal sistemasi tomonidan birinchi signal sistemasi va miya po'stining ostki qismidagi markazlarda yuzaga keltiriladigan tormozlanishdan iboratdir.

Agar ikkinchi signal sistemasi tormozlansa bunday holatda «voqelik bilan deyarli hisoblashmaydigan va asosan miya po'stining ostki markazlarining emotsiyal ta'siriga bo'ysunadigan» faoliyat haqida gapirish mumkin. Ana shunday paytda odam, masalan, affektiv holatda bo'ladi. SHunday qilib, I. P. Pavloving oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotiga ko'ra, irodaviy harakatlarning fiziologik assosi birinchi va ikkinchi signallar sistemasi doirasida yuzaga keladigan murakkab muvaqqat aloqalar sistemasidan iboratdir. Lekin bunda ikkinchi signal sistemasining roli g'oyat kattadir. Irodaviy harakatlar paytidagi miya po'stining optimal qo'zg'algan holatida ikkinchi signal sistemasi ayrim muvaqqat aloqalarini tormozlantirsa, boshqalarini kuchaytiradi.

Nerv sistemasining tetik hamda sog'lom holati har qanday faoliyat va odamning unumli ishchanligi uchun asosiy sharoitdir.

Nerv sistemasining kuchsizlanishi iordaning zaiflanishi va inson aktiv faoliyatining susayishiga asos bo'ladi. Bunday sustlik holati xususan toliqish paytida yorqin namoyon bo'ladi.

Har qanday faoliyatning o'ziga tegishli ravishda va asosan mehnat faoliyatida quvvat sarflanadi. Odam qanchalik o'ziga zo'r bersa, quvvatning sarflanishi ham shunchalik tezlashadi. Bunda quvvat sarflanishi bilan ayni bir vaqtida u tiklanib ham boriladi. Biroq, ma'lum bo'lishicha, quvvatning tiklanishi, sarflanishiga qaraganda, sekinroq borar ekan.

SHuning uchun odam ishning u yoki bu bosqichida kuchi yetmayotganligini, toliqishni yoki, boshqacha qilib aytganda, charchaganligini sezal boshlaydi. Mehnatning ikki asosiy (jismoniy va aqliy) turiga muvofiq ravishda ikki xil toliqish, ya'ni jismoniy va psixik toliqish farqlanadi.

Jismoniy toliqishning asosiy belgisi muskullar ishchanligining susayishidir. Masalan, jismoniy toliqish, jumladan, muskul kuchlarining zaiflanishi, harakatlarning sekinlashishi, harakatlar miqdorining kamayishi, ishdagi jadallikniig sekinlashuvi, xarakatlardagi anqlikni, moslikni, tekislikni va bularni boshqarishning buzilishi bilan harakatlanadi. Jismoniy toliqish odam butun organizmining madorsizlanish holati bilan xarakterlanadi.

Psixik jihatdan toliqish aqliy faoliyat unumdorligining pasayishi, ya'ni diqqat va xotiraning kuchsizlanishi, biron narsaga e'tibor berishning qiyinlashuvi hamda tafakkur va nutq faoliyatining sekinlashuvi bilan xarakterlanadi.

Toliqishning ana shu yuqorida ko'rsatilgan psixik alomatlari ko'p jihatdan jismoniy toliqishda ham namoyon bo'ladir: jismoniy toliqishda ham diqqat va xotira kuchsizlanadi, tafakkur va nutq faoliyati sekinlashadi boshqa tomondan olganda, psixik jihatdan toliqish ham xuddi jismoniy toliqishdagi kabi, odam butun organizmining madorsizlanish holati bilan xarakterlanadi.

Bu ikki turli toliqish o'rtasidagi umumiylikni shuning bilan tushuntirish mumkinki, jismoniy toliqishning ham va psixik toliqishning ham asosida bir xil nerv-fiziologik mexanizm yotadi. I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotiga muvofiq, toliqishning yuzaga kelishi bosh miyaning po'sti qismida mudofaa qiluvchi (saqllovchi) tormozlanishning paydo bo'lisdigidir. Tormozlanishning bu turi nerv markazlarining ishslash faoliyatidan to'xtashi va bosh miya po'sti qismidagi nerv hujayralarining tamomila darmonsizlanishlaridan saqlab qolish bilan ifodalanadi.

Ishdan charchashni pasaytirish va toliqishning holdan toyish holatiga yetib ketmasligiga yo'l qo'ymaslikning eng muhim chorasi mehnat bilan dam olishni to'g'ri taqsimlash (almashtirib turish)dir. Dam olish ishni to'xtatib tanaffus qilishdir. Agar ana shunday tanaffus o'zaro davom etadigan (bir soat, ikki soat) bo'lmasa, unday paytda, dam olishning eng yaxshi turi uxlashdir (ya'ni tinchlik holatidir), uzoq davom etadigan dam olishni (dam olish kuni, mehnat otpuskasi) hech narsa bilan shug'ullanmaydigan uzluksiz osoyishtalikka aylantirib yuborish yaramaydi. Dam olish uchun ajratilgan bush vaqtini jiddiy zo'r berishni talab etmaydigan yoki har turli tuyg'ularga boy bo'lgan faoliyatning boshqa bir turlariga sarflansa, dam olish ancha foydali bo'ladi. Iroda, shuningdek, nerv sistemasining har turli yo'l bilan zaharlanishi natijasida ham kuchsizlanadi. Masalan, nerv sistemasi alkogol bilan zaharlanganda iroda kuchsizlanadi.

Nerv sistemasining kasalligi irodani haddan tashqari susaytirib yuboradi. Bunday holatni abuliya deb ataladi. Abuliya holatidagi kishi juda chanqab turgan bo'lsa ham, o'z oldida turgan stakandagi svjni olib ichishga o'zini majbur qilolmaydi.

Ayrim harakat nerv hujayralari falaj bo'lган taqdirda shu hujayralar bilan bog'liq bo'lgan organlarni hech qanday iroda kuchi bilan ishga solib bo'lmaydi.

SHuning uchun, nerv va muskul sistemasini mustahkamlaydigan hamma narsa ayni chog'da kishi irodasini mustahkamlashga ham yordam beradi. SHu sababli, jismoniy tarbiya irodani mustahkamlashda ijobjiy ahamiyatga ega. Katta qarshiliklarni yengish hamda qiyinchiliklar bilan kurashish uchun faqat hohish va qarorga kelishgina ahamiyatli bo'lib qolmay, balki sog'lomlik, mustahkam nerv va mustahkam muskullar ham katta ahamiyatga ega.

## **V. IRODA VA BOSHQA PSIXIK JARAYONLAR**

Ana shu yuqoridagi aytilganlardan ko'rinish turibdiki, iroda boshqa psixik jarayonlar bilan mahkam bog'liqdir.

Irodaviy harakatlar biz idrok qilib turgan u yoki bu sharoitda yuzaga keladilar. Qarorga kelishda, harakatlarni rejalashtirishda (mo'ljallahda) va amalga oshirishda odam ayni shu sharoitni tushuna olishi kerak. Bu tushunish va binobarin, qilinadigan harakatlarning muvaffaqiyati juda ko'p jihatdan sharoitni idrok qilishning tezligi, to'laligi, aniqligi va to'g'rilingiga bog'liq. Idrok ana shunday sifatlarga ega bo'limgan paytda irodaviy harakatlar kechikishi, batamom amalga oshirilmasligi, o'zgarishi, xato bo'lishi mumkin.

Irodaviy jarayonlarda xotira katta rol o'yinaydi. Kundalik hayotimizda juda ko'p irodaviy harakatlarimiz tahminan bir xil qiyofada takrorlanadilar. Biron maqsad qo'yishda, harakat usullarini tanlashda, qarorga kelishda va qilingan harakatlarga baho berishda kishi dastavval o'zining turmush tajribasi hamda bilimlariga asoslanadi.

Biroq hamma irodaviy harakatlar ham faqat ilgarigi harakatlarning oddiy qaytarilishidan iborat emas. SHaroitning o'zgarib turishi davomida ehtiyoj va qiziqishlarga qarab, odam har doim yangi maqsadlar qo'yishiga hamda harakatning yangi usullarini qidirib topishiga to'g'ri keladi. Bu o'rinda irodaga xayol yordam qiladi.

Irodaviy protsessning muhim tomoni biron maqsad qo'yishdir. Biz o'z harakatlarimiz qaratilgan maqsadni har xil aniqlikda tasavvur qilishimiz mumkin: ba'zan maqsadni shu qadar aniq, yorqin va jonli tasavvur qilamizki, go'yo kishi o'z harakatlaridan kelib chiqadigan natijani oldindan ko'rayotgandek bo'ladi; ba'zan esa maqsad noaniq va xira tasavvur qilinishi mumkin. Maqsad qanchalik aniq. bo'lsa, unga intilish ham shunchalik kuchli bo'ladi. Maqsadning aniq bo'lishi shu maqsadga yetishish yo'lini qat'iyat bilan, uzil-kesil va ongli sur'atda tanlashga imkon beradi. Maqsadning aniqligi yana harakatning kuchli bo'lishiga, dadillik, sabot bilan ish ko'rishga va chidamli bo'lishga madad beradi.

Kishining kuchli iroda ko'rsatishida uning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga mo'ljallangan va amalga oshiradigan yo'l va vositalarni tasavvur qila olishi ham katta ahamiyatga ega. Bu yo'l va vositalarni kishi qanchalik aniq tasavvur qilsa, bu vositalardan birini shunchalik tez tanlab olib, ma'lum qarorga keladi va shunchalik zo'r ishonch bilan harakat qiladi.

Harakatlar qaratilgan maqsadlarni hamda ularni amalga oshirish yo'l va vositalarini, irodaviy harakatlardan kelib chiqadigan natijalarni yaqqol tasavvur qilish va shuning bilan birga, iroda kuchi kishining tajribasi va bilimlariga hamda uning xayoli, tafakkuri va nutqining taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Maqsad va bu maqsadga erishtiruvchi vosita va yo'llarni tasavvur kilishning aniqligi turmush tajribasni hamda bilimlarga asoslangan xayolning kengligi va kuchiga bog'liq.

Irodaviy jarayonlarning va irodaviy harakatlarning barcha momentlarida nutq, bilan chambarchas bog'liq bo'lган tafakkur ayniqla katta rol o'ynaydi. Irodaviy harakatlar – aql bilan qilinadigan harakatlardir.

Kishi bor tajribasi va bilimlariga asoslangan holda o'ylab biron maqsadni qo'yadi va harakat qiladi, o'ylab ma'lum qarorga keladi, o'ylab maqsadni amalga oshirish yo'li va vositalarini tanlab oladi, o'z harakatlardan kelib chiqadigan natijalarni oldin o'ylab **ko'radi** va **o'ylab harakatga** kirishadi. Kishi o'zining harakatlarini oldindan rejalashtiradi.

Rejalashtirish, o'ylash, fikr qilganda ham puxta fikr qilish demakdir. Tafakkur va nutq faoliyati tufayli biz o'z intilishlarimizni juda yaxshi anglab olamiz, harakatlarda ko'zda tutgan maqsadlarimiz juda ham aniqlashadi, qabul qilingan qarorlarniz yanada mahkamroq asoslanadi va u asosli qaror bo'ladi, qiladigan harakatlarimiz esa rejalashgan, rejali va tartibli bo'ladi. Tafakkur faoliyati vazminlik va o'zini tuta bilish, qat'iyat va chidamlik kabi kuchli iroda sifatlarini belgilaydi.

Iroda kuchiga hissiyotlar juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotlar iroda jarayonining dastlabki fazasi bulmish intilishlar bilan mustahkam bog'liqidir. Hissiyotlar intilishning kuchiga ta'sir qiladi, maqsad va uni amalga oshirish yo'li va vositalari haqidagi tasavvurlarni oydinlashtiradi hamda jonlantiradi. Motivlar kurashida hissiyotlarning roli kattadir. Hissiyotlar bizni muayyan bir qarorga kelishga undaydi. Bunda hissiyotning iroda jarayonlaridagi roli ikki turli bo'lishi mumkin: ijobjiy-faollashtiruvchi va salbiy-tormozlashtiruvchi rol o'ynashi mumkin.

Agar biron maqsadni tasavvur qilish kishining kuchli hissiyotlarini yo'qotsa va bunday hissiyot ta'siri bilan kishi asoslangan qarorga kelsa, bunday paytda hissiyotlar irodamizni aktivlashtiradi hamda uni mustahkamlaydi. Bunday hollarda hissiyotlar maqsadga erishishda bizning qat'iyatimizni, kuchimizni, dadilligimizni, barqarorligimizni va sabotimizni ta'minlaydi, Qilinadigan katta ishlarda yo'naliш, ishonch, g'ayrat va ijobjiy ehtiyoislarning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum. Yuksak siyosiy-ijtimoiy va ahloqiy hissiyotlar, vijdoniy burch hissi va xususan vatanparvarlik hissi irodamizni mustahkamlaydi, uni kuchli va sabotli qilib, qo'yilgan maqsadini amalga oshirishimizga ishonch bag'ishlaydi.

Hissiyotlarimiz, agar irodamiz qaratilgan maqsadga mos kelmasa, u holda hissiyotlar irodaga salbiy ta'sir qilishi mumkin, Bunday hollarda hissiyotlarning ta'siri irodani tormozlashtiradi. Ko'pincha qat'iyatsizlik, beqarorlik va irodaning ojizligi shunday hissiyotlar ta'siri ostida voqeа bo'ladi. Ba'zan iroda kuchini ishga solib, ortiqcha ixtiyorsiz harakatlarni quvvatlovchi hissiyotlarni cheklashga, ularni kuchsizlantirishga yoki batamom yo'qotib yuborishga to'g'ri keladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, mana shunday hollarda iroda kishining alohida turi bo'lган vazminlik va o'zini tuta bilish sifatlari ko'rindi.

Kishining dunyoqarashi irodaga va iroda kuchining namoyon bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash kishilarining mehnat va ijodiy faoliyatlaridagi har qanday qiyinchiliklarni yengishlarida ularning irodalarini harakatga keltiruvchi buyuk kuchdir. Ishonch-e'tiqodlar kishining intilishlari va harakatlarini ongli intilish va harakatlar bo'lishiga yordam beradi. Intilishlarimiz

va harakatlarimiz, ongli intilish hamda harakatlar bo'lsa va harakatlarimiz qaratilgan maqsad muhim bo'lsa, bu harakatlar ham juda aniq, qat'iy va barqaror bo'ladi. ulug' maqsadlar ulug' g'ayrat (energiya) tug'diradi.

Kishi o'z harakatlarda asoslanadigan ahloqiy tamoyillar va bu harakatlarni amalga oshirishda dilidan kechiradigan ahloqiy hissiyotlar kuchli iroda ko'rsatishda katta ahamiyatga egadirlar.

## **VI. IRODA TARAQQIYSI**

Bola tug'ilgan chog'dan boshlaboq faollik ko'rsata boshlaydi. Lekin uning faolligi hali juda sodda va faqat ixtiyorsiz bo'ladi.

Har bir kishining irodasi ixtiyorsiz harakatlar asosida hamda organizmning o'sishi ijtimoiy sharoit bilan bog'liq holda, faoliyat ichida va asosan, tarbiyaning va o'z-o'zini tarbiya qilishning ta'siri ostida taraqqiy qiladi.

Bolalarning faolligi avvalo ixtiyorsiz harakatlarda ifodalanadi. Bunday faollik dastavval sharoitga moslashish tarzidagi harakatlardan iborat bo'ladi. Bola o'zi uchun yangi bo'lgan narsalarning hammasiga, xususan, harakat qiladigan, ovoz chiqaradigan, yorqin qilib bo'yalgan narsalarga nisbatan tez va tetik munosabatda bo'lib, ularga qayrilib qaraydi, ularga tomon intiladi, ushlab ko'radi, polga irg'itib tashlaydi hamda ana shunday asosda dastlabki hattiharakatlarni egallaydi. Mana shunday harakatlarda organizmning hayoti gavdalanadi, chunki bola bunday ixtiyorsiz harakatlar yordami bilan o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondiradi. SHuning bilan birga, bu ixtiyorsiz harakatlar bolalar irodasining taraqqiyoti uchun tayyorgarlnk jihatidan muhimdir. Ixtiyorsiz harakatlar tufayli nerv hamda muskul sistemalari o'sadi va mustahkamlanadi, ayrim organlarning, ya'ni – o'ng va chap oyoqning, o'ng va chap qo'lning, ayrim barmoqlar va shu kabilarning harakatlari chiniqadi. Bunday harakatlar tufayli bola o'z organlarining harakatini sezsa boshlaydi va unda o'z organlari hamda ularning harakatlari haqida tasavvur hosil buladp. Bularning hammasi irodaviy harakatlar davomida bolaning o'z organlarini ongli ravishda boshqarishi uchun zarurdir. «Qo'l, oyoq, bosh va gavda harakatlarining barcha elementar shakllari,— deb yozadi Sechenov— va shuningdek, bolalik davrlarida o'rganilgan barcha murakkab harakatlar, ya'ni yurish, yugurish, gapirish, ko'z harakatlari, bu harakatlarni o'rganib olingandan keyingina irodaga bo'ysunadigan harakat bo'lib qoladilar» Lekin organizmning ma'lum darajada o'sayotgan harakatlarining o'zini hali iroda deb bo'lmaydi.

To'la anglab olingen intilish, hohish, tanlash, qarorga kelish va zo'r berish kabi iroda elementlari ko'ringan davrdan boshlab, muayyan yoshdag'i bolalarda irodanining borligi haqida gapirish mumkin.

(Istak, mayl) tarzidagi intilish bolada juda barvaqt, ya'ni hissiyotlar bilan birga yuzaga keladi. Bolaning biron narsadan noroziligini va bunday holatdan qutulish uchun intilayotganini teztez kuzatish mumkin. Ammo bolaning bunday intilishlari hali anglab olinmagan intilishlar bo'ladi. Tahminan ikki yoshga yetmagan bolada, tarbiya va o'z o'yin faoliyatining ta'siri ostida anchagina tajriba to'planadi, ya'ni u ma'lum tasavvurlar boyligiga ega bo'ladi, xayol qilish qobiliyati esa boshlanadi va bola shular asosida fikr qila boshlaydi. SHuning bilan birga, bu yoshdag'i bolada anglab olingen intilishlar va hohishlar paydo bo'la boshlaydi. Ammo shuni aytish kerakki, bu intilishlar va hohishlar uzoq, davrlarga qadar, asosan, bolada tug'iladigan emotsiyalarga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun bu davrdagi harakatlar, asosan, kuchli emotsiyal (hissiy) mayl ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bu oddiy – irodaviy harakatlardir.

Doimiy sur'atda mashq qilish davomida bolada sekin-asta ongli ravishda irodaviy zo'r berish qibiliyati o'sa boshlaydi. Bunday mashqlar dastlab, asosan kattalar rahbarligi ostida bo'lib turadi. Odatda, bunaqa bolaga bironta vazifa, yumush topshiriladi. Masalan, «falon joyga borib kel», «Anavi narsalarni olib ber», «Uyning rasmini sol» va shuning kabilalar. Bunda bola atrofdagi katta odamlarning hohishlari va qarorlari bilan harakat qiladi.

Kattalar tomonidan bolalarga ana shunday «vazifalar» topshirilib turilar ekan, ko'pchilik hollarda, albatta bunday vazifalarning tarbiyaviy ta'siri hamda bola irodasining rivojlanishiga bo'lgan ta'siri ko'zda tutilmaydi. Bunday vazifalardan ko'zlangan maqsad bolalarni biror yumush bilan band qilish yoki ota-onalarga xos bo'lgan qiziquvchanlik nuqtai nazaridan bolaning nimaga qodir ekanligini sinab ko'rishdan iborat bo'ladi. Haqiqatda esa bunday «vazifalar» bolalar irodasini effektiv rivojlantirishga va jumladan, harakat maqsadi va vositalarini anglashga, tartib-intizom malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Irodani mustahkamlash va o'stirishda bolalarning taqlidiy harakatlari, ya'ni boshqalarning ish-harakatlariga taqlid qilish juda katta ahamiyatga egadir. Oddiy taqlidiy harakatlar bolada juda erta, ya'ni to'rt-besh oylik bo'lган davrdan boshlaboq paydo bo'la boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshganda esa ancha murakkab taqlidiy harakatlarni qila oladilar. Mana shulardan ko'rinish turibdiki, kishining irodasi faqat tarbiya ta'siri ostida o'sishi mumkin, Irodaviy faoliyatga doir dastlabki mashqlar kattalarning rahbarligi ostida yoki kattalar ko'rsatmasi bilan voqeа bo'ladi.

Bolalar ikki yoshdan oshganda motivlar kurashining boshlang'ich alomatlarini ko'rish mumkin. Masalan, bolaga bir vaqtning o'zida olma bilan holvani ko'rsatib, «shulardan bittasini ola qol»—desak, bunday holda boladagi ikkilanish, ya'ni motivlar kurashi aniq ko'rindi: bola goh olmaga, goh holvaga qaraydi, qo'lini goh olmaga, goh holvaga uzatadi. Motivlar kurashi shuning bilan tugaydiki, bola bu narsalardan birini o'z qo'li bilan oladi, «olmani» yo «holvani» olaman deydi. Ammo shunisi ham borki, bola shu ondayoq o'z qarorini o'zgartirib qo'yishi mumkin. U bir vaqtning o'zida qo'llarini ham olmaga, ham holvaga cho'zishi mumkin. Lekin bu hodisa mana shu yoshdagи bolaning irodaviy jarayonlarida hali qat'iylik, barqarorlik yo'qligini ko'rsatadi, xolos.

Uch yoshli bolalarning harakatlarida tashabbuskorlik borligini kuzatish mumkin. Bu yoshdagи bola ma'lum yo'l tanlay oladi va ma'lum vaziyatni egallashga intiladi hamda oldiga qo'yilgan talablarni anglay oladi. Boqcha yoshining keyingi bosqichlarida bola irodasi o'ziiing butun jihatlari bilan to'la-to'kis tarkib topadi. Lekin shunga qaramay, bola irodasini hali to'la takomillashgan deb bo'lmaydi.

Bolalarning harakatlarida ixtiyorsiz faollik va hissiyot juda katta o'rн oladi. Bolalar ma'lum bir qarorlarga o'zlarida tug'ilgan bir talay hissiyot ta'siri bilan keladilar; shuning uchun, bolalarning qarorlari tez-tez o'zgarib turadi. Ular o'z qarorlarini tez-tez, hattoki amalga oshirish paytida ham o'zgartirib turadilar. Agar bolalarning oldilariga qo'yilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa va zavq tug'dirsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qat'iylik ko'rsatishlari mumkin. Bolalar hali o'zlarini yaxshi tuta olmaydilar va betoqat bo'ladi. Bolalarda mustaqillik hali kam bo'ladi. Ular o'zlarining harakatlarida doimo kattalarning yordamiga muhtojdirlar.

Bolalarda irodaviy harakatlarning o'sib borishi bilan birga, ixtiyoriy fikrlash jarayonlari ham o'sadi.

Boqcha yoshidagi bolalarning irodasi, asosan, o'yin jarayonida ko'rindi. O'yin bolalar irodasini vujudga keltiruvchi, o'stiruvchi va mustahkamlovchi amaliy mashg'ulotdir. Bolalar o'yin jarayonida o'z oldilariga sodda bir maqsadlarni qo'yadilar va uchragan qiyinchiliklarni yengib bu maqsadlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ladi. Qoidali o'yinlar xususan katta ahamiyatga egadir. O'yin qoidalarini bajarish bolani o'z harakatlarini o'yin o'ynovchilarning umumiyyatini maqsadlari bilan moslashga o'rgatadi, javobgarlik hissini tarbiyalaydi, vazminlik va intizomlilikni rivojlantiradi.

Ammo boqcha yoshidagi bolalar irodasi faqat o'yin jarayonidagina ko'rinish qolmay, balki bu yoshdagи bolalarga mansub bo'lган ba'zi bir mehnat faoliyatlarida, ya'ni o'z-o'zlarini eplashda, polizdagи va bog'dagi o'simliklarni parvarish qilishda hamda boshqa shu kabilarda ko'rindi va tarkib topa boradi.

Boqcha yoshidan boshlab inson irodasi taraqqiyotining asosiy vositasi sifatida mehnatning ahamiyatini hisobga olish zarurdir.

Ba’zi talabalar xiyobonda sayr qilib yurgan odamlarga diqkatlarini bo‘limgan holda ikki-uchta bo‘lishib bemalol dars tayyorlaydilar. Ba’zi talabalar esa, faqat tinchlik hukm surganda kitob o‘qishga odatlanganlar. Yuqorida aytib o‘tilgan kishi odatlarini qanday tushuntirish mumkin

### **1-topshmriq**

Faoliyat natijalarining bilish malakasini shakllanishiga ta'sirini tekshirish.

ZARUR MATERIAL: Millimetrlarga bo'lingan chizg'ich.

*Topshiriqning bojarilishi.* Eksperimentator chizg'ichning 1 sm, 8 sm, 15 sm o'lchovlarig'a uchta aniq ko'rinarli chizikcha chizadi. Tajribaning birinchi turida sinaluvchi qalamning uchi bilan chizg'ichga biriktirilgan belgani birinchi ko'rsatkich (1 sm) dan ikkinchi ko'rsatkich (8 sm) gacha surib boradi. So'ngra ko'zini yumgani xolda belgini uchinchi ko'rsatkich (15 sm) gacha surib borishi kerak. Topshiriqning natijasi sinaluvchiga ko'rsatilmagani holda eksperimentator tomonidan shartli belgilari ("+", "-") yordamida aks ettirib boriladi. Tajriba 15 marta takrorlanadi. Tajribaning ikkinchi turida sinaluvchi tajriba natijalarini har safar ko'zini ochib, ko'zatib boradi,

Ikkinci bosqich ham 15 marta takrorlanadi. Tajriba natijalari quyidagi jadvalda beriladi.

Xatolar (mm hisobida)	30
	25
	20
	15
	10
	5

0 123456789

### **Tajribalarning soni**

Tik chizg'ich xatolarning o'sishini (mm hisobida) ifodalaydi. Bunda xatolarning og'ishi ("+", "-") birgalikda qo'shib olingan. Gorizontal chiziq tajribalar sonini ko'rsatadi. Kontur chiziq tajribaning birinchi turini, pastki chiziq esa tajriba ikkinchi turining natijalarini ifodalaydi. Tajriba natijalarining qiyosiy tahlili faoliyat natijalarini bilish malaklarining shakllanishiga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatadi.

### **2-topshiriq**

Yozuv namunalarini chog'ishtirish usulidan foydalanib, harakat malakalarini shakllantirish jarayonini tekshirish.

ZARUR MATERIAL. To'g'ri chiziqli daftар va bir qator so'zlar. *masalan:* ishlatmoq, paxta, qimmat, katta, yashash kabilar.

*Topshiriqning bajarilishi.* Eksperimentator o'qib bergen so'zlarni sinaluvchilar daftар chiziqlariga tekkizmay chiziqlar orasida yozishlari kerak. Avval yozuvni o'quvchilar ko'rib turib bajarsalar, so'ng ko'zlarini yumib bajaradilar.

Tajriba yakunida so'zlarni yozishda o'quvchilar necha marta chizikqa tegab yoki chiqib kegganligiin hisoblab, kuyidagn jadval to'ldirnladi.

Tajribalarning soni

№	Necha marta chiziqqa tekkan	
	Ko'rib turib yozilganda	Ko'zni yumib yozilganda
1.	0	6
2.	0	6
3.	0	4
4.	0	3

Yuqoridagi jadvalga asoslangan holda, ko'zni yumib yozilganda yozuv malakalarining shakllannish jadvali chiznladi. Chiziqqa tegishni ifodalovchi sonlarnnng quyi va yuqori

ko‘rsatknchlarn o‘rtasidagn nisbat malakalarining shakllannsh jarayoni nntensiv ravishda borishnni ko‘rsatadi.

Chiziqqa	6
tegish	4
soni	2
	0 123456

yozilgan so‘zlarning tartib soni.

*"Shaxs faoliyatining emotsional-irodaviyligi?*

*Imavzu: "Hissiyot".*

### *Topshiriq 1.*

Emotsional holatning faoliyat natijasiga ta’sirini o‘rganish.

ZARUR MATERIALLAR. Bir chizikli daftар, qator so‘zlar, masalan: piyola, jamoatchi, kishilar, mamlakat, shaxsiyat, adoqachi, yem-xashak, chizg‘ich, psixologiya, tashkilot kabi.

*Topshiriqning bojarilishi:* Eksperimentator o‘zi tanlagan yordamchisi bilan xonaning ikki tomoniga bittadan talabani chaqirib yozuv namunalarni chog‘ishtirish metodidan foydalanib, harakat malakalarining shakllanish jarayonini tekshira.ti. Bunda sinaluvchilar eksperimentatorning o‘qib berayotgan oo‘zlarini bermigan bir chizikli daftarning chiziqlariga tekkizmagani xolda, avval ko‘zini yummay turib, so‘ngra ko‘zi bog‘lik holda yozib borishi kerak.

So‘ngra har ikkala sinaluvchi o‘rtasida musobaqa tashkil qilinib, yuqoridagi topshiriq takrorlanadi. Topshiriqiing natijalari quyidagi jadvalda qayd etib boriladi.

Topshiriqdan ko‘zatilgai maqsad	Har ikkala tajriba		Yo‘l qo‘yilgan xatolarning o‘rtacha nisbati
	Ko‘z ochiq I 2 3	Ko‘z bog‘liq 1 2 3	
Hotirjam sharoitda harakatdagi aniqlikni o‘rganish			
Musobaqa sharoitida harakatdaga aniqlikni o‘rganish			

Tajriba natijalarini tahlil qilish orqali emotsional holatning faoliyat natijasiga ta’siri yo‘zasidan xulosalar chiqariladi.

### *II Topshiriq*

- Quyida berilgan matnlarni o‘qing, qaysi birida ko‘proq bilish jarayonlari va qaysi birida xissiyot yoki emotsiya ifodalananayotganligini aniqlang.
  - Bularni siz qamday belgilarni asosida anikladitingiz?
- A. Har kuni ishchilar shaharcha ustida tutun burksigan yog‘li havoda fabrika bizillab, o‘kirib gudok berar va bu gudokka itoatkor bo‘lib qolgan, mus-kullariga uyqu bilan orom berishga ushurolmagan va lablari tabassumni bilmaydigan kishilar, xuddi bir narsadan cho‘chigan suvaraklar kabi kichkina, ko‘rimsiz uylaridan yugurganlaricha ko‘chaga otilib chiqardilar. Ular sovuq tong qorong‘usi, tosh to‘shalmagan ko‘cha bo‘ylab, fabrikaning baland-baland tosh qafaslariga tomon borishar, fabrika esa o‘nlarcha yog‘ boegan to‘rtburchak ko‘zlar bilan iflos ko‘chani yoritib, ularni loqayd ishonch bilan kutar edi. Ko‘chada uykusiragan odamlarning bo‘g‘iq ovoz bilan qiy-qirishlari, shaloq so‘zlar bilan so‘kishlari eshitilar, fabrika tomoni-dan esa bularni boshqa ovozlar - mashinalarning og‘ir sadolari va bug‘ning-guldurosi qarshi olar edi.

(A.M.Gorkiy. "Ona", I bob, 3-bet, Toshkent).

B.G‘ofur. Ochlikdan sillam qurib, iligim puchaygan chog‘imda ham siz-larga yalinmayman. Axir bu ko‘zlardan oqqan jigar qonlari, beva-bechora, yetim-esirlarning oxu-zorlari ko‘nglingazni yumshatmaydimi? Qachongacha kimxob choponlar, yog‘liq palovlar uchun boylarga zulm pichog‘ini qayrab berasiz? Axir, bu duolar, rivoyatlar niqobiga yashiringan zulmdan, jafolardan biz qurg‘urlar kimga dod, deymiz? Kimga? Bu g‘urbatxonada notavon yig‘laganlarning, afsus-nadomat chekkanlarning dodu faryodnni kim tinglaydi, kim? Gapiring, shariat peshvolari... (H.H.Niyoziy, "Boy ila xizmatchi" dramasidan).

### *III. Topshiriq*

Quyidagi matshtarni o‘qing va hissiyotning qanday individual xusu-siyatlari (kuchi, chuqurligi, barqarorligi) namoyon bo‘layotgashshgini aniklang va izohlang.

A.Kamol I. - VIII sinf o‘kuvchisi. O‘qituvchi uni bir partadan ikkinchi partaga o‘tkazgani uchun qattiq xafa bo‘ldi, o‘zoq mushoxada qildi, butun darslar davomida asabiy, parishonxotir, xomush o‘tirdi. Keyin ham o‘zoq vakt o‘ziga kela olmadidi.

B.Salim B. - IV sinf o‘kuvchisi. Darsda ikki baho olganiga yig‘lab yuborayozdi va o‘zini tutib qoldi. Ammo 1-2 soat o‘tar-o‘gmas, yomon bahosini tamoman unutdi, tanaffusda boyagiday quvnoq va xotirjam edi.

V.Aziza M. - VIII sinf o‘quvchisi. Uni quvontirish ham, kayfiyatini bo‘zish ham, achchig‘lantirish ham qiyin. Sinfda o‘quvchilar qax-kah urib kul-salar ham, u indamay o‘tiradi. U bu yil sinfda qolishi xaqidagi xabarni eshitdi. Ammo bemalol o‘tiraverdi.

*II mavzu: "Iroda".*

### *I. Topshiriq.*

Insonning quyidagi (irodaviy, impulsiv, avtomatik) xatti-harakat-lari qaysi harakat turiga kiradi?

A. Ulug‘ Vatan urushi yillari edi. Front maydonlaridan birida jang-chilarimiz qiruvchi samolyotimizni yerga majburiy qo‘nganlishni ko‘rib kolib, uning yoniga chopib bordilar. Qarasalar ekipaj a’zolari qimir etmay yotardi. Qonga belangan uchuvchi shturvalni ushlagan xolda o‘tirardi. Uning oyog‘i tor-moeni bosgan bo‘yicha qolgan. Ko‘rinib turibdiki, uchuvchi agar samolyot qo‘nayotgan vaqtida hatolikka yo‘l quyilsa, yong‘in bo‘lishini hisobga olib. motorni o‘chirib to‘xtatish maqsadida yaralangan chap qo‘lini oxirgi marta motorni o‘chiradigan tugmaga urgan. Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, u medpunktida o‘ziga kelib, girix bo‘lgan tishlari orasidan: "Topshiriq bajarildi... Ekipajning ahvoli qanday? Samolet butunmi?" - deganicha yana xushidan ketgan. B. O‘tkazilgan bir necha tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, agar bir vaqtida ham chiroq yoqib, ham sinaluvchining ko‘liga elektr qo‘zg‘ovchi bilan ta’sir kilinsa va bu narsa bir necha marta takrorlansa, u keyinchalik elektr qo‘zg‘ovchi bo‘lmasa ham, chiroq yoqilishi bilan ko‘lini torta boshlaydi.

### *Shaxs va uning yo‘nalishi*

#### *Topshiriq I.*

O‘quvchilar ahloqiy mulohazalarining barqarorligini, yosh va individual xususiyatlarini katta yoshdagisi kishilar va tengqurlari ishtirot etgan sharoitda eksperimental aniklash.

ZARUR MATERIAL. Vaziyatni yoki karama-qarshi mazmunni ifoda-lovchi hikoyalar.

1. Nazorat ishi olinyapti. Sen ishni to‘g‘ri bajarding. O‘rtog‘ing materialni bilmas ekan, u seqdan ko‘chirib olishnya iltimos qiladi. Shunda sen nima qalar eding?
2. Sen nazorat ishini bajarolmayapsan. O‘rtog‘ing o‘zidan ko‘chirib olishni taklif kilyapti. Shunda sen nima qilar eding?
3. Bir guruh o‘rtoqlar darsni bo‘zmoqchi bo‘lib kelishib oldilar. Shunda sen nima qilar eding?
4. Tanaffus vaqtida bir o‘rtog‘ing deraza oynasini sindirib ko‘ydi, Sen uni tasodifan ko‘rib qolding. O‘rtog‘ing aybni bo‘yniga olmoqchi emas. Sen aybdorning ismini o‘kituvchingga aytarmiding?

- O'qituvchi betob bo'lib maktabga kelolmadi. Parallel sinfdan boshqa o'qituvchi kirib topsofiq berdi. Lekin bolalar ishslash o'rniga, o'yin bilan mashg'ul bo'ldilar. Bu vaqtida sen nima qilgan bo'larding?
- Sen yomon baho olding. Buning uchun ota-onang jazolashini bilasan. Olgan bahoyingni uydagilarga aytarmidung?

*Topshiriqning bojarilishi.* Har bir sinaluvchi (sinaluvchilar har xil yoshdagi o'quvchilar bo'lishi mumkin) uchta hikoya bilan tanishtiriladi. Hamma hikoyalar ahlokiy talablar jihatidan uxshash bo'lmog'i zarur, shuningdek, mazmunan bir oz farq qilishi mumkin.

- Birinchi hikoya o'qilishida sinalayottan odamga uning javobini hech kimga bildirmasligi aytildi.
- Ikkinci hikoya o'qitilishida esa sinalayotgan kishiniig mulohazalari bir haftadan so'ng butun sinfga yetkazilishi aytildi;
- Uchinchi hikoya o'kntilayottanda esa javobi o'qituvchilarga va ota-onalarga bildirish aytildi. Har bir hikoya bilan tanishib chiqilgandan so'ng eksperimentator kerak bo'lган javob variantlarini antadi. O'kuvchi shulardan bittasining ostini chizib kuyib, "ha", "bo'lsa kerak" deydi. Masalan, birinchi hikoyani o'qib bo'lib, u quyidagi to'rt variantdan birining ostini chizib qo'ymoq kerak.

Hikoyanin) nomi	<i>Ko'chirtiraman</i>		<i>Ko'chirgirmayman</i>	
	ha	bo'lsa kerak	ha	bo'lsa kerak

*Bajarilgai topshiriq natijalarini ishlab chiqish.* Barcha mulohazalar ikki guruxga bo'linadi: ya'ni axloqiy normalarga mos mulohaza (masalan "Nazorat ishini ko'chirishga bermayman" degan mulohaza) va ahlokiy normalarga noloyiq mulohaza ("Ko'chirishga beraman"). Yosh kategoriyalarga ko'ra, bu ikki guruh mulohazalarning mikdoriy solishtirilishi o'quvchilarning axloqiy mulohazalari qaysi tomonga qarab o'zgarayotganli gini aniqlashga yordam beradi, yani axloqiy normalar talabi (tomoni)gami yoki axloqiy normalarni bo'zish tomonigami.

Birinchi xikoya mulohaza bo'iicha mezon bo'lib qoladi. Ikkinci va uchinchi hikoyalarga javob berishda chetta chiqiladigai bo'lsa, ya'ni kattalar *tazyiqida* yoki tengdoshlar *tazyiqida* bo'linsa, unda o'quvchilarning axloqiy mulohazalari yetarli darajada qaror topmaganligini ko'ramiz.

Mulohaza xususiyatlari (qancha va qanday mulohazalar mustahkam yoki beqaror, nomustahkam bo'lib chiqdi) va siialayogganlarning xususiyatlari (kancha o'quvchi har bir yoshda mustahkam, barqaror yoki mustahkam emas bo'lib chiqdi) tahlil kilinadi.

### *Topishriq 2,*

Inson o'z-o'zini anglashining ko'p qirrali tomonlarini topish.

**ZARUR MATERIAL.** Shaxsning ayrim sifatlarini tavsiflovchi so'zlar: ta'sirchanlik, mag'rurlik, ko'pollik, ko'rolmaslik, unutuvchanlik, qasos-korlik, xafaxonlik, ehtiyyotkorlik, hozirjavoblik, ilashimlilik, beparvolik o'zbibirmonlik, mulohazakorlik, qat'iyatlilik, o'zini tutabilishlik, ehtiroslik, qo'rqoklik, tirishqoqlik.

*Topshiriqning bajarshshshi..* Sinaluvchi berilgan so'zlardan 5 qator so'zlar guruhini to'zadi, So'zlarning qatorlari sinaluvchining o'zi haqidagi quyidaga tasavvurlarni tavsiflab berishi kerak;

Hozirgi "men" (hozirgi vaqtida men o'zimni qanday deb hisoblayman);

Dinamik "men" (men o'z oldimga qanday bo'lishim kerakligi haqida qanday maqsad qo'ydim);

Ideal holdagi "men" (o'zlashtirib olingen axloq normasi va namuna-lariga muvofiq holda men o'zimning qanday bo'lishimni bilaman);

Qelajak yoki ehtimol tutilgan "men" (o'zimning fikrimga ko'ra men kim bo'lib yetishmog'im kerak);

Tasavvur qilinadigan "men" (men boshqalarga qanday bo'lib ko'rinishga intalaman).

Sinaluvchi birinchi qatorga xozirgi vaqtida o'ziga kam darajada xos bo'lган xususiyatlarni yozadi. So'ngra qozirgi vaqtida sinaluvchining o'ziga anchagina ko'proq darajada xos bo'lган xususiyatlarni yozadi hamda shu tartibda ishni davom etgtiraveradi. Qatorning oxiriga sinaluvchi

uchun eng muhim va katta ahamiyatga ega bo‘lgan (o‘ziga xos) xususiyatni ifodalovchi so‘zlarni yozadi. Xuddi shu tarzda qolgan qatorlar ham to‘ldirib boriladi.

1 - qator	2 - qator	3 - qator

*Bajarilgan topshiriq natijalarini ishlab chiqish.* Besh kator so‘zlarni yozib bo‘lingach, ular asosida grafik to‘ziladi. Absissa o‘qi bo‘yicha shaxsning ayrim xususiyatlarini ifoda etuvchi so‘zlar ajratib qo‘yiladi. Ordinata o‘qi bilan esa, sinaluvchining turli "men"lari bo‘yicha tasavvur qilgan xususiyat darajalari ajratib yoziladi. Ishga taallukli bo‘lgan nuqtalarni biriktirish yordamida shaxsning o‘z-o‘zini anglashga oid beshta chiziqni hosil qilamiz.

### *Topshiriq 3.*

O‘z-o‘zini baholash saviyasining miqdoriy ifodasini topish.

**ZARUR MATERIAL.** Shaxsning ayrim fazilatlarini tavsiflovchi so‘zlar: saranjomlik, besaranjomlik, sermulohazalik, tajanglik, zehnli bo‘lish, g‘ururli bo‘lish, qo‘rslik, xushchaqchaqlik, g‘amxo‘rlik, hasadchilik, uyatchanlik, samimiylilik, izlanuvchanlik, injiqlik, ishonuvchashshik, sustkashlik, xayolparastlik, vahimachi bo‘lish, qasoskorlik, matonatlilik, nafislik, bemalollik, asabiylik, jur’atsizlik, o‘zini tuta bilmaslik, jozibadorlik, jshzakilik, ehtiyotkorlik, iltifotli bo‘lish, xarakatchanlik, gumonsirashlik, prinsipiallik, shoironalik, ko‘rolmaslik, ochik chehralik, shilqimlik, bema’nilik, dadillik, ishga berilib ketib o‘zini unutib yuborish, vazminlik, achinishlik, nomuslilik, chidamlilik, ko‘rqoklik, qiziquvchanlik, sabotlilik, kungilchanlik, beparvolik, tashabbuskorlik.

*Topshiriqning bajarilshii.* O‘z-o‘zini baholash saviyasining miqdoriy ifodasini topishda kuyvdagi usuldan foydalilaniladi.

Sinaluvchi oldin yuqorida keltirilgan so‘zlar orasidan o‘zida mavjud bo‘lgan xislatlarni ifodalovchi so‘zlarni topadi. So‘ngra o‘zida qanday xislatlar bo‘lishimi xohlovchi so‘zlarni topadi.

Sinaluvchi berilgan so‘zlarni diqqat bilan ko‘rib chiqadi, so‘ngra ularni ikki qatorga (har qatorga 10-20 gacha so‘z) yozib chiqadi. Birinchi qatorga o‘zining idealiga mos, ikkinchi qatorga esa o‘zida bo‘lmasligani ifodalovchi so‘zlarni yozadi. Ikkinchi qatorni shartli ravishda "anti ideal" deb atashi mumkin. Birinchi katordagagi so‘zlar "ijobiy" ko‘plikni, ikkinchi qatordagagi so‘zlar "salbiy" ko‘plikni tashkil etgadi. Ular mezon bo‘lib hisoblanadi.

So‘ngra sinaluvchi "ijobiy" va "salbiy" ko‘pliklar orasidan o‘zvda bor xislatlarga mos bo‘lgan so‘zlarni topadi. Bunda sinaluvchi mazkur xislatlarning kandai ifodalanganligi darajasini emas, balki uning o‘znda bor yoki yo‘kligini ko‘zda tutmogi zarur ("Ha" yoki "Yo‘q").

*Bajarilgan topshiriq natijalarini ishlab chiqish.* Sinaluvchi tanlab olgan fazilatlar soni har bir ko‘plik uchun sanalib chiqiladi va tegishli mezon qatoridan umumiy so‘zlar soniga taqsimlanadi. Agar ijobiy ko‘plik bo‘yicha koeffitsient birga yaqin bo‘lsa, bu sinaluvchi o‘zini ortiqcha baholab yuborgani va o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lmaganidir. Salbiy ko‘plik bo‘yicha koeffitsientning, ijobii ko‘plik bo‘yicha koeffitsientning ijobiy ko‘gshik bo‘yaicha nolga yaqinligi o‘ziga yetarli baho bermaganligidir.

Koeffitsientning 0,5 ga yaqin bo‘lishi sinaluvchining o‘ziga xos normal, o‘rtal baho berishini, shu bilan u o‘zini ortiqcha baholab yubormasdan, o‘z-o‘ziga tanqidiy yondashganligini ko‘rsatadi.

### *Topshiriq I.*

Assotsiatsiyalarni erkin kechirishga doir.

A. Talabakarga fikrlariga kelgan o‘nta so‘zni tezlik bilan aytish vazifasi topshiriladi. Eksperimentator aytilgan so‘zlarni va ularning aytish tezligini ko‘zatib boradi. Bu najriba nuts bilan tafakkurning o‘zvny bog‘liqdigini va fikrning nutkda ifodalanganishini isbotlaydi. So‘zlarni fikr va fikr manbalariga qarab guruxlash mumkin. Keltirilgan so‘zlar manba jihatdan qanchalik tor bo‘lsa, fikr manbaga shunchalik umumlashgan, voqelik ongimizda shunchalik chuqur aks etgan bo‘ladi.

B. Eksperimentator har bir talabaga navbat bilan 10 tadan so‘z aytib (kutubxona, kasb, sog‘liq, avtomatlashtirish, tezlik, intensiv, differensiatsiya kabi) har bir so‘zni eshitishi bilan fnkriga kelgan

birinchi so‘zni aytib javob qaytarishini talab qiladi.

Tajriba natijasining taxlili talabalarning so‘z ko‘zg‘ovchisiga bergen javobining muvofisligi, bilimdonligi, umumlashtirish darjasini haqidagi ma’lumotni beradi.

### *Topshiriq II.*

a) o‘zbek tilidagi unli va undosh tovushlarning ma’no salmoslari bir xil emasligini aniqlashga doir.

Eksperimentator doskaga undosh tovushlari tushirib qoldirilgan so‘zlarni yozadi.

Vasalan: -e-i; o-o-o; u-i-o; -e-u-n-a kabilar.

Talabalar tushirib qoldirilgan undosh tovushlar ishtirokida so‘zlar to’zishlari kerak. Shubhasiz, talabalar berilgan so‘zlarni aniqlashda qiynaladilar.

Eksperimentator, aynan, shu so‘zlarning unli tovushlari o‘rniga chiziqchalar chizib undosh tovushlari asosida beradi.

Masalan: s-m-l-t; -zb-k-st-n; s-zg-; r-sp-bl-k kabilar.

Tajriba natijasida talabalar o‘zbek tilida, rus tilnsha bo‘lgani kabi, so‘z yasalishida ma’no salmog‘i asosan undosh tovushlar orqali berilishinn tushunib oladilar.

b) eksperimentator kuyidagi so‘zlar ishtirokida kartochkalar tarqatadi.

Masalan: yo’z, ok, dam, chiroy, ot kabilar.

Talabalar berilgan so‘zlarning sinonimlarini (yo’z, afg, jamad, bashara) va omonimlarini (yo’z - son, yo’z - ot kabi) topishlari kerak:

v) past; qattiq, katta, yengiltaklik kabi so‘zlar ishtirokida to’zilgan kartochkalarga javob berilgan so‘zlarning antonimlarini topishlari ksrak.

### *Topshiriq III.*

Talabalar so‘z boyligining faollik darajasini aniqlash.

**ZARUR MATERIAL.** Sinaluvchining 300 so‘zdan kam bo‘liagan nutq namunasi. Bunga sinaluvchining muayyan mavzu yo’zasidan yozgan inshosi, rasm yoki kinofilmga yozgan taqrizidan namuna sifatida foydalanish iumkin.

*Topshiriqning bajarilishi.* Eksperimentator barcha sinaluvchilarga muayyan bir mavzuda insho yoki muayyan bir rasm, yoki bo‘lmasa, kinofilmga taqriz yozishni buyuradi. Vaqtini tejash maqsadnda talabalarning avvalgi yozgan inshosi yoki boshqa ish kog‘ozlaridan foydalanish mumkin. So‘ngra matndagi so‘zlar quyidagicha tahlil qilinadi:

1. Nutq namunasidagi so‘zlarning umumiyl soni.
2. Matnda faqat bir martagina qo‘llanilgan so‘zlarning soni.
3. Nutq namunasining birinchi yo’zligi, ikkinchi yo’zliga va uchinchi yo’zligida uchragan so‘zlarning soni.

Tajriba natijalarini jadvalda quyidagacha ifodalash mumkin:

Sinaluvchi ning ismi, familiyasi	Nutk, namunasi ning turi va soni	So‘zlar ning umumiyl soni	Turli so‘zlar ning soni	Faqat bir martagina qo‘llanilgan so‘zlarning soni	Sinaluvchi ning tutgan o‘rni
			1 2 3		
	-				

### *Topshiriq 1.*

Istruksiya. Talabalarga quyidagicha topshirik beriladi.

- Hozir men sizlarga bir soniya ichida bir qancha yozilgan sonlarni kursataman. Uida qanday sonlar yozilganligani diqqat bilan ko‘rib oling. Men rasmni ko‘rsatib bo‘lgach, mazkur sonlarni birg‘biriga qushing va natijasini yozing.

Keyin ichda "bir, ikki..." deb sanab, bir soniya ichsda talabalarga ichiga raqamlar yozilgan uchta turli geometrik figuralarning rasmi ko‘rsatiladi. Ular quyidagicha bo‘lishi mumkin: kvadrat - sakkiz, uchburchak - uch, aylana - to‘qqiz.

Talabalar natijani chiqarib bo'lishgach, ulardan qaysi figura ichiga qanday son yozilganliga so'raladi.

Qo'lga kiritilgan materiallardan diqqat xususiyatlarining (hajmi va bo'linishi) namoyon bo'lishi to'grisida va diqqatda ustanovkaning roli haqida xulosa chiqariladi.

### **Topshiriq II**

1. Sinaluvchi xarflarni alfavit tartibida aytadi va har bir harfdan so'ng ma'lum bir sonni ham ko'shib aytadi. Bunda A. harfiga birni, undan keyingi harflarga uch sonini qo'shib, ya'ni a - bir, b - to'rt, v - yetti, g - o'n, d - o'r uch va shu tarzda "f" harfigacha aytildi. Sarflangan vaqt doskaga yozib qo'yiladi. Mazkur tajribani yana ikki-uchta talaba takrorlaydi.

2.

a) sinaluvchi doskaga 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni yeza boshlaydi va bir vaqning o'zida bu sonlarni ovoz chiqarib teskarisiga - 20 dan 1 ga karab o'qiydi va hokazo.

b) sinaluvchi kitobdan byror narsani ovoz chikarib o'qiydi va ayni paytda doskaga boshqa .bir narsani (masalan: + - + - + - -va q.z.) yozadi.

Qolgan talabalar bu har ikkala ishning qay darajada oson va bab-baravar bajarilishini ko'zatib boradilar. Mazkur tajribani yana 2-3 talaba takrorlaydi.

Eksperimentator diqkatning bo'linishiga doir bu tajribalar yakunini talabalar xamkorligida umumlashtiradi.

### **Topshiriq III**

Diqqatning barqarorligini Burdonning korreksion jadvali yordamida aniqlash.

Instruksiya. Tajribaning nomi e'lon qilingach, har bir talabaga ilgari tayyorlab qo'yilgan Burdon jadvalidan ikkitadan tarqatiladi. Jadvallardam biriushg yuqori qismi o'ng burchagaga "Sinov tajriba", ikkinchisining shu joyiga esa "Asosiy tajriba" deb yozilgan bo'ladi.

#### *Sinov tajriba uchun*

#### *BURDON JADVALI*

AMKZGXBKShZPYuVRBXPAETDJSGRV XSYuGIKVPDRGMAITKOBEMFOI  
YuShDZJVPEPChNVSJULXYuRXBYaZ ShIOSVChEXTESPMNORJXShNAECh  
YuPJVLYuFOPVAKChMKChEShAJKYa DXISVPBYuJRSPVUYuShATXSGMK  
RATYuDDRGRLVRGAMKETNZOU BXFPLJShYaISYuDYuXVTUCHPYaIX SFNPDSRKG

Talabalarga sinov tajriba uchun tayyorlangan jadval va qalamning ko'lga shshnishi aytigach, bajarilishi kerak bo'lgan ish tartibi tushuntiriladi:

"Oldingizda harflar yozilgan qog'oz guribdi. Sizlar bu harflarni diqqat bilan ko'zdan kechirib, ularning ichidan AMKZ harflarini topib, vertikal chiziklar bilan o'chirib chiqasizlar. "Boshlanglar" deyilgandan so'ng ishga kirishasizlar va "to'xtanglar" deganimizda ishni to'xtatasizlar".

Talabalar tomonidan berilgan ayrim savollarga javob qaytarilgach, sinov tajriba boshlanadi. U bir daqiqacha davom etadi. Keyin asosiy gajribaga o'tiladi.

1. Instruksiya takrorlanadi. Bunda ham yuqoridagiga o'xshab AMK!5 xarflari vertikal chiziklar bilan o'chirilishi zarurliga ta'kidlanadi.

2. Talabalarga tajribaning xar bir daqiqasi o'tgach "Chiziqcha ko'ying" degan bo'yruq beriladi deb ogohlantiriladi.Buyruq berilgan paytda qaysi harfga kelgan bo'lsangiz shu harf ustiga chiziqcha qo'yishingiz zarur deb uqtiriladi.

3. Asosiy tajribadan sinov tajribadan farqli o'laroq 8-10 daqiqa davom etadi. Ikkinci, to'rtinci va oltinci daqi qalarda qo'shimcha qo'zg'ovchi ham, (masalan qalam bilan stolga bir maromda urish orqali ishga solinadi. Asosiy tajriba tugagach, natija quyidagicha tartibda ishlab chiqiladi:

1. Asosiy tajribaning har bir minuti bo'yicha quyidagicha ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

a) o'chirilishi lozim bo'lgan harflarning umumiyl soni;.

b) ulardan o'chirilmay qolgan yoki noto'g'ri o'chirilgan harflarning miqdori.

2. Mazkur ko'rsatkichlarning 1,3,5,7, va 2,4,6,8, minutlar bo'yicha jami.

Diqqatning birinchi, uchinchi, beshinchi va ikkinchi, to'rtinci, oltinci, sakkizinch barqarorlik darajasi xisoblab chiqiladi. Buning uchun dastlab to'g'ri o'chirilgan harflar soni ayirib tashlanadi va har bir minutda ko'zdan kechirilgan matndagi o'chirilishi kerak bo'lgan harflarga nisbatan to'g'ri o'chirilgan belgilar foizi (%) hisoblab chiqiladi. Natija (% foiz hisobida) diqqatning

quyidagi barqarorlik normasiga asoslanib ko'rsatilishi mumkin.

Eng yaxshi ko'rsatkich	-81-100
Yaxshi ko'rsatkich	- 61 - 81
UO'rtacha ko'rsatkich	- 41 - 61
Past ko'rsatkkich	- 21-40

Diqqatning barqarorligini aniqlashda sinaluvchiga qo'shimcha qo'zg'ovchi orqali ta'sir ko'rsatilgan ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlardagi ko'rsatkich, ayniqsa, xarakterli hisoblanadi. (Tajriba "Praktikum po psixologii" Leningrad, 1970, kitobidan olinadi).

#### *Topshiriq 4.*

Diqqatning ko'chishi. Diqqatning ko'chish xususiyatini qora-qizil ranglar yordamida tekshirish.

ZARUR MATERIAL: Qora g'qizil jadval

Qora rang (Satrdagi 1dan 25 gacha va qizil rang satrdagi 1dan 24 gacha) bo'lgan raqamlar logik esda olib qola olinmaydigan qilib, tasodifiy kombinatsiyalarga bo'lingan.

Tajribaning borishi: Sinaluvchiga dastlab (1-seriya) sonlar miqdori ortib boruvchi qora tus satrdagi 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamlarni ko'rsatish taklif qilinadi. Bunga qancha vaqt ketganligi sekundomer yordamida aniqlanadi va sinaluvchining bergan javobi bayonnomaga yozib boriladi. Keyin (2g'seriya) sinaluvchiga sonlar miqdori kamayib boruvchi qizil rang satrdagi 1 dan 24 gacha bo'lgan raqamlarni o'qiydi. Va, nihoyat, sinaluvchiga (3-seriya) qora tus satrda sonlar miqdorining ortib, qizil rang satrda esa kamayib borishini navbatma-navbat ko'rsatish taklif qilinadi. Bayonnomaga yozib boruvchi ish xarakteri va unga ketgan vaqtini hamda yo'l qo'yilgan ba'zi xatolarni hisobga olib boradi.

Topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Bayonnomaga yozib boruvchining yozuvi asosida uchala seriya topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolar quyidagi jadvalga yoziladi.

Ko'rsatkichlar	I -seriya	2-seriya	Birinchi - ikkinchi seriya	3-seriya
Vaqt				
Xatolar				

3-seriyada, garchi 1 va 2-seriyadagi fashshyat turlari aynan bajarilgan bo'lsa-da, bunda sarflangan vaqt dastlabki vaqt mikdoriga teng emas. Har ikki vaqt mikdori orasadagi farq sinaluvchini diqqatining bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi uchun ketgan vaqtini ko'rsatadi.

#### *Topshiriq 1.*

Teri (badan) bilan hamda ushlab ko'rib sezishga tavsifnomha berish.

Topshirk quyidagi tartibda bajariladi. Sinaluvchilarga bir qo'lini eksperimentator tomonga o'zatib, yo'zini o'girib turish taklif qilinadi. Shundan keyin:

- a) sinaluvchining panjalari orqasiga;
- b) sinaluvchining panjalari yostikchalariga;
- v) sinaluvchining kafti orqasiga

kalit, o'chirg'ich kabi buyuilar kuyiladi. Bunday ish bajarilayotgan vaqtida xar doim sinaluvchilarga bir xil: "Bu buyum haqida nimalar ayta olasiz?" degan savollar beriladi. Bugomning qaerga qo'iilgani va sinaluvchilarning javoblarini tajribada ishtirok etayotgan barcha talabalar xar gal o'z daftarlari yozib boradilar. So'ngra, talabaga o'tkazilgan tajribalar asosida sinaluvchilarda xosil bo'lgan alohida-alohida va bir-biridan ajratilgan holdagi ("qandaydir yengil", "yumshoq", "sovuj temir" kabi) sezgilar asosida narsaning o'zini bilish kiyin ekanligini tahlil qilib, tushuntiriladi.

Sinaluvchilarga predmetni panjalari bilan paypaslab ko'rish taklif etiladi. Bunda sinaluvchilarga yukoridagi uch tajribada berilgan savolshardan foydalanish ham mumkin. Sinaluvchilarning aksariyati vazifani bajarishda aniq javoblar aytadilar. Har bir buyum kompleks qitiklovchi bo'lib xisoblanadi. Uni idrok kilinayotganda faqat teri sezgilarini ishtirok etib qolmay, kinestetik analizatorlar ham qatnashadilar.

#### *Topshiriq 2.*

Sezgi chegaralarini aniklash.

ASBOB VA MATERIALLAR. Surgichli va ko‘z bilan o‘lhash chizg‘ichi (Petrov chizg‘ichi... rasm), bayonnomma.

*Bayonnomma*

Tajriba ko‘rsatkichlari	Tajribalar	
	1	2
Berilgan		
Sinaluvchining		
Ko‘rsatkichi		
Xatolari		
O‘rtacha xato		
Farq chegarasi		

Ishning bajarilish usuli. Sinaluvchi ko‘z bilan o‘lhash chizg‘ichi ro‘parasiga 2-5 metr masofaga o‘tkaziladi. Ko‘z bilan o‘lhash chizg‘ichining shkalasi eksperimentator tomonga karatilgan bo‘ladi.

*Ishning borishi.* Eksperimentator bir tomondagi surgachni o‘rtadagi belgidan ma’lum bir masofaga surib qo‘yadi, ikkinchi tomondashsini esa, ancha o‘zoqroqqa surib qo‘yadi. So‘ngra sinaluvchidan surgichni o‘rtadagi belgiga nisbatan "ko‘z bilan chamalab" tenglashtirish taklif qshshnadi. Shundan keyin eksperimentator surgichni asta-sekin ikkinchi tomondagiga tenglashtirish uchun sura boshlaydi. Sinaluvchiga har ikki surgich orasidagi masofa tenglashgandek bulib ko‘ringach, ishni to‘xtatish uqtiriladi. Ishning natijasi bayonnomaning "sinaluvchining ko‘rsatkichi" grafasiga sinaluvchi tomonidan yozib ko‘yiladi.

Tajriba tamom bo‘lgach, eksperimentator tajribada sinash uchun belgilab olingan masofaning o‘zunligini e’lon qiladi. Bu raqamlar bayonnomaning "berilgan" deb yozilgan grafasiga qayd etiladi. *Tajribaning yakuni.* Bunda sinaluvchi sezgirlik chegarasining farqlari hamma ma’lumotlar to‘shshangan umumiy bayonnomaga yozib qo‘yiladi va sinaluvchiga oraliqlarni kanchalik aniqlay olganligi va uning bu soxadagi sezgirligi kanchalik rivojlanganligi aytib beriladi. Bunday eksperimentni yakka tartibda va jamaa bo‘lib o‘tkazish mumkin.

Hamma ma’lumotlar to‘planadi.

Sinaluvchi	Farq chegarasi
1.	
2.	
3.	
4.	

## II. MAVZU: «IDROK» Topshiriq 1.

*Idroknning xususiyati.* Tajribani o'tkazish uchun 5-6 buyum (o'chirg'ich, bo'r, paxta, halqa, otvyorka, knopka) zarur bo'ladi. Tajribada istagan talaba qatnashishi mumkin. Boshqa talaba esa ("kotiba") sinaluvchining bergen ma'lumotlarini quyidagi jadvalga yozib boradi.

№	Buyum	Sinaluvchining javobi		
		1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich
1.				
2.				
3.				

Sinaluvchi auditoriyaga o'girilib turib ko'zini yumadi. Qo'llarini astga karatib oldinga o'zatadi va yo'zini yon tomonga buradi.

Tajribaning 1-bosqichi: o'qituvchi buyumlarni auditoriyada o'tirganlarning hammasiga (sinaluvchidan tashqari) ko'rsatadi. So'ngra eksperiment uchun tanlab olingan buyumlar sinaluvchining kafti orqasiga ketma-ket qo'yilib, xar gal iima qo'yilgani to'g'risida so'rab boriladi.

Tajribaning 2-bosqichi xam tajribaning birinchi bosqichidagidek davom ettiriladi, ammo buyuomlar kaft ustiga qo'yiladi. (Bunda eksperimentator sinaluvchining qo'l bilan biron harakat qilishiga yo'l ko'yayi.).

Tajribaning 2-bosqichi ham tajribaning birinchisidagidek bajariladi, endi talaba buyumni paypaslab (silab) ko'rishiga ijozat beriladi. Tajribaning bu bosqichini amalga oshirishdan oldin kotiba-talaba ishga kirishadi - sinaluvchining birinchi va ikkinchi tajriba bosqichlaridagi bergen javoblarini o'qib beradi.

Tajribalar natijalari asosida quyidagicha xulosa chiqariladi.

1. Bizning sezuvchi a'zolarimizga narsalarning ta'siri natijasida sezgi va idrok xosil bo'ladi.
2. Sezgilarda narsalarningayrim jihatlari va sifatlari aks etadi.
3. Idrok - borliqni bizning ongimizda bir butun buyum shaklida aks etishidan iboratdir.
4. Idrokni sezgilar yig'indisi deb bo'lmaydi. Idrokda narsalarning sifagliari orasidagi farqlar, u bilan muomala, shaxsning o'tmish tajribasi hamda narsalarning konturi katta rol o'ynaydi.

## Topshiriq 2.

Narsa konturining taktil va ko'rish idroklari uchun ahamiyati. Tajribani o'tkazish uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

a) temir yoki qattiq kartondan o'tkir va o'tmas qirrali qilib yasalgan bir necha trafaret (... rasmga qarang);

b) mazkur trafaretlarning qalin qog'ozga tushirilgan rasmlari.

Tajriba 4-5 talaba ishtirokida o'tkaziladi. Har bir talaba bilan o'tkaziladigan tajriba ikki bosqichdan iborat bo'ladi.

Tajribaning 1-bosqichi: sinaluvchi qog'oz va qalam qo'yib qo'yilgan stol yoniga o'tiradi. Qo'llarini stop tagiga o'zatadi. Uning ko'liga tayyorlangan trafaret beriladi (u trafaretga karamasligi kerak). U trafaretni asta paypaslab (silab) ko'radi, xolos. Sinovchi sinaluvchining qo'lidan trafaretni qaytib oladi va oldida turgan qog'ozga uning shaklini chizishini aytadi. Rasm chizib bo'lingach, uni olib kuyiladi.

Tajribaning 2-bosqichi. Sinaluvchiga tajribaning birinchi bosqichida chizdirilgan rasm - trafaret ko'rsatiladi. Bir minutdan so'ng rasmni olib qo'yib, toza qog'ozga ko'rsatilgan figuraning

rasmini chizib berish taklif qilinadi. Tajribaing borishi quyidagi bayonnomaga qayd etib boriladi.

Aks etish Xusu-siyati	Taktil-motor sezgilarida aks etishi		Ko‘rish sezgilarida aks etishi	
	Rasmning xususiyati	Sinaluvchi xatti- xarakatining xususiyati	Rasmning xususiyati	Sinaluvchi xatti- harakatining xususiyati
1.				
2.				

Tajriba natijasi taxlil qilinib, xulosalar chiqariladi.

1. Narsalarning taktil-motor va ko‘rib idrok qilishdagi asosiy vazifani ular konturlariningto‘g‘ri aks etishi o‘ynaydi.
2. Shu narsalarni taktil-motor idrok qilishda sinaluvchining xatti-harakat va qiliklari ham muhim o‘rin tutadi.
3. Ko‘rish va teri orqali bilish idroklari davomida sinaluvchilarning individual xususiyatlari ko‘rinib qoladi.

## 2-TAJRIBA

Ixtiyorsiz esga tushirish va o’zoq muddatga esda saqlash

*Instruksiya:* 2 juft gap o‘qiladi.

*Ijuft:* Mening ukam matabda o‘qydi.

Men matabda o‘qishni hohlayman.

*II juft:* U menga og‘ayni emas, shunchaki tanish.

Tanish bo‘limganda o‘zim bilardim.

*Vazifa:* Endi xuddi shu qoida asosida ikki juft jumla to’zing. (Gapiring, eshittirib yozish mumkin emas).

*Tekshirish:* Kefingi darsda. Men o‘qib bergan jumlalarni yozing. Qancha so‘z eslab qolibsiz? O‘zingiz to’zgan jumladan-chi?

*Xulosa:* Materialni o’zoq muddatga esda qoldirish uchun uning mazmunini tushunib olish zarurdir.

## 3-TAJRIBA

*Ma’nosiga tushunib idrok qilishning xotiradagi roli.*

*Instruksiya:* Oldingizga daftar ochib, unga 1-dan 15 gacha nomer qo‘ying. Men juft so‘zlar o‘qiyman. Eslab qolishga harakat qiling. Keyin men birinchi qator so‘zlarni o‘qiyman. Siz uning yonidagi so‘zni eslab yozing.

Seriya “A” (Bir-biriga bog‘langan so‘zlar)

- |                          |                        |
|--------------------------|------------------------|
| 1. Qo‘g‘irchoq – o‘ynash | 9. xo‘roz - qichqirish |
| 2. tovuq – tuxum         | 10. siyox – daftar     |
| 3. pichoq – kesish       | 11. sigir - sut        |
| 4. ot – arava            | 12. paravoz - yurish   |
| 5. kitob – o‘qituvchi    | 13. olma - sharbat     |
| 6. kapalak – pashsha     | 14. lampa – kechqurun  |
| 7. cho‘tka – tish        | 15. qor - qish         |

## 8. baraban - musiqachi

Seriya “B”(Bir-biriga bog‘lanmagan so‘zlar)

- |                        |                      |
|------------------------|----------------------|
| 1. qo‘ng‘iz – kreslo   | 9. botinka - samovar |
| 2. tarsher – piyola    | 10. grafin - tuqli   |
| 3. kompas – kley       | 11. gugurt - chorva  |
| 4. shiqildoq – otishma | 12. tarelka - daryo  |
| 5. sandiq - bolg‘a     | 13. do‘ppi - asalari |
| 6. daftar – tramvay    | 14. baliq - alanga   |
| 7. sukunat – divan     | 15. arra - quymoq    |
| 8. xaskash - shamol    |                      |

Tajriba natijasi quyidagi jadval asosida tahlil qilinadi

<i>Bir-biriga bog‘langan so‘zlar</i>		<i>Bir-biriga bog‘lanmagan so‘zlar</i>	
<i>I-qator so‘zlar</i>	<i>II-qator so‘zlar</i>	<i>I-qator so‘zlar</i>	<i>II-qator so‘zlar</i>

*Tekshirish:* uchun “B” seriyadagi so‘zlar yaxshi eslanmadi? Siz ikkinchi seriyadagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga harakat qildingizmi?

*Intruksiya:* Eksperimentator 15 qator I-II nchi qatorini 5 sek. Pao’za bilan o‘qiydi. 10 sekunddan so‘ng I qatorning birinchi bo‘limi o‘qiladi. Talabalar ikkinchi qator so‘zlardan esga tushganini yozadilar.

*Tekshirish va xulosa:* Bir-biriga bog‘langan so‘zlar bir-biriga bog‘lanmagan so‘zlarga nisbatan esda yaxshi olib qolinadi.

## *II MASHG‘ULOT* *TAJRIBA*

*Xotira jarayonida turli assotsiatsiyalarning ahamiyati.*

*Maperial (50 juft so‘z)*

- |                           |                         |
|---------------------------|-------------------------|
| 1. barmoq - tirnoq        | 26. bosh - soch         |
| 2. lolaqizg‘aldoq - qizil | 27. ko‘mir - qora       |
| 3. cho‘l - qo‘ng‘iroq     | 28. gugurt - ochlik     |
| 4. maktab - tanbeh        | 29. shirin - achchiq    |
| 5. shamol -bo‘ron         | 30. yomg‘ir - loy       |
| 6. soat - strelka         | 31. shahar - ko‘cha     |
| 7. qand - shirin          | 32. g‘ildirak - yumaloq |
| 8. deraza - harf          | 33. qalin - olomon      |
| 9. baland - past          | 34. mukofot - nafrat    |
| 10. porox - portlash      | 35. quyosh - yorug‘lik  |
| 11. ko‘z - qorachig‘      | 36. poezd - vagon       |
| 12. o‘t - yashil          | 37. bo‘tako‘z - zangor  |
| 13. meva - sham           | 37. tutun - qoida       |
| 14. mukofot - jazo        | 39. o‘zun - kalta       |
| 15. ayoz - sovuq          | 40. ish - charchash     |
| 16. kitob - sahifa        | 41. institut - audit    |
| 17. ustara - o‘tkir       | 42. pat – yengil        |
| 18. daftar - yelkan       | 43. papiros - abaju     |
| 19. yorug‘ - qorongu      | 44. mardlik - qo‘rqoq   |
| 20. yoz — issiq           | 45. o‘qish - bilim      |
| 21. uy - tom              | 46. qo‘l - kaft         |

22. qor - oppoq	47. yo‘l - o’zoq
23. devor - chiroq	48. parovoz - simyog‘och
24. sukunat - harakat	49. sovuq - issiq
25. zahar – o‘lim	50. yara - og‘riq

Butun bo‘lak: № 1, 6,11,16, 21, 26, 31,36, 41, 46;

Predmet xususiyat: № 2, 7,12,17, 22, 27, 32, 37, 42, 47;

Odatdan tashqari birikma: № 3,8,13,18,23,28,33,38,43,48;

Kontrast: № 4, 9,14,19,24,29,34,39,44, 49;

Sabab-oqibat: № 5,10,15,20,25,30,35,40,45,50;

*Instruksiya:* Daftaringizga 1 dan 50 gacha tartib nomerlari kuiib chiqing. Men sizlarga 50 juft so‘zlarni bir marta o‘qib beraman. So‘ng men birinchi so‘zlarni o‘kib beraman, siz esa tegishli nomeraga ikkinchi so‘zlarni yozib borishingiz kerak.

*Tekshirish:* Men juft so‘zlarning ikkinchisini o‘kiyman. Agar siz ikkinchi so‘zni to‘g‘ri yozgan bo‘lsangiz, unda "+" qo‘iing, noto‘g‘ri yoki umuman yozmagai bo‘lsangiz, unda "-" qo‘ying.

*Hisoblash:* Har bir so‘z birikmasi bo‘yicha (bugun bo‘lsa, predmet, xususiyat...) tajribada ishtirok etgan barcha so‘zlar uchun o‘rtacha arifmetik miqdor hisoblab chiqiladi.

*Xulosa:* Material yaxshi esda olib qolinishi uchun, avval voqelikdagi ob’ektiv aloqalarni aniq va to‘la aks ettiradigan bog‘lanishlar tizimini tanlab olish kerak.

### *P TAJRIBA*

*Xotiraning tanlanish xarakteri.*

*Material.*

1. muhabbat	6. judolik	11. imtihon	16. stipendiya
2. gugurt	7. kurak	12. sovuq	17. karam
3. uchrashuv	8. kasallik	13. do‘stlik	18. ko‘rinish
4. tokcha	9. doska	14. mix	19. quvur
5. maktab	10. sessiya	15. devor	20. g‘isht

*Instruksiya:* Men sizlarga bir necha so‘zlar o‘kib beraman. Ularni qanday esda olib qolganingazni bir marta o‘qiganimdan so‘ng tekshirib ko‘raman.

O‘qib bo‘lib, esda olib kolgan so‘zlariningizni yozib ko‘ying.

*Tekshirish:* Sekin-asta o‘qing va to‘g‘ri esga tushirgan so‘zlariningizga “+” qo‘yib chiqing.


*Hisoblash:* Guruhdagi 20 so‘zdan qanchasi esga tushurilganligi hisoblab chiqiladi. Qaysi so‘zlar boshqalaridan ko‘ra yaxshiroq esda olib qolindi? Nima uchun?


*Xulosa:* Hamma so‘z xam birdek esda yaxshi qolmaydi. Emotsional kuchli yoki ahamiyatli materiallar yaxshi esda olib qolinadi.




(Tajribalar B.Mamajonov va boshqalarning "Umumiy psixologiyadan amaliy ishlar" kitobidan olingan).

## TARQATMA MATERIALLAR

1-ilova







## BAHOLASH MEZONLARI

### NAZORAT TURLARINI O`TKAZISH TARTIBI

#### **1. Oraliq nazoratni o`tkazish tartibi:**

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida quyidagi shakllarda o`tkaziladi. Oraliq nazorat 2 marta olinadi

- og'zaki so'rov; -1-2,-semestr.
- test sinovlari o`tkazish; -1,2-semestr.

#### **2. Yakuniy nazoratni o`tkazish tartibi:**

Ushbu nazorat turi auditoriyada potok yoki akademik guruhning barcha talabalari ishtirokida “Yozma ish” tartibida o`tkaziladi. Ja'mi variantlar soni 25 ta, har bir variant 5 ta masaladan iborat.

- test sinovlari o`tkazish; 1-2,-semestr.

### **Talabalar bilimini baholash mezonlari**

D) Talabalarning bilimi kuyidagi mezonlar asosida:

1.talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi,-1

2.ijodiy fikrlay oladi, -1

3.mustaqil mushoxada yuritadi, -1

4.olgan bilimini amalda ko'llay oladi, -1

5.fanning (mavzuning) moxiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi-1

Jami: - 5 (ahlo) baho bilan baholanadi;

E)

1.talaba mustaqil mushohada yuritadi,

2. olgan bilimini amalda qo'llay oladi,

3.fanning (mavzuning) moxiyatni tushunadi, bilada, ifodalay oladi, aytib beradi

4.fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda-

Jami:- 4 (yaxshi) baho bilan baholanadi;

F)

1.talaba olgan bilimini amalda ko'llay oladi,

2.fanning (mavzuning) moxiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi

3.fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi –

Lami: - 3 (qo'niqarli) baho bilan baholanadi;

D)

1.talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, -1

2.fanning (mavzuning) moxiyatini tushunmaydi -1

3.fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda -1

Jami: - 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

## ПСИХОАНАЛИЗ

- Асосий ғояси: шахс ривожланишининг манбаси инстинктларга, яъни жинсий майлларга боғлиқ.
- Шахс структураси: ид, эго, супер-эго
- Шахснинг ривожланиш босқичлари: Орал, анал, фаллик, латент, генитал  
Асосий терапевтик усули: эркин ассоциациялар, тушларни таҳлил этиш

## Аналитик психология (К.Г.Юнг)

- Либидо шахс маънавий оламининг бошланғич бўғини, шахс ривожланиши болалиқда эмас, етуклиқ ёшида юз беради.
- Шахс структураси: онглик ва онгсизлик элементларидан иборат, тана ва ўзлик шахс яхлит тузилма
- Эго, персон, соя (тень), анима ва анимус
- Шахсий онгсизлик (анима ва анимус, ва соя)
- Коллектив онгсизлик (архитиплардан иборат),
- Онг

## Индивидуал психология (А.Адлер)

- Шахснинг ҳаёт мазмани белгилайди.
- Шахс структураси ягонадир, у мукаммаликка интилиш орқали натижаларга эришади.
- Адлер установкаларни тўрт установкага ажратади: бошқарувчи, олувчи, қочувчи ва социал фойдали.
- Номукамаллик: танадаги номукамаллик , агрессив майллар, ўйланмаган финализм, шахснинг бирлиги, турмуш тарзи, биринчи хотира.
- Хато ва соғлом турмуш тарзи

## Шахслараро анализ (Карен Хорни )

- Гояси фрейд психоанализига мос келади.
- Базал безовталик ва базал туғмалик
- Учта шахслараро ориентация:  
ёнберувчи шахс, агрессив шахс,  
обособленная личность
-

## Шахснинг бихевиористик назариялари

- Б.Ф.Скиннер: радикал бихевиоризм,
- Артур Старатс: психологик бихевиоризм.
- Кўникманинг психоаналитик назарияси
- (Доллард ва Н.Миллер)
- Когнитив социал ўқув (В.Мишёл,  
А.Бандура)